

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

KARRIYEVA.Y.K.

INNOVATSION LOGISTIKA

Darslik

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

**Ikkinchi nashr
TOSHKENT – 2021**

UO‘K:
KBK

**Karriyeva Ya.K. “Innovatsion logistika”. Darslik –T.:
«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
– 2021, 266 bet.**

ISBN 978-9943-7628-4-8

Ushbu darslikdagi mavzular “Innovatsion logistika” fanining maqsadi va vazifalari, innovatsion faoliyatning mohiyati va turlari, logistik innovatsion faoliyatning zamonaviy kontseptsiyalari kabi masalalarni kredit modul tizimida yoritishga qaratilgan.

Shu bilan birga mazkur darslikda logistik innovatsion faoliyati nfratuzilmasi va logistikani innovatsion yo‘nalishlar orqali rivojlantirish, logistik innovatsion jarayonlarni boshqarish modellari va qonuniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Logistik innovatsion faoliyatni boshqarish uslubiyoti, innovatsion jarayonning chiziqli modelini va uni joriy qilish shartlarini, ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning asoslarini va bu borada davlatning olib borayotgan iqtisodiy siyosatini chuqur o‘rganish hozirgi kunda dolzarb masalalar jumlasidan bo‘lganligi sababli darslikda mazkur maslalarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Logistik xizmatlarni raqamli amalga oshirish, ilmiy texnik taraqqiyoti asosida boshqarishning mohiyati va uning bosh maqsadi O‘zbekistonning milliy innovatsion tizimi, logistik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi kabi muhim yo‘nalishlar yoritilgan.

Shu jihatdan logistik innovatsion sohada mehnat resurslarini boshqarish mexanizmi, innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini baholash, zamonaviy logistik innovatsion strategiyalar va innovatsiyalar marketingiga oid muammolar ham ushbu darslikda o‘rganildi.

Darslik kredit modul tizimi bo‘yicha tayyorlangan namunaviy o‘quv dasturi asosida yaratilgan bo‘lib, oliy o‘quv yurti talabalari, magistrleri, ilmiy xodim-izlanuvchilar va o‘qituvchilar hamda shu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K:
KBK

Taqrizchilar:

Kamalova E.A – PhD., dots.

Irisbekova M.N – I.f.d., prof.

ISBN 978-9943-7628-4-8

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

O‘zbekistonda oxirgi yillarda innovatsion faoliyatni shiddat bilan rivojlantirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi.

2017-2021-yillar davomida innovatsion faoliyatning ilmiy-texnologik bazasini takomillashtirish va moliyalashtirish, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar ko‘rildi, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilindi, ishlab chiqarish innovatsiyasini mahalliydashirish dasturlari amalga oshirildi.

“2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”ning¹ uchinchi ustuvor yo‘nalishida xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan aktiv investitsiya siyosatini olib borish, transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash borasida alohida vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda yangi texnologiyalar hayotimizni keskin ravishda o‘zgartirib yubormoqda. Yo‘llar asrlar davomida insonlarga savdo-sotiq, madaniy, iqtisodiy-siyosiy aloqalar va tadbirkorlikni ta‘minlab, yuzlab yillar oldin bo‘lgani kabi bugungi kunda ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shahar qanchalik aqlli bo‘lmasin yo‘l tarmog‘i samarasiz bo‘lsa, uning barcha tarkibiy qismlari to‘liq foydalanishi mumkin bo‘lmaydi. Yo‘llar avtomobillar harakatlanishi uchun o‘ta noqulay bo‘lsa, shahar aholisi tirbandliklar tufayli har yili ishlab chiqarishda ulkan yo‘qotishlarni boshidan kechiradi.

Ushbu muammolarni hal qilish, “aqlli shahar” texnologiyasini qo‘llashni taqozo etadi. Raqamli yo‘l tarmog‘i ma‘lumotlarini to‘plashni tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Harakatlanuvchi qismlarning ko‘pligi katta miqdordagi ma‘lumotlarni vujudga keltiradi va dasturiy- apparat ta‘minotiga bo‘lgan ehtiyojni oshishiga olib keladi. Shuningdek, shahar miqyosida transport harakatini samarali boshqarish va yo‘l harakat hodisalar(YHH) sonini kamaytirishdan

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi’’O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida’’PF-4947-son farmoni

tortib, yo‘l harakati qoida buzarlklarini oldini olish bilan bog‘liq yechilishi zarur bo‘lgan ko‘plab masalalar bor.

Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirish” yili deb e‘lon qilindi va bunda, aynan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, mamlakatimizga investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatni oshirish, buni uchun esa logistikani rivojlantirish masalalarini ko‘ndalang qilib qo‘yildi². Bu esa o‘z o‘rnida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, inson taraqqiyoti darajasini o‘stirish, mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi. Shu bois ham talabalarga logistika tamoyillarini, xususan tadbirkorlik faoliyatida logistika elementlarini qo‘llashni, eksport yuklarni saqlash, yuklash, rasmiylashtirish va yetkazib berishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullarini qo‘llash dolzarb masalalardandir.

2018-yil esa “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalarni va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlangan edi va Davlat Dasturi asosida O‘zbekistonda 11 trillion 200 milliard so‘mlik va 1 milliard 300 million dollarlik loyixalarni amal oshirilgan.

Bu esa o‘z o‘rnida innovatsiyalarning mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini rivojlantirish, inson taraqqiyoti darajasini oshirish, mehnat unumdorligini o‘stirishdagi hissasi to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishi bo‘yicha to‘la miqyosli o‘rta va uzoq muddatga ega bo‘lgan strategiyali davlat innovatsion siyosatini ishlab chiqishni yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki innovatsion logistikaning mohiyati, asosiy mexanizmi logistik operatsiyalarni amalga oshirish yo‘llarini, ya’ni ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g‘oyalar va ishlanmalarni yaratish, o‘zlashtirish va tadbiq etishga qaratilgan jarayonlarni tahlil qilish, innovatsion jarayon modellari va qonuniyatlari, ilmiy-texnika taraqqiyotini boshqarishning asoslarini belgilab beradi.

Shu bois ham talabalarga intellektual mulkini shakllantirish, ilmiy-texnik ishlanmalarni ishlab chiqish kabi masalalarni, xususan tadbirkorlik faoliyatida innovatsion logistika elementlarini qo‘llashni, eksport yuklarni saqlash, yuklash, rasmiylashtirish va yetkazib berishda

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Konstitutsiyaning 26 yilligiga bag‘ishlangan ma‘ruzasi.”Xalq So‘zi” gazetasi, 05.12.2018-yil, № 103.

yangi g'oya va texnologiyalardan foydalanish usullarini qo'llash o'qitish dolzarb masalalar jumlasidan bo'lib turibdi.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2019 yil 25-27 aprel kunlari Shanxay Hamkorlik Tashkilotining "Bir yo'l, bir belbog'" Xalqaro Sammitidagi ma'ruzasida O'zbekistonni yagona "Bir yo'l, bir belbog'" tizimiga integratsiyalashuvi to'g'risida atroflicha gapirdi. Shuningdek, Prezident SH.M.Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitidagi ma'ruzasida ... " Bizning nazari-mizda, mamlakatlarimizni innovatsion asosda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bugungi kunda biz axborot kommunikatsiya yutuqlari, ilg'or texnologiyalar hayotga shiddat bilan kirib kelatyogan va barcha sohalarda keng qo'llanilayotganligini ko'rib turibmiz. Har qanday davlatning uzoq istiqbolda ham raqobatbardosh bo'lishi va barqaror taraqqiyoti aynan shu omillarga bog'liq. Shu munosabat bilan biz ushbu yo'nalishdagi dastur-loyihalarni amalga oshirish maqsadida, inovatsion taraqqiyot uchun ma'sul idoralar, ilmiy tadqiqot markazlari va venchur kompaniyalarimiz o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirishni taklif etamiz", -deb ta'kidlab o'tganliklari e'tiborli bo'ldi.³

2018-yil 22 sentyabrdagi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida "Mintaqaning tranzit va logistika mahalliy klaster salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasini ilg'or rivojlantirishni ta'minlash zarur" deb ta'kidladilar.

Shulardan kelib chiqib "Innovatsion logistika" fani bo'yicha darslik yaratilishidan maqsad iqtisodiy yo'nalishdagi Oliy Ta'lim Muassasalarida mazkur yo'nalish bo'yicha bilim darajasini oshirishga ijobiy yondoshishdir.

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши саммитидаги маърузасидан. "Халқ сўзи" газетаси, 04.09.2018-йил, № 182. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим йўналишлари"га бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси, Халқ сўзи, 2017 йил 21-январ сони

1-MODUL. LOGISTIK NAZARIYA

1-MAVZU. INNOVATSION LOGISTIKA FANIGA KIRISH

- 1.1. Logistikaning asosiy tushunchalari va kontseptsiyasi
- 1.2. Innovatsion logistika fanini o‘qitishning maqsadi va vazifalari
- 1.3. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida innovatsion logistik faoliyatning mohiyati, turlari va uning kontseptsiyalari
- 1.4. Innovatsion faoliyat infratuzilmasi va innovatsion logistikani rivojlantirish

«Logistika» atamasi chet el va milliy adabiyotlarda turlicha ta’riflanadi. «Logistika» so‘zi inglizcha logistics so‘zidan olingan bo‘lib, «hisoblash san’ati», «hisoblash, fikrlash san’ati» degan ma’noni anglatadi. Bizlargacha logistika tushunchasining ikkita ta’rifi yetib kelgan: Leybnits asarlarida bu atama matematik logikani belgilash uchun qo‘llanilgan; xarbiy sohada esa logistika qo‘shinlarni boshqarish san’atini bildirgan holda, u qo‘shinlarni moddiy-texnik va transport ta’minoti hamda joylashuvini boshqarishni o‘z ichiga olgan. Bugungi kunda logistikani fan, jarayon, kontseptsiya va boshqaruv vositasi sifatida ta’riflash mumkin.

Logistika nisbatan yosh fan hisoblanib, uning ko‘pgina tushuncha va atamalari hozirgicha aniqlanish jarayonida, shu bilan birga logistika tushunchasiga ham o‘zgartirishlar kiritildi.

Logistika – iqtisodiy tizimdagi moddiy va ular bilan bog‘liq bo‘lgan axborot, moliyaviy va xizmat ko‘rsatish oqimlarini, ularning paydo bo‘lish joyidan iste’mol joyigacha bo‘lgan harakatini, tizim maqsadlariga erishish va resurslarni optimal sarflash uchun boshqarishdir.

Logistika 1950-yillarda shakllana boshlagan, ammo bu degani logistikaga xos bo‘lgan jarayonlar iqtisodiy faoliyatda amalga oshirilmagan degani emas. Ular tarqoq, hech qanday boshqaruv kontseptsiyasiga bo‘ysunmagan holda amalga oshirilgan.

Logistika rivojlanishida bir qancha bosqichlarni belgilash mumkin.

1-bosqich, xarid, omborxon va distributsiya sohalaridagi mustaqil va fragmentar hatti-harakatlarni alohida ajratish bilan tavsiflangan.

Rivojlanishning ushbu bosqichi qator manbalarda «fragmentatsiya» davri deb ham ataladi. Ayrim logistik operatsiyalar xarajatlarning ayrim tarkibiy qismlarini kamaytirish nuqtai nazaridan muhim boʻlgan, misol uchun, tashishda, omborxonalar operatsiyalarini bajarishda, ishlab chiqarishda. Korxonani boshqarishning asosiy kontseptsiyasi boʻlib, hozirgi menedjment tushunchasi xizmat qilgan.

2-bosqich, logistikani yaratilishi yoki kontseptualizatsiyasi (aynan shu paytda uning asosiy kontseptsiyalari shakllangan) davri deb ataladi. Logistika rivojlanishiga esa quyidagilar katta taʼsir koʻrsatgan:

- marketing falsafasining keng tarqalishi, isteʼmolchilarga boʻlgan eʼtiborning kuchayishi, savdo faoliyati muhimligini anglab yetish, buyurtma tsiklining qisqarishi;

- iqtisodiy tushkunlik, bozordagi vaziyatning oʻzgarishi, bozorning asta-sekin toʻyinishi, oligopolistik raqobatning oʻsishi. Ushbu sharoitlarda xarajatlarni kamaytirishning yangi yoʻllarini izlash lozim edi;

- zaxiralarni shakllantirish strategiyalaridagi oʻzgarishlar (ularni ishlab chiqarishda kamaytirish, distributsiyada - yaratish);

- optimal rejalashtirish, ommaviy xizmat koʻrsatish, zaxiralarni boshqarish iqtisodiy-matematik usullari va nazariyalari, hamda operatsiyalarni oʻrganishning boshqa usullari, matematik statistika va prognoz qilish usullarini har tomonlama qoʻllash imkoniyatini taqdim etgan kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi;

- xarbiy logistika tajribalarini, logistik hatti-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun menedjmentda qoʻllanilishi.

Bozorni tovar va xizmatlar bilan toʻyinishi, va taklifning talabdan oshib ketishi sharoitida, korxonalarni boshqarishning asosiy kontseptsiyasi sifatida *marketing* xizmat qila boshladi.

3 va 4 bosqichlar. Uchinchi bosqich—bu korxonada logistik faoliyat integratsiyasi davri (1970 yilning oxiri va 1980 yilning boshi). Toʻrtinchi—1990 yillardan hozirgi vaqtgacha—logistikaning korxonalar chegaralaridan tashqariga chiqishi, u davlatlar va butun dunyo miqyosidagi jarayonlarni qamrab olishni boshladi.

Logistika rivojlanishining ayrim bosqichlarini davomiyligi toʻgʻrisida yagona bir fikr yoʻqligiga qaramasdan, fragmentatsiya, qisman integratsiya, korxonalar logistikasining funktsional sohalari integratsiyasi, yetkazib berishlar zanjiri doirasidagi toʻliq integratsiya

bosqichlarini ajratish mumkin. Qisqacha ushbu bosqichlar tavsiflangan (1.1-jadval; 1.1-rasm).

Iqtisodiyotda ro'y bergan o'zgarishlar natijasida, logistika butun korxonada miqyosida oqimlarni boshqarish sifatida ta'riflanib boshlandi, barcha logistik operatsiyalar va funktsiyalar esa–biznes maqsadlariga erishish uchun integratsiyalandi. 1980 yillardan boshlab, logistik kontseptsiya korxonada boshqaruvning asosiy kontseptsiyasiga aylandi.

Logistika evolyutsiyasi, uning fundamental kontseptsiyalari bilan yaqindan bog'langan. Logistikada «kontseptsiya» ikkita ma'noga ega: 1) kontseptsiya–boshqaruv g'oyasi; 2) logistik texnologiya–muayyan logistik g'oyani aks ettiruvchi, logistik jarayonlarni bajarilishining standart ketma-ketligi.

Birinchi ma'noda logistik kontseptsiyalar bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- axborot;
- marketing;
- integratsiyalashuv

Logistikada tadqiqot va boshqaruv obyekti sifatida moddiy va unga yo'ldosh bo'lgan servis, axborot va moliyaviy oqimlar xizmat qiladi.⁴

Adabiyotlarda oqim tushunchasining bir nechta ta'rifi mavjud, ammo ko'pgina olimlarning fikricha, **oqim** – bir butun deb qabul qilinadigan, biror vaqt intervalida jarayon sifatida mavjud bo'ladigan, muayyan vaqt davomida absolyut birliklarda o'lchanadigan obyektlar yig'indisidir.

Moddiy oqim – logistik operatsiyalar va funktsiyalar qo'llaniladigan, harakatda bo'lgan material resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot.

Moddiy oqim ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- mahsulot nomenklaturasi, assortimenti va miqdori;
- o'lcham tavsiflari (hajm, maydon, chiziqli o'lchamlari);
- vazn tavsiflari (umumiy vazni, brutto vazn, netto vazn);
- fizik-kimyoviy xususiyatlari;
- qadoq tavsiflari;

⁴ Г.А. Саматов Б.И. Камилъджанов Ф.Р. Галимова Логистик Бошқарув Концепциялари ва моделлари тошкент 2015

- tashish va saqlash shartlari;
- qiymat tavsiflari va h.

Servis oqimi – logistik tizimda korxonaga nisbatan ichki va tashqi iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun bajariladigan xizmatlar oqimi.

Moliyaviy oqim – moddiy, servis va axborot oqimlari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy resurslarning yo'naltirilgan harakati.

Axborot oqimi – moddiy yoki servis oqimiga yo'ldosh bo'lgan, og'zaki, hujjat (shu jumladan elektron ham) va boshqa shakllardagi xabarlar oqimi.

Asosiy va yo'ldosh oqimlarni boshqarish maqsadida logistik tizimlar tashkil etiladi. **Logistik tizim (LT)**–moddiy, servis va ularga yo'ldosh oqimlarni boshqarishning yagona jarayonida o'zaro bog'langan elementlar-bo'g'inlardan tashkil topgan, murakkab tuzimlashtirilgan tuzilma.

1.1-jadval

Logistika evolyutsiyasi variantlari

Yillar	Logistika evolyutsiyasi variantlari			
	J. J. Coyle, E. J. Bardi, S. J. Langley	Ch. Skovronek, 3. Sariush- Volskiy	A. M. Gadjinskiy	V. I. Sergeev
1920- 1940 1950	-	Hatti-harakatlar fragmentatsiyasi	-	Hatti-harakatlar fragmentatsiyasi
1960	Hatti- harakatlar fragmentatsi- yasi	Qisman integratsiya (jismoniy taqsimot, moddiy menedjment)	Transport- ombor faoliyatining integratsiyasi	Logistikaning tiklanishi (kontseptualizatsi- ya, qisman integratsiya)
1970	-		-	Logistikaning rivojlanishi (qisman integratsiya)
1980	Qisman integratsiya (jismoniy taqsimot,	Korxonada logistik faoliyat integratsiyasi	Ishlab chiqa- rish, ombor, transport faoliyatining	Korxonada logistikasining funktsional sohalari

	moddiy menedjment)		integratsiyasi	integratsiyasi
1990	Logistik yetkazib berishlar zanjiri doirasidagi to'liq integratsiya	Logistikaning korxonadan chegaralaridan tashqariga chiqishi. Makrologistika, global logistika	Logistika funksional sohalarining integratsiyasi	Yetkazib berishlar zanjiri doirasidagi integratsiya
Hozirgi vaqt				

1-bosqich (fragmentatsiya)	2-bosqich (qisman integratsiya)	3-bosqich (korxonadan doirasidagi integratsiya)	4-bosqich (tyliq integratsiya)
1920(?) - 1950 yillar. - talabni prognoz qilish - Ehtiyojlarni rejalashtirish - Xaridlarni amalga oshirish - zaxiralar nazorati - Transport faoliyati - Omborxonalar operatsiyalari - Qadoqlash sanoati - Saqlash - Mijozlar buyurtmalari bilan ishlash - Tayyor mahsulot zaxiralarini boshqarish - Tashish - Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish	1960-1970 yillar Logistik boshqaruv kontseptsiyalarining shakllanishi - Materiallarga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish va ta'minotini rejalashtirish - Xarid manbasini tanlash - Zaxiralarni boshqarish - Omborxonalar operatsiyalari - Ichki va tashqi tashish - Distributsiya marketing faoliyatining tarkibiy qismi sifatida	1980 yillar - Transport faoliyatining davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar - Axborot-kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi - Sifatning umumiy boshqarilishi falsafasining tarqalishi - Hamkorlikning o'sishi - Bozorning globallashuvi	1990 yillar – hozirgi vaqt - Makrologistika - Yevrologistika - Global logistika - Logistik jarayonlarni boshqarishda kompyuter texnologiyalaridan ommaviy tarzda foydalanish - Logistik xizmatlar autorsingining rivojlanishi - Butun yetkazib berish zanjiri bo'yicha sifatning majmuaviy nazorati - Yangi logistik kontseptsiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Menedjment	Marketing	Logistika
Korxonadan boshqaruvining asosiy kontseptsiyasi		

1.1-rasm. Logistika evolyutsiyasi


Logistik tizim bo'g'ini (LTB) – logistik faoliyatning bir yoki bir nechta turini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan, o'z lokal maqsadini amalga oshiruvchi, iqtisodiy yoki funksional alohida ajralgan obyekt (kompaniya bo'limi yoki mustaqil yuridik korxonadan). Bitta logistik tizim bo'g'inlari, logistik jarayonni yagona boshqarish bilan o'zaro birlashgan bo'ladi. Logistik tizim bo'g'inlari bo'lib yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va logistik

vositachilar xizmat qilishi mumkin. Sanoat yoki savdo korxonalarida odatda markaziy kompaniya deb atalsa, ularga nisbatan birinchi va ikkinchi tomonlar bo‘lib yetkazib beruvchilar va iste‘molchilar e‘tirof etiladigan bo‘lsa, uchinchi tomon sifatida (*Third Party Logistics, 3 PL*) – logistik vositachilar chiqadi.

Logistik tizimlarni mikro-makrologistik tizimlarga ajratish qabul qilingan. Sanoat, savdo, servis va boshqa korxonalarining logistik tizimlari mikrologistik tizimlarga mansub. Makrologistik tizimlar – bu tuman, shahar, mintaqaviy, milliy, xalqaro, hamda tarmoq, muassasa, tarmoqlararo va h. logistik tizimlardir.

Logistik faoliyat jarayonida, oqimlar ko‘rsatkichlarining o‘zgari-shiga olib keladigan va qo‘yilgan boshqaruv vazifalari doirasida ajra-tishga yo‘l qo‘yilmaydigan hatti-harakatlar bajariladi, va ular **logistik operatsiyalar (LO)** deb ataladi.

Logistik tizimlarning uchta turi farqlanadi: a) to‘g‘ri aloqali tizimlar; b) eshelon sifatidagi tizimlar; v) egiluvchan aloqali tizimlar. (1.2-rasm)



1.2-rasm. Logistik tizimlarning turlari

Logistik funktsiya (LF) – korxonada logistikasi samaradorligini va boshqarilish darajasini oshirish maqsadida ajratilgan, logistik operatsiyalar yig‘indisidir. Logistik funksiyalar bo‘lib buyurtmalar jarayonini boshqarish, tashish, zaxiralarni boshqarish, ishlab chiqarish faoliyati uchun moddiy resurslarni xarid qilish, ishlab chiqarish

jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, omborga qo‘yish, yuklarni qayta ishlash, mahsulot qaytarilishiga yordam berish va hoqazolar xizmat qiladi.

Logistikaning funktsional sohalari sifatida ta‘minot, ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va taqsimotni e‘tirof etish mumkin.

Logistikaning turli funktsional sohaslarida, hamda ayrim logistik funktsiyalarni bajaranda yechiladigan asosiy vazifalar 1.2-jadvalda keltirilgan.

Bunda logistikaning asosiy funktsional sohalari, logistik tizimdan o‘tuvchi oqimlarning turlari, hamda korxonalar logistikasining har bir sohasida bajariladigan asosiy logistik funktsiyalar ko‘rsatilgan (1.2-jadval).

Logistik tizim tushunchasi bilan bir qatorda, logistik zanjir yoki yetkazib berishlar zanjiri (*Logistical chainsupply chain*), logistik tarmoq va logistik kanal (*Logisticalchannel*) tushunchalari ham muhim sanaladi.

1.2-jadval

Logistika sohaslarining va logistik funktsiyalarni bajarishning maqsad va vazifalari

Logistik funktsiya yoki logistika sohasining nomi	Maqsad va vazifalar
Funktsional soha ta‘minot	<p>Maqsad – ishlab chiqarishning moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini mumkin bo‘lgan maksimal samaradorlik bilan qondirish</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash • xaridlar bozorini tadqiq etish • yetkazib beruvchilarni baholash va tanlash • xaridlarni amalga oshirish • xaridlar amalga oshirilishini nazorat qilish va baholash • xaridlar budjetini tayyorlash • boshqa vazifalar

<p>Funksional soha – taqsimot (taqsimot logistikasi; savdo logistikasi, distributsiya va jismoniy taqsimot) (<i>Physical distribution</i>)</p>	<p>Maqsad – logistik funksiyalar va tayyor mahsulot hamda unga xizmat ko‘rsatishni ishlab chiqaruvchilardan yoki ulgurji savdo kompaniyalaridan so‘nggi yoki oraliq iste‘molchilargacha bo‘lgan harakatlanishi operatsiyalarini integratsiyalashgan boshqaruvi</p> <p><i>Mikrodarajadagi vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • buyurtmani qabul qilish va qayta ishlashni tashkil etish • qadoq turi, komplektatsiya va h. tanlash • yetkazib berishni tashkil etish va tashishni nazorat qilish • sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatishni tashkil etish <p><i>Makrodarajadagi vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • taqsimot tizimini (taqsimot kanallarini) tanlash va barpo etish • xizmat ko‘rsatilayotgan hududdagi omborxonalarining optimal sonini aniqlash • xizmat ko‘rsatilayotgan hududda taqsimot markazlari (omborxonalar)ning optimal joylashuvini aniqlash
<p>Funksional soha – ishlab chiqarish operatsiyalarini boshqarish (<i>Operation management</i>)</p>	<p>Maqsad–ishlab chiqarish operatsiyalarini boshqarishni logistik yordam bilan ta‘minlash</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • tayyor mahsulot (TM) chiqarishni tezkor-kalendar rejalashtirish • ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini tezkor boshqarish • umumiy sifat nazorati, standartlar va tegishli servisni uzluksiz ta‘minlash • moddiy resurslar (MR) yetkazib berishni strategik va tezkor rejalashtirish • ichki ishlab chiqarish ombor xo‘jaligini tashkil etish • ishlab chiqarishda MR xarajatini prognozlash, rejalashtirish va me‘yorlashtirish • ichki ishlab chiqarish texnologik transporti ishini tashkil etish • barcha pog‘onalarda MR, tugallanmagan ishlab chiqarish (TICH), TM zaxiralarini boshqarish • MR va TMni jismoniy taqsimlash (ishlab chiqarish ichida) va boshqalar

Logistik funksiya omborxonaga qo'yish	<p>– Omborxonada tarmog'ini shakllantirish, omborxonada xo'jaligini samarali faoliyati va omborxonada logistik jarayonni boshqarish jarayonlarini qamrab oladi</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • omborxonada turini tanlash, omborxonada quvvatini hisoblash • omborga qo'yish tizimini tanlash • ta'minot va taqsimotda talab va taklifni tenglashtirish • yuklarni birlashtirish, ajratish va tashish • omborxonada logistik jarayonni boshqarishni tashkil etish va ta'minlash • omborxonada saqlash va yuklarni qayta ishlashni tashkil etish va b.
Logistik funksiya zaxiralarni boshqarish	<p>– Korxonada biznesining turli sohalarini zaxiralarga nisbatan, ayrim xollarda qarama-qarshi bo'lgan, maqsadlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • xaridlarda tejash (chegirmalar hisobiga) • tashish xarajatlarini qisqartirish • ishlab chiqarish va taqsimot uzluksizligini ta'minlash • talabning mavsumiy o'zgarishlarini hisobga olish • logistik servis sifatini yaxshilash • boshqalar
Logistik funksiya tashish	<p>– Ortish-tushirish, ekspeditorlik va boshqa logistik operatsiyalar jarayonlarining yig'indisi</p> <p><i>Vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • transport jarayoni ishtirokchilarining texnik va texnologik bog'liqligini ta'minlash, ularning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish, hamda omborxonaga qo'yishning yagona tizimlaridan foydalanish • transport tizimlarini yaratish (shu jumladan transport yo'laklari va transport zanjirlarini ham) • transport-ombor xo'jaligining texnologik birligini ta'minlash • ishlab chiqarish, transport va omborxonada jarayonlarini birgalikda rejalashtirish • transport vositasi (TV) turini tanlash • yetkazib berishning ratsional yo'nalishini aniqlash • tashuvchi va ekspeditorni tanlash

Ushbu bosqichlarning har biri vaqt talab qiladi. Bosqichlarning davomiyligi va logistik tsiklning umumiy vaqti vaqtinchalik o‘zgarishlarga ega bo‘lishi mumkin (1.2-jadval).

Logistikaning evolyutsiyasi va kontseptsiyalari. Logistika fan sifatida 1950-chi yillarda shakllana boshladi, ammo logistika uchun tavsifiy bo‘lgan jarayonlar undan oldin ham xo‘jalik faoliyatida qo‘llanilib, ular tarqoq holda, hech qanday logistik boshqaruv kontseptsiyasiz amalga oshirilgan. Logistikaning rivojlanishida bir nechta bosqichni belgilash mumkin.

1-bosqich xaridlar, omborga qo‘yish, distributsiya sohalaridagi mustaqil va fragmentar hatti-harakatlarning alohida ajralishi bilan tavsiflanadi. Rivojlanishning mazkur bosqichi qator manbalarda “fragmentatsiya” davri deb ham ataladi. Ayrim logistik operatsiyalar xarajatlar tarkibiy qismlarini pasaytirish nuqtai nazaridan muhim edi, masalan, tashishda, ombor operatsiyalarini bajarishda, ishlab chiqarishda. Korxonada boshqaruvining asosiy kontseptsiyasi sifatida zamonaviy ma‘nodagi an‘anaviy menedjment xizmat qilgan.

Ko‘rib chiqilayotgan davr shunisi bilan muhimki, unda logistikani kelajakda joriy etishning dastlabki shartlari ifodalaniib, ulardan eng muhimi marketing kontseptsiyasining yuzaga kelishi hisoblanadi. Bundan tashqari dastlabki shartlarga: taqsimot tizimlarida zaxiralar va transport xarajatlarning oshishi; harbiy logistika nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi kiritilishi mumkin.

Logistika kontseptsiyalari rivojlanishining boshlang‘ich bosqichi tavsiflariga nisbatan umumiy yondashuv bo‘lishiga qaramasdan, tadqiqotchilar⁵ bosqichning vaqt chegaralari bo‘yicha turlicha fikrga egalar. Shunday ekan, [42] asar mualliflari logistik hatti-harakatlar fragmentatsiyasi bosqichiga 1960-chi yillarni ko‘rsatishsa, [33] 1950-chi yillarni ko‘rsatgan, [32] esa logistika rivojlanishining birinchi bosqichi 1920-1950 chi yillarga to‘g‘ri keladi deb hisoblaydi. [17] manbada logistika evolyutsiyasi ayrim bosqichlarning vaqt chegarasini ko‘rsatmagan holda ko‘rib chiqilgan.

⁵ Сергеев В.И. Менеджмент в бизнес-логистике. – М.: Филинь, 1997. – 772 с.; Сковронец Ч., Сариуш-Вольский З. Логистика на предприятии: Учеб.-метод. пособ. / Пер. с польск. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 400 с.; Coyle John J., Bardi Edward J., Langlay John Jr. The Management of Business Logistics. A. Supply Chain Perspective, 7-e – South-Western devise of Thomson Harming, 2003.

2-bosqich logistikaning shakllanishi va kontseptuallasuvi davri deb ataladi. Aynan shu davrda uning asosiy kontseptsiyalari shakllangan.

Bozorning tovar va xizmatlar bilan to'yinganligi, hamda taklifning talabdan oshib ketishi sharoitlarida, marketing korxonalar boshqaruvining asosiy kontseptsiyasiga aylangan.

Mazkur bosqich, logistik faoliyatning ikkita asosiy yo'nalishi bilan tavsiflanadi. Birinchisi – bu korxonalar boshqaruvining marketing kontseptsiyasiga asoslangan bo'lib, tovarlarning jismoniy taqsimotini o'z ichiga oladi. Logistika tovarlarni kerak bo'lgan muddatda, kerak bo'lgan joyga, buyurtma qilingan miqdorda va raqobatdosh narxni ta'minlovchi eng kam xarajatlar bilan yetkazib bergan holda, korxonaning marketing hatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Logistik faoliyatning ikkinchi yo'nalishi – materiallarni boshqarish bo'lib, u ta'minot, zaxiralarni boshqarish, hamda ishlab chiqarish faoliyati sohalarini qamrab olgan.

Ikkinchi bosqich ham aniq belgilangan chegaralarga ega emas. [32] asarda ikkinchi bosqich bu 1960-chi yillar, [33]da 1960-chi yillar va 1970-chi yillarning boshi, [41]da esa 1980-chi yillar tilga olingan. So'nggi asarda esa 1970-chi yillar logistika evolyutsiyasidan umuman tushib qoldirilgan. Mumkin, ushbu yillar o'tish davri sanalgan holda ham birinchi, ham ikkinchi davrga teng tegishli deb tushunish mumkin.

1960-chi yillarda logistik menejment bo'yicha birinchi darslik Edvard Smaykey, Donald Bauersoks va Frenk Mossmanlar muallifligida yozilgan [36].

3 va 4 – bosqichlar bo'yicha logistika rivojlanishining keyingi bosqichlari to'g'risidagi tadqiqotchilarning fikri bir-biridan farqlanadi. Shunday ekan [42] asarda faqatgina uchinchi bosqich alohida ajratilgan – to'liq integratsiya davri (1990-chi yillar), yetkazib berishlar zanjirlarini boshqarish kontseptsiyasining rivojlanishi. [33] asar mualliflari logistika rivojlanishining uchinchi va to'rtinchi bosqichlarini ajratadi. Uchinchi bosqich – bu logistik faoliyatni korxonalarga integratsiyasi davri (1970-chi yillarning oxiri – 1980-chi yillar). To'rtinchi bosqich – 1990-chi yillardan boshlab, to hozirgi kunga qadar – logistikaning korxonalar chegaralaridan chiqib ketishi

davri, u mamlakat va butun dunyo miqyosidagi harakatlanish jarayonlarini qamrab olishni boshladi.

Logistika evolyutsiyasi bo'yicha ayrim qarashlar jadvalda keltirilgan. Logistika rivojlanishining ayrim bosqichlari davomiyligi to'g'risida yagona fikr yo'qligiga qaramasdan, fragmentatsiya, qisman integratsiya, korxonalar logistikasining funktsional sohalari integratsiyasi, yetkazib berishlar zanjirlari doirasidagi to'liq integratsiya bosqichlarini ajratib o'tish mumkin.

Har bir bosqich doirasida iqtisodiyotda o'zgarishlar ro'y berib, ular logistika evolyutsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Masalan, 1970-chi yillarda omborxonalar texnologiyalari va jarayonlarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, avtomatlashtirish vositalari joriy etildi, qadoq va o'rash materiallarining yangi turlari paydo bo'ldi, standartlashtirilgan qadoq va o'rash materiallari qo'llanila boshladi, konteynerlar va paketlar yordamida tashishlar joriy etildi. 1970-chi yillarda yaponiyalik ishlab chiqaruvchilar bozordan amerikalik va yevropalik ishlab chiqaruvchilarni siqib chiqara boshladilar. Sifatni boshqarish falsafasi va amaliy faoliyatga joriy qilingan logistik kontseptsiyalari tufayli, yapon kompaniyalari yuqori natijalarni qayd etdilar.

Qisman integratsiya bosqichi korxonalar boqarishning *marketing* kontseptsiyasi "ta'siri" ostida bo'ladi.

1980-chi yillarda jahon iqtisodiyotida katta o'zgarishlar ro'y berib, ular logistikaning muvoffaqiyatli rivojlanishida o'z aksini topdi. Ularning asosiylari quyidagilar [2, 11, 32, 36]:

1) transport faoliyatini davlat tomonidan boshqarishdagi o'zgarishlar, natijada transport xizmatlarining erkin raqobat bozori shakllandi, transport servisini yaxshilash, turli xil transportlarning ishini muvofiqlashtirish, transport tariflarini pasaytirish uchun sharoitlar yaratildi;

2) kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotning rivojlanishi, shaxsiy kompyuterlarning joriy etilishi;

3) sifatni umumiy boshqarish falsafasining tarqalishi – boshqaruv yondashuvi, bunda sifatni oshirish masalasi qo'yiladi va uni hal qilishga mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlashning barcha bosqichlaridagi korxonalar xodimlari jalb qilinadi;

4) hamkorlik amaliyoti, ishonchsizlik va adovatli raqobat o'rniga korxonalar birlashmalari va ittifoqlari paydo bo'ldi;

5) bozorning globallashuvi yuzaga keldi. Ko'pgina kompaniyalar xalqaro tuzilmalarga aylanadilar, butun dunyo bo'ylab yangi bozorlarga kirib borish yuz berdi. Aksariyat hollarda kompaniyalar shunday global strategiyalarni amalga oshiradiki, ularning doirasida nisbatan arzon ish kuchi, xomashyo, tarkibiy qismlarga ega joylarda jahon bozori uchun mahsulot ishlab chiqarishni yo'l ochiladi.

Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar natijasida, logistika butun korxonamiqyosidagi oqimlarni boshqarish sifatida ko'riladi, logistik operatsiyalar va funktsiyalar – biznes maqsadlariga erishish uchun integratsiya qilinadi. 1980-chi yillardan boshlab, korxonaboshqaruvining asosiy kontseptsiyasi logistik tamoyillar bo'ldi.

Barcha funktsional sohalari integratsiyalashgan logistik tizimni shakllantirish yetarlicha uzoq vaqtni talab qiladi. Shunday ekan, [2] asarda belgilanganidek, korxonalar logistik tizimlarining rivojlanishi, to'rtta ketma-ket rivojlanish bosqichidan (darajadan) o'tadi. *Birinchi bosqichda* logistika tayyor mahsulotni omborga qo'yish va tashishga tegishli bo'ladi. Ushbu funktsiyalar, talabning kundalik tebranishlari va mahsulotni taqsimlash jarayonidagi to'xtashlarga bevosita javob qaytarish tamoyili bo'yicha bajariladi.

Ikkinchi bosqichda logistika, buyurtmachilarga xizmat ko'rsatish, buyurtmalarni qayta ishlash, omborga qo'yish, tayyor mahsulot zaxiralarini boshqarish, tashish funktsiyalarini o'z ichiga oladi, ya'ni tayyor mahsulotni taqsimlashdagi barcha logistik funktsiyalar integratsiyalashadi.

Uchinchi bosqichda, oldingi bosqichda erishilgan natijalarga, korxonaga xomashyo va materiallarni yetkazish, savdoni prognoz qilish, materiallar zaxiralarini va tugallanmagan ishlab chiqarishni boshqarish, xomashyo va materiallarni xarid qilish, logistik tizimlarni loyihalashtirish qo'shiladi. Korxonadagi logistik faoliyatni baholash, sifat standartlari bilan taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqichda logistikaning barcha funktsional sohalari integratsiya qilinadi. Korxonalar, turli mamlakatlar qonunlarini hisobga olgan holda, faoliyatning global darajasiga chiqadi; logistika bojxona operatsiyalarini ham qamrab oladi, yagona hujjatlashtirish joriy qilinadi, uchinchi tomonga (logistik vositachilarga) bo'lgan ehtiyoj kuchayadi.

Hozirgi kunda logistika evolyutsiyasi o'z nihoyasiga yetmagan. 1990-chi yillarni boshidan to hozirgi kunga qadar, logistikadagi

integratsiya jarayonlarining rivojlanishi davom etib, ular alohida korxonalar doirasidan chiqib ketdi. Oqimlarni boshqarish milliy, mintaqaviy va global darajada (masalan, yevrologistika deb atalmish jarayon) amalga oshirilmoqda. Shuningdek, logistika rivojlanishining to'rtinchi bosqichi, institutsional tuzilmalar va xo'jalik subyektlarining yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi, ular faoliyatining bosh predmeti bo'lib esa logistik xizmatlarning to'liq majmuasini amalga oshirish xizmat qiladi. Bunday kompaniyalar, logistik xizmatlar provayderlari deb ataladi (3PL-provayderlar) va ularga, asosan noishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan, barcha logistik funktsiyalar yoki ularning bir qismi beriladi. Integratsiya jarayonlarining rivojlanishi bilan logistik outsorsingning yana bir varianti va provayderlarning yangi turi – 4PL-provayderlar (*Fourth Party Logistics Providers*) – yuzaga keladi. Ular kompaniya logistik zanjiriga nisbatan to'liq va batafsil yechimni ta'minlagan holda, butun logistik zanjir integratorlari bo'lib xizmat qiladi va nafaqat o'z resurslari, imkoniyatlari va texnologiyalaridan, balki qo'shimcha xizmatlar yetkazib beruvchilarning resurslaridan ham istagancha foydalanadi. 4PL-provayder logistik zanjirlarni strategik boshqarish va strategik qarorlarni amalga oshirish va bajarish masalalarini tezkor boshqarishni o'zida mujassamlaydi, ya'ni ham konsalting kompaniyasi, ham 3PL-provayder funktsiyalarini bajaradi.

Logistika evolyutsiyasi uning fundamental kontseptsiyalari bilan yaqindan bog'langan. Logistikada "kontseptsiya" tushunchasi ikkita ma'noni anglatadi: 1) kontseptsiya - paradigma, boshqaruvchi g'oya sifatida; 2) logistik texnologiya – muayyan logistik paradigmani mujassamlantiruvchi logistik jarayonni bajarishning standart ketma-ketligi.

Birinchi ma'nodagi logistik kontseptsiyalar quyidagicha bo'lishi mumkin [16, 32]:

- axborot;
- marketing;
- integratsiyalashgan.

Axborot logistik kontseptsiyasi 1960-chi yillarning oxirida yuzaga keldi va axborot-kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq. Ushbu kontseptsiyaning asosiy e'tibori rejalashtirish, moddiy resurslarni xarid qilish, ishlab chiqarish, taqsimlash va shu kabi funktsiyalarni bajariladigan aniq vazifalarga qaratilgan.

Axborot kontseptsiyasini qo‘llashning amaliy misollari sifatida keng tarqalgan tizimlar, axborot-dasturiy modullar va texnologiyalarni keltirish mumkin.

Marketing logistika kontseptsiyasi 1980-chi yillarning boshidan boshlab, mahsulotni taqsimlashdagi qarorlarni optimallashtirish hisobiga raqobatdoshlikni ta‘minlovchi logistik tizimni barpo etish uchun qo‘llanilgan. Distributsiyada keng qo‘llaniladigan logistik kontseptsiyalardan (texnologiyalardan) biri *DDT (Demand-driven Techniques /Logistics)* – talabga yo‘naltirilgan logistika. Ushbu kontseptsiya bir necha variantlarga ega bo‘lib, *QR, CR* va b.lar shular jumlasidandir.

So‘nggi o‘n yillikda yuzaga kelgan, integratsiyalashgan logistika kontseptsiyasi, biznesning integratsiyalashgan tuzilmasida asosiy va yo‘ldosh oqimlarni yoppasiga boshqarish uchun qo‘llanila boshladi: “loyihalashtirish-xaridlar-ishlab chiqarish-taqsimot-savdo-servis” [16].

TQM (Total Quality Management) – sifatni umumiy boshqarish – vaqt ichida uzluksiz rivojlanayotgan kontseptsiya, takomillashish chegaralari yo‘qligida raqobatdosh sifatni belgilab beradi.

ISO 9000 standartlari va *TQM* kontseptsiyasi o‘rtasidagi nisbatni 1.6-jadval shaklida ko‘rsatish mumkin.

JIT (Just-in-time) – alohida funktsional sohada logistik tizimni barpo etish yoki logistik jarayonni tashkil etish kontseptsiyasi (texnologiyasi) bo‘lib, u moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotni zaruriy miqdorda, zarur bo‘lgan joyga va aniq belgilangan muddatga yetkazib berishni ta‘minlaydi. “Aniq muddatga” kontseptsiyasini qo‘llash zaxiralarni pasaytirish, ishlab chiqarish va omborxonalarini qisqartirish, mahsulotlar sifatini oshirish, ishlab chiqarish muddatlarini qisqartirish, uskunalardan samarali foydalanish, noishlab chiqarish operatsiyalari sonini kamaytirish imkonini beradi.⁶

⁶ Г.А. Саматов Б.И. Камильджанов Ф.Р. Галимова Логистик Бошқарув Концепциялари ва моделлари тошкент 2015

ISO 9000 va TQM muhim tarkibiy qismlarini taqqoslash [32]

ISO 9000 standartlari	TQM kontseptsiyasi
Sifatni boshqarishning texnik jihatlariga e'tiborini qaratgan	Iste'molchilarga o'z e'tiborini qaratgan
Korporativ strategiya bilan integratsiya qilinmagan	Marketing va logistik strategiyalar bilan integratsiya qilingan
Texnik protseduralar va yo'riqnomalarga e'tiborini qaratgan	Falsafa, logistik operatsiyalar, vositalarga o'z e'tiborini qaratgan
Sifat boshqaruviga ishchilarning barcha kategoriyalarini jalb qilishni nazarda tutmaydi	Sifatni boshqarishga korxonaning barcha xodimlarini jalb qilishga urg'u beradi
Standartlarning mazkur seriyasi doirasida keyinchalik yaxshilanishlarni nazarda tutmaydi	Sifatni to'xtovsiz yaxshilanishini nazarda tutadi
Muassasalarga ajratilgan holda bo'lishi mumkin	Muassasa, korxonalar va funktsiyalarining keng doirasi uchun qo'llanilishi mumkin
Sifat bo'limi sifat uchun javobgar	Sifat uchun har bir xodim javobgar

An'anaviy yondashuvga asoslangan boshqaruv va *JIT* kontseptsiyasiga asoslangan boshqaruvni taqqoslash 1.7-jadvalda keltirilgan.

Boshqaruvga nisbatan an'anaviy yondashuv va "aniq muddatga" kontseptsiyasini taqqoslash [17]

Taqqoslash parametri	An'anaviy yondashuv	<i>JIT</i> kontseptsiyasi
Sifat va xarajatlar	Eng kichik xarajatlar bilan "yaroqli sifat"	Hech qanday nuqsonsiz, oliy sifat
Zaxiralar	Yirik partiyalarni xarid qilish, ishlab chiqarish miqyosi hisobiga tejash, rezerv zaxiralarni yaratish hisobiga katta zaxiralar mavjudligi	Yetkazib berishlarning ishonchli va uzluksiz oqimi mavjudligidagi, zaxiralarning kichik darajasi
Egiluvchanlik	Buyurtma bajarishning uzoq muddatlari, mini-	Buyurtmalarni qisqa muddatda bajarish, xa-

	mal egiluvchanlik	ridorga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan yuqori egiluvchanlik
Tashish	"Xizmat ko'rsatishning yaroqli darajasini" saqlab qolgan holda, eng kichik xarajatlar	Xizmat ko'rsatishning barcha darajalaridagi mutloq ishonchlik
Tijoratchi va tashuvchi o'zaro munosabatlari	Muzokaralar "antagonistik" shaklda amalga oshiriladi	Hamkorlik o'zaro munosabatlari
Yetkazib beruvchilar / tijoratchilar soni	Ko'p; bitta manbaga bog'liq bo'lishni istamaslik	Chegaralangan; uzoq muddatli ochiq munosabatlar
Tijoratchi / tashuvchi bilan aloqa	Minimal; yashirin axborot mavjudligi, aloqa ustidan qattiq nazorat	Ochiq shaklda; axborotning erkin almashinuvi, muammolarni birgalikda yechish
Umumiy yondashuv	Xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilganlik	Xaridorga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilganlik

1.2. Innovatsion logistika fanining maqsadi va vazifalari

Mamlakatimizda oxirgi yillarda innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezident Sh.M.Miziyoyevning 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsiya ishlab chiqarishni va barcha sohalarni modernizatsiyalashga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Samarali innovatsion faoliyat nafaqat ishlab chiqarish strategiyasi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishni ham belgilaydi. Innovatsiya deb yangi ko'rinishda mahsulot, tovar, ish, xizmat, uslub yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o'rinlari tashkil etishni, boshqaruvni

yoki tashqi aloqalar o‘rnatilishini o‘zida mujassamlashtirgan innovatsiyaviy faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi.

Innovatsion logistika-bu logistik tizimda moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarishni innovatsiyalar asosida amalga oshirish va rivojlantirishdir.

“**Innovatsion logistika**” fanini o‘qitishdan maqsad– magistratura talabalarida logistik operatsiyalarni bajarishda innovatsion jarayonlarni boshqaruv mexanizmlari bo‘yicha umumiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish, innovatsion fikrlash, ma’lumotlar oqimini qabul qilish va umumlashtirish, shuningdek logistik zanjirda boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi zaruriy ichki resurslarni rivojlantirish bo‘yicha bilimlarni shakllantirish hisoblanadi.

Fanning vazifasi – talabalarda logistik innovatsion faoliyatning mohiyati, roli, asosiy elementlari va bosqichlari bo‘yicha tizimli tushunchalarni shakllantirish, logistik innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mohiyatini ochib berish, intellektual mulk obyektlarini yaratish, huquqiy muhofazasi va himoyasini ta’minlash, ixtiro, kashfiyotlar tizimini tashkil qilish va boshqarish sohasidagi asosiy tushunchalar va ta’riflarni, O‘zbekiston va boshqa davlatlarning logistik jarayoni va innovatsion tizimi hamda shu sohadagi qonunlarni o‘rgatishdan iboratdir.

“**Innovatsion logistika**” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida o‘rganuvchi:

-logistik innovatsion faoliyat kontseptsiyasi, logistik innovatsion faoliyatni boshqarish sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, makro va mikro darajada innovatsiyalarni tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning logistik innovatsion tizimlari va soha bo‘yicha qonunlar, tashkilotlar, ularni tashkil qilish va strukturalari, innovatsion g‘oya egasining huquqi va majburiyatlari, intellektual mulk obyekti, ularni yaratish, huquqiy muhofaza qilish haqida tushunchalarni bilishi kerak;

-talabalar IT uchun dastur va ma’lumotlar bazasi, navigatsion tizim, ixtiro, asosiy tushunchalar, turlari, ixtiro tavsiyanomasi, tarkibi, fan yutuqlari, sanoat namunalari, brend siyosati, ixtiro obyektlarining patent qobiliyati, shartlari va foydali modellarning himoyalanganligi bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak;

- “Innovatsion logistika” fanini o‘zlashtirishda logistik innovatsion faoliyatni, logistik operatsiyalarni amalga oshirish yo‘llarini, ya’ni ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g‘oyalar va ishlanmalarni yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlarni tahlil qila bilishlari zarur.

Shuningdek, transport-logistika, ixtiro, sanoat namunalari, tovar va xizmat belgisi obyektlarining patent qobiliyati, shartlari va foydali modellarning himoyalalanuvchanligi, xalqaro patent tasnifi, patent axboroti, ma’lumotlar ba’zasi, Evropa, AQSh, MDH mamlakatlarining innovatsiya bo‘yicha qonunchiligi va ulardan foydalanish, qiyosiy tahlil o‘tkazish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Ta’kidlash joizki, bir necha yillardan beri innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual mulk huquqini yaratish, ularni muhofaza qilish, huquq egalarining manfaatlarini himoya qilish, respublikamizning sohaga oid xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish, xalqaro shartnomalarga kirish orqali mamlakatimiz mualliflarining huquqlarini butun dunyoda muhofaza qilish kabi muhim masalalar davlat ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab olindi. Hozirgi globallashtirish jarayonlarida “Innovatsion logistika” fanining ahamiyati benihoya kattadir. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk, ixtirolar, yangi kashfiyotlar hamda ularni litsenziyalash va sertifikatsiyalashning o‘rni salmoqlikdir. Chunki, dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin bunyod etilgan ixtiro bu mulk hisoblanib, undan barcha xalqlar foydalanishi mumkin. Bu logistik operatsiyalarni amalga oshirishda ham iihoyatda dolzarblik kasb etadi.

“Innovatsion logistika” fani “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modellari”, “Axborot tizimlari”, “Huquqshunoslik”, “Innovatsion marketing”, “Innovatsion faoliyatni boshqarish” va “Makroiqtisodiyot” kabi fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezident Sh.M.Miziyoyevning 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

farmonimuhim ahamiyat kasb etadi.⁷ Korxonalarining innovatsion jarayonining natijaviyligi jami omillar, ya'ni amalga oshirish sharoiti, resurslar ta'minoti, menejment tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan aniqlanadi. **Innovatsion salohiyat** tushunchasi iqtisodiyot fanida XX asrning so'nggi yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion salohiyat mamlakatning texnika va texnologiyasi yangilanishi, unda ilmiy-texnika rivojlanishi darajasini, diversifikatsiya siyosatining kuchayishini anglatadi. Chunki **iqtisodiy salohiyat** innovatsion salohiyatga qaraganda ancha keng tushuncha bo'lib, u mamlakatdagi ishlab chiqarish salohiyati, resurslar salohiyati, moddiy-mineral salohiyati, qazilma boyliklar salohiyati va boshqalarni qamrab oladi. Innovatsion salohiyatni kuchaytirish katta hajmda investitsiyani jalb etishni talab qiladi. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlar yangi texnika va texnologiyani yaratishga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga YaIMning 9-10% ini sarflaydi. O'zbekistonda esa bu raqam biroz pastroq, ammo respublikamizda intellektual salohiyat boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jihatlari, ya'ni yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.

Korxonaning innovatsion salohiyati elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy oqimlar
- texnik resurslar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy resurslar;
- tashkiliy resurslar;
- kadrlarga oid resurslar;
- ijtimoiy-ruhiy omillar.

Shundan kelib chiqib, korxonalar logistik innovatsion jarayonlarni tashkil etish uchun ixtiyorida quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

⁷Президент Ш.М.Мизиёевнинг 2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони “Халқ сўзи” газетаси, 04.09.2018-йил, № 182.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.,6- сон.70- модда).

– g‘oya va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun etarli pul mablag‘lar;

– yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi;

– yangiliklarni amalga oshirish va uni joriy etish uchun mutaxassis logist xodimlar;

– har qanday innovatsion jarayon asosida yotuvchi originalrasman g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyati.

Intellektual salohiyat xususida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, u innovatsion salohiyatning ajralmas qismidir. Mamlakatda intellektual salohiyat, ya‘ni muhandis va iqtisodchi olimlar, ularning yangilik yaratish imkoniyati qanchalik oshib borsa, shunga qarab innovatsion salohiyat ko‘payib boradi. Korxonada intellektual salohiyati undagi “innovatsion g‘oyalar portfeli” sig‘imi bilan aniqlanadi. Demak, innovatsion g‘oyalar portfeli sig‘imini oshirish esa korxonada innovatsion faollik bilan bog‘liqdir. Innovatsion faollikning mazmun-mohiyati deganda korxonada innovatsion o‘zgarishlarni jadallashtirish tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning xususiyatlaridan biri, korxonalarda yangilikka moyillikdir. Shu sababli innovatsiyani faollashtirish bilan birga uni qabul qilish jarayonlarini o‘rganish ham zarur. Yangilik kiritish doimo foyda keltiravermaydi. Ko‘pincha u noaniqlik bilan bog‘liq bo‘lgani uchun innovatsion faollikda tavakkalchilikka ham e‘tiborni qaratish lozim. Innovatsion salohiyatni oshirish kichik korxonalarni rivojlantirish bilan bog‘liq. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik korxonalar katta korxonalariga qaraganda, 4 barobar ko‘p innovatsiyalar yaratadi yoki ilmiy tadqiqotga kiritilgan har bir dollarga kichik innovatsion korxonalar 2,5 barobar ko‘p mahsulot yaratadilar. Korxonalarda innovatsion salohiyatni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ilmiy-texnik salohiyat (ilmiy darajaga ega xodimlar soni; bir xodimga to‘g‘ri keladigan ratsionalizatorlik takliflar soni; patentlar soni va boshqalar);

- kommertsializatsiya ko‘rsatkichlari (ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmida yangi mahsulot ulushi; litsenziya shartnomalari soni va boshqalar);

- bajarilayotgan ishlarning davomiyligi (innovatsion davrning kattaligi);

- innovatsiyaning boshqarilayotgan tizimi tavsifi (korxonada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish shakllari; yuqori darajadagi rahbarlarning innovatsion loyihalarni amalga oshirishda qatnashishi; innovatsion faoliyatga qatnashuvchilarga erkinlik darajasini ta'minlanishi).

Innovatsion faoliyat maqsadlarni amalga oshirish miqyosi va xususiyatlardan kelib chiqib, innovatsion strategiyani ishlab chiqish mumkin. Innovatsion strategiya korxonaning uzoq muddatga rivojlanishida innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasidir. Innovatsion o'zgarishlar raqobat afzalliklari asosida o'rganilib, quyidagi strategiyalar ishlab chiqiladi:

- differentsiatsiyalash;
- xarajatlarni pasaytirish;
- eng yaxshi qiymat.

Ushbu strategiyalar korxonalarda innovatsiyadan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. Bunda nafaqat yuqorida ko'rsatilgan strategiya uchun, balki korxonaning faoliyatni samarali rivojlantiruvchi jihatlarini tahlil qilish lozim. Masalan, resurs va energiya tejamkorligini ta'minlaydigan texnologiya, behuda xarajatlarni pasaytirish, samarali mehnatni tashkil etish va h.k. Innovatsion salohiyatga xos bo'lgan strategiyalarni o'rganish juda muhim, chunki ishlab chiqarish va biznesni rivojlantirish bir qator tarmoq va sohalarga bog'liqdir. Shu sababdan uchta strategik yo'nalishni ishlab chiqish foydali, birinchidan, jamlangan o'sish strategiyasi, bunda korxonani bir biznes asosida yangi tovar ishlab chiqarish va yangi bozorni egallash; ikkinchidan, integrativ kengaytirish o'sish strategiyasi, ya'ni yangi tuzilmalar asosida qo'shimcha bo'linmalar, sho'ba korxonalarini shakllantirish yoki mulkchilikni rivojlantirish; uchinchidan, diversifikatsiya strategiyasi - ko'p profilli (ixtisosli) biznes strategiyasini rivojlantirish. Ushbu strategiya turlarini amalga oshirishda innovatsion strategiyani hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda innovatsion salohiyatni oshirishda investitsion loyihalarni tuzish va ularni amalga oshirishning o'рни beqiyosdir. Bu borada mustaqillik yillarida yangi-yangi avtomobil, yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi,

Shoʻrtan gaz-kimyó majmuasi, Qoʻngʻirot soda zavodlari ishga tushirildi. Bu zavod va majmualarning barchasi xorijiy davlatlar investitsiyalari bilan birgalikda amalga oshirildi.

Yangi Toshgʻuzor – Boysun – Qumqoʻron temir yoʻli, oʻnlab tekstil majmualar qurildi. Jumladan, investitsion loyihalarda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Frantsiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Rossiya va boshqa davlatlar qatnashdi.

Oʻzbekistonda innovatsion salohiyatni kuchaytirishda ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, yaqin yillardagi innovatsion salohiyatga katta hissasini qoʻshadigan ustuvor yoʻnalishlar quyidagilardan iborat boʻlishi mumkin:

- qoʻshilgan qiymati yuqori boʻlgan tarmoqlar ustuvorligini taʼminlash;
- bandlikni taʼminlash uchun raqobat afzallikka ega boʻlgan fan sigʻimi yuqori boʻlgan tarmoqlarni rivojlantirish;
- eksport tuzilishida tovar diversifikatsiyasini kengaytirish;
- logistik klaster tizimini rivojlantirish.

1.3. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida innovatsion logistik faoliyatning mohiyati, turlari va uning kontseptsiyalari

Innovatsion logistika - bu logistik tizimda moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarishni yangi gʻoyalar, yangi texnologiyalar asosida amalga oshirishni takomillashtirishdir.

Innovatsion logistika logistik operatsiyalarni bajarishda innovatsion jarayonlarni boshqaruv mexanizmlari boʻyicha umumiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish, innovatsion fikrlash, maʼlumotlar oqimini qabul qilish va umumlashtirish, shuningdek logistik zanjirda boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi zaruriy ichki resurslarni rivojlantirish boʻyicha bilimlarni shakllantirishni oʻz ichiga oladi.

Ushbu yoʻnalish logistik innovatsion faoliyatning mohiyati, roli, asosiy elementlari va bosqichlari boʻyicha tizimli tushunchalarni shakllantirish, logistik innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mohiyatini ochib berish, intellektual mulk obyektlarini yaratish, huquqiy muhofazasi va himoyasini taʼminlash, ixtiro, kashfiyotlar tizimini tashkil qilish va boshqarish sohasidagi

asosiy tushunchalar va ta'riflarni, O'zbekiston va boshqa davlatlarning logistik jarayoni va innovatsion tizimi hamda shu sohadagi qonunlarni o'rganadigan sohadir.

Ushbu logistik innovatsion faoliyatni o'rganish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar quyidagilar:

-logistik innovatsion faoliyat kontseptsiyasi, logistik innovatsion faoliyatni boshqarish sohasidagi asosiy tushuncha va atamalar, makro va mikro darajada innovatsiyalarni tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning logistik innovatsion tizimlari va soha bo'yicha qonunlar, tashkilotlar, ularni tashkil qilish va strukturalari, innovatsion g'oya egasining huquqi va majburiyatlari, intellektual mulk obyekti, ularni yaratish, huquqiy muhofaza qilish haqida tushunchalar;

-IT uchun dastur va ma'lumotlar bazasi, navigatsion tizim, ixtiro, 3PL, 4PL, 5PL provayderlar, autsorsing asosiy tushunchalar, turlari, ixtiro tavsiyanomasi, tarkibi, fan yutuqlari, sanoat namunalari, brend siyosati, ixtiro obyektlarining patent qobiliyati, shartlari va foydali modellari;

-innovatsion faoliyatni, logistik operatsiyalarni amalga oshirish yo'llarini, ya'ni ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlarni tahlili.

Shuningdek, transport-logistika, ixtiro, sanoat namunalari, tovar va xizmat belgisi obyektlarining patent qobiliyati, shartlari va foydali modellarning himoyalalanuvchanligi, xalqaro patent tasnifi, patent axboroti, ma'lumotlar bazasi, Evropa, AQSh, MDH mamlakatlarning innovatsiya bo'yicha qonunchiligi va ulardan foydalanish, qiyosiy tahlil o'tkazish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Ta'kidlash joizki, bir necha yillardan beri innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual mulk huquqini yaratish, ularni muhofaza qilish, huquq egalariining manfaatlarini himoya qilish, respublikamizning sohaga oid xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish, xalqaro shartnomalarga kirish orqali mamlakatimiz mualliflarining huquqlarini butun dunyoda muhofaza qilish kabi muhim masalalar davlat ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olindi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida “Innovatsion logistika” fani-ning ahamiyati benihoya kattadir. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk, ixtirolar, yangi kashfiyotlar hamda ularni litsenziyalash va sertifikatsiyalashning o‘rni salmoqlidir. Chunki, dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin bunyod etilgan ixtiro bu mulk hisoblanib, undan barcha xalqlar foydalanishi mumkin. Bu logistik operatsiyalarni amalga oshirishda ham iihoyatda dolzarblik kasb etadi.

Innovatsion faoliyat makon va zamonda mavjudligi, o‘z o‘rniga ega ekanligi sababli iqtisodiyotning muhim obyektlaridan biri hisoblanishi tabiiy hol. Biroq, iqtisodiyotga oid adabiyotlarda innovatsion faoliyatning mazmun va mohiyati, uni tasniflash va tavsiflash asoslari, ushbu faoliyatga doir ma’lumotlarni hisob va hisobotda real aks ettirilganligini tekshirish tartibi yetarlicha ochib berilmagan.

Shu bois ham innovatsion faoliyatning iqtisodiyot obyekti sifatidagi mohiyatiga, uni tasniflash va tavsiflash asoslariga batafsil to‘xtalib o‘tish zarur.

“Innovatsion faoliyat” atamasi negizida, avvalambor, “innovatsiya” so‘zi, ushbu so‘z negizining o‘zida esa “novatsiya” so‘zi yotadi. O‘zbek tili lug‘atiga bu so‘zlar xorijiy tillardan kirib kelgan. Chunonchi, inglizcha “innovation”, ruschasiga “innovatsiya” so‘zi lug‘atlarda “novovedenie”, “novatorstvo” sifatida talqin etilgan. Rus tilida berilgan talqinga ko‘ra bu so‘z o‘zbek tiliga “yangilik kiritish”, “yangi usul”, “kiritilgan yangilik” kabi ma’nolarda o‘girilgan va izohlangan. “Novatsiya”, lotincha “novation” so‘zi rus tilidagi lug‘atlarda “izmenenie”, “obnovlenie”, o‘zbek tili lug‘atlarida esa “o‘zgarish”, “yangilanish” ma’nosida talqin etilgan.

“Innovatsiya” atamasi maxsus lug‘atlarda va adabiyotlarda ham turlicha ta’riflangan hamda izohlangan. Chunonchi, rus tilida chop etilgan “Bolshoy buxgalterskiy slovar”da⁸ innovatsiya atamasiga “texnika va texnologiya avlodini almashtirishni ta’minlash maqsadida iqtisodiyotga mablag‘ kiritish”; “ilmiy-texnik progress yutuqlari natijasi hisoblangan yangi texnika va texnologiya” mazmunlarida ta’rif berilgan.

⁸Большой бухгалтерский словарь. Под редакцией А.Н.Азрилияна. – М.: Институт новой экономики, 2009. С.150.

V.A.Makarenko⁹ tahriri ostida nashr etilgan zamonaviy tushuncha va terminlar lugʻatida “innovatsiya” terminiga yana ham kengroq tavsif berilgan. Lugʻatda “innovatsiya” termini quyidagi mazmunda bayon qilingan: “innovatsiya - bu:

– texnika va texnologiya avlodining almashinuvini taʼminlash maqsadida iqtisodiyotga mablagʻ yoʻnaltirish;

– ilmiy-texnika taraqqiyotining masʼuli boʻlgan yangi texnika, texnologiyadan foydalanish;

– yangi gʻoyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etish;

– individual tushadagi, takrorlanmas, siyosiy dasturlarni amalga oshirish;

– tilshunoslikda yangidan tashkil etish, nisbatan yangi koʻrinish.

Adabiyotlarda innovatsiya atamasiga “yangilanishga qilingan investitsiya”, “yangi jarayon, mahsulot, xizmatlarni amaliy oʻzlashtirish natijasi”, “yangi texnika yoki texnologiyaga, mehnatni tashkil qilishga, xizmat koʻrsatishga, boshqaruvga va boshqa maqsadlarga kiritilgan kapitaldan olingan moddiy hamda nomoddiy mulk” kabi mazmundagi izohlar ham berilgan. Shuningdek, innovatsiyaga yangilikni yaratish, oʻzlashtirish va tarqatish jarayonlari, bu jarayonlarni oʻzida mujassamlashtiruvchi faoliyat sifatida ham taʼriflar berilgan.

Demak, yuqorida keltirilgan taʼriflar, izohlarga asoslanib taʼkidlash joizki, “novatsiya”, “innovatsiya”, “innovatsion faoliyat” har qanday kishilik jamiyatini, uning iqtisodiy-ijtimoiy hayotini ravnaq toptirish uchun amalga oshirilayotgan ishlarni, jarayonlarni, moddiy va nomoddiy koʻrinishdagi yangi yaratilayotgan mulkni ifodalovchi tushunchalardir.

Innovatsiya xoʻjalik yurituvchi subyektlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni, uning moddiy texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi gʻoyalar va ishlanmalarni yaratish, oʻzlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Faoliyat sifatida innovatsiyalarni insoniyat mehnat faoliyatining barcha jabhalarida qoʻllash mumkin, shu jumladan logistika yoʻnalishida ham. Bu faoliyatni yuritish jamiyatda fan-texnika taraqqiyotiga olib keladi.


⁹ Макаренко В.А. Современный словарь. 2 т. –М.: 2010.

Innovatsion faoliyat quyidagi yoʻnalishlardagi yangilikni ixtiro qilish va joriy qilishni oʻzida mujassamlashtiradi:

- yangi mahsulot;
- yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkiliy shakli;
- yangi logistik boshqaruv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning hal etilishi, ularga mos ravishda, yangi moliyaviy dastaklar va tashkiliy tuzilmalar.

Shunday qilib, Respublika miqyosida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan oqilona foydalanish iqtisodiy tarmoqlar va sohalarda innovatsion muhitni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Shu jumladan, innovatsiyalarni turli faoliyatga joriy qilishning eng optimal darajalarini eʼtiborga olgan holda logistik innovatsion faoliyatga quyidagicha taʼrif va tavsiflarni berish mumkin (1.1-rasm).



1.1-rasm. Innovatsiyani iqtisodiy faoliyat sifatida turlari

Logistik innovatsion faoliyat– bu logistik operatsiyalarni amalga oshirishda uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi gʻoyalar va ishlanmalarni yaratish, oʻzlashtirish va tadbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasidir.

Innovatsiya esa amaliyotda qoʻllanilgan va birmuncha samara bergan printsiptial yangi gʻoya hisoblanadi. Maʼlum bir korxonada qoʻllanilib, maʼlum bir samara yoki daromad keltirgan innovatsiya bu ilmiy yoki boshqaruv sohaslarida oldindan maʼlum boʻlgan boʻlishi mumkin. **Bunday innovatsiya ichki yoki lokal innovatsiya** deyiladi.

Tashqi innovatsiya deb shunday innovatsiyalarga aytiladiki, ular butun jamiyat uchun yangi qoʻllanilgan boʻladi, masalan yangi mahsulot, yangi boshqaruv tizimi, yangi qonun, yangi ijtimoiy dastur

va boshqalar. Bunday innovatsiya odatda umumiylik xarakteriga ega bo‘lib, ularga keng dunyo miqyosida qo‘llanilishi bilan xarakterlidir.

Innovatsiyalarning xarakterli jihatlari (belgilari) sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– yangilik (ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy-boshqaruv, logistik boshqaruv, ijtimoiy va hokazo);

– amaliy ahamiyatliligi (fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning rivojlangan darajasida ham innovatsiyani qo‘llanilish mumkinligi);

– tijoratni ahamiyati (bozor iqtisodiyotida qo‘llanilishi, bu innovatsiyani samaradorligining shartidir).

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning tashabbuskori bo‘lib tadbirkor, ya’ni shaxs hisoblanadi, chunki, aynan tadbirkor (shaxs) foydalanish uchun resurslardan oqilona foydalanish yo‘lini izlay boshlaydi.

D.Kondratev¹⁰ farazi bo‘yicha iqtisodiyotning rivojlanishi davrlar, tsikllar yoki to‘lqinlar kabidir, ya’ni to‘lqinlar uzun bo‘lishi mumkin, iqtisodiy rivojlanishning uzoq davri (30-50 yil), qisqasi (3-5 yil) bo‘lishi mumkin. Har qanday to‘lqinning boshlanishi iqtisodiy o‘sish bilan boshlanib, to‘xtashi iqtisodiy pasayish bilan tugaydi.

Agarda iqtisodiy rivojlanish qisqa davrda pasayish bilan tugaganda, uni ishlab chiqarish va texnologiyasida ozgina o‘zgarish yuz beradi, unga ko‘tarilish bilan o‘tib olinsa, uzun to‘lqinlarni, ya’ni uzoq davrli iqtisodiy inqirozlarni bazisli innovatsiya orqali, ya’ni ishlab chiqarish va iqtisodiyot, fan, texnologiyani tubdan o‘zgartirib amalga oshirish mumkin, chunki uzoq davrli iqtisodiy inqirozlar chuqur xarakterga ega bo‘ladi. Innovatsion rivojlanish nazariyasining asoschisi bo‘lib Y.Shumpeter hisoblanadi. Uning nazariyasiga asosan chuqur iqtisodiy inqirozlar bazisli innovatsiyalar asosida bartaraf etiladi, bu holda nafaqat iqtisodiyot o‘zgaradi, balki ijtimoiy rivojlanishda o‘z izini qoldiradi, chunonchi yangi tarkiblar tashkil topadi, yangi mutaxassisliklar tashkil topadi, yangi fanlar, ishlab chiqarishda yangi tarmoqlar tashkil qilinadi, yangi imkoniyatlar yaratiladi. Demak, innovatsiya bu insoniyat rivojlanishi va taraqqiyotining nafaqat iqtisodiy nuqtai-nazaridan, balki aqliy, intellektual nuqtai-nazari bo‘yicha ham rivojlanish majmuidir. **Innovatsiya intellektual mehnat mahsuloti bo‘lib, tsivilizatsiyani rivojlanishiga katta hissa qo‘-**

¹⁰ Д.Кондратьев «Анализ финансовой отчетности». – М.: Финансы и статистика, 2016. С.383.

shadi. Innovatsion imkoniyat yoki quvvat obyekt innovatsion taraqqiyotining oxirgi chegarasidir. Davlatning innovatsion imkoniyatini uch xil usul bilan aniqlash mumkin:


– hududiy (hudud innovatsion imkoniyatining o‘rtacha solishtirma ko‘rsatkichi);

– tarkibiy (xo‘jalik yuritish tarmog‘ining innovatsion imkoniyatini o‘rtacha solishtirma ko‘rsatkichi);

– ijtimoiy (xalq innovatsion imkoniyatining o‘rtacha solishtirma ko‘rsatkichi)¹¹. Ushbu usullarga tayangan holda makon va zamonda innovatsion imkoniyatni quyidagi turlarga ajratish mumkin (1.2-rasm).

– Xalqning innovatsion imkoniyati jamiyatning ilmiy salohiyati va ilmiy yo‘nalishini ifodalaydi, bu o‘z navbatida uni mentaliteti, rivojlanish tarixi, ijtimoiy va siyosiy aspektlarga bog‘liqdir.

– Hududning innovatsion imkoniyati ma‘lum bir hududning rivojlanish chegarasini, imkoniyatlarini aniqlaydi. Ushbu ko‘rsatkich territorial-hududning innovatsion imkoniyatiga kiradi, lekin davlatni hududiy innovatsion siyosatini belgilashda, uni tashkil etishda muhim asos bo‘ladi.



1.2-rasm. Innovatsion imkoniyatning iqtisodiy kategoriya sifatida tasnifi

¹¹ Глушков И.Е., Киселева Т.В. «Бухгалтерский (налоговый, финансовый, управленческий) учёт на современном предприятии». 2 том. – М.: 2004. С.137.

Fanning innovatsion imkoniyati ilmiy sharoitni, ilmiy muhitni yangiliklar va ixtirolar yaratish qobiliyati qanday ekanligi bilan belgilanadi.

Tarmoqning innovatsion imkoniyati bu uni tashkil qilgan korxonalarining oʻrtacha innovatsion imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishning innovatsion imkoniyati ishlab chiqarishni texnik va texnologik imkoniyatlari chegarasini belgilaydigan koʻrsatkichdir. Ishlab chiqarish jarayonida innovatsiya faqat ishlab chiqarish innovatsion imkoniyati talab darajasiga mos kelganda, talab qilinganda qoʻllanishi mumkin. Aks holda korxonaning innovatsion imkoniyati darajasini koʻtarish uchun qayta jihozlash, uskunalarni yangilash lozim boʻladi.


Korxonaning innovatsion imkoniyati ishlab chiqarishning innovatsion imkoniyatlari darajasiga bogʻliq boʻladi, lekin korxonaning boshqa boʻlinmalari faoliyati innovatsion imkoniyatlari bilan amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyatning pirovard natijasi boʻlib innovatsiya mahsuloti (texnologiya) hisoblanadi. Innovatsiya mahsuloti (texnologiyasi) oʻzining hajmi bilan farqlanadi, u yangi texnologiyani joriy etilishi evaziga korxonada ishlab chiqarish imkoniyatlarini oʻsishini ifodalovchi koʻrsatkichlarda oʻz aksini topadi. Iqtisodiyotga innovatsiyalarni joriy etish oʻz navbatida davlat iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga aholi yashash sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi desak mubolagʻa boʻlmaydi albatta. Shu tariqa innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchta asosiy bosqichda amalga oshiriladi. Ular quyidagilardan iborat.

Innovatsion faoliyat oʻz ichiga maʼlum bosqichli jarayonlarni oladi. Ushbu bosqichli jarayonlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni quyidagicha ifodalash mumkin (1.3-rasm).

Innovatsion faoliyatni mazmun va mohiyatiga, pirovard olinadigan natijasiga koʻra korxonalar tomonidan olib boriladigan ichki investitsiya faoliyatining tarkibiy qismi, yaʼni uning bir boʻlagi deb hisoblash mumkin. Ichki investitsiya faoliyati innovatsion faoliyatdan tashqari kapital qurilish, yangi texnika va texnologiyalarni sotib olish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish, rekonstruktsiya qilish kabi ishlarni ham bevosita oʻz ichiga oladi. Demak, ichki investitsion faoliyat innovatsion faoliyatga nisbatan

mazmunan keng tushuncha hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga sarflangan mablag‘lar jami kapital investitsiyaning yangi g‘oya, ishlanmalar, jarayonlar, mahsulot, xizmat turlarini yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq etishga taalluqli bo‘lgan qismidir.



1.3-rasm. Innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar

Shunday qilib, innovatsion faoliyat makon va zamonda yuz bergan va berayotgan, o‘zining moddiy va nomoddiy ko‘rinishdagi hamda pulda baholanadigan mulk shaklidagi pirovard mahsuliga ega bo‘lgan, bunga erishish uchun ma‘lum sarf-xarajatlarni talab qiladigan xo‘jalik faoliyatining bir turi hisoblanadi. Aynan shu mazmunda korxonalarining innovatsion faoliyati ularda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi hamda o‘tkaziladigan audit predmetini tashkil qiluvchi obyektlardan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat yakunlangan ilmiy tadqiqot va loyihalar natijalari yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlarni (fan-texnika yutuqlarini) yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga; bozorda sotiladigan, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga, shuningdek, shu bilan bog‘liq qo‘shimcha ilmiy tadqiqot va loyihalarga joriy qilishga yo‘naltirilgan jarayon ekan, unga quyidagi faoliyat turlarini kiritish mumkin:

- amaliyotda qo‘llash uchun mo‘ljallangan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik

jarayon yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqotchilik, tajriba-konstruktorlik yoki texnologik ishlar bajarish;

– yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot chiqarish, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon joriy qilish uchun ishlab chiqarishni tayyorlash va texnologik qayta jihozlash;

– yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni sinab ko'rishni amalga oshirish;

– xarajatlarni o'zini oqlashiga qadar yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon qo'llash, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot chiqarish;

– yangi mahsulotni bozor tomon harakatlantirish bo'yicha faoliyat;

– innovatsion infratuzilma yaratish va rivojlantirish;

– innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– sanoat mulki obyektlari yoki maxfiy ilmiy-texnik axborotlarga egalik huquqini boshqalarga berish yoki xarid qilish;

– yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yaratish va amaliyotda qo'llash bo'yicha ekspertiza, maslahat, axborot, yuridik va boshqa xizmatlar ko'rsatish;

– innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni tashkil qilish.

Innovatsion faoliyat subyektlari quyidagilardan iborat:

– innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar;

– innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar, logistik korxonalar;

– innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan intellektual mulk egalari: korxonalar loyihalari, qurilmalar, sanoat namunalari, texnologik jarayonlar, "nou-xau", kashfiyot va ixtirolar mualliflari, dizaynerlar;

– innovatsiyalar amalga oshirishga kapital kirituvchi investorlar: banklar, fondlar, korporatsiyalar, lizing firmalari va h.k.;

– innovatsion jarayonga xizmat ko'rsatadigan va uning infratuzilmasini ta'minlaydigan vositachilar: logistik konsalting va injiniring

firmalari, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, texnopolislar, axborot markazlari va h.k.;

– innovatsion faoliyatni boshqarish, muvofiqlashtirish va tartibga solishda ishtirok etadigan davlat organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari.

Subyektlar o‘rtasida ular borasida iqtisodiy va huquqiy munosabatlar vujudga keladigan innovatsion faoliyat mahsulotlari (natijalari) quyidagilar hisoblanadi:

– muayyan innovatsiyalarni o‘zlashtirish natijalari va texnologiyalarni belgilab beradigan innovatsion loyihalar (biznes-rejada o‘z aksini topadigan oraliq natija);

– yakuniy mahsulotni sotishda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samarani ta‘minlaydigan texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishda o‘zlashtirish;

– fan-texnika yutuqlarining natijasi hisoblangan tamomila yangi va yaxshilangan mahsulotlar (tovar va xizmatlar).

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida innovatsiya va ilmiy texnika sohasidagi siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim: ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirishga ta‘sir etuvchi, innovatsiya va ilmiy-texnika taraqqiyotini rag‘batlantirishning huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy sharoitlarini yuzaga chiqarish. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va sanoat korxonalarini texnologik jihatdan yangilashning asosiy vositasi davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Mazkur dasturning maqsadi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Natijalari o‘rta muddatli sharoitlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beruvchi, ilmiy va texnologik innovatsiyalarni davlat tomonidan tashkillashtirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

2. Ilmiy-texnika tadqiqotlari - amaliy-texnik tadqiqotlar, texnologiyalar raqobatbardosh mahsulotni sanoat ishlab chiqarish tsiklining uzluksizligini ta‘minlash.

3. Dastur doirasida ishlab chiqilgan va o‘zlashtiriladigan resurslarni tejaydigan innovatsion texnologiyalar bo‘yicha investitsion loyihalarni amalga oshirishga hamkorlik qilish.

4. Ilmiy innovatsiya va sanoat sohalarida yangi ish o‘rinlarini yaratish.

5. Ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga integratsiyalash.

Davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solish tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi zarur:

Innovatsion rivojlanish vazirligining ustuvor funktsiyalarini;

– davlat siyosatining aniq belgilangan maqsadlarini;

– belgilangan maqsadlarni amalga oshiradigan boshqaruv organlari va ularning funktsiyalarini;

– boshqaruv funktsiyalarini to‘liq amalga oshirishda tartibga solish obyekti va axborot beradigan axborot tizimini;

– davlat boshqaruv organlarining qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish instrumentlari - davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solishning asosiy instrumentlariga nafaqat uning elementlari taalluqli bo‘ladi, balki davlatning ilmiy imtiyozlar tizimiga muvofiq, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar sohasi o‘rtasida budjet va budjetdan tashqari resurslarni taqsimlash orqali ilmiy texnika yangiliklarini davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlashni;

– innovatsion jarayonlarning subyektlariga turli xil imtiyozlarni taqdim etishni (ham innovatsiyalarni amalga oshirayotgan bevosita tadbirkorlarga, ham ularni yoki bu darajada qo‘llab-quvvatlayotgan infratuzilma elementlariga);

– iqtisodiyotda innovatsion muhitni shakllantirish va ilmiy texnik axborotlar milliy xizmatini, patentlash va litsenziyalash, standartlashtirish, sertifikatlash, statistika, xorijiy tajribani o‘rganuvchi tahliliy markazlar, ilmiy-texnik rivojlanish, prognozlashtiruvchi kadrlarni tayyorlash kabilarni o‘z ichiga oluvchi tadqiqotlar va ishlanmalar ta‘minoti infratuzilmasi hamda ular asosida qaror qabul qiluvchi shaxslarni ustuvor ilmiy, milliy tizimlar bilan ta‘minlashdan iborat.

–

1.4. Innovatsion faoliyat infratuzilmasi va innovatsion logistikani rivojlantirish

Hozirda innovatsion loyihalar va yangi g‘oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Innovatsion rivojlanish sharoitida ilmiy loyihalarni ishlab

chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi.

Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biridir.


Xorijiy adabiyotlarda "innovatsion infratuzilma" atamasi yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishda o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi.

Logistik innovatsion faoliyat infratuzilmasi-innovatsion faoliyat subyektlariga logistik operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xizmatlar ko'rsatuvchi obyektlar jamlanmasidir.

Innovatsion faoliyat infratuzilmasi subyekti deb innovatsion faoliyat subyektlariga ishlab chiqarish, texnik, konsalting, moliyaviy, axborot va logistik xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tan olinadi (1.4-rasm).

Innovatsion infratuzilma g'oyalari ishlab chiquvchi innovatorlar va bu g'oyalarni muayyan mahsulot va xizmatlarda mujassam etuvchi innovatorlarning mehnatini taqsimlash asosida shakllantiriladi. Bu mehnat turlari albatta, o'zaro bog'liq, lekin shu bilan bir paytda o'ziga xos hisoblanadi. Agar "innovator-generator" yangi g'oyalari ishlab chiqishni tashlab, o'z ishlanmalarini sanoat va texnologik jihatdan amalga oshirishga, ayniqsa, muayyan marketingga "etkazish" bilan shug'ullanadigan bo'lsa, bu holatda shu vaqt davomida yangi g'oya ishlab chiqish jarayoni sezilarli darajada sekinlashadi yoki umuman to'xtab qoladi, bu esa kelgusida yuqori ixtisoslashuv bilan yangi g'oyalarni oxiriga yetkazish bilan shug'ullanuvchilar ish bilan ta'minlanishiga va ish joylariga ta'sir ko'rsatadi.

Bundan infratuzilma ta'minotining bozor variantlari va bunday taqsimlashning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi kelib chiqadi.



1.4-rasm. Logistik innovatsion infratuzilmaning umumiy ko‘rinishi

Innovatsion tadbirkorlik infratuzilmasi birinchi navbatda, alohida bo‘lib o‘tadigan va innovatsion deb nomlangan turga moslashib oladigan tadbirkorlikni ta’minlovchi tizimni ifodalaydi. U innovatsion sohaning tadqiqotchilik-loyihalash sektorini iqtisodiyotning real sektori va yakuni iste’molchi bilan birlashtiradi.

Bevosita innovatsiyalash, ya’ni innovatsiyalarni taklif sifatida yaratish uchun va innovatsion tadbirkorlik, ya’ni bu takliflarni amalga

oshirish va ilgari surish uchun infratuzilma elementlarining mazmun-mohiyatiga kengroq e'tibor qaratish zarur (1.2-jadval).

1.2-jadval

Infratuzilma elementlarining qiyosiy jadvali

Innovatsion tadbirkorlik uchun	Bevosita innovatsiyalash uchun
Joriy qiluvchi firmalar	Sanoat universitetlari va xalq
Muhandislik markazlari	xo'jaligining boshqa sektorlari
Injiniring firmalari	Tadqiqotchilik majmualari
Logistik axborot xizmati ko'rsatuvchi firmalar	Fanlar akademiyasi
Logistik konsalting firmalari	Kutubxonalar va ma'lumotlar to'plamlari
Reklama faoliyati bo'yicha firmalar	Sinov tariqasidagi ishlab chiqarishlar
Banklar va boshqa kredit tashkilotlari	Tajriba laboratoriyalari va markazlari
Innovatika ixtisoslashgan auditorlik firmalari	Logistik axborot xizmati ko'rsatuvchi firmalar
Ilmiy-texnik shirkatlar	Patent-litsenziyali tashkilotlar
Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari	Ilmiy parklar
Sertifikatsiya markazlari	Innovatsion markazlar
Lizing kompaniyalari	Innovatsion-ishlab chiqarish komplekslari
Patent-litsenziyali tashkilotlar	Logistik markazlar
Biznes-inkubatorlar	
Texnologiyalar transferi markazlari	
Sug'urta kompaniyalari	

Mazkur infratuzilma turlarining ayrim elementlari mos kelishi yoki umumiy bo'lishi mumkin, bu – logistik axborot xizmatlari ko'rsatuvchi firmalar, tajriba va muhandislik markazlari, moliyaviy strukturalar, patentli-litsenziyali tashkilotlardir.

Oxirgi paytlarda texnoparklar, innovatsion-texnologik markazlar, innovatsion-logistik markazlar, innovatsion-ishlab chiqarish komplekslari ko'proq rivoj topmoqda.

Innovatsion-texnologik markazbir yerga zich joylashgan kompleks bo'lib, umumiy ko'rinishda ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari, sanoat korxonalar va kichik firmalarni o'z ichiga olishi mumkin. Texnoparklar yaratishning asosiy maqsadi yaratilayotgan texnologiyalardan samaraliroq foydalanish maqsadida ilmiy muassasalar, sanoat va biznes o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirishdir.

Innovatsion logistik markazlar ishlab chiqarishdan borib iste'molga yetkazishga bo'lgan logistik operatsiyalarning yangi-yangi turlarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Texnoparkning asosiy funksiyasi kichik korxonalarni inkubatsiyalash maqsadida tadqiqotlar o'tkazish va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar (kichik va o'rta innovatsion korxonalar) uchun binolar taqdim etish hisoblanadi. Ko'pincha texnoparkka asoslanadigan firmalarga shuningdek, biznesga xizmat ko'rsatish (muzokara o'tkazish uchun infratuzilma, aloqa, internetga ulanish, buxgalteriya xizmatlari), moliyalashtirish manbalari izlab topish va mahsulotni bozorga chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatiladi.

Texnologiyalar transferi markazlari (TTM) ilmiy-texnik natijalarning tijoratlashuvini tezlatishi, kichik innovatsion korxonalar, jumladan, texnoparklar va innovatsion-texnologik markazlar tarkibida yaratishni ta'minlashi ko'zda tutilgan (1.3-jadval).

1.3-jadval

Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari

Texnologiyaning bosqichlari	rivojlanish ishlari	Texnologiyalar transferi bosqichlari
Ilmiy-tadqiqotchilik bosqichlarini bajarish Texnologiyani amalga oshirish imkoniyatini tekshirish	ishlari	Tadqiqot natijalarini e'lon qilish Patent arizalari berish Anjuman va ko'rgazmalarda qatnashish Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari natijalariga egalikhuquqini sotish
Tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlarini bajarish Mahsulotning sinov namunasi Texnologiya prototipi Texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlash	ishlari bosqichlarini bajarish sinov namunasi	Texnologiyani amalga oshirish uchun kichik korxonaga tashkil etish Texnologiyani sotish
Texnologiyani maromiga yetkazish Bozor namunalari yaratish Sinov tariqasidagi sotuvlar Servisni tashkil qilish Logistik servis Ruxsatnoma olish Sertifikatsiya		Mahsulotni ko'paytirish (kichik seriyada) va sotish Foydalanuvchilarni o'rgatish Dillerlarni o'rgatish Autsorsing Servis Texnologiyani sotish Korxonaga aksiyalarini sotish

	Biznesni sotish
Sanoat texnologiyasi yaratish Ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish Mahsulotni sertifikatlash va ishlab chiqarish Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlarni sotish Servis Texnologiyani sotish Korxonada aksiyalarini sotish Biznesni sotish
Ishlab chiqarishni kengaytirish Mahsulotlarni ko'paytirish Ishlab chiqarishni sertifikatlash Ishlab chiqarish va mahsulotni yangilash Diversifikatsiya	Mahsulot va xizmatlar sotish Servis Foydalanuvchilarni o'rgatish Dillerlarni o'rgatish Texnologiyani sotish Korxonada aksiyalarini sotish Biznesni sotish

Ta'kidlanganidek, innovatsion yangi ko'rinishda mahsulot, tovar, ish, xizmat yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing, logistika yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o'rinlari tashkil etishni yoki tashqi aloqalar o'rnatilishini o'zida mujassamlashtirgan innovatsiyaviy faoliyatning yakuniy natijasidir.

Texnologik innovatsiyalar deganda yuridik shaxsning texnologik yangi mahsulotlar va jarayonlarni, shuningdek mahsulotlar va jarayonlarda sezilarli darajada takomillashtirishlarni, texnologik yangi va sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, logistik xizmatlar ishlab chiqarilishi (etkazib berilishi) bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq faoliyati nazarda tutiladi. Texnologik innovatsiyalar yuridik shaxs tomonidan birinchi marotaba ishlab chiqilayotgan mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar va usullar shaklida (agar ular boshqa yuridik shaxslar tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa ham) bo'lishi mumkin.

Texnologik innovatsiyalarning **ikkita turi** mavjud. Bular: mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar.

Sanoat ishlab chiqarishida mahsulot bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi va takomillashtirilgan mahsulotlarni tayyorlash va joriy etishni o'z ichiga oladi. **Texnologik yangi mahsulot** – texnologik xususiyatlari (funktional belgilari, konstruktiv yo'l bilan

bajarilishi, qo‘shimcha operatsiyalari, shuningdek qo‘llaniladigan tarkibiy qismlar va materiallar tarkibi) yoki qo‘llanilish maqsadi printsiptial jihatdan yangi yoki yuridik shaxs tomonidan ilgari ishlab chiqarilgan shunga o‘xshash mahsulotdan sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovatsiyalar printsiptial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalardan, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo‘lishi mumkin.

Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot – bu yuqoriroq samarali tarkibiy qismlar va materiallardan foydalanish, bir yoki undan ortiq texnik tarkibiy qismlarini qisman o‘zgartirish (kompleks mahsulotlarda) yo‘li bilan ishlab chiqarilishining sifat bo‘yicha xususiyatlari yaxshilanadigan va iqtisodiy samaradorligi oshadigan mahsulotdir.

Mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar tashkilot uchun yangi bo‘lishi kerak. Ular bozor uchun yangi bo‘lishi shart emas. Innovatsion mahsulotlar qaysi tashkilot tomonidan tayyorlanganining ahamiyati yo‘q.

Jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar texnologik yangi yoki texnologik jihatdan sezilarli darajada takomillashtirilgan ishlab chiqarish, shuningdek mahsulotlarini yetkazib berish usullarini ishlab chiqish yoki joriy etishni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yangi usullaridan foydalanishga yoki ularni birgalikda qo‘llashga, shuningdek tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo‘lishi mumkin. Bunday innovatsiyalar, odatda, tashkilotda ilgari mavjud bo‘lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki yetkazib berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lishi, shuningdek odatdagi usullar yordamida amalga oshirish imkoni bo‘lmaydigan texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

Texnologik innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi:

- mahsulotdagi estetik (rangida, bezatilishida) o‘zgartirishlar;
- mahsulotning konstruktiv vazifalarini o‘zgartirmaydigan, uning yoki tarkibiy qismi hisoblangan materiallar va komponentlarning ko‘rsatkichlariga, xususiyatlariga, narxiga yetarlicha sezilarli ta’sir

ko'rsatmaydigan texnik va tashqi ko'rinishda sezilarsiz darajadagi o'zgartirishlar;

- vaqtinchalik talabni va tashkilotning daromadlarini ta'minlash maqsadida tashkilot tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, ammo mahsulotlar, ishlar, xizmatlar bozorida yetarlicha ma'lum bo'lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish (boshqa ixtisoslik bo'yicha bo'lishi ham mumkin) evaziga ularning turlarini ko'paytirish. Masalan, mashinasozlik zavodida mavsumiy talabdan foydalangan holda yozgi davrda boshqa ixtisoslik bo'yicha mahsulot, ya'ni mix ishlab chiqarilishi;

- ma'lum modeldagi qo'shimcha dastgohlarni o'rnatish, hatto ularni shu modelning oxirgi modifikatsiyaga almashtirish evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;

- to'laligicha boshqa tashkilot tomonidan ishlab chiqarilgan va tayyorlangan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish;

- tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar.

Xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun xususiyatlari, foydalanish usullari printsiplal jihatdan yangi yoki texnologik jihatdan takomillashtirilgan (sifatli) xizmatlar texnologik innovatsiyalar hisoblanadi. Xizmatlar ishlab chiqarish va **logistik yetkazib berishning** sezilarli darajada takomillashtirilgan usullaridan foydalanish ham **texnologik innovatsiyalar** sanaladi. Bu mavjud ishlab chiqarish usullaridan foydalangan holda yoki mavjud xizmatlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berishning samaradorligini oshirgan holda, ishlab chiqarilmaydigan yoki yetkazib berila olinmaydigan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan asbob-uskunalaridagi yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishidagi o'zgarishlarni qamrab olishi mumkin.

Yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, uni ishlab chiqarish (etkazib berish) usullarini printsiplal jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalarning yangi kombinatsiyalariga, shuningdek yangi bilimlarga asosan joriy etish mumkin.

Logistik xizmatlar sohasidagi mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar o'z ichiga quyidagilarni oladi: printsiplal jihatdan yangi xizmatlarni ishlab chiqarish va joriy etish; mavjud xizmatlarga yangi funktsiyalar va

xususiyatlar qo‘shish orqali uni takomillashtirish;logistik xizmatlar bilan ta’minlashda (masalan, ularning samaradorligi va tezligi nuqtai-nazaridan) sezilarli darajada yaxshilanishlar.

Logistik xizmatlar sohasidagi jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar logistik xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishning yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish va joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Quyidagi o‘zgartirishlar, agar ular yangi yoki sezilarli yaxshilangan xizmatlarni, ularni ishlab chiqarish va yetkazib berish usullarini joriy etishga bevosita bog‘liq bo‘lmasa, texnologik innovatsiyalar hisoblanmaydi:

- tashkiliy va boshqarish bo‘yicha o‘zgartirishlar (jumladan: boshqarishning ilg‘or usullariga o‘tish, jiddiy o‘zgartirilgan tashkiliy tuzilishni joriy etish, tashkilotning iqtisodiy strategiyasida yangi yoki sezilarli o‘zgartirilgan yo‘nalishlarni amalga oshirish);
- sifat standartlarini joriy etish.

Logistik-marketing innovatsiyalari deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish ham tushuniladi. Bular o‘z ichiga: mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy o‘zgartirishlar; mahsulotlarni sotish, logistik yetkazib berish va taqdimoti bo‘yicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olg‘a siljitish bo‘yicha yangi uslublardan foydalanish; yangi narx strategiyalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bu o‘zgartirishlar mahsulot iste’molchilarining ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga, sotish hajmini ko‘paytirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlar iste’molchilarining tarkibini kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mahsulot dizaynidagi o‘zgartirishlar yangi logistik-marketing kontseptsiyasining bir qismi bo‘lib, ular mahsulotning shakli va tashqi ko‘rinishidagi o‘zgartirishlarni o‘z ichiga oladi. Bular mahsulotning funksional va foydalanish xususiyalariga ta’sir ko‘rsatmaydi. Shuningdek, bunday o‘zgartirishlarga qadoqlanishi tashqi ko‘rinishini ta’riflab beruvchi iste’mol mahsulotlari, ichimliklar, yuvish vositalari kabi mahsulotlarning qadog‘idagi o‘zgartirishlar ham kiradi. Mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo‘yicha yangi uslublardan foydalanish sotishni kengaytirish bilan bog‘liqdir. Bunga logistika (xomashyo, tarkibiy qismlar va tayyor mahsulotlarni tashish va omborxonalarda saqlashni boshqarish) uslublari kiradi. Mahsulot (xizmat)larni bozorga tanitish va olib chiqishning yangi

uslublaridan foydalanish tashkilotning mahsulot va xizmatlarini olib chiqish uchun yangi kontseptsiyalardan foydalanishni anglatadi.

Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar – tashkilotning mahsulotlar va xizmatlar bilan savdo qilishi uchun yangi narx strategiyalaridan foydalanishini bildiradi. Marketing vositalaridagi mavsumiy, doimiy yoki boshqa joriy o'zgarishlar, agar ular yangilik olib kelmasalar, marketing innovatsiyalari hisoblanmaydi. Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar bilan marketing innovatsiyalarini bir-biridan farqlovchi asosiy mezon – bu mahsulotning funktsiyalarida yoki undan foydalanish usullarida jiddiy o'zgarishlar mavjudligidir. Agar mahsulot va xizmatlarning funktsional yoki foydalanish xususiyatlari mavjud mahsulot va xizmatlarnikidan ancha yaxshilangan bo'lsa, bu mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar hisoblanadi. Mahsulot dizaynidagi o'zgarishlar esa, agar uning funktsional yoki iste'mol xususiyatlari sezilarli darajada o'zgarmagan bo'lsa, bu marketing innovatsiyalari hisoblanadi.

Jarayonlar bo'yicha va marketing innovatsiyalari o'rtasidagi farq quyidagicha namoyon bo'ladi. Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar mahsulot birliklariga xarajatlarni kamaytirish yoki sifatini oshirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va mahsulotlarni yetkazib berish usullarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Marketing innovatsiyalari esa sotish hajmini yoki mahsulotlar narxini (yangi narx strategiyalarini qo'llagan holda) oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tashkiliy innovatsiyalar – bu biznesni yuritishda, ish o'rinlarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishda yangi uslublarni ishlab chiqishdir. Bunday innovatsiyalar boshqaruv va transaksion xarajatlarni qisqartirish, tashkilot tomonidan ishchilarning ish o'rinlari (ish vaqtlari) bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, bozorda mavjud bo'lmagan aktivlarga yo'l topish yoki **logistik yetkazib berish narxini kamaytirish yo'li** bilan tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. **Biznes yuritishdagi innovatsiyalar** tadbirkorlik faoliyatining yangi tashkiliy usullarini ishlab chiqishni bildiradi. Masalan, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bilimlarni boshqarishning korporativ usullarini joriy etish; xodimlarning saviyasini oshirishga va ko'chib yurishini kamaytirishga mo'ljallangan o'qitish tizimini yo'lga qo'yish; ishlab chiqarish va yetkazib berishni to'liq boshqarish, jumladan

yetkazib berish zanjirini, ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni, shuningdek sifatni boshqarish tizimini joriy etish.

Ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha innovatsiyalar – bu tashkilotning alohida faoliyat turi doirasida yoki turli faoliyatlari (tarkibiy bo‘linmalari) o‘rtasida ishlarning bajarilishi bo‘yicha xodimlar orasida javobgarlik va vakolatlarni taqsimlashning yangi usullarini yo‘lga qo‘yishdir. Shuningdek, faoliyatni strukturizatsiya qilish, ya’ni faoliyatning turli yo‘nalishlarini integratsiyalashtirish bo‘yicha yangi kontseptsiyalarini joriy etishdir.

Tashkilotning tashqi aloqalaridagi **yangi tashkiliy usullar** – boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni tashkil qilishning yangi usullarini yo‘lga qo‘yishdir. Ya’ni bular quyidagilarni yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga oladi: buyurtmachilar yoki ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishning yangi usullari; yetkazib beruvchi bilan integratsiyalashtirishning yangi usullari; ishlab chiqarish, **logistik-ta’minot, taqsimot sohasida**, kadrlar bo‘yicha va yordamchi savollarni hal qilishda subkontrakt munosabatlari.

Tashkilotda ilgari qo‘llanilgan tashkiliy uslublarga asoslangan biznesni yuritishdagi, ish o‘rinlari va tashqi aloqalarni tashkil etishdagi o‘zgartirishlar – tashkiliy innovatsiyalar hisoblanmaydi. Shuningdek, boshqarish strategiyalarini shakllantirish ham, o‘z-o‘zidan, innovatsiya hisoblanmaydi. Lekin, bu tashkiliy o‘zgartirishlar yangicha boshqaruv strategiyasiga muvofiq tashkilot amaliyotida birinchi marta qo‘llanilayotgan bo‘lsa – innovatsiya hisoblanadi.

Institutsionalizmning ko‘zga ko‘rinarli vakili bo‘lgan **J.K.Gelbreytning** so‘zlariga ko‘ra «olimlar, muhandislar va texniklar, reklama va savdo operatsiyalari bo‘yicha mutaxassislar, jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha ekspertlar, lobbistlar, advokatlar hamda byurokratiya apparatlari va uning faoliyati xususiyatlari bilan yaxshi tanish kishilar, shuningdek, vositachilar, boshqaruvchilar va ma’muriyat xodimlari yig‘indisidir».¹² Bugungi kunda ushbu masala mamlakatimizda dolzarb qilib qo‘yilgan va amaliy ishlar olib borilmoqda.

P.Drakerning fikricha, fikrlashning innovatsion turi tadbirkorga tabiatdan in’om etilar ekan. Biroq bu unchalik ham to‘g‘ri emas. Bunday qobiliyat fikrlash va amaliy faoliyat yuritish natijasida

shakllanadi deb aytsak to'g'riroq bo'lardi. Demak, ishbilarmonlar o'z kompaniyalarida zamonaviy innovatsion menejmentni rivojlantirishi maqsadga muvofiq.

Umuman, innovatsion tarkibiy qism davlat iqtisodiy siyosatining har bir (makroiqtisodiy, strukturaviy, tarmoq va mintaqaviy) yo'nalishida ko'zda tutilishi lozim. Innovatsion siyosat davlatning sanoat siyosatini samarali amalga oshirish hisobiga ham muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Masalan, tarmoqlararo ishlab chiqarish zanjirini vertikal integratsiyalab, nafaqat moliyaviy-iqtisodiy, balki ilmiy-texnik jihatdan ham innovatsiyalarga erishish, butun vertikal bo'ylab kumulyativ yoki sinergetik ta'sir ko'rsatish mumkin. Innovatsiyalar mablag' to'planishi yangiliklar ishlab chiqish va kiritish uchun yetarli zamin hozirlagan paytlarda korxonalar gorizont al oloqalari darajasida ham vujudga kelishi va o'zlashtirilishi mumkin. Bu jihatdan sanoat siyosati iqtisodiyotning o'sish nuqtalarida resurslar markazlashuviga xizmat qilishdan tashqari ularning innovatsion imkoniyatlarini ham rivojlantiradi.

Ekspertlarning hisoblashicha, "korxonalarni yangi mahalliy va xorijiy texnologiyalarni joriy qilishga rag'batlantiruvchi, asosiysi buning uchun imkoniyat taqdim etuvchi tashkiliy va institutsional muhit yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi".

Demak, davlatning iqtisodiy siyosatida kompleksli innovatsion siyosat olib borayotganligi taqsinga sazovordir. Mahalliy kompaniyalar, akademiya va oliy o'quv yurtlar bu jarayonni amalga oshirishda faol bo'lishi zarur.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Logistik modelni ishlab chiqishda qanday jihatlarga ahamiyat beriladi
2. Innovatsiya deganda nimani tushunasiz ?
3. Innovatsiyalarni keng miqyosda qo'llashdan maqsad nima deb o'ylaysiz ?
4. Innovatsion logistikada deb nimaga aytiladi ?
5. Innovatsion logistikaning iqtisodiyot rivojlanishidagi zarurati nimaga kerak ?

6. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan qaysi innovatsion logistik loyihalarni bilasiz ?
7. Innovatsion logistika fani predmeti nima ?
8. Innovatsion muhit deganda nimani tushunasiz ?
9. Davlat innovatsion infratuzilmasi deb nimaga aytiladi ?
10. Innovatsion logistika fani maqsadi deb nimaga aytiladi ?

2-mavzu. Logistik innovatsion tizim

2.1. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida innovatsion logistika faoliyatni boshqarish uslubiyoti

2.2. Innovatsion logistik jarayonning chiziqli modeli va uni amaliyotga joriy qilish

2.3. Innovatsion logistik faoliyatni boshqarishning iqtisodiy qonuniyatlari

2.4. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida innovatsion logistika faoliyatni boshqarish uslubiyoti

Innovatsiyani statikada ham, dinamikada ham ko'rib chiqish mumkin. Agar statikada yangilik kiritish bu yangiliklarni tijoratlashirishning yakuniy natijasi bo'lsa, dinamikada yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish vatarqatish murakkab jarayoni hisoblanadi.

Innovatsion jarayon yangi g'oya paydo bo'lganidan tortib to bozorda sotiladigan mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish amalga oshirilgunga qadar bo'lgan o'zaro bog'liq bosqichlar murakkab zanjirini ifodalaydi. Umumiy jihatdan innovatsion jarayonbu voqea-hodisalarning ketma-ketlikdagi zanjiri bo'lib, uning davomida yangilik oddiy bir g'oyadan muayyan mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha yetadi va soha amaliyotida tarqaladi.

Bu jarayonni quyidagi sxema ko'rinishida aks ettirish mumkin:

Ft ↔ At ↔ I ↔ L ↔ Q ↔ Log ↔ Si ↔ M ↔ S

bu yerda:

Ft - fundamental tadqiqotlar;

At - amaliy tadqiqotlar;

I - ishlanmalar;

L - loyihalashtirish;

Q - qurilish;

Log - logistika ;

Si - sanoat ishlab chiqarishi;

M - marketing;

S - sotuv.

Innovatsion jarayon biror-bir iqtisodiyot subyekting innovatsion faoliyatini, ya'ni yakunlangan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar yoki boshqa fan-texnika yutuqlarining natijalarini bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotga, amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga, shuningdek, bu bilan bog'liq qo'shimcha tadqiqot va ishlanmalarga joriy qilishga yo'naltirilgan jarayondir.

Innovatsion jarayonning mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, u innovatsiyalar tashabbusi bilan chiqish, yangi mahsulot va operatsiyalar ishlab chiqish, ularni bozorda sotish va diffuziyalash bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan harakatlar zanjirini ifodalaydi.

Innovatsion jarayon yetita elementni o'z ichiga oladi, ularning umumiy bir ketma-ketlikdagi zanjirga birlashuvi innovatsion jarayon strukturasi tashkil etadi.

Innovatsion jarayonning boshlanishi tashabbus ko'rsatish (initsiatsiya) hisoblanadi. **Initsiatsiya** bu - innovatsiya maqsadini tanlash, innovatsiya bajaradigan vazifani belgilash, innovatsiya g'oyasini izlab topish, uni texnik-iqtisodiy asoslab berish va g'oyani moddiy holatga keltirishdan iborat bo'lgan faoliyatdir.

G'oyani moddiy holatga keltirishg'oyani tovarga aylantirishni, ya'ni mulkka, yangi mahsulotga, mulkiy huquq hujjatiga (nou-xau, texnologiyadan foydalanish huquqi, litsenziyasi) va texnologik operatsiya bo'yicha hujjatga aylantirishni anglatadi. Tashabbus ko'rsatish nafaqat innovatsion jarayonning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi, balki innovatsion jarayon borishining yanada normal davom etishi uchun asos ham sanaladi.

Yangi mahsulot (operatsiya) asoslab berilgach, taklif etilayotgan innovatsiyaning marketing tadqiqotlari o'tkaziladi. Marketing tadqiqotlari davomida yangi mahsulot yoki operatsiyaga talab o'rganiladi, agar ular limitlanadigan bo'lsa ularni chiqarish hajmi yoki soni belgilanadi, innovatsiyaga bozorga kirib borayotgan tovar sifatida baxshida etish lozim bo'lgan tovar tavsifnomalari va iste'mol xususiyatlari aniqlanadi. So'ngra innovatsiyani sotish, ya'ni bozorda innovatsiyaning kichik partiyasi paydo bo'lishi, uni ilgari surish, samaradorligini baholash va diffuziyalash amalga oshiriladi.

Innovatsiyani ilgari surish innovatsiyalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar majmuini ifodalaydi (axborot uzatish, reklama, savdo jarayonini tashkil qilish va boshqalar).

Innovatsiyani amalga oshirish natijalari va uni ilgari surish xarajatlari statistik qayta ishlanadi va tahlil qilinadi, buning asosida innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqiladi. Innovatsion jarayon innovatsiyalar diffuziyasi bilan yakun topadi.

Innovatsiyalar diffuziyasi bir marta o‘zlashtirilgan innovatsiyani yangi mintaqalar, yangi bozorlar va yangicha moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarda tarqatishni ifodalaydi. Diffuziya moliyaviy innovatsiya tavsifnomasi yoki uni harakatlantirish shartlarining o‘zgarishi (bank foiz stavkasi, depozit muddati va h.k.ning o‘zgarishi), yangi sotuv bozorlarini egallab olish va h.k. bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Innovatsion faoliyat mavjud korxonalar, bank va boshqa subyektlarning faoliyat turlaridan biri sifatida ham, muayyan innovatsion loyiha yoki dasturni amalga oshirish uchun tashkil etilgan yoxud innovatsion faoliyat asosiy faoliyat turi hisoblangan ixtisoslashgan yuridik shaxslar –innovatsionkorxonalar, banklar, fondlar, logistik firmalar, konsortsiumlar va h.k. tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Quyidagi jadvalda (2.1-jadval) innovatsion faoliyatga ta‘sir etuvchi omillar tizimi ko‘rsatilgan.

2.1-jadval

Innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar

Omillar guruhi	Salbiy ta‘sir etuvchi omillar	Ijobiy ta‘sir etuvchi omillar
<i>Iqtisodiy</i>	Investitsiya mablag‘larining yetishmasligi	Zaruriy moliyaviy zaxiralarning mavjudligi
<i>Texnologik</i>	Moddiy-texnika va ilmiy-texnikaviy ishlar uchun zarur bo‘lgan sharoitlarning talabga javob bermasligi. Mavjud texnologiyalarining eskiligi va hokazo	Yetarli darajada moddiy-texnikaviy bazaning va ishlab chiqarish texnologiyalari, xo‘jalik hamda ilmiy-texnikaviy infratuzilmaning mavjudligi
<i>Siyosiy</i>	Antimonopol qonunlar tomonidan cheklanganligi	Qonuniy chora-tadbirlarning yaratilishi
<i>Huquqiy</i>	Soliq, amortizatsiya, patent-	Logistik innovatsion faoliyat-

	lash va litsenziyalashtirishning talabga javob bermasligi	ning rivojlanishini huquqiy ta'minlash
<i>Tashkiliy</i>	Tashkiliy tarkiblarning eskirishi	Bozor sharoitlaridan kelib chiqqan holda tashkiliy tarkibni takomillashtirishga moyilligi
<i>Boshqaruv</i>	Markazlashtirilgan avtoritar boshqaruv, logistik axborotlar bilan ta'minlashning va subyektlar hamda ichki subyektlar munosabatlarining murakkabligi. Innovatsion jarayon bo'yicha kelishuvning murakkabligi	Ishlab chiqarish tashkiliy tizimining muqobilligi, demokratik boshqaruvga asoslanishi, logistik axborotlar bilan ta'minlanishi . Innovatsion jarayonni amalga oshirishda umumiy maqsadning shakllanishi
<i>Ijtimoiy-psixologik</i>	Ishlab chiqarish yo'nalishining o'zgarishi asosida yangi ish joylarining moslashuvi, mavjud ishlab chiqarish faoliyatini qayta tashkil etish. Ishlab chiqarish eski usullarining mavjudligi, ishlab chiqarish oldidagi qo'rquv, omadsizlik	Ma'naviy rag'batlantirish. Ijtimoiy tan olish, innovatsion mehnatga sharoit yaratish, talab darajasida psixologik sharoitlar yaratilishi
<i>Madaniy</i>	Subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning talabga javob bermasligi, ishonchga, hurmatga asoslanmaganligi	O'zining innovatsion mahoratini ko'rsatishga sharoitning mavjudligi. Subyektlar o'rtasidagi munosabatlar tenglik, ishonchlik munosabatlariga va hurmatga asoslanishi

Logistik innovatsion jarayon - tashkil etish va logistik boshqaruv bilan birlashtiriladigan, funktsiyalar to'plami bilan yangiliklar olish yagona maqsadiga ega bo'lgan, ijodiy mehnatning har xil turlari doimiy o'zgaruvchan kombinatsiyasidir. Shunday qilib, uning dinamikasida asosiy omillar sifatida birinchi navbatda, quyidagilarni ko'rib chiqish lozim: mehnat elementlari, uning motivatsiyasi, resurslar bilan ta'minlanganligi, tashkil qilish va boshqarish, raqobat, atrof-muhit sharoitlari. Bu obyektiv omillar yig'indisi bilan bir qatorda bir guruh subyektiv omillar ham amal qiladi: strategiya, siyosat, risk va h.k.

Tahlil maqsadlari va asosiy tasniflash belgilariga qarab, barcha omillar yig'indisini quyidagilarga taqsimlash mumkin: tashqi va ichki

omillar, asosiy va to'ldiruvchi omillar, obyektiv va subyektiv omillar, bozor omillari va bozordan tashqari omillar, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar va h.k.

Innovatsion faollik omillari to'plami tarkibida innovatsion jarayonlarni sekinlatadigan omillar ham amal qiladi. Ular "innovatsion to'siqlar" deb ataladi. Ularni tahlil qilish beshta asosiy salbiy omilni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:


- texnik omillar;
- tasniflash omillari;
- ijtimoiy asoslangan omillar;
- tartibga solish omillari;
- iqtisodiy omillar.

Tabiiyki, har qanday innovatsion jarayonga ijobiy va salbiy omillar butun tizimi ta'sir ko'rsatadi. Ularning ta'sirini baholash hamda eng katta muvaffaqiyatga erishish va uchrashi mumkin bo'lgan riskni pasaytirish uchun sharoitlar tanlash - har qanday pog'onadagi boshqaruv organlarining vazifasi, davlat, mintaqa, firmaning innovatsion siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning ajralmas bir tarkibiy qismidir.

2.2. Innovatsion logistik jarayonning chiziqli modeli va uni amaliyotga joriy qilish shartlari

Butun dunyoda ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan innovatsiya rivojlanishi shiddat bilan boshlandi. Jahon innovatsion maydonida o'zining milliy, ilmiy, ilmiy-texnikaviy va texnologik innovatsion siyosatini oqilona shaklantirgan mamlakatlar raqobatbardosh bo'lib hisoblanadi.

O'tgan asr davomida kompaniyalarning bozor qiymati ustun darajada buxgalteriya hisobotlari orqali qayd qilinadigan jismoniy aktivlarning funktsiyasi bo'lib hisoblanar edi. Ammo 80-yillarida Dou-Djons (DJIA) indeksi, kapitallashtirish aktivlarining (binolar, inshootlar, jihozlar va zahiralar) real qiymatidan borgan sari ajralib borishining ko'rsata boshladi (2.2-rasm).




2.2-rasm. Innovatsion iqtisodiyotning yuzaga kelishi xronologiyasi

Ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq turlicha nomlanadi: intellektual kapital, ko‘rinmas aktivlar (2.3-rasm). Agar barcha tarkibiy elementlarni bir maxrajga keltirishga urinib ko‘rilsa, unda bular turli bilim shakllari ekanligi ayon bo‘ladi.

Demak, XXI-asr jamiyat rivojlanishida iqtisodiy o‘shishning yangi sifatiga - **“innovatsiyalar iqtisodiyoti”** nanotexnologiyalar, innovatsion logistika, innovatsion marketing, innovatsion menejmentga o‘tilishi bilan tavsiflanuvchi, ilmiy-texnika va texnologik taraqqiyotning kuchli ta’siri ostida sodir bo‘luvchi, bilimlarni iqtisodiy rivojlanishning global omiliga aylantiruvchi **yangi intellektual** bosqichi boshlandi.

1996 yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotida, 80-yillar oxiri – 90-yillar birinchi yarmidagi, iqtisodchilar va sotsiologlar asarlarini umumlashtiruvchi kontseptual maqola “Ekonomika, osnovannaya na znaniyax” chop qilingan edi. Mohiyatan davriy marrani belgilab bergan bu nashr nafaqat mazkur xalqaro tashkilot, balki jahonning barcha rivojlangan mamlakatlari jamiyatshunoslari va siyosatchilari ishida yangi yo‘nalishni ochib berdi, ularni leksikoniga “bilimlarga asoslangan iqtisodiyot”, “bilimlar iqtisodiyoti”, ”innovatsion iqtisodiyot”, nanotexnologiyalar, innovatsion logistika, innovatsion marketing, innovatsion menejment “innovatsion iqtisodiyot”,

“bilimlarga asoslangan jamiyat”, “milliy innovatsion tizim”, “elektron hukumat” va hokazo terminlar tezkorlik bilan kirib kela boshladi.




2.3-rasm. Intellektual kapitalning tarkibi

Iqtisodiy o‘shishga innovatsion omil hisobiga erishiladigan, YaIM o‘shishining 75-90 %ni ta‘minlovchi bunday modeldan ko‘pgina industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlar foydalanadilar. Hozirgi vaqtda ma‘lum iqtisodiy kategoriya sifatidagi innovatsiyalar tushunchasining o‘ziga xos xalqaro standartlarning ishlab chiqilganligi to‘g‘risida gapirish mumkin. Innovatsiya (yangiliklarni kiritish) ilmiy va ijodiy faoliyatning pirovard natijasi bo‘lib, u bozorda sotiladigan yangi yoki bo‘lmasa amaliy faoliyatda foydalaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonda mujassamlanadi. Bu innovatsiyaning asosiy xossa (mezon)larini ajratish imkonini beradi:

- ilmiy-texnik yangilik;
- amaliy qamrovligi (sanoatda qo‘llanishi mumkinligi), yangi, masalan: sanoatda, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim yoki faoliyatning boshqa sohalarida foydalanilishi;

- tijorat maqsadida amalga oshirishi mumkinligi, bu yangilik bozor tomonidan “tan olinishi”ni bildiradi, ya’ni bozorda sotiladi; bu o‘z navbatida, iste’molchilarning ma’lum talablarini qondirish qobiliyatini anglatadi. Bu shuni bildiradiki, yangi g‘oya qanchalik batafsil bayon qilinmasin, shakllantirib sxema va chizmalarda taqdim etilmasin, agar bu g‘oya amaliyotda foydalaniladigan mahsulot, xizmat yoki jarayonlarda tatbiq etilmagan bo‘lsa, bu hali innovatsiya (yangilik) hisoblanmaydi. Ya’ni, innovatsiyaning muhim xossalari, mezonlari g‘oyaning yangiligi, uning amaliy faoliyatda, yangi mahsulotlarda va jarayonlarda mujassamlashgani, amalga oshirilgani hisoblanadi. Garchand yangi g‘oya real obyektlar yoki jarayonlarda mujassamlashgan ekan, u kishilarning amaliy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Iqtisodiyot modernizatsilash sharoitida yangi g‘oyaning amaliy mujassamlashganligi singari, innovatsiyaning ajralmas mezonlari bozorda yangi (innovatsion) mahsulot yoki xizmatning paydo bo‘lish orkali uning tijorat maqsadida amalga oshirilishi mezonlari bilan yaqindan bog‘liq bo‘ladi. Ta’kidlash o‘rinliki, **innovatsion jarayon** yangiliklarni yaratish va tarqatish jarayonidir (2.4-rasm).



2.4-rasm. Logistik innovatsion jarayonning chiziqli modeli

Umumiy qo‘rinishda **logistikinnovatsion jarayon chiziqli modelini quyidagicha** keltirish mumkin:

- innovatsion jarayonning birinchi komponenti – novatsiyalar, ya’ni yangi g‘oyalar, **bilimlar** – bu tugallangan ilmiy (fundamental va amaliy) tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlanmalar natijasi, boshqa ilmiy-texnik natijalardir;

- innovatsion jarayonning ikkinchi komponenti bo‘lib joriy qilingan ishlar, **amaliyfaoliyatga kiritish**, ya’ni novatsiya va yangiliklarni kiritish innovatsiya hisoblanadi;

- innovatsion jarayonning uchinchi komponenti bo‘lib **innovatsiyalar diffuziyasi**, ya’ni oldin o‘zlashtirilgan, qo‘llanilgan innovatsiyalar, **boshqacha aytganda, yangi joylar va sharoitlarda innovatsion mahsulotlar, xizmatlar** yoki texnologiyalarni qo‘llash hisoblanadi. - innovatsion jarayonning uchinchi komponenti bo‘lib **innovatsiyalar diffuziyasi**, ya’ni oldin o‘zlashtirilgan, qo‘llanilgan innovatsiyalar, **boshqacha aytganda, yangi joylar va sharoitlarda innovatsion mahsulotlar, xizmatlar** yoki texnologiyalarni qo‘llash hisoblanadi.

Aytish lozimki, “innovatsion jarayon” tushunchasi “innovatsiyalar” tushunchasiga nisbatan kengdir, innovatsiyaning (yangiliklar kiritish) o‘zi innovatsion jarayonning komponentlaridan biri hisoblanadi. AQSh, Yaponiya, Evropa Ittifoqi mamlakatlarining barqaror rivojlanish traektoriyasiga o‘tishiga iqtisodiyotning real sektorida innovatsion jarayonlarni kengaytirish asosida erishilgan. U yoki bu mamlakatning davlat innovatsion siyosati, odatda ma’lum nazariy modelning aks ettirilishi bo‘libgina qolmay, balki u turli yo‘nalishdagi tadbirlar jamlanmasidir, bunda milliy innovatsiya siyosatlari tub o‘zigaxoslikka ekanligini ta’kidlash mumkin. Globalizatsiyaning hozirgi bosqichida turli mamlakatlar innovatsion siyosatida quyidagi muhim yo‘nalishlari mavjud (2.2-jadval).

Jahon mamlakatlari milliy innovatsion siyosati yo‘nalishlari

Innovatsiya siyosati yo‘nalishlari	O‘ziga xosligi	Mamlakatlar
Milliy innovatsiya tizimi tarkibini optimallashtirish	Innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruv va rejalashtirish tizimini optimallashtirish. Fanni davlat tomonidan moliyalashtirish va innovatsiya sohasini optimallashtirish. Fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish.	Yaponiya, Norvegiya, Germaniya. AQSh, Shvetsiya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Tayvan, Avstraliya. Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Sloveniya.
Mamlakat ichida biznes va fan – innovatsion kooperatsiyasini rag‘batlantirish	Fan va korporatsiyalarning simmetrik yaqinlanishini rag‘batlantirish. Fan va logistik innovatsion sohaga yirik davlat qo‘yilmalari va milliy xususiy kapitalni jalb qilish. Innovatsion sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi xususiy sektorning innovatsion faolligini rag‘batlantirish. Ilmiy sektorning logistik innovatsion tashabbusini rag‘batlantirish.	AQSh, Finlyandiya. Isroil, Finlyandiya. Buyuk Britaniya, Irlandiya, Xitoy, Koreya, Hindiston, Isroil. Germaniya, Yaponiya, Daniya.
Xalqaro innovatsion tizimlarga integratsiyalashuv	Majmuaviy integratsiya. Texnologik ixtisoslashuv.	Finlyandiya, Isroil, Xitoy, Koreya, Singapur, Tayvan, Hindiston.
Ichki innovatsion tizimlarni yo‘lga qo‘yish	Innovatsion logistika sohasida aloqalarni tashkil etish uchun alohida sharoitlarni yaratish. Milliy mintaqalar tashabbuslarini rag‘batlantirish.	AQSh, Norvegiya, Irlandiya. Frantsiya, Germaniya, Finlyandiya.
Milliy innovatsion tizimni shakllantirish	Fanning davlat sektori tarkibini qayta o‘zgartirish. Fan va ta’lim integratsiyasini faollantirish. Innovatsion logistikani biznes sohasiga jalb qilish. Yuqori texnologiyalar sohasidagi ustuvor eksport yo‘nalishlarini aniqlash.	Bolgariya, Polsha, Litva. Latviya, Estoniya, Chexiya. Ruminiya, Chexiya, Slovakiya, Turkiya. Chexiya, Ruminiya, Chili, Turkiya.

Innovatsion faollikni rag‘batlantirish uchun turli mamlakatlarda fan sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulotni o‘zlashtirishda o‘ta zarur hisoblangan turli imtiyozlar va preferentsiyalar qo‘llaniladi. Ular egiluvchan, tanlovli, muddatni uzaytirish, soliq kreditlari, tezlashtirilgan amortizatsiya ko‘rinishida amal qiladilar (2.3-jadval).

2.3-jadval

Asosiy rivojlangan mamlakatlarda ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) soliq imtiyozlari

Mamlakatlar	Undirilgan soliqning ITTKI xarajatlariga nisbati	Undirilgan soliqning eng ko‘p miqdori
Yaponiya	Yirik kompaniyalar- 8-10%, Kichik va o‘rta kompaniyalar- 12%	2008 yilgacha – soliq to‘lovlari summasining 20%i; 2008 yildan boshlab yirik kompaniyalar soliq to‘lovlari summasining 30%i, kichik va o‘rta kompaniyalar soliq to‘lovlarining 100% gacha
AQSh	Umumiy summadan 3-5%, me‘yordan oshuvchi xarajatlarga 20%	Soliq to‘lovlari summasining 25%
Kanada	Umumiy summadan 20%	Mavjud emas
Buyuk Britaniya	Umumiy summadan 8,4%	Mavjud emas
Frantsiya	Umumiy summadan 10%	16 mln.evro
Xitoy	Umumiy summadan 15%	Mavjud emas

Shunday qilib, **mamlakat raqobatbardoshligini** oshirish, uning samarali ilmiy tadqiqot hamkorligi yo‘nalishida rivojlanishining eng muhim omili bo‘lib innovatsion jarayonlarni (shu jumladan mintaqalar darajasida) amalga oshirish uchun qulay iqtisodiy muhitni yaratishga qaratilgan, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib davlatning innovatsion siyosati hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion siyosatni shakllantirishda mamlakatning rivojlanish strategiyasini

tanlash o‘ta muhim. Shulardan kelib chiqqan holda davlat innovatsion siyosatning **ikki asosiy modellarini** ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Bosh maqsadi mamlakat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan innovatsion yo‘nalishlarni rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘lgan, umummilliy ahamiyat kasb etuvchi ilmiy-texnik dasturlar va loyihalarni bajarishga yo‘naltirilgan model.

2. Bosh maqsadi yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish bo‘lgan, ilmiy-texnik bilimlarni yoyishga yo‘naltirilgan model.

So‘ngi yillarda O‘zbekiston hukumati innovatsion faoliyatni jadallashtirishni barqaror iqtisodiy rivojlanishning bosh lokomotivi sifatida faol ko‘rib chiqilgan, innovatsion texnologiyalar va fanni rivojlantirish masalarini muhim davlat ustuvorliklari qatoriga qo‘ymoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlangan tantanali majlisdagi ma‘ruzasida hamda “Ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 916, 15.07.2008 y. Qarorida; Prezidentning “2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish bo‘yicha muhim loyihalarni amalga oshirish choralari dasturi to‘g‘risida”gi PQ – 1072, 12.03.2009 y. Qarorida batafsil bayon etilgan.

2006-2012 yilar davomida innovatsion faoliyatning ilmiy-texnologik bazasini takomillashtirish va moliyalashtirish, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilab olindi, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilindi, ishlab chiqarishni mahalliy- lashtirish dasturlari amalga oshirildi. Jumladan, “Innovatsion rivojlantirish” tashkil qilindi, texnologiyalar transferi bo‘yicha markazlar institutsional mustahkamlandi, 2007 yildan boshlab har yili Sanoat yarmarkasi va 2008 yildan boshlab esa – Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasi tashkil qilish urfga kirdi. Iqtisodiyotning real sektorida umumiy qiymati 21 milliard AQSh dollariga teng bo‘lgan keng qamrovli iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish dasturini, o‘rta muddatli davlat investitsiya dasturini amalga oshirish mo‘ljallangan va amalga oshirildi.

Biroq, innovatsiyalarning mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini rivojlantirish, inson taraqqiyoti darajasini oshirish, mehnat unumdorligini oʻstirishdagi hissassi toʻgʻrisida xulosa chiqarish uchun Oʻzbekistonning innovatsion rivojlanishi boʻyicha toʻla miqyosli oʻrta va uzoq muddatga ega boʻlgan strategikli davlat innovatsion siyosatini ishlab chiqish zarur edi. Mazkur innovatsion siyosatning bosh iqtisodiy maqsadi boʻlib milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va buning natijasida aholi farovonligini oshirish va turmush darajasini yaxshilash boʻlishi kerak.

2016 yildan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan innovatsiya, logistika, klasterlarni rivojlantirish qaratilgan keng koʻlamdagi ishlar amalga oshirildi. Buni natijasida bir qancha vazifalarni bajarish dolzarb qilib qoʻyildi:

- mamlakat iqtisodiyotida fan sigʻimi yuqori boʻlgan va yuqori texnologiyali sektorlar hissasini oshirish va eksport siyosatini xomashyo eksportidan yuqori qoʻshimcha qiymatga ega boʻlgan mahsulot eksportiga bosqichma-bosqich yoʻnaltirish;

- taʼlim, fan va biznes oʻrtasidagi yaqin hamkorlik va ITTKIga investitsiyalaridan samarani oshirish;

- innovatsion - faol institutlarni tashkil etish;

- ishlab chiqarish omillari unumdorligining umumiy oʻsishi;

- “bilimlar iqtisodiyoti”ni shakllantirish uchun inson kapitaliga investitsiyalarni koʻpaytirish.

Demak, mamlakatlarning davlat innovatsion siyosati oʻzlarining milliy vazifalarini hal etishlari uchun qabul qilinadi, biroq shu bilan birga, aynan innovatsiyalar butun jahon hamjamiyatiga mos ravishda umumiy farovonlikni taʼminlash uchun birlashtiruvchi yangi mafkura yoki model sifatida ham namoyon boʻladi.

Mintaqaviy innovatsion tizimni rivojlantirishda esa avvalo, unga xizmat koʻrsatuvchi institutlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish lozim. Chunki mintaqaviy innovatsion tizimni shakllantirishda institutlar tartibga soluvchi, normativ va madaniy maʼrifiy tayanch ustunlar sifatida maydonga chiqadi va zaruriy tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Institutsional tadbirkorlar mintaqaviy innovatsionni shakllantirishda bevosita taʼsir etuvchi omillar sifatida maydonga chiqadi va institutsional oʻzgarishlarni amalga oshiruvchi va jarayonni boshqaruvchi subyekt va subyektlar guruhlaridan tashkil topadi.

Umuman, mintaqaviy innovatsion tizimni shakllantirish mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ularga xizmat qiluvchi institutlarning mavjudligi eng muhim omillardandir.

Rivojlangan mamlakatlarda ITTKI

Tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarda ayniqsa ITTKI sohasi rivojlanishini rag'batlantirni qo'llab-quvvatlashda davlatning roli juda ham katta ekanligi aniqlandi. Bu tendentsiya oxirgi yillarda avvalambor yirik ilmiy loyihalar va dasturlarni amalga oshirish uchun shartnoma tizimidan foydalanish, ushbu soha infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ITTKni bevosita moliyalashtirish kabi ma'lum bir chora-tadbirlar tizimini inobatga oluvchi va umumiy iqtisodiy maqsadlar ustuvorligi rivojlanishini hisobga olishga asoslangan davlat ilmiy-texnikaviy siyosatini shakllantirishda o'z aksini topmoqda.¹³

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ITTKI ga ajratilgan mablag'larning deyarli yarmini davlat qoplaydi, bunda ma'lum bir iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy ustuvorliklarga, shu jumladan siyosiy ustuvorliklarga ham rioya qilinadi. Masalan, AQShda davlat ilm-fanga ajratilgan xarajatlarning deyarli yarmini moliyalashtirsa, Buyuk Britaniya va Frantsiyada ushbu sohaga ajratilgan xarajatlarning 50% dan ortiq qismini, GFRda esa 40% ni o'z bo'yniga oladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, davlat siyosatini shakllantirishga bo'lgan yondashuv har bir mamlakatda uning o'ziga xos milliy xususiyatlariga bog'liq ravishda: Finlandiyada – iqtisodiyotni diversifikatsiyalash bilan; Frantsiyada – anchayin kichik texnologik firmalarni yaratish bilan; AQShda – milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta tuzilishini qo'llab-quvvatlash bilan farqlanadi.¹⁴

2.3. Innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy qonuniyatlari

Innovatsion faoliyatning nazariy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Avstriyalik olim Y.Shumpeter innovatsion o'zgarishlarni besh yo'nalishga bo'lgan: yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni yangi

¹³ Қалмуратов Б.С. Минтақада инновацион бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини ривожлантириш стратегияси. PhD диссертацияси автореферати. Тошкент, 2019 й.

¹⁴ Инновационная политика: учебник / Л.П. Гончаренко, Ю.А. Артюнов. –М.:КНОРУС, 2009 й. –352 С.

bozor asosida ta'minlash; yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish; yangi xomashyolardan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash; yangi iste'mol bozorlarini ochish¹⁵.

K.Frimen 1987 yilda "Milliy innovatsion tizim" tushunchasini kiritgan. "Milliy innovatsion tizim" turli institutlarni birgalikda yoki alohida yangi texnologiyalarni yaratishga hissa qo'shgan va hukumat a'zolarining yangi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishiga ta'sir etuvchi innovatsion jarayondir. U o'zaro bog'langan institutlar tizimi bo'lib, ular "bilimlar, yangiliklar va yangi texnologiyalarni tashkil etish, saqlash va uzatishni amalga oshiradilar.

P.Drukerning fikricha, tadbirkorlarning innovatsion fikrlashlari bir-biridan farqlanadi. Innovatsiyalashtirish tadbirkorlikning ixtisoslashgan yo'nalishidir. Har bir tadbirkor o'zining ishlab chiqarish obyektida innovatsion tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga ixtisoslashgan innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlar esa umuman tadbirkorlik faoliyatining barcha yo'nalishlariga, ilm-fan va texnika taraqqiyotida qo'lga kiritganyangiliklari bilan ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish usullarini tashkil qilish asosida ularga xizmat qiladi¹⁶.

A.Businning fikriga ko'ra, innovatsiya asosiy kapital (ishlab chiqarish fondlarini) yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ilm-fan, texnika, texnologiyalar asosida yangilashdir. Innovatsiya hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida qonuniy va obyektiv jarayondir. Tadbirkorlik amaliyotida innovatsiya qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, innovatsion jarayonni ifodalaydi. Ayrim holatlarda ishlab chiqarish qisman emas, balki to'liq innovatsiyaga asoslanadi, natijada qat'iy yangi tasnifga va xususiyatga ega bo'lgan tovarda yoki foydalanishda ifodalanadi¹⁷.

Yu.Shvetsov, innovatsion jarayon yangilikni yaratish va amaliyotga qo'llash deb hisoblaydi¹⁸.

¹⁵Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982. С. 386.

¹⁶ Друкер П.Ф. Рынок: как выйти в лидеры. Практика и принципы.–М.: Бук Чембер Интернешнл, 2000. С. 41.

¹⁷ Бусыгин А.В. Предпринимательство: Учебник для вузов.–М.: Дело, 2010. С. 176.

¹⁸ Швецов Ю.Ф. Организационные методы сокращения длительности инновационных процесса. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора технических наук.–Самара: 2002. С. 7.

M.Saidovning fikricha, innovatsiya, avvalo, iqtisodiyotni rivojlantirishga qo'yilmalarning samaraliligi bilan tavsiflanadi, ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan oldingi avlod texnikasi va texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirishni ifodalaydi. Innovatsion faoliyat (yangiliklarni joriy etish) ishlab chiqarish yangi texnologiyalari negizida raqobatbardosh mahsulot (tovar) turlarini yaratish jarayoni. Bu jarayon g'oyaning paydo bo'lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan to'g'ri ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi¹⁹.


Innovatsiya yutuqlarining iqtisodiy natijalari ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslarni, mahsulot birligiga sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnatni tejashni, kishi boshiga mehnat unumdorligining oshib borishini, atrof-muhitning ekologik jihatdan ifloslanish darajasini kamaytirishni ta'minlashda, ishlab chiqarishda, ijtimoiy sohada band bo'lganlarning ish haqi va daromadlarining o'sib borishida, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash darajasini oshib borishida, ijtimoiy infratuzilmani rivojlanib borishida ifodalanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiyotni innovatsion asosda rivojlanishi tanlab olingan eng asosiy yo'li deb hisoblash mumkin.

Innovatsion jarayon quyidagi rivojlanish bosqichlariga ega: innovatsion g'oyalarning rivojlanishi; eng samarali innovatsion g'oyalarni aniqlash; innovatsion g'oyalarni amalga oshirishni iqtisodiy baholash; biznes rejada innovatsion g'oyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy xarajatlarni asoslash; ekspertlar tomonidan innovatsion g'oyalarni amalga oshirish biznes rejasini baholash; innovatsion rejalar asosida namunaviy mahsulotni ishlab chiqarish va bozor talablari asosida sinash; bozorda yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'zgartirishlarni kiritish va ularning bozordagi harakatlarini ishlab chiqarish; sinalgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish va bozorda sotilishini logistik ta'minlash.

¹⁹ Саидов М.Х. Олий таълим иқтисодиёти, инвестициялари ва маркетинги: Ўқув қўлланма. – Т.: Молия, 2003 Б. 74.

Aytish mumkin, ishlab chiqarish jarayonida ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni qoʻllanilishi natijasida ular ilmiy-texnikaviy innovatsiya mahsulotlariga aylanadi.

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatga nisbatan keng maʼnoga ega boʻlib, innovatsion jarayonning amalga oshirish xususiyatlari mavjud (2.5-rasm).



2.5-rasm. Innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlari

Iqtisodiyotni modernizatsilash diversifikatsiyalash sharoitida innovatsion jarayon isteʼmol talablari taʼsirida qisqa muddatlarda oʻzining yangiliklari bilan tavsiflanadigan jarayon boʻlib, uning harakati uzluksiz ravishda takomillashgan holda amalga oshirib boriladigan turli yoʻnalishlardagi harakatlarni oʻzida ifoda etadi. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida innovatsiya qoʻyilmalarining erkin harakati natijasida iqtisodiy subyektlar oʻrtasida erkin raqobatning darajasi oshib boradi.

Innovatsiya iqtisodiy kategoriya ekanligini nazariy jihatdan tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-innovatsion faoliyat innovatsiya, innovatsion jarayonga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, ilm-fan va texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga tatbiq etilishini ifoda etadi. Innovatsion faoliyat innovatsiya va innovatsion jarayonni to'liq qamrab oladi;

-innovatsiya ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish uchun yo'naltirilgan innovatsiya mablag'larining asosiy qismi bo'lib, ishlab chiqarish subyektlarining asosiy mablag'larida mujassamlashadi.

Innovatsion yangiliklarni ishlab chiqarish jarayonida qo'llashning samaradorligi ishlab chiqarish subyektlarining iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik samaradorligining o'sib borishiga olib keladi. Innovatsion samaradorlikni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin²⁰:

$$S_i = F_i X_i \cdot 100\%$$

bunda, S_i - innovatsion samaradorlik, % da;

F_i - innovatsion foyda, so'mda;

X_i - innovatsion xarajatlar, so'mda.

Respublika Birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi PP-916 raqamli "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari" to'g'risidagi Farmoniga asosan 2013 yil 1 yanvarigacha o'quv va ilmiy-tadqiqot korxonalari va tashkilotlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari foydadan to'lanadigan soliq, yagona soliq to'lovi, qo'shilgan qiymat solig'i va davlatning maqsadli fondiga majburiy to'lovlaridan (yagona ijtimoiy to'lovlardan tashqari) amaliy ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini xo'jalik subyektlari bilan xo'jalik bitimlari asosida ishlovchi subyektlar ozod qilinishi belgilangan edi va amalga oshirilgan.


Respublikada innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida 2002 yilda "Innovatsion ilmiy-texnikaviy faoliyatni moliyalashtirish Fondi" tashkil etilgan. O'tgan davr ichida 1070 ta innovatsion loyihalar bu fondan moliyaviy yordam oldilar (2.6-rasm).

2003 yilda davlat budjetidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 722,1 mln. so'm ajratilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda 4676,7 mln. so'mni tashkil etdi. Shu davr ichida innovatsion

²⁰ Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. – М.: Финансы и статистика, 2003. С. 325.

faoliyatga yoʻnaltirilgan nobudjet mablagʻlari 345,0 mln. soʻmdan 2238,3 mln. soʻmga koʻpaydi.

2003-2010 yillar respublikada innovatsion faoliyatni innovatsion loyihalar dasturi asosida bajarilish yoʻnalishlari agrosanoat majmui boʻyicha 14 tadan 138 taga, mashinasozlik va asbobsozlik boʻyicha 12 tadan 63 taga, sogʻliqni saqlash boʻyicha 8 tadan 113 taga, ekologiya boʻyicha 2 tadan 36 taga, farmakologiya boʻyicha 7 tadan 89 taga, axborot texnologiyasi boʻyicha 2 tadan 102 taga, geologiya va qayta ishlash tarmoqlari boʻyicha 3 tadan 68 taga, energetika boʻyicha 12 tadan 115 taga, kimyoviy texnologiya boʻyicha 12 tadan 91 taga va ijtimoiy yoʻnalish boʻyicha 40 tadan 247 tagacha koʻpaydi.



2.6-rasm. Respublikada innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat budjeti va nobudjet mablagʻlaridan foydalanish

Tahlil qilinayotgan davrda mashinasozlik va asbobsozlik hamda ekologiya yoʻnalishlaridan tashqari boshqa tarmoqlarda tegishli dasturlar bajarilayotgan loyihalar soni oshib borgan.

Respublikada hozirda “Innovatsion rivojlanish” vazirligi tashkil qiligan va innovatsion faoliyatni faollashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirilmoqda:

-Oʻzbekiston respublikasi fanlar akademiyasi xodimlari bilan oliy oʻquv yurtlarini hamkorligini yoʻlga qoʻyish;

- oliy oʻquv yurtlarida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shugʻullanuvchi ilmiy xodimlar tayyorlash;

- davlat darajasida strategik ahamiyatga molik tarmoqlardagi innovatsion faoliyatni davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish; -

mintaqalarda EIZ logistik innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kichik korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish;

- innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xodimlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;

-innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi qo‘shma korxonalarni tashkil etish uchun tegishli sharoitlarni yaratish va ular tomonidan yaratilgan yangiliklarni litsenziyalashtirish asosida jahon bozoriga olib chiqish va h.z

Innovatsion mahsulotlarning ko‘payib borishi davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar miqdoriga ham bog‘liq (2.4-jadval).

2.4-jadval

O‘zbekiston Respublikasi YaIM dagi innovatsion mablag‘larning ulushi

Yillar	YaIM (mlrd. so‘m)	YaIM o‘shish sur‘ati (%)	Innovatsion mablag‘lar (mln. so‘m)	Innovatsion mablag‘larning YaIM dagi hissasi (%)
2003	9844,0	4,2	722,1	0,73
2004	12261,0	7,4	891,3	0,72
2005	15923,4	7,0	994,1	0,62
2006	21124,9	7,5	544,4	0,25
2007	28190,0	9,5	1744	0,61
2008	38969,8	9,0	1749,5	0,44
2009	48097,0	8,1	3419,4	0,71
2010	61831,2	8,5	4676,7	0,75

Respublikada yalpi ichki mahsulot (YaIM) tahlil etilayotgan davrda 6 barobarga o‘sgan bo‘lsada, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun budjetdan ajratilayotgan mablag‘larning YaIM dagi hissasi 2003 yilda 0,73 % bo‘lgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib 0,75 %ni tashkil etdi.

Respublikada innovatsion taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar mavjud. Respublikada innovatsion rivojlanish davrini uch bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchi bosqich 1991-1994 yillarni o‘z ichiga qamrab olib, iqtisodiyotni bozor mexanizmlariga asoslangan holda rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion shart-sharoitlar yaratildi. Ikkinchi bosqich 1995-2000 yillarni o‘z ichiga

qamrab olib, milliy iqtisodiyotning innovatsion asosda rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Uchinchi bosqich 2001 yildan boshlanib, u amaliyotga muqobil innovatsion yangiliklarni qo'llash asosida iqtisodiyot taraqqiyotining makroiqtisodiy barqaror rivojlanishiga erishilganligi bilan ifodalanadi.

Xususan, 2006-2009 yillarda iqtisodiyotga qilingan jami investitsiyalarning 49,5 %i sanoatdagi asosiy fondlarni yangilashga yo'naltirilgan investitsiyalarning hissasiga to'g'ri keldi. 2006-2010 yillarda sanoatda asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti o'rtacha 10,2 %ni tashkil etdi. Bunda sanoat ishlab chiqarish fondlarining yangilanish koeffitsientining yuqori darajasi elektroenergetika tarmog'ida 15 %; qurilish materiallari sanoatida 12 %; yengil sanoat tarmog'ida 18 %; poligrafiya sanoatida 20 % kuzatildi.

Yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlar bilan birga, sanoatni YaIM ning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashdagi rolini oshirishga salbiy ta'sir qilayotgan omillar ham mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Sanoatning YaIMdagi salmog'i darajasi sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar darajasiga yetmaganligi. 2010 yilda sanoatning YaIMdagi salmog'i 24,0 %ni tashkil qildi. Bu esa, sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar darajasidan sezilarli darajada past. Mazkur mamlakatlarda sanoatning YaIMdagi salmog'i 28-32 %ni tashkil etadi.

2. Aylanma mablag'larning yetishmasligi, pul oqimining zaifligi, sanoat korxonalarining aksariyat qismida ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining narh indeksining yuqoriligi, narhlarning o'sish sur'atini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atidan yuqoriligi koeffitsienti 1,12 ni tashkil qildi. Holbuki mazkur davrda ushbu koeffitsientning o'rtacha darajasi MDH mamlakatlarida 1,07 ni tashkil qilgan.

4. Sanoatda tashkil qilingan ayrim qo'shma korxonalarining to'la quvvatda ishlamayotganligi.

Mazkur muammolarni hal qilish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Hozirgi davrda respublikamizda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning umumiy hajmida innovatsion

tovarlarning salmog'i past bo'lib, 15-17 %ni tashkil etmoqda. Buning uchun innovatsion mahsulotlar salmog'ini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida oshirish, mahsulotlarning energiya sig'imini kamaytirish yo'li bilan sanoat tovarlarining raqobatbardoshligini ta'minlash zarur.

2. Sanoat korxonalarining aylanma mablag'larini to'ldirish va pul oqimining barqarorligini oshirish maqsadida mazkur korxonalarni mamlakat banklarining kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatadigan tijorat banklarining ustav kapitalida davlatning hissasini oshirish va ushbu mablag'lar hisobidan sanoat korxonalarini imtiyozli kreditlashni yo'lga qo'yish lozim.

3. Sanoat korxonalarida narxlarning o'sishini ishlab chiqarish hajmining o'sishidan yuqori bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, birinchidan, ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar miqdorining o'sish sur'atini mehnat unumdorligining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishining oldini olish lozim; ikkinchidan, tabiiy monopoliya hisoblanadigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning o'sishiga nisbatan hukumat iqtisodiy normativlarini joriy qilishi zarur. Mazkur iqtisodiy me'yorlar tabiiy monopoliyalar ishlab chiqaradigan mahsulot va xizmatlarning o'sish sur'atini sanoat mahsulotlariga bo'lgan narxlarining umumiy indeksidan yuqori bo'lishining oldini olish imkonini berishi lozim.

4. Sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalarining to'la quvvatda ishlashini ta'minlash maqsadida: xorijdan yetkazib berilayotgan mashina va uskunalarning sifatini nazorat qilish amaliyotini takomillashtirish lozim; mutaxassislarining investitsion loyihalar samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni baholash borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish choralarini ishlab chiqish zarur; qo'shma korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlariga ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishini prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishni takomillashtirish zarur; mahalliy xomashyodan foydalanish darajasini oshirish lozim. Kelajakda qilinishi kerak bo'lgan ishlarni belgilash uchun shu tahlillarni ko'rib chiqishni joiz deb bildik. Albatta bugungi kunga kelib yuqorida keltirilgan tahlillar anchaga ijobiy o'zgarigan va yechilishi kerak bo'lgan muammolar ham kamaygan. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, innovatsiyalar hisobiga iqtisodiy

rivojlanishni ta'minlash innovatsion faoliyatni rag'batlantirish tizimini tashkil etishga bog'liq.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Innovatsion logistikani boshqarishda qanday usullardan foydalaniladi?
2. Mikrologistik tizim deb nimaga aytiladi ?
3. Oltin kesish qoidasi qanday holatlarda qo'llaniladi ?
4. Ta'minotchini tanlash masalasi qanday usul orqali aniqlanadi ?
5. Moddiy oqimlar bilan bog'liq logistik operatsiyalarni sanab bering.
6. ISO 9000- sifatni boshqarish tizimi nimalarni o'z ichiga ?
7. Logistik koordinatsiya funktsiyalari.
8. Logistik strategiyani shakllantirishda asosan nimalarga ahamiyat qaratiladi ?
9. Moddiy oqimni boshqarishning MRT tizimi deb nimaga aytiladi ?
10. Xalqaro ISO standartlari nechanchi yilda chop etilgan?

2-Modul. Logistika obyektlari tadqiqoti

3-mavzu. Logistika infratuzilmalari

3.1. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning mohiyati va uning maqsadi

3.2. Ilmiy texnika taraqqiyotini va innovatsion logistikani boshqarishning huquqiy asoslari

3.3. Innovatsion logistik faoliyatda ilmiy tadqiqotlarni olib borishning boshqarish mexanizmi

3.4. Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlari va ularning huquqiy muhofazasi tavsifi

3.1. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning mohiyati va uning maqsadi

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitidagi ma'ruzasida ... “ Bizning nazari-mizda, mamlakatlarimizni innovatsion asosda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bugungi kunda biz axborot kommunikatsiya yutuqlari, ilg'or texnologiyalar hayotga shiddat bilan kirib kelatyogan va barcha sohalarda keng qo'llanilayotganligini ko'rib turibmiz. Har qanday davlatning uzoq istiqbolda ham raqobatbardosh bo'lishi va barqaror taraqqiyoti aynan shu omillarga bog'liq. Shu munosabat bilan biz ushbu yo'nalishdagi dastur-loyihalarni amalga oshirish maqsadida, inovatsion taraqqiyot uchun ma'sul idoralar, ilmiy tadqiqot markazlari va venchur kompaniyalarimiz o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirishni taklif etamiz”, -deb ta'kidlab o'tganliklari e'tiborli bo'ldi.²¹

Shuningdek, 2018 22 sentyabrdagi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши саммитидаги маърузасидан. “Халқ сўзи” газетаси, 04.09.2018-йил, № 182. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим йўналишлари”га бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси, Халқ сўзи, 2017 йил 21-январ сони

Davlatning innovatsion siyosati- ilmiy tadqiqotlar, ishlanmalar, tajriba-konstruktorlik ishlari, fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda iqtisodiyotga jalb etiladigan takomillashgan texnologik jaryon, takomillashgan mahsulot yaratish tushuniladigan innovatsion faoliyatni rivojlantirish va ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

Davlat innovatsion siyosati mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, aholining turmush sifati va darajasini oshirish, texnologik va ekologik xavfsizligini taʼminlash uchun innovatsion faoliyat ustuvorliklaridan kelib chiqib shakllantiriladi va amalga oshiriladi.

Davlat innovatsion siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

– innovatsion faoliyat uchun mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligining oʻsishi, fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etishni taʼminlaydigan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratish;

– fan-texnika salohiyatini rivojlantirish, ulardan samarali foydalanish va ularning infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish;

– fan va texnikaning mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, eng muhim ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishga, moddiy ishlab chiqarish sohasida ilgʻor tarkibiy oʻzgarishni taʼminlashga, uning samaradorligi va raqobatbardoshligini oʻsishiga qoʻshadigan hissasini oshirish;

– mamlakatning mudofaa qobiliyatini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini mustaxqamlash.

Qoʻyilgan maqsadlarga erishish uchun davlat innovatsion siyosatining quyidagi vazifalarini hal etishi lozim:

– davlat ustuvor siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini belgilash va amalga oshirish;

– iqtisodiyotda ilgʻor tarkibiy oʻzgarishlarni taʼminlash;

– logistik innovatsion faoliyat infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish;

– mahalliy innovatsion mahsulotlarni xalqaro bozorda qoʻllab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni, shuningdek logistikani rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– innovatsion faoliyatni rivojlantirishda fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliya-kredit sohasining o'zaro aloqalarini ta'minlash;

– iqtisodiyotni o'sish sur'ati, strategiyasi va uning tarkibiy muvozanatlanganligini belgilab beradigan asosiy yo'nalishlarda iqtisodiyotning rivojlanishini barqarorlashtirish uchun ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishni ta'minlash.

Innovatsion sohada davlat organlarining asosiy funktsiyalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– davlat innovatsion siyosatini shakllantirish;

– innovatsion jarayonlarning huquqiy asosini yaratish, ayniqsa, innovatorlarning mualliflik huquqlarini va intellektual mulkni himoya qilish;

– innovatsiyalarni, shu sohadagi raqobatni rag'batlantirish, innovatsion risklarni sug'urtalash, eskirgan mahsulot chiqarganlik uchun davlat jarima choralari joriy qilish;

– innovatsion soha infratuzilmasini shakllantirishda qatnashish;

– fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, innovatsiyalarning ijtimoiy va ekologik yo'nalganligini ta'minlash;

– ustuvor ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarga resurslar ajratish;

– davlat sektori tashkilotlarida innovatsion jarayonlarni institutsional ta'minlash;

– innovatsion va ilmiy-texnik faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslarning jamiyatdagi maqomini oshirish;

– logistik innovatsion soha uchun kadrlar tayyorlash;

– mintaqalarda innovatsion jarayonlarni tartibga solish;

– innovatsion jarayonlarning xalqaro jihatlarini tartibga solish;

– milliy innovatsion tadbirkorlik manfaatlarini himoya qilish.

Davlat innovatsion siyosatining eng muhim tamoyillari quyidagilarsanaladi:

– mahalliy ilmiy salohiyatga tayanish;

– ilmiy ijod erkinligi, ilmiy sohani izchil demokratizatsiyalash, ilmiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda ochiqlik va oshkoralik;

– fundamental ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishini rag'batlantirish;

– mamlakatdagi yetakchi ilmiy maktablarni saqlab qolish va rivojlantirish;

– fan va texnika sohasida sog‘lom raqobat va tadbirkorlik uchun sharoitlar yaratish, logistik innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

– mamlakatning milliy xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini ta‘minlash maqsadida ilmiy tadqiqot va loyihalarni tashkil qilish uchun sharoitlar yaratish;

– fan va ta‘limni integratsiyalash, barcha pog‘onada malakali ilmiy kadrlar tayyorlash to‘laqonli tizimini rivojlantirish;

– tadqiqotchilar, tashkilotlar va davlatning intellektual mulk huquqini himoya qilish;

– ochiq axborotlarga qiyinchiliksiz ulanishni va uni erkin ayirboshlash huquqini ta‘minlash;

– mulkchilik shakli xilma-xil bo‘lgan ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarini rivojlantirish, kichik innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion logistikani rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish;

– fan yutuqlaridan keng foydalanish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish, O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan fan-texnika yutuqlari keng tarqalishiga ko‘maklashish;

– ilmiy mehnat nufuzini oshirish, olimlar va mutaxassislar uchun turmush va ish sharoitlari yaratish;

– zamonaviy fan yutuqlarini, ularning O‘zbekiston kelajagi uchun ahamiyatini targ‘ib qilish.

Innovatsion siyosatning negizlari mamlakatdagi real, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy vaziyatga mos keladigan iqtisodiy qonunlar to‘plamini qabul qilish yo‘li bilan asos solinadi. Boshqaruv obyektlari va subyektlari, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari ushbu qonunlarda belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasida bir qancha innovatsiyalar va ilmiy-texnik faoliyatning tartibga soluvchisi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Shulardan: 2008 yildagi“Innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Farmoni, 15 iyun 2008 yilda“Innovatsion loyihalar va

texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2010 yilda "Respublika loyiha-tadqiqot tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari mavjud edi.

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatni me'yoriy-huquqiy tartibga solish quyidagilarni ta'minlashi lozim bo'lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish vajoriy qilishni nazarda tutgan:

1)innovatsion faoliyat mahsulotlarini sotishdan olingan foyda va mablag'larning bu ulushini imtiyozli soliqqa tortish hisobiga davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar va xususiy shaxslar o'z daromadlarining sezilarli qismini innovatsion faoliyatga kiritishdan manfaatdorligi;

2)kooperatsiya bo'yicha barcha hamkorlar va qatnashchilarning innovatsion g'oyani tovar ko'rinishigacha yetkazish va soliq to'lovlarini kamaytirish yoki soliqlardan ozod qilish hisobiga ularni bozorda tijorat asosida sotish;

3)innovatsion faoliyat qatnashchilarining kafolatlangan va imtiyozli kredit olish imkoniyati;

4)ilmiy jamoalarning ham, alohida olimlar va mutaxassislarning ham intellektual mulk huquqlari himoya qilinishini ta'minlash;

5)innovatsion jarayon qatnashchilari va ijrochilarining ham, bu jarayonlarni moliyalashtiruvchi investorlarning ham sug'urta himoyasi va umume'tirof etilgan ijtimoiy maqomini ta'minlash.

3.2. Ilmiy texnika taraqqiyotini va innovatsiyalarni boshqarishning huquqiy asoslari

Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni va innovatsion logistikani, ilmiy texnika taraqqiyotni boshqarish va tartibga solishga Prezident Sh.M.Miziyoyevning 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni ("Xalq so'zi" gazetasi, 04.09.2018-yil, № 182) asos bo'ladi.

Zamonaviy jahon iqtisodiy rivojlanishiga xos bo'lgan jihat dunyoning yetakchi mamlakatlari jamiyat rivojlanishining yangi

bosqichiga - asosan bilimlar yaratish, tarqatish va foydalanishga asoslanadigan iqtisodiyot yaratishga o'tishi hisoblanadi. Noyob ko'nikma va qobiliyatlar, ularni doimiy ravishda o'zgarib turadigan faoliyat sharoitlariga moslashtirish, yuqori malaka yetakchi ishlab chiqarish resursiga, shaxs va tashkilotning ijtimoiy maqomi va moddiy farovonligining asosiy omiliga aylanadi. Intellektual kapitalga (inson kapitaliga) investitsiyalar resurslarni joylashtirishning eng samarali usuliga aylanadi. Nomoddiy aktivlar firmalar va korporatsiyalar mablag'larida tobora kattaroq ulushni tashkil etmoqda. Yangi fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ishlab chiqarishning jadallashuvi innovatsion tsiklning keskin qisqarishi, mahsulot va texnologiyalarni yangilash sur'atining tezlashishini belgilab berdi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlatning izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi ta'minlanishi (texnologiyalar ortda qolishini bartaraf etish) birinchi navbatda rivojlangan milliy innovatsion tizim mavjudligi bilan ta'minlanadi. Milliy innovatsion tizimning barcha elementlari shakllanishi va samarali o'zaro aloqa qilishi davlat innovatsion siyosatining bosh maqsadi hisoblanadi.

U yoki bu mamlakatning davlat innovatsion siyosati, qoidaga ko'ra, ma'lum bir nazariy modelning "sof" ifodasi hisoblanmaydi, balki turli yo'nalishdagi chora-tadbirlar to'plamini ifodalaydi, bunda milliy innovatsion siyosatlarning jiddiy o'ziga xosliklarini qayd etish mumkin. Turli mamlakatlarning zamonaviy bosqichdagi innovatsion siyosatida quyidagi eng muhim yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Innovatsion siyosatni shakllantirishda uning harakatidagi asosiy yo'nalishni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa innovatsion siyosatning ikkita asosiy modelini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

1. Umummilliy yo'nalishdagi ilmiy-texnik dasturlar va loyihalarni bajarishga yo'naltirilgan innovatsion siyosat modeli. Bu yerda asosiy maqsad mamlakat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan sohalardagi ijobiy imkoniyatlarning rivojlanishini rag'batlantirish hisoblanadi.

2. Ilmiy-texnik bilimlarni tarqatishga yo'naltirilgan innovatsion siyosat modeli. Bunday siyosatning asosiy maqsadi - yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish qobiliyatini oshirish

hisoblanadi. Bu ko‘pincha logistik innovatsion infratuzilmani, ta’lim tizimi va professional tayyorgarlikni takomillashtirishga tegishli.

O‘tkazilayotgan innovatsion siyosatga qarab, dunyo mamlakatlari uchun guruhga ajratish mumkin:

1. Fanda yetakchilikka, innovatsion tsiklning barcha bosqichlarini qamrab oladigan keng miqyosli maqsadli loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan, qoidaga ko‘ra, harbiy sohada ilmiy-innovatsion salohiyat ulushi katta bo‘lgan mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya).

2. Qulay innovatsion muhit yaratish, butun iqtisodiyotni optimallashga yo‘naltirilgan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Shvetsariya).

3. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga moyillikni ta’minlash, fan va texnologiyalar sohasida turli sektorlar harakatlarini muvofiqlashtirish yo‘li bilan yangiliklar kiritishni rag‘batlantiradigan mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya).

Ta’kidlash joizki, har bir mamlakatda davlat innovatsion siyosatini shakllantirishga yondashuv mamlakatlarning milliy xususiyatlariga qarab farqlanadi: Finlyandiya - iqtisodiyotni diversifikatsiyalash; Frantsiya -kichikroq texnologik firmalar yaratish; AQSh - milliy iqtisodiyotni qayta strukturalashni qo‘llab-quvvatlash. O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, lekin bularning hammasida logistika va innovatsion logistikaning rivojlanishiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Har bir davlat, o‘zining innovatsion siyosatini ishlab chiqar ekan, o‘z oldiga ma’lum bir maqsadlarni qo‘yadi va rivojlanishning barcha ichki va tashqi omillari yig‘indisini hisobga olib, talab qilingan innovatsion faollik darajasiga erishishga imkon beradigan u yoki bu taktika va strategiyani tanlab oladi.

Innovatsion faollik darajalarini chegaralash quyidagi yo‘nalishlarni ko‘zdatutadi:

– innovatsion faollik texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish bilan cheklanadi;

– innovatsion faollik qisman ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklar kiritishga yo‘naltiriladi;

– innovatsion faollik milliy iqtisodiyotni isloh qiladi;

– innovatsion faollik jahon hamjamiyatining ijtimoiy rivojlanish yoʻnalishlarini oʻzgartiradi.

Innovatsion faollik darajasi toʻlaligicha innovatsion strategiya bilan, toʻgʻrirogʻi, uning koʻrsatkichlari bilan belgilanadi, innovatsion jarayon esa bunda jamoat tizimining tarkibi boʻyicha ham, darajasi boʻyicha ham har xil elementlarini jalb qiladigan jarayonni ifodalaydi. Shu sababli bu elementlarning innovatsion jarayondagi integratsiya darajasi va ularni amalga oshirish samaradorligi innovatsion strategiya koʻrsatkichlarining muvofiqlik darajasiga bogʻliq boʻladi.

Innovatsion strategiya bu - jamiyat rivojlanishi yoʻnalishiga muvofiq texnologiyalarda ham, texnologiyalarni boshqarishda ham yangiliklar kiritishni tanlash va amalga oshirish tizimlarini oʻzgartirish jarayonini belgilab beradigan qoidalar va meʼyorlar toʻplamidir. Innovatsion strategiyaning eng oliy vazifasi - innovatsion jarayon qatnashchilarining manfaatlari va turli yoʻnalishdagi jarayonlarni maksimal darajada uygʻunlashtirish hisoblanadi.

Yangiliklar kiritishni amalga oshirish, koʻp ilm talab qiladigan mahsulot chiqarish va eksport qilishda muvaffaqiyatga erishgan rivojlangan mamlakatlar tajribasi innovatsion siyosat rivojlanishi strategiyalarining ayrim turlarini ajratib koʻrsatishga imkon beradi. Har bir davlatning oʻz innovatsion strategiyasi boʻlgani kabi Oʻzbekistonning ham oʻz strategiyasi bor.

“Koʻchirib oʻtkazish” strategiyasi mavjud xorijiy ilmiy-texnika salohiyatidan foydalanish va yangiliklar kiritishni oʻz iqtisodiyotiga koʻchirib oʻtkazishdan iborat. Bu strategiya birinchi navbatda, Yaponiyada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda foydalanilgan, AQSh, Angliya, Frantsiya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarda xorijda talab yuqori boʻlgan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni oʻzlashtirish uchun yuqori samarali texnologiya litsenziyalar xarid qilingan, kelgusida fundametal tadqiqotlar va loyihalardan tortib to innovatsiyalarni joriy qilish, ularni mamlakat ichkarisida va jahon bozorida amalga oshirishgacha boʻlgan butun innovatsion tsiklni taʼminlagan oʻzining ilmiy-texnik va ilmiy-uslubiy salohiyati yaratilgan.

“Oʻzlashtirish” strategiyasi shundan iboratki, arzon ishchi kuchiga tayangan oʻzining yoʻqotilayotgan ilmiy-texnik salohiyati bir qismidan foydalangan holda ilgari sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab

chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish o'zlashtiriladi, kelgusida ishlab chiqarishga muhandislik-texnik hamkorlik qilish hamda iqtisodiyotning davlat va bozor shakllarini uyg'unlashtirgan holda innovatsion faoliyatni kuchaytirishni ta'minlash, o'zining ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazishga qodir bo'lgan ilmiy-texnik salohiyat tiklanadi.

Bundan strategiya Xitoyda va Janubiy-Sharqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarida qabul qilingan. Klassik misol - Janubiy Koreyaning raqobatbardosh avtomobil sanoati, yuqori samarali hisoblash texnikasi, maishiy elektronika vositalari ishlab chiqarishning yaratishi.

Rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar, birinchi navbatda, AQSh, Angliya, Germaniya, Frantsiyada amal qiladigan "*oshirish*" *strategiyasi*shundan iboratki, o'zining ilmiy-texnik salohiyatidan foydalangan, chet ellik olimlar va konstruktorlarni jalb qilgan, universitetlarning fundamental fanlari va firmalarning amaliy fanlarini integratsiyalagan holda doimiy ravishda ishlab chiqarishda va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan yuqori texnologiyalar, yangi mahsulotlar yaratiladi, ya'ni innovatsiyalarni muntazam oshirish ro'y beradi.

O'zbekiston mavjud intellektual salohiyatga va ilmiy-texnik resurslargatayanadigan innovatsiyalarni faollashtirish strategiyasini tanlab olishi zarur bo'ldi va amalga oshirilmoqda.

Innovatsion o'sish strategiyasini amalga oshirish va global ilmiy-texnologik makonda munosib o'rin egallash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, mamlakatning mavjud ilmiy, ixtirochilik va konvertsiya loyihalarni, to'plangan ilmiy kashfiyot va ishlanmalarni, mahalliy ixtirolarni, konstruktorlik yutuqlarini inventarizatsiyalash, obyektiv malakali baholashni o'tkazish, yetakchi o'rinlardan birini egallash yoki yetakchilar orasida bo'lib qolishi mumkin bo'lgan kam sonli ustuvor yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish uchun potentsial samarasi va yangilik darajasi bo'yicha ularni texnologik ukladlar va avlodlar bo'yicha tasniflash. Bu yerda ixtiro uchun berilgan arizaning jahon miqyosidagi yangiligini baholaydigan patent idorasi ekspertlari foydali bo'lishi mumkin. Innovatsion mahsulotlar yangiligi, raqobatbardoshligi va samaradorligiga asosli baholar berishga qodir bo'lgan akademik olimlar va oliy o'quv yurtlarining professor-

o'qituvchilari, texnologlar va iqtisodchilarni jalb qilish, ITTKIga qo'yilmalar va investitsiyalarni kutilayotgan iqtisodiy (tijorat) va boshqa foydali natijalar bilan taqqoslash lozim. Inventarizatsiya bo'yicha ishlar birinchi navbatda, innovatsion-texnologik ustuvorliklar bo'yicha o'tkazilishi va nafaqat fuqarolik mahsulotlarini, balki ikki xil yo'nalishdagi vazifalar bajaradigan mudofaa texnologiyalarini ham qamrab olishi lozim; bunga yetarli miqdorda mablag'lar ajratilmoqda. Bunday ishlar MDH mamlakatlarida, birinchi navbatda, uni tarmoqlarda integratsiya uchun yetarli salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlarda ham o'tkazish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, mamlakat ichkarisida ham, sanoat texnologiyalaridan foydalanish amaliyotda (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy) eng katta samara, shuningdek, MDH mamlakatlari va boshqa manfaatdor mamlakatlar bilan sa'y-harakatlarni birlashtirishda integratsion samara beradigan jahon bozoridagi integratsion maydonda ham texnologik "nisha"larni baholash bo'yicha ishlarni tashkish qilish. Gap innovatsion o'sish katta samara berishi mumkin bo'lgan global, tsivilizatsion va milliy rivojlanishning muhim nuqtalarini aniqlash haqida boradi. Bu nafaqat batamom yangi sanoat va qishloq xo'jaligi tovarlari, transport,logistika va axborot xizmatlarining shakllanayotgan bozorlari, balki sog'liqni saqlash, xavfli epidemiyalarga qarshi kurashish, ekologiya, ta'lim, madaniyat va h.k. sohalardagi milliy va global muammolarni hal qilishda jiddiy o'sishga erishish mumkin bo'lgan yo'nalishlar hamdir. Bu yerda, albatta, birinchi o'rinda iqtisodchilar turadi, lekin tibbiyot mutaxassislari, demograflar, pedagoglar, madaniyat namoyondalari va boshqalar ham kerak.

Uchinchidan, aytib o'tilgan ikki yondashuvni birlashtirish istiqbolli jahon bozorlarida va ayniqsa, avvalgi ilmiy va texnologik aloqalar saqlanib qolgan hamda yangi avlod texnologiyalarini birgalikda o'zlashtirish va uchinchi mamlakatlar bozorlarida birgalikda ishtirok etish ehtiyoji vujudga kelgan MDH va chet mamlakatlarining qayta integratsiyalanayotgan bozorlarida ishtirok etish uchun strategik innovatsion ustuvorliklar ro'yxatini aniqlashga imkon beradi. Kuchlarni sochib yubormaslik uchun bunday ustuvor yo'nalishlar ro'yxati keng bo'lmasligi, shu bilan bir paytda differentsiatsiya qilingan, faqat integratsion-innovatsion o'sishda ishtirok etishga qiziqishi va imkoniyatlari bo'lgan manfaatdor mamlakatlarnigina

qamrab olishi lozim. Biroq MDH mamlakatlari bilan cheklanib qolinmayapti; ayrim yoʻnalishlar boʻyicha Sharq mamlakatlari (Hindiston, Xitoy), Boltiqboʻyi va sobiq Iqtisodiy hamkorlik ittifoqi mamlakatlari (Vetnam, Sharqiy Yevropa davlatlari), shuningdek, Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Frantsiya, Italiya) bilan birgalikdagi ustuvorliklar, innovatsion dasturlar va loyihalar amalga oshirililyapti va bu boʻyicha katta ishlar bajarilmoqda.

Toʻrtinchidan, birgalikdagi muhim qiziqishlarni ifodalaydigan tanlab olingan va muvofiqlashtirilgan integratsion-innovatsion ustuvorliklar qatnashchilar soni har xil boʻlgan davlatlararo maqsadli ilmiy-texnik va innovatsion dastur va loyihalarning obyektiga aylanishi lozim. Hozircha bunday dastur va loyihalar soni juda koʻpayib boʻlib qoldi. Shu bilan bir paytda Yevropa Ittifoqi dasturlari doirasidagi loyihalarda, “Evrika” Yevropa investitsion dasturida, LIERN Yevropa reaktori va Xalqaro kosmik stantsiya turidagi boshqa xalqaro dastur va loyihalarda faolroq ishtirok etish yoʻlga qoʻyilmoqda.

Beshinchidan, istiqbolda ilgʻor texnologiyalarini oʻzlashtirish uchun investitsiyalarning, avvalo toʻgʻridan-toʻgʻri chet el investitsiyalarining innovatsion yoʻnalganligini taʼminlash zarur. Xorijiy qatnashchilar ishtirokidagi investitsion loyihalarning ham, investitsion va boshqa asbob-uskuna va texnologiyalar xaridining ham innovatsion-texnologik ekspertizasi aynan shunga qaratilgan boʻlishi lozim. Eksportni qoʻllab-quvvatlash va import oʻrnini bosish siyosati, bojxona siyosati innovatsion ustuvorliklarni qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim.

Oltinchidan, innovatsion oʻsish strategiyasning global jihatlarini institutsional taʼminlash zarur. Avvalo, xalqaro huquq meʼyorlariga javob beradigan qonunchilik, qulay innovatsion muhit yaratish, tashqi bozorda innovatsion ustuvorliklarni amalga oshirish qatnashchilarining manfaatlarini va mahalliy intellektual mulkni himoya qilish lozim. Innovatsion ustuvorliklarni amalga oshirish hamda tashqi bozorda innovatsion dastur va loyihalarni bajarishda qatnashchilarning pozitsiyalarini mustahkamlash uchun xalqaro strategik ittifoqlar va baynalminal korporatsiyalar yaratish yoʻlidan borish zarur.²²

²² Салихов С.А., Хотамов И.С. Инновацион фаолиятни бошқариш. ”Иқтисодиёт”, 2012 й.


Ettinchidan, jahon bozorlarida innovatsion o‘shish uchun kadrlar masalasini hal qilishda yangicha yondashuvlar zarur. Xorijga emigratsiya qilgan ilmiy xodimlar yirik va hozirgacha amalda foydalanilmay qolib kelayotgan zahira hisoblanadi, shuni uchun ham hozirda ularni vatanga qaytarish ishlari ketyapti. Baholarga ko‘ra, 1991-1997 yillarda ularning soni 13,6 ming kishini tashkil qilgan edi, ularning ko‘pchiligi xorijiy tadqiqotchilik tashkilotlari va universitetlarda bilim va tajriba orttirgan bo‘lib, ilmiy-texnik va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda faol hamkorlik qilishi mumkin. Tanlab olingan strategik ustuvorliklar bo‘yicha fan, oliy o‘quv yurtlari va ishlab chiqarishning integratsiyasi ularni amalga oshirishga iqtidorli yoshlarni jalb qilishga xizmat qiladi. Har bir innovatsion dasturda (loyihada) innovatsion o‘shishni kadrlar bilan ta‘minlash, jumladan, shu sohada xalqaro hamkorlikni ta‘minlash bo‘yicha resurslar bilan ta‘minlangan bo‘lim ko‘zda tutish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilgan.

3.3. Innovatsion faoliyatda ilmiy tadqiqotlarni olib borishning boshqarish mexanizmi

Davlatning innovatsion tizim modelini (3.1-rasm) amalga oshirilishi ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) jalb qilingan ilmiy xodimlarning faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan tegishli infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mamlakatda intellektual shaxsiy mulkni himoya qilish, ishbi-larmonlik sharoitini yaratish, innovatsion jarayonni tashkil etish, yangi loyihalarni vujudga kelishi uchun zarur bo‘lgan sharoitni yaratadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida innovatsiya ishlarini olib boruvchi subyektlar investorlar bilan innovatsiya munosabatlarini ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlik asosida tashkil etishlari zarur.

Ushbu mavzuda mamlakatimizda oxirgi 10 yillikdagi innovatsiya faoliyati holati va moliyalashtirish masalalarini tahlil qildik. Ammo bu masalarni yechimi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2019-2021 yillarda O‘zbekistonni innovatsion rivojlanirish strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonida ko‘rsatib berildi.



3.1-rasm. Davlatning innovatsion tizim modeli

Innovatsiya faoliyatini olib boruvchi subyektlar ishtirokida ishlab chiqarish natijalarining samaradorligini oshirish uchun ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, institutlar, maxsus texnologik yokikonstruktorlik bo'limlari, hamda yirik korporatsiya, kontsern, aktsionerlik birlashmalari huzurida yangiliklarni izlovchi bo'limlarni tashkil etish zarur.

Innovatsiya munosabatlarini takomillashtirish uchun innovatsion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ilmiy izlanish jarayoni darajalaridan kelib chiqqan holda subyektlar o'rtasida innovatsion munosabatlarni tashkil etish darajasiga, innovatsion ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot bilan innovatsion subyektlarni ta'minlashga va yuqori intellektual darajaga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb etishga, innovatsion ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlashga, innovatsiya ishlarini olib boruvchilar faoliyatlarining samarali bo'lishini ta'minlash uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Innovatsion tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish yoki yangi yo'nalishda tashkil etish bilan bog'liq bo'lib, uning yo'nalishini aniqlash uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- tashkil etilayotgan ishning yangilik darajasiga;
- yangi ishlab chiqarish yo'nalishidagi tovar ishlab chiqarishning mavjud emasligiga, uning iste'mol bozorining mavjudligiga;

- shu yoʻnalish boʻyicha yangi innovatsion mahsulotlarni yoki xizmat turlarini investitsiyalashning zarurligiga;
- innovatsion investitsiyalashtirish munosabatlarini shakllantirish uchun zarur boʻlgan muhitning mavjudligiga;
- innovatsion investitsiyalashtirish faoliyatini olib borish uchun zarur boʻlgan malakali xodimlar va mutaxassislar bilan taʼminlanish darajasiga.

Innovatsion faoliyatni faolashtirishda qilinishi kerak boʻlgan ishlarni belgilash uchun quyida bir qancha shu tahlillarni koʻrib chiqishni joiz deb bilamiz. Albatta bugungi kunga kelib keltirilgan tahlillar ijobiy oʻzgargan va yechilishi kerak boʻlgan muammolar ham pasaygan.

2010 yilda esa 214 ta loyiha rejalashtirilgan boʻlib, 4676,7 mln. soʻm hajmida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qoʻmitasi tomonidan moliyalashtirilgan edi, hozirda bu vazifalar bilan 2017 yilda tashkil topgan Oʻzbekiston respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi shugʻullanib kelmoqda. (3.1-jadval).

Tahlil etilayotgan davrda, davlat tomonidan belgilangan dasturlar asosida bajarilgan innovatsiya loyihalarining 34 %i taʼlim, maʼnaviyat, madaniyat va sport masalalarini hal etishga, 27 %i agrosanoat majmuining eng dolzarb muammolarini yechishga, 20 %i iqtisodiyot tarmoqlarida mahalliy xomashyo asosida mahsulotlarni ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan yangi samarali texnologiyalarni joriy qilishga va 19 %i inson boyligi boʻlgan sogʻliqni saqlash va farmokologiya sohasida yangi texnika, texnologiya va usullarni yaratishga yoʻnaltirilgan. Respublikada innovatsion faoliyatni investitsiyalashtirishda nafaqat davlat, balki turli muassasalar ham faol qatnashmoqdalar.

2003-2010 yillarda dolzarb muammolar boʻyicha 1062 ta ilmiy tadqiqot ishlari 14741,5 mln. soʻm hajmda bajarilgan. Shuni taʼkidlash joizki bajarilgan innovatsiya loyihalari soni 1,9 barobarga koʻpaygan.

Shu davrda, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan bajarilgan innovatsiya loyihalari soni 2,5 barobarga unga ajratilgan innovatsiya mablagʻlari esa 4,6 barobarga koʻpaygan. Bu holat Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligida 1,1 va 5,3 barobarni, Oʻzbekiston Respublikasi qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi boʻyicha 1,3 va 10,4 barobarni, Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligi boʻyicha esa 2,3 va 4,1 barobarni tashkil

etgan. Turli tashkilotlar bo'yicha esa 2 barobarga innovatsion loyihalar soni va unga ajratilgan innovatsion investitsiya mablag'lari 8,2 barobarga ko'paydi.

3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda hamkorlik asosida faol qatnashuvchi vazirlik va tashkilotlar, mln.so'm hisobida quyidagilar:

№	Muassasalar	2005 y		2006 y		2007 y		2008 y		2009 y		2010 y		2010/2013 %da	
		loyi-halar soni	mab-lag'	loyi-halar soni	mab-lag'	loyi-halar soni	mab-lag'	loyi-halar soni	mab-lag'	loyiha-lar soni	mab-lag'	loyi-halar soni	mab-lag'	loyi-halar soni	mab-lag'
1.	O'z.R.Fanlar Akademiyasi	14	246,0	10	151,0	38	357,0	40	368,6	26	344,4	31	663,3	258,3	467,1
2.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	8	106,0	8	87,9	31	250,0	39	259,8	19	410,0	22	657,9	115,7	536,6
3.	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi	18	96,5	17	104,4	18	207,0	17	300,0	46	450,0	20	784,1	133,3	1045,4
4.	Sog'liqni saqlash vazirligi	8	200,6	9	60,7	23	238,0	35	241,4	20	432,7	21	609,7	233,3	419,3
5.	Boshqalar	28	345,0	21	140,4	63	692,0	36	579,7	81	1782,3	120	1961,7	210,5	827,3
Jami:		76	994,1	65	544,4	173	1744	167	1749,5	192	3419,4	214	4676,7	191,0	647,6

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tomonidan 2003-2010 yillar davomida innovatsiya ilmiy texnika faoliyatini mablag' bilan ta'minlash jamg'armasi hisobidan ajratilgan mablag'lar 6,4 marotabaga ko'paygan bo'lsa, shundan 1655,0 mln.so'mi budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga amalga oshirildi. Jumladan, 297,2 mln.so'm hajmda innovatsiya mablag'lari ilmiy-texnologik ishlanmalar natijalaridan manfaatdor tomonlar ishlarini amalga oshirish uchun innovatsiya loyiha ishtirokchilarini 1357,8 mln.so'mlik mashinalar, mexanizmlar, uskuna va energiya resurslari bilan ta'minlaganlar.

Respublikada innovatsion loyihalar doirasida energiya va resurslar tejamkor texnologiyalarini o'zlashtirish va fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan loyihalarga e'tibor berish alohida ahamiyatga egadir. Jumladan, Samarqand kimyo zavodida mahalliy xomashyodan yangi nitrokalsiy fosfatli o'g'it ishlab chiqarish texnologiyasi o'zlashtirildi. Natijada nitrokalsiy fosfatli o'g'itni ishlab chiqarish bir yillik quvvatini 250,0 ming tonnaga yetkazishga erishildi. Bu innovatsion yangilik sababli katta miqdorda valyuta va moddiy boyliklarni tejash ta'minlandi.

Olmalik tog‘-metallurgiya kombinati (OTMK) faoliyati natijasida 12,0 mln. tonna yig‘ilib qolgan chiqindini qayta ishlash muammosi mavjud edi. Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatishi bo‘yicha bu chiqindilar tarkibida 30-35% temir, 1-1,5% mis, 30-35% kremniy dioksidi va 0,4-0,6 g/t oltin borligi aniqlangan. OTMKning mis zavodida chiqindilardan ferrosilitsiy, rangli va qimmatbaho metallarni ajratib olish texnologiyasi ishga tushirildi. Natijada 1 tonna chiqindidan 286 kg temir, 359 kg kremniy dioksidi va 30 kg mis ajratib olindi.

Sog‘liqni saqlash va farmakologiya yo‘nalishida innovatsion loyihalarning 25 %i tibbiy asbobsozlikka, 23 %i farmakologiyaga, 23 %i kasalliklarni davolashning yangi usullarini topishga va 29 %i onalik va bolalikni asrashga to‘g‘ri kelgan.

2010 yilda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 13,6 %ga ko‘paydi. Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 9,7 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 %ini tashkil etdi. Umumiy qo‘yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 %ni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 2 milliard 400 million AQSh dollarini tashkil etdi.

2006 yilda tashkil etilgan, bugungi kunda 6 milliard AQSh dollardan ortiq Ustav jamg‘armasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi tomonidan 550 mln AQSh dollaridan ziyod miqdorda kreditlar ajratildi, natijada 250 mlrd so‘mlik asosiy fondga ega bo‘lgan jami 423 ta obyekt, jumladan, oziq-ovqat sanoatida 145 ta, qurilish materiallari sanoatida 118 ta, yengil va to‘qimachilik sanoatida 65 ta, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi sohasida 58 ta, kimyo va neft-kimyo sanoatida 13 ta, farmatsevtika tarmog‘ida 8 ta obyekt ishga tushirildi. Jalb qilingan investitsiya mablag‘larining 50 %ga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va qayta jihozlashga yo‘naltirilgan.

Hozirgi kunda davlatning iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatidan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan innovatsion investitsiyalashtirish munosabatlarini takomillashtirish strategiyasiga asoslanib ishlab chiqarishda innovatsiya muhitini shakllantirishda quyidagilarga e‘tibor kuchaytirilmoqda, xususan, innovatsion investitsiyalashtirish davlatning moliya-kredit, soliq va amortizatsiya

siyosati tomonidan ishlab chiqilgan maqsadga; innovatsiya subyektlari uchun zarur boʻlgan investitsiya mablagʻlari olish uchun berilgan imtiyozlarga; innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqarishga tatbiq qilinishiga eʼtiborni kuchaytirilmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotining real sektorida innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirish borasidagi dolzarb muammolardan biri investitsion loyihalarni kompleks ekspertiza qilish va ularni investitsiyalash uchun zarur boʻlgan moliyaviy mablagʻlarning yetishmasligidir.

Xalqaro amaliyotda innovatsiyalarni investitsiyalash uchun zarur boʻlgan mablagʻlarni jalb etishda loyihaviy moliyalashtirish va sinditsiyali kreditlashdan keng foydalaniladi.

Fikrimizcha, respublikamizda loyihaviy moliyalashtirishni yetarli darajada rivojlanmaganligi, investitsion loyihalarni kompleks ekspertiza qilishdagi xatoliklarning mavjudligi, loyihalarni samaradorligini pasaytiradigan omillarning yuzaga kelganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilishning talabga toʻliq javob bermasligi kabi omillarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, Toshkent viloyati Yangiyoʻl tumanida bolalarga konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod qurish loyihasi uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tomonidan 56 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratilgan edi. Ammo, qurilgan zavod ishga tushmadi. Natijada, bank tomonidan berilgan kreditlar qaytmadi. Xolbuki, bu innovatsion loyiha edi.

Demak, loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish orqali innovatsion investitsiyalash uchun zarur boʻlgan mablagʻlarni jalb etish hajmini oshirish uchun quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: innovatsion loyihalarni kompleks ekspertiza qilish jarayoniga malakali mutaxassislarni jalb etish, murakkab texnologiyaga asoslangan loyihalar ekspertizasiga esa xorijiy mamlakatlardan malakali ekspertlarni jalb qilish; texnologik zanjirda uzilishlarning yuzaga kelmasligi uchun yangi texnika va texnologiyalarga ishlatiladigan xomashyo, shu jumladan, mahalliy xomashyodan foydalanishga moʻljallangan texnika va texnologiyaga asoslangan investitsion loyihalarni amalga oshirish lozim; milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qadrsizlanish jarayonini toʻxtatish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportining diversifikatsiya darajasini

oshirish yo‘li bilan loyihaviy moliyalashtirish samaradorligini oshirish mumkin.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash amaliyotini takomillashtirish maqsadida:

Birinchidan, ilm-fanni rivojlantirish uchun davlat tomonidan mablag‘lar ajratishning qoldiq tamoilidan voz kechish kerak. Ushbu xarajatlarning halqaro amaliyotda qabul qilingan me‘yoriy chegaraviy darajasiga erishishni ta‘minlash lozim. Ushbu me‘yoriy chegaraviy daraja mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash nuqtai nazaridan belgilangan va YaIM ga nisbatan 2 %ni tashkil etadi. Masalan, AQShda innovatsiyaga davlat tomonidan ajratilgan xarajatlar YaIMning 3 %ini, Yevropa Ittifoqida esa 2 %ni tashkil etadi.

Ikkinchidan, yangi texnologik uskunalarni ishlab chiqarish faoliyatiga joriy qilgan korxonalariga nisbatan soliq imtiyozlarini joriy etish lozim. Jumladan, Yaponiyada yil davomida ishlab chiqarishga joriy etilgan yangi, zamonaviy texnologik uskuna qiymatining 50 % miqdoridagi summa korxonaning soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanishi, Frantsiya va Germaniyada innovatsion investitsiyalashni moliyaviy rag‘batlantirishda kompaniyalarga soliq imtiyozlari emas, balki, yangi texnika va uskunalarga birinchi yilda hisoblangan amortizatsiyalarni to‘liq balansdan chiqarish huquqi berilishi tajribalaridan foydalanish mumkin. Rossiyada innovatsiya loyihalari davlat tomonidan tan olinsa, bu innovatsion investitsiya xarajatlarini 50 %gacha, tashqi savdo uchun mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishga 40 %gacha, xorijiy mahsulotlarni o‘rnini qoplaydigan va tashqi bozorda talabga ega bo‘lgan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun 30 %gacha va ichki iste‘mol bozorida talabgor mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta‘minlovchi loyihalarni amalga oshirish uchun 20 %gacha davlat tomonidan qoplanadi. Davlat tomonidan ikki yilga belgilangan investitsion loyihalarning egalarida investitsion loyiha umumiy qiymatining 20 %gacha xususiy mablag‘lari mavjud bo‘lsa, davlatning bu loyihalarni amalga oshirish uchun 20-50 %gacha moliyaviy yordam berish tajribasini respublikada qo‘llash mumkin.

Uchinchidan, davlat yirik innovatsion loyihalarni sinditsiyalashgan kreditlar hisobidan moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Buning natijasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmi oshadi.

Demak, davlat tomonidan innovatsion loyihalarni sinditsiyalashgan kreditlar hisobidan moliyalashtirish amaliyotini qo'llab-quvvatlash quyidagi shakllarda amalga oshirish lozim:

1. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining ma'lum qismi innovatsion loyihalarni sinditsiyalashgan kreditlar hisobidan moliyalashtirish maqsadida tashkil etilgan sindikat resurs sifatida berilishi mumkin. Ushbu sindikat resurslarining kamida 25 %i jamg'arma mablag'lari hisobidan shakllanishi va sindikatda yetakchi bank vazifasini albatta davlat banki bajarishi lozim. Chunki, davlat banki yetakchi bank bo'lgandagina innovatsion loyihani kreditlash samaradorligini to'g'ri baholash va nazorat qilish imkoni yuzaga keladi. Bunda kredit havf-xatari, asosan, davlat bankining zimmasida bo'ladi. Sindikatda ishtirok etuvchi boshqa banklar uchun kredit riski nisbatan past bo'ladi. Chunki, kreditning 25 %i davlat bankining resurslari hisobidan, 25 %i tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari hisobidan beriladi. Qolgan 50 % resurslar sindikatda ishtirok etuvchi banklarning hissasiga to'g'ri keladi.

2. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun beriladigan sinditsiyali kreditning ta'minoti sifatida yuqori likvidli garov obyektlari emas, balki, hukumat tomonidan kafolatlanishi lozim.

Innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarni mablag'lar bilan ta'minlash jamg'armasi va hissadorlik asosidagi budjetdan tashqari manbalar manfaatdor vazirliklar, idoralar, iqtisodiyot tarmoqlari, korxonalar va tashkilotlarning mablag'lari hisobidan "buyurtma-natija" mexanizmi orqali amalga oshirilishi kerak.

Mavjud innovatsion manbalardan tashqari korxonalarda shakllanayotgan amortizatsiya fondi mablag'laridan ham foydalanish mumkin. Amortizatsiya mablag'lari hisobiga korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlarini joriy va kapital ta'mirlash ishlarini olib borishlariga ham innovatsion faoliyatning bir turi deb qarash kerak. Amortizatsiya mablag'laridan innovatsion yo'nalishda foydalanishni oshirish, asosiy fondlarning yillik amortizatsiya darajalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Amortizatsiya mablag'larini tashkil etish me'yorlarini ko'tarish, asosiy fondlardan foydalanish darajasini oshib borishiga bog'liq.

Korxonalarda innovatsion investitsiyalashtirish mablag'lari miqdorining oshib borishini ta'minlashga foydalanilayotgan asosiy

fondlar qoldig'ini kamaytirib borish orqali erishish mumkin. Buning uchun esa yillik amortizatsiya aktivida turgan asosiy fond qoldig'idan amortizatsiya darajasini aniqlab borish zarur.

Innovatsion iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yangiliklarni qo'llash, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning asosiy manbai, ishlab chiqarishning qanday mulk shakliga asoslanishidan qat'iy nazar ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan foyda taqsimoti uslubini ishlab chiqish zarur.

Innovatsion faoliyatni investitsiyalashtirish innovatsion siyosatga bog'liq bo'ladi. Innovatsion siyosatni amalga oshirishda quyidagi innovatsion faoliyatlarga e'tibor qilish zarur: innovatsion yangilikni ishlab chiqish uchun kerak bo'lgan ishlab chiqarish zaxiralariga, texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasiga, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar darajasiga hamda soliq va to'lovlarning miqdoriga.

Innovatsion salohiyatni oshirish uchun mintaqalarda quyidagi ishlarni: innovatsiya texnologik markazlar va innovatsiya fondlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy muhitni yaratish; bozor iqtisodiyoti xususiyatlaridan kelib chiqqan holda intellektual mulkni himoya etish mexanizmlarini ishlab chiqish; ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida ilmiy yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish; oliy o'quv yurtlari, tarmoq institutlari, akademiya, ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy salohiyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ularning integratsiyalashuvini amalga oshirish zarur.

Innovatsion loyihalarni istiqbollashtirishda esa: har bir tovarga bo'lgan iste'mol qiymatini marketing tadqiqotlari asosida o'rganishga; unga iqtisodiy, ijtimoiy, fan va texnika taraqqiyoti ta'sirini aniqlashga; samarali innovatsiya mahsulotini aniqlab olishga; innovatsion mahsulot sifatini unga ta'sir etuvchi omillar asosida istiqbollashtirishga va uni iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishini asoslashga e'tibor berish zarur.

Xulosa o'rnida aytish joizki, innovatsion jarayon doimiy ravishda harakatda bo'luvchi iqtisodiy holat bo'lib, iqtisodiy rivojlanishni ilmiy-texnikaviy yoki ishlab chiqarish jarayonini amaliy jihatdan tubdan yangilash va takomillashtirishning asosiy omili ekanligidan kelib chiqqan holda, fundamental ilmiy tadqiqotlar asosan iqtisodiyot tarmoqlarini samarali rivojlantirish bo'yicha tegishli iqtisodiy siyosatga asoslangan holda olib borish lozim. U ishlab chiqarishni,

mehnatni tashkil etish hisobiga yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatishni tashkil etishda ifodalanadi. Innovatsion jarayon esa ilm-fan va texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni amaliyotga qo'llash bilan bog'liq bo'lgan davrdan boshlab ro'y beradi.

Innovatsiya investitsiya mablag'larining bir qismi bo'lib takomillashtirilgan yoki yangi ishlab chiqarilgan texnika va texnologiyalarda ifodalanib, uzviy ravishda iqtisodiy jarayon bilan bog'liq bo'ladi. Investitsiya mablag'lari iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish subyektlarida texnologik, ijtimoiy-ekologik va boshqa xususiyatlarning umumlashgan holatdagi o'zgarishlarni ifoda etsa, innovatsion investitsiyalashtirish o'zida faqat ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish jarayonida bo'layotgan yangi sifat o'zgarishlarini ifoda etadi.

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, u quyidagilar bilan belgilanadi: innovatsion jarayon ilmiy-tadqiqot, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni ishlab chiqarishga tatbiq etish; innovatsion jarayon investitsiyalashtirish jarayoniga nisbatan qo'llanilishi jihatidan qisqa muddatli, ya'ni ilmiy fikr va mulohazalarning shakllanishidan, uni amalga oshirish va tatbiq etish davrini o'z ichiga qamrab oladi.

Innovatsion munosabatlar investitsiya munosabatlarining maxsus ilmiy va amaliy yangiliklarni yaratishga yo'naltirilgan munosabatlari bo'lsada, o'z navbatida u ham ishlab chiqarish jarayonida mulkchilik munosabatlarini ifoda etadi. Yaratilayotgan ilmiy va amaliy yangilik tovar sifatida ijtimoiy mehnat xarajatlarining mahsuli, ya'ni tannarxi bo'lib ishlab chiqarish munosabatlarini ifoda etadi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi innovatsion munosabatlar jismoniy va huquqiy subyektlar o'rtasida bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida ilm-fan va texnika yangiliklarini qo'llash asosida takomillashib boradi. Innovatsion munosabatlarning rivojlanishi yangiliklarni ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali yangi yaratilgan mahsulotlarda ifodalansa, ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan yangilik natijalari innovatsion ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashib borishida ifodalanadi, bu ikki omil o'zaro bog'liqdir.

Innovatsiya ilm-fan va texnika taraqqiyoti bo'yicha ma'lum bir yangilik, kashfiyotlarni yaratish yoki mavjud ishlab chiqarish jarayoni

bilan bog‘liq bo‘lgan resurslardan foydalanishni takomillashtirish; doimiy ravishda yangiliklar izlash, bozor talablariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash va mehnatni tashkil etish usullaridan foydalanish; bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion investitsiya mablag‘laridan foydalanish bozor subyekti ixtiyorida bo‘lib, innovatsion faoliyatni tashkil etish darajasiga bog‘liq bo‘lishi kerak.

Innovatsion loyihalarning samaradorligi quyidagilarga bog‘liq: innovatsion investitsiyalashtirish maqsadlarini nazariy jihatdan asoslanganligiga; innovatsion loyiha bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-tadqiqot va loyiha hujjatlarini ta‘minlashga; innovatsiya loyihasini texnikaviy va iqtisodiy jihatdan asoslanganligiga; innovatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan investitsiya mablag‘lariga; innovatsion loyihalar asosida ishlab chiqarish jarayonida yangi namunaviy mahsulot turlarini va umumiy yangi mahsulotni ishlab chiqarishni to‘liq o‘zlashtirishga.

Innovatsion investitsiya samaradorligi ishlab chiqarish davrida olingan yalpi foydaning oshib borishida ifodalanadi. U ishlab chiqarish jarayonida yangilikni qo‘llash asosida yaratilgan qo‘shimcha mahsulot qiymatidan tashkil topishi kerak.

Innovatsiya jarayonining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar bir tizimga keltirilgan. Innovatsion yangiliklarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlovchi ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan va davlatning innovatsion tizim modeli taklif qilingan hamda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning ishlab chiqarish subyektlari bilan hamkorlikda ilmiy ishlab chiqarish hissadorlik jamiyatlarini tashkil etish zarurligi asoslangan.

Innovatsiya munosabatlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagilarga e‘tibor berish zarur:

-ilmiy izlanish jarayonining darajasidan kelib chiqqan holda innovatsiya faoliyatini boshqarishni takomillashtirib borishga;

-innovatsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan logistik axborotlar bilan ta‘minlashga va yuqori intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni jalb etishga;

- innovatsiya ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish resurslari bilan ta‘minlash darajasiga;

-innovatsiya ishlarini olib boruvchilarning faoliyatlari samarali bo'lishini ta'minlash uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy logistik infratuzilmalarni rivojlantirishni amalga oshirishga.

Innovatsiya va innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni boshqarish vazifasini bajaruvchi tashkilotlarning asosiy maqsadi:

- yangi ixtirolar va texnologiyalarni ishlab chiqarishni moddiy rag'batlantirish,

-xususiy tadbirkorlik subyektlariga ilm-fan va texnika imkoniyatlaridan foydalanishda yaqindan yordam berish,

- ilm-fan va texnika yutuqlariga bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni davlat va kredit tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni investitsiyalashtirish darajasini oshirish uchun xususiy investitsiya mablag'larini jalb etishni ta'minlash maqsadida, davlat korxonalariga investitsiya mablag'larini innovatsiyaga jalb etishdagi soliq imtiyozlarini xususiy investorlarga ham tatbiq etish zarur. Innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy bo'limlar, ilmiy laboratoriyalar va oliy o'quv yurtlarini ilg'or texnika va texnologiyalar bilan jihozlashga e'tiborni qaratish zarur.

Asosiy fondlardan foydalanganlik uchun har oyda ajratiladigan yillik amortizatsiya mablag'lari innovatsion investitsiyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Innovatsion investitsiyalashtirish uchun zarur bo'lgan amortizatsiya mablag'larining o'sishi yillik amortizatsiya fondi me'yorlarining o'sib borishiga bog'liq. Respublikada amortizatsiya mablag'laridan innovatsion investitsiyalashtirishni rivojlantirishda foydalanish darajasining oshib borishini ta'minlash uchun AQSh, Germaniya va Yaponiya mamlakatlarida qo'llanilayotgan tezlashtirilgan amortizatsiya me'yorlaridan foydalanish zarur.

Innovatsion yangiliklarni yaratish bilan birga ulardan unumli foydalanishni tashkil etish kerak. Buning uchun mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz mintaqalari miqyosida innovatsion infratuzilmalarni yaratish zarur. Qolaversa, innovatsion faoliyatni iqtisodiy huquqiy jihatdan ta'minlashni takomillashtirish, intellektual mulkni innovatsion sohada himoya etishni amalga oshirish zarur. Ushbu vazifalarni bajarishda innovatsion marketing, innovatsion

menejment qatorida innovatsion logistikani ham ahamiyati beqiyosdir. Bundan tashqari O'zbekistonni 2019-2021 yillarda innovatsion rivojlanirish to'g'risidagi Prezident farmoni bilan o'z yechimni topadi.


3.4. Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlari va ularning huquqiy muhofazasi tavsifi

Ilmiy faoliyat davlat siyosatining eng faol sohasi bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Gap shundaki, ilmiy g'oya bevosita xo'jalik faoliyatida qo'llanilishi mumkin emas. Shuning uchun tashkilotlar tadqiqotlarni moliyalashtirishga sekinlik bilan yondashadi, unga katta ehtiyoj sezsa ham. Hozirgi sharoitda davlat biznesni ta'minlanish funksiyasini, aniqrog'i ilmiy bilimlar va g'oyalar bilan ta'minlashni o'z zimmasiga olmoqda. Aynan shuning uchun ilg'or mamlakatlar rasmiy hujjatlarida ilmiy-texnika taraqqiyoti yagona zanjir, ilmiy g'oya-ishlab chiqarish, innovatsiya biznesini keng ko'lamda qo'llash yoki foydalanish sifatida qaraladi.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan bizning mamlakatimizda ham ilmiy, fan-texnika sohasini tartibga solishni davlat tomonidan amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy-texnika taraqqiyoti iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi.

Davlat ilmiy va innovatsiya sohasida faol ish olib borib bu sohada o'zining maqsadi, printsipi va siyosatini, shaxsiy ustuvorligini shakllantiradi. Ilmiy va innovatsiya siyosati rivojlangan mamlakatlarda odatda mamlakat iqtisodining o'sishida fan va texnikaning ulishini oshirish; moddiy ishlab chiqarish sohasida progressiv o'zgarishlarni ta'minlash; jahon bozorida milliy mahsulot raqobatbardoshligini oshirish; mamlakat mudofaasi va xavfsizlikni mustahkamlash; ekologik vaziyatni yaxshilash; tarkib topgan ilmiy maktabni rivojlantirish va saqlab qolish kabi sohalarda faol ish olib boradi.

Davlat o'z siyosati, maqsadini aniqlash bilan birgalikda ilmiy va innovatsiya sohasida siyosatni olib borish va uni amalga oshirish yo'llarini ham ishlab chiqadi. Bu printsiplar mamlakatda mavjud xo'jalik tizimiga bog'lik bo'ladi va iqtisodiy faoliyatda davlat institutlarining ta'siri o'rganiladi. Davlatning ilmiy va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmi mavjud quyidagi 3.2-rasmda keltirilgan.



3.2-rasm. Ilmiy va innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi

Ilmiy faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari:

- ilmiy-tadqiqot natijalarni realizatsiya qilish natijasida olingan foydadan imtiyozli soliq olish;
- ilmiy tadqiqotlar ixtiyorida bo'lgan yordamchi va boshqa mulkdan soliq olishni bekor qilish;

- ilmiy ish olib borish uchun xorijiy mamlakatlardan olib kelinadigan buyumlar uchun to'lovlardan ozod qilish.

Innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari:

- individual ixtirochilar va kichik joriy etish korxonalarini uchun foizsiz kreditlar berish;

- imtiyozli soliqlar imkoniyati bo'lgan venchur innovatsiya foydani yaratish;

- individual ixtirochilar uchun davlat patent to'lovini kamaytirish;

- resurslarni iqtisod qiluvchi ixtirochilar uchun to'lov muddatini kechiktirish;

- uskunalarni amortizatsiyasini tezlashtirish huquqini berish;

- texnopark va texnopolis tarmoqlarini yaratish.

Ilmiy va innovatsiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplariga quyidagilar kiradi:

1. Ilmiy va ilmiy-texnik ijodkorlik.

2. Intellektual mulkni huquqiy himoya qilish.

3. Ilmiy, ilmiy-texnika va ta'limning integratsiyasi.

4. Ilmiy va texnika sohasidagi raqobatni qo'llab-quvvatlash.

5. Ilmiy rivojning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha resurslarni kontsentratsiyalash.

6. Ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsiya faoliyatining tadbirlar faolligini moddiy rag'batlantirish.

7. Halqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish.

Bu printsipga barcha ilg'or mamlakatlar, davlat, ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsiya siyosati amal qiladi. Lekin ularning realizatsiya jarayoniga ta'siri xilma-xil.

Yalpi ijtimoiy mahsulot tarkibida tadqiqot ishlariga sarf qilingan xarajatlar ulushi rivojlangan mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Agar bu maqsadga sarf qilingan xarajatlarning yalpi mahsulot tarkibidagi ulushini foiz hisobida olsak, ilmiy tadqiqot ishlari va tajriba konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish bo'yicha eng yuqori o'rinlarda Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya, Shveysariya, Janubiy Koreya va AQSh turadi. Ikkinchi guruhga yuqori texnologiyali mamlakatlar, ya'ni Angliya, Frantsiya, Niderlandiya, Italiya va boshqa mamlakatlar kiradi.

Qo‘llab-quvvatlash shakli va darajasiga qarab jahon amaliyotida unga faol aralashishning davlat strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, detallashtirilgan tartibli va aralash strategiya bo‘limi hisoblanadi.

Strategiyaning mazmuni (davlatning faol aralashuvi) davlat tomonidan ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsiya faoliyatini tan olish, milliy xo‘jalik va iqtisodiy o‘rnatishning tarkibiy qismini tashkil etadi. Odatda bu printsiplarni qabul qilishdan keyin qator o‘zgarishlar, qonunchilikda va davlatning tashqi siyosatida ro‘y beradi. Masalan, Yaponiyada bu strategiya rasmiy bo‘lmagan holda “Orol kontserni” deb nom olgan. Bu halqaro arenada yagona Front bo‘ylab tovar ishlab chiqaruvchilar va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi uzviy aloqani o‘zida aks ettiradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki davlat bunday sharoitda, nafaqat mo‘ljallangan funktsiyani bajaribgina qolmay, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga solmoqli ulush qo‘shish maqsadida muhim dastur va uni tashkil etishni ham o‘z zimmasiga oladi.

Oliy maktablarni qo‘llab-quvvatlash, faol aralashish strategiyasi va imtiyozli tijorat tashkilotlari, shaxsiy ilmiy-texnik ishlanmalar Yaponiya, Frantsiya, Niderlandiya va shu kabi qator mamlakatlar uchun jiddiy o‘rnatishni ta’minlamoqda.

Davlatning ilmiy va innovatsiya faoliyatiga faol aralashuvi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. davlat innovatsiya sohasi infratuzilmasini yaratish va ilmiy-texnika aloqa takliflarini kiritish;

2. innovatsiya sohasida barcha ishtirokchilarning innovatsiya faolligini oshirishga yordam beruvchi sharoit yaratish;

3. xo‘jalik amaliyotida keng tarqalgan yangilikka talabni shakllantirishning boshlang‘ich bosqichi uchun davlat resurslari ajratish.

Bu strategiyada soliq imtiyozlari va boshqa ilmiy innovatsiyalar faollashtirish hamda rivojlantirishni rag‘batlantirishning mexanizmlari bo‘lishi mumkin.

Mazkur strategiya AQSh, Angliya va boshqa qator mamlakatlarda qo‘llab-quvvatlanadi. Faol aralashuv strategiyasidan tashqari (qaysiki bunda ilmiy-texnik ustuvorlikni tanlashda davlat yetakchi rol o‘ynaydi) nomarkazlashgan tartibga solish strategiyasida yetakchi o‘rinni tashkilotlar, xo‘jaliklar va boshqa subyektlar egallaydi, davlat uchun huquqiy, iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Aralash strategiya iqtisodiyotida davlat sektori tarmoqlarning eksport salohiyatini oshirishdan manfaatdor bo‘ladi. Davlat tashkilotlari uchun faol aralashuv strategiyasi qolgan tashkilotlar uchun nomarkazlashtirilgan tartibga solish strategiyasi shaklida qo‘llaniladi, bu ayniqsa Shvetsiya uchun xarakterlidir.

Hozirgi paytda ilmiy ishlab chiqarish tadbirlari jamiyati shakllanmoqda. Innovatsiya sohasida assotsiatsiyalar, fondlari va boshqa strukturalar tashkil etilmoqda. Shuningdek, Respublika Innovatsiya rivojlanish vazirligi mavjud, ilmiy texnoparklar va biznes Assotsiatsiyalari tashkil etilmoqda.

Ilmiy-texnik,logistik innovatsiya va innovatsion faoliyatni Respublikamizda qo‘llab-quvvatlash mexanizmi shakllangan. Oldindan hal qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘p. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun Respublika ilmiy, ilmiy-texnikani,logistikani va innovatsiya faoliyatini faollashtirish bugungi davr talabidir.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Innovatsiya faoliyatiga davlatning faol aralashuv strategiyasining maqsadi nimadan iborat?
2. Ilmiy faolliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini tushuntiring?
3. Ilmiy-texnik raqobat nima?
4. Innovatorlar mehnatini rag‘batlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Halqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish yo‘llarini aytib bering?
6. Innovatsiyalarni jalb etish yo‘nalishlari qaysilar ?
7. Innovatsion logistikani rivojlantirishga qaratilgan loyihalar qanday ko‘rinishda amalga oshirilishi ko‘proq natijaga erishishni ta’minlaydi ?
8. Innovatsiyalarni iqtisodiyotga jalb etishning afzalliklari nimalardan iborat ?
9. Innovatsion logistikalarni iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rni.
10. Innovatsion logistikaning amalga oshiradigan vazifalari qaysilar?

4-mavzu. Innovatsion logistikada intellekt

4.1. Intellektual mulk tizimi tushunchasi va uning mohiyati

4.2. Innovatsion faoliyatda intellektual mulk tizimini shakllantirish va uning o'ziga xos jihatlari

4.3. O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk tizimini huquqiy muhofazalash xususiyatlari

4.1. Intellektual mulk tizimi tushunchasi va uning mohiyati

4.1. Intellektual mulk tizimi tushunchasi va uning mohiyati

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasini 2019-2021 yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmon imzolandi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda davlat ilmiy-texnika siyosatining mohiyati shuki, mamlakat ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan, iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan yangilanishiga imkon beradigan ilmiy va texnologik tadqiqotlarni amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat.

Inson intellektual bilimlarining rivojlanishidagi asosiy o'sishlar uzoq muddatli o'sishning asosiy manbai bo'lib, dunyoda keng tarqalgan va davrga xos yangiliklar deb atash mumkin.

Innovatsiya u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun insonning intellektual mulk yutuqlardan, ya'ni kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazolardan foydalanish natijasida olingan moddiy va nomoddiy mahsuli bo'lib, u mavjud texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga bo'linadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rang-barang va turli-tuman ko'rinishga ega.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "O'zbekiston innovatsion rivojlanishning hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model mavjudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy tadqiqotlarni keng joriy etishga, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi".

Hozirgi kunda mamlakatimizda Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan bu tizimni samarali ishlashini boshqarish va nazorat qiluvchi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil qilindi. Ilm olamida ilmiy (ilmiy-tadqiqot), ilmiy-texnik faoliyat va eksperimental (tajriba-konstruktorlik) ishlab chiqarish yoʻnalishlari mavjud. Jumladan, fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari, eksperimental va nazariy faoliyat-jamiyat va tabiat rivojlanishining asosiy qonuniyatlari toʻgʻrisida yangi bilimlar yaratishga qaratilgan boʻladi. Ilmiy-texnik faoliyatda texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish va yangi bilimni yaratish, qoʻllash va keng joriy etishga qaratilgan boʻlib, ilmiy, texnikani, ishlab chiqarishni yagona tizim sifatida faoliyat koʻrsatishni taʼminlashga koʻproq eʼtibor beriladi.

Mamlakatning milliy innovatsion tizimi ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) jalb qilingan ilmiy xodimlarning faoliyat yuritishlari uchun zarur boʻlgan infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mamlakatda intellektual shaxsiy mulkni himoya qilish, ishbilarmonlik sharoitini yaratish, innovatsion jarayonni tashkil etish, yangi loyihalarni vujudga kelishi uchun zarur boʻlgan sharoitni yaratadi

Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi “Innovatsiya loyihalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etishni ragʻbatlantirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻrisida”gi №916-sonli Qarorini amalga oshirish doirasida Oʻzbekiston Respublikasida 2008, 2009, 2010 va 2011 yillarda “Innovatsion gʻoya, ishlama va texnologiyalar” hamda “Sanoat yarmarkasi va korporatsion birja savdosi”, “Logistika va transport” yarmarkalarini “Oʻzekspomarkaz”ning koʻrgazma pavilonlarida oʻtkazish anʼanaga aylanib qoldi. Bunda mamlakatimiz Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi qoshidagi oliy oʻquv yurtlari va kollejlari, ularning professor-oʻqituvchilari, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ilmiy-tekshirish institutlarining olimlari va tarmoq institutlarining olimlari tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlari uchun bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, import oʻrnini bosuvchi lokalizatsiya qilingan (mahalliyashtirilgan), eksportbop tovarlari bilan hamda respublikamiz va xorijiy tarmoq ishlab chiqaruvchi sanoat, agrosanoat, logistika va transport korxonalari vakillari, yarmarka qatnashuvchi ishtirokchilari bilan oʻzaro hamkorlik shartnomalarini

tuzish va hamkorlik oʻrnatish boʻyicha istiqbolli ishlar amalga oshirilmoqda.

Oʻtkazilayotgan yarmarkalarning bosh maqsadi:

- innovatsiyalarga asoslangan, yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlanishi va biznesni innovatsion rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan kichik innovatsion tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

- respublikaning ilmiy, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarini ilmiy-texnik salohiyatidan mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilish yoʻlida samarali foydalanish;

- korxonalarining logistik innovatsion faolligini oshirish;

- korxonalar va firmalarning innovatsion faoliyatini kengaytirish uchun investitsiyalarni jalb qilishga koʻmaklashishdan iborat.

Yarmarkada taqdim etilayotgan ishlanmalarning aksariyati mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari uchun bevosita ahamiyat kasb etadi, ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning keng doirasi uchun foydali boʻladi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish toʻgʻrisidagi kelishuvlar va yangi xoʻjalik shartnomalarini tuzish uchun xizmat qiladi.

ShU maqsadda quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

- innovatsiya gʻoyalari va loyihalarini taqdim etish;

- sanoatning raqobatbardoshligini oshirish manfaatlaridan kelib chiqib, fan, ishlab chiqarish va sarmoyalar integratsiyasini taʼminlash;

- ilmiy-texnika sohasidagi korxonalar va ixtisoslashgan firmalarning logistik innovatsion faoliyatini rivojlantirishga koʻmaklashish;

- ilmiy va amaliy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, korxonalarining texnologiyalari va mahsulotlarini mamlakatimiz va xorij bozorlariga olib chiqish boʻyicha tarmoqlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga koʻmaklashish;

- budjetdan tashqari moliyaviy mablagʻlarni toʻplash va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni bozorga chiqarish jarayoniga jalb qilish.

Shularni hisobga olgan holda, mamlakatimiz oldiga qoʻyilgan ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish yoʻlida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ishlab chiqarish uchun yangi logistik innovatsion gʻoya va texnologiyalarni yaratishning berishning nazariy asos-

larini o'z ichiga olgan mazkur innovatsion logistika fani muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimida chuqur va sifatli o'zgarishlar amalga oshirildi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi innovatsiya hisobiga yangilandi. Bugungi kunda mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rnini va mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda. Dunyoda bugungi fan-texnika taraqqiyoti, qolaversa jahon bozorida ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar erishilayotgan yutuqlar bilan chegaralanib qolish mumkin emasligini ko'rsatadi. Shu bois, O'zbekistonda jahon bozoridagi innovatsion o'zgarishlarni o'rganish, tadqiqotlarni olib borish, nazariya va uslublarini yaratish, ularni amalga oshirishning yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda imkoniyatlar eshigini ochadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati milliy iqtisodiyotda innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish sur'atlarini jadallashtirishni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, faol, samarali logistik innovatsiya va marketing strategiyalari mamlakat iqtisodiy va tabiiy omillaridan oqilona foydalanish orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiyotimizni innovatsion rivojlanishi, eng avvalo, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi tarmoqlar hisobiga yuz beradi, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotini xomashyo eksport qilishini tubdan kamaytirish bilan birga uni qayta ishlashni rivojlantirishga, valyuta mablag'larining tejalishiga va aholi bandligining oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu omillar o'z navbatida mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o'rnini yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

Innovatsiya u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun insonning intellektual mulk yutuqlardan, ya'ni kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazolardan foydalanish natijasida olingan moddiy va nomoddiy mahsul bo'lib, u mavjud ravishda texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga bo'linadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rang-barang va turli-tuman ko'rinishga ega.

Yangilik darajasi bo'yicha texnologik innovatsiyalarni bazis, yaxshilovchi va soxta innovatsiyalarga ajratish mumkin. Zamonaviy

texnologik yangiliklar boshqa mamlakatlarda kiritilgan yangiliklarni takrorlovchi imitatsiya va dunyoda ilk bora amalga oshirilayotgan yangi innovatsiyalar bo'lishi mumkin.

Hozirgi zamonaviy nuqtai-nazardan, bazis innovatsiyalar yangi texnika (texnologiya) avlodlari va texnologik ukladlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi; yaxshilovchi innovatsiyalar esa avlodlarning tarqalishi va ular qo'llanuvchi turli sohalarning o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda taqsimlanishiga xizmat qiladi; soxta innovatsiyalar eskirgan texnika va texnologiyalarning xizmat qilish muddatini uzaytirishga xizmat qiladi.

Inson intellektual bilimlarining rivojlanishidagi asosiy o'sishlar uzoq muddatli o'sishning asosiy manbai bo'lib, dunyoda keng tarqalgan va davrga xos yangiliklar deb atash mumkin.

Innovatsion o'zgarishlar amal qilish maydoniga ko'ra inson faoliyatining barcha sohalari va jamiyatning har bir jabhasini qamrab oladi. Boshlang'ich, eng ko'p o'rganilgan texnologik innovatsiyalar quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarish yangi texnologik usulining shakllanishi asosida yotuvchi innovatsiyalar; texnologik ukladlar va texnika (texnologiya) avlodlarini o'zgartirishga turki bo'luvchi bazis innovatsiyalar; yangi texnika modellari va texnologiya modifikatsiyalari yordamida yangi bozorlarni o'zlashtirishga xizmat qiluvchi yaxshilovchi innovatsiyalar.

4.2. Innovatsion faoliyatda intellektual mulk tizimini shakllantirish va uning huquqiy muhofazasini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari

O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 30 dekabrda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademiklari bilan uchrashuv o'tkazib fanni ta'lim va ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish zarurligini vazifa qilib qo'ydi. Shu ma'noda, zamonaviy iqtisodiyot, ilm-fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Tizimning joriy etilishi istiqbolga mo'ljallangan vazifalarni qo'ya olish va hal etish iqtidorini, yuksak umumiy kasbiy madaniyatni egallash, shaxsiy jihatdan ijodiy faollik ko'rsata oladigan, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda mo'ljal ola

bilish malakasini egallagan kadrlarning yangi avlodi shakllanishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda oxirgi yillarda innovatsion faoliyatni shiddat bilan rivojlantirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi.

2017-2021yillar davomida innovatsion faoliyatning ilmiy-texnologik bazasini takomillashtirish va moliyalashtirish, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rildi, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo'yicha davlat dasturlari qabul qilindi, ishlab chiqarish innovatsiyasini mahalliydashirish dasturlari amalga oshirildi.

Bu o'rinda 2018-yil Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalarni va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi taklif etganlari nihoyatda ahamiyatli bo'ldi. Mazkur Davlat Dasturi asosida esa O'zbekistonda 11 trillion 200 milliard so'mlik va 1 milliard 300 million dollarlik loyihalarni amalga oshirilishi nazarda tutildi.²³

Bu esa o'z o'rnida innovatsiyalarning mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini rivojlantirish, inson taraqqiyoti darajasini oshirish, mehnat unumdorligini o'stirishdagi hissasi to'g'risida xulosa chiqarish uchun O'zbekistonning innovatsion rivojlanishi bo'yicha to'la miqyosli o'rta va uzoq muddatga ega bo'lgan strategiyali davlat innovatsion siyosatini ishlab chiqishni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki innovatsion logistikaning mohiyati, asosiy mexanizmi logistik operatsiyalarni amalga oshirish yo'llarini, ya'ni ishlab chiqarishni, uning moddiy-texnika bazasini yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tadbiq etishga qaratilgan jarayonlarni tahlil qilish, innovatsion jarayon modellari va qonuniyatlari, ilmiy-texnika taraqqiyotini boshqarishning asoslarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini

²³Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Конституциянинг 26 йиллигига бағишлаган маърузас. "Халқ сўзи" газетаси, 05.12.2017-йил, № 103.

ilgari suradi, ta'limning muqobil texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi:

—turli saviya va malakadagi mutaxassislariga bo'lgan talab-ehtiyojni shakllantiradi;

—o'z ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliya, inson resurslari hamda kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni berish bilan uzluksiz ta'lim tizimiga ko'maklashadi;

—muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarini maqsadli tayyorlashni, shuningdek, turli darajadagi o'quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

—ta'lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (o'quv ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

—ta'limni korxonalar jumladan, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

—kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

—ta'lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma'naviy vajismoniy tarbiyalash);

—ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

—ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

—pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda oshirib borish;

—ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta'lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

—ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash uchun ta’lim oluvchilarni va bitiruvchilarni ish joylari bilan ta’minlash;

—o‘zaro integratsiyalangan ta’lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparaturalar va asboblardan jihozlash.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning taraqqiyoti tegishli kadrlarga bo‘lgan talabni belgilab beradi, hamda ularni tayyorlash va kvalifikatsiyalashga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmani shakllantiradi.

Ilm-fanning bosh vazifasi- kadrlar tayyorlash , mamlakatning ilmiy salohiyatini shakllantirishdan iboratdir.

Ilmiy muassasalarda, oliy o‘quv yurtlarida va ilm-fanni boshqarib beruvchi tashkilotlarda iste’dodli yosh mutaxassislar , ilmiy-pedagogik xodimlar va olimlar orasidan oliy kvalifikatsiyali, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tanlash va tayyorlashning zarur shart-sharoitlari yaratiladi va uning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish tegishli daraja va ixtisoslikdagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda faol ishtirok etgan holda, buyurtmachilik va iste’molchilik vazifasini amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining ijtimoiy buyurtmasini shakllantiradi, professional tayyorgarlikni maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, kvalifikatsion talablarni ilgari suradi, mutanosib texnologiyalar va ta’lim shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish buyurtmasi sifatida kadrlarning , umuman kasbiy ta’lim tizimining sifati, darajasi va raqobatbardoshligini baholaydi.

Yuzaga kelgan innovatsiyalarni boshqarish tizimida innovatsion loyihalarni amalga oshirish markazlar va texnopark kabi strukturalardan foydalangan holda ro‘y beradi. Demak, ta’lim muassasasi yuqori texnologiyali ixtisosliklar bo‘yicha amaliy kurslarni tayyorgarlikka kiritish niyatida bo‘lsa, u tasarrufida ma’lum miqdordagi innovatsion loyihalar bajariladigan ilmiy markazlarga, laboratoriyalarga innovatsion fondga ega bo‘lishi zarur.

Bu turdagi munosabatlarga «klassik» misol tariqasida Stenford universitetining texnologiyalarni litsenziyalash bo‘linmasini keltirib o‘tish mumkin. Aynan ushbu bo‘linma 1996-1998 yillarda yuqori texnologiyali yosh Google kompaniyasini qo‘llab-quvvatladi: kompaniyani tashkil etish, venchur fondlar tomonidan moliyalashtirishni jalb

qilish, kompaniyaning o'sishini boshqarish uchun professional top-menejerlar izlab topishda yordam ko'satdi.

Google kompaniyasi qidiruv xizmatlari bozorida yetakchiga aylanib, 2004 yil 2 mlrd. dollar miqdorida aksiyalar birlamchi joylash-tirishni amalga oshirgach, kompaniyaning 10%iga egalik qiladigan Stenford universiteti bu loyihadan aksiyalarni sotishdan olingan foyda ko'rinishida samaraga ega bo'ldi.

Biroq OO'Yu ilmiy markaz tashkil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lgan hissasi - intellektual mulk kiritadi:

- > patentlangan ixtironi tijorat asosida qo'llashga litsenziya;
- > amaliy tadqiqotlar o'tkazish va ishlab chiqarishni tayyorlash uchun ilmiy-tadqiqotchi kadrlar;
- > chiqarilayotgan yuqori texnologiyali mahsulotning iste'mol xususiyatlarini yaxshilash bilan bog'liq kelgusi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash.

OO'Yularining o'zaro aloqa modelida OO'Yu birlashmasi ichida axborot aylanishini ta'minlaydigan axborot strukturasi mavjudligi albatta ko'zda tutiladi. Hozirgi paytda bunday strukturalar, qoidaga ko'ra, eng yangi kommunikatsiya texnologiyalari: internet-portallar, himoya qilingan WI-FI ulanishlar, saytlar va h.k.dan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Yangi ilmiy bilimlar va texnologiyalarni sanoatga joriy qilish samarali mexanizmlarini shakllantirish zarurati tufayli O'zbekistonda ham texnoparklar, innovatsion fondlar, innovatsion-texnologik markazlar, maxsus iqtisodiy hududlar, ilmiy-texnik rivojlanish hududlari, innovatsion rivojlanish hududlari va h.k. paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish, asosiy va eng muhim maqsad etib belgilandi.

Innovatsion iqtisodiyot bu - bilimlar va innovatsiyalarga asoslangan jamiyat iqtisodiyotidir. Hozirgi kunda o'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga innovatsion iqtisodiyot doirasida qabul qilingan kadrlar tayyorlash tizimiga xos bo'lgan jihatlar xarakterli bo'ldi.

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini

ilgari suradi, ta'limning muqobil texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Innovatsion tarkibiy qism davlat iqtisodiy siyosatining har bir makroiqtisodiy, strukturaviy, tarmoq va mintaqaviy yo'nalishida ko'zda tutilishi lozim. Innovatsion siyosat davlatning sanoat siyosatini samarali amalga oshirish hisobiga ham muvassafiyatli rivojlanishi mumkin. Masalan, tarmoqlararo ishlab chiqarish zanjirini vertikal integratsiyalab, nafaqat moliyaviy-iqtisodiy, balki ilmiy-texnik jihatdan ham innovatsiyalarga erishish mumkin. Innovatsiyalar kapital yangiliklar ishlab chiqish va kiritish uchun yetarli zamin hozirlagan paytlarda korxonalar gorizontal aloqalari darajasida ham vujudga kelishi va o'zlashtirilishi mumkin. Bu jihatdan sanoat siyosati iqtisodiyotning o'sish nuqtalarida resurslar markazlashuviga xizmat qilishdan tashqari ularning innovatsion imkoniyatlarini ham rivojlantiradi.

O'zbekistonda innovatsiyalar asta-sekinlik bilan xususiy sektor-dagi kompaniyalar rivojlanish strategiyasining bir qismiga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jalik yoki sanoat korxonalarida yangiliklar kiritish mehnat maxsuldorligini oshirish, moliyaviy, mehnat va moddiy resurslarni tejash hamda chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga ko'maklashadi. Biroq xususiy sektor kutilayotgan raqobatbardoshlik darajasini ta'minlovchi to'laqonli va barqaror innovatsiyalar mexanizmini faqat o'z kuchlari bilan yarata olmasligi mumkin. Bunda davlat tomondan maqsadli yo'naltirilgan va kompleksli innovatsion strategiyasining o'rnini juda ham katta.

Bunday kompleksli strategiyani amalga oshirish — uzoq muddatli xarakterga ega hisoblanadi. Zamonaviy innovatsion muhit holati ayrim obektiv sabablarga ko'ra qisqa muddat ichida mahalliy biznesning innovatsion darajasi yuqori bo'lishiga imkon bera olmaydi va shu sababdan uning rivojlanishi davlatning ko'plab yo'nalishlar bo'yicha kuch sarflashini talab qiladi. Bunda quyidagi muammolarga e'tibor qaratish zarur:

- biznesning ilmiy-texnik axborotlarga ega bo'lishi uchun transaksiya xarajatlari kattaligi;

- yangi texnologiyalarning qiymat va bozor risklari korxonalar, ayniksa, kichik korxonalar uchun kattaligi;

– innovatsion loyihalarni ishlab chikish va amalga oshirish uchun o‘z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng qamrovli va diversifikatsiyalangan bozori mavjud emas;

– xususiy sektordagi ko‘plab korxonalarda innovatsion boshqaruv qarorlari tizimi shakllantirilmaganligi;

– fanni ishlab chiqarish bilan bog‘lab turishi mumkin bo‘lgan innovatsion vositachilar instituti rivojlangan tarmoq yaratilmagan;

– raqobatli muhit mahalliy korxonalarni innovatsiyalarni jalb qilishga yetarli darajada rag‘batlantirmaydi;

– iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida biznes texnologiyalarining asosiy massasida biznesni tashkil qilishning mablag‘larni namunaviy tovarlar ishlab chiqarish yoki ular bilan savdo qilishga kiritishni nazarda tutuvchi an’anaviy yondushuvlar ustunlik qiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning barchasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion muhit ma‘lum ma‘noda iqtisodiy va institutsional islohotlarning turli yo‘nalishlaridagi taraqqiyotga bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiyotda innovatsion mexanizmlarni ishga tushirish strategik ahamiyatga ega vazifa bo‘lib, uni kichik biznesdan boshlash maqsadga muvofiq.

Barqaror rivojlanish strategiyasi an’anaviy umuminsoniy tasavvur va kadriyatlar, fikrlash stereotiplaridan kelib chiqqan holda belgilanmaydi. U nafaqat zamonaviy voqelikka, balki kutilayotgan rivojlanish istiqbollari mos keluvchi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Ushbu strategiyaga mos keluvchi dunyoqarash odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati va biosfera bilan aloqalarining tubdan o‘zgartirilishini talab qiladi. Sayyoramizning o‘ziga xosligi shundaki, unda hali butun kosmosda topilmagan ongli hayot mavjud. Insoniyat buni tan olishi, uni o‘zining kelgusi rivojlanishining asosiy maqsadlaridan biriga aylantirishi lozim. Sayyoramizdagi tirik mavjudotlar o‘z yashash muhitini o‘zi shakllantirib, uning barqarorligini ta‘minlaydi va hayot kechirish uchun optimal sharoitlar yaratadi, ya‘ni biosferaning barqarorligi undagi tirik organizmlar tabiiy jipsligi tomonidan ta‘minlanadi. Ularni saqlab qolgan holda inson biosfera faoliyati vaevolyutsiyasi qonunlariga to‘liq javob bergan holda yashashi mumkin. Sivilizatsiyaning davomiyligi va barqaror rivojlanishga o‘tish biosfera qonunlari va cheklovlarini hisobga olishni talab qiladi. Atrof-muhit muvozanati saqlanar ekan, insoniyat barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tib,

planetamiz biosferasi yaratgan tur sifatida yashab qolishi mumkin. Sivilizatsiyaning kelgusi evolyutsion rivojlanishi, kishilar hayotining yaxshilanishi sayoramizdagi har qanday (jumladan, ongli) hayotning asosi sifatida biosferani yakson qilmasdan ekotizimlarni qo‘llab-quvvatlovchi xo‘jalik doirasida o‘ringa ega bo‘lishi mumkin.

Barqaror rivojlanish muammosini tadqiq etish uningstrategiyasi ilmiy asoslarni faqat atrof-muhitni barqarorlashtirish va biotik regulyatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan oladi. Biroq bu strategiyani amalga oshirish qiyinroq, chunki u insoniyatning bundan oldingi to‘plangan barcha tajribalari va fikrlash qoliplariga eng ko‘p karshilik ko‘rsatadi. Uni amalga oshirish uchun noosfera yondashuvini atrof-muhitni barqarorlashtirish va biotik regulyatsiya nazariyasi bilan birlashtirish zarur. Bu ikkala metodologik yondashuv mamlakatimizda ilmiy asoslangan barqaror rivojlanish strategiyasini yaratish uchun ilmiy asos bo‘la oladi. Bu esa barqaror rivojlanish konsensiyasini yanada takomillashtirishda muhim ahamyat kasb etadi.

Demak innovatsiyalar deganda u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli bilan erishgan yutuqlardan, ya’ni kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazolar-dan foydalanish tushuniladi.

4.3. O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk tizimini huquqiy muhofazalash xususiyatlari

Texnologik innovatsiyalar tabiat kuchlaridan foydalanish va atrof-muhitga ko‘rsatiluvchi zararli ta’sirni kamaytirishning yanada samaraliroq usuli bo‘lgan iqtisodiy innovatsiyalar hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar muomalasi, narx, moliya-kredit, pul mexanizmlari shakllarini o‘zgartirishga olib keluvchi va takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy innovatsiyalarning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsiyalar piramidasining cho‘qqisi ijtimoiy-madaniy innovatsiyalar — fan, madaniyat, ta’lim, etika va mafkuradagi innovatsiyalar hisoblanadi. Ular innovatsion yangilanish uchun manba (ilmiy ixtiro va kashfiyotlar) bo‘lib xizmat qiladi va shu bilan bir paytda ularning natijasi bo‘lib, yangi ijtimoiy-madaniy tuzumni shakllantiradi yoki

uning bir bosqichiga aylanadi. Turli faoliyat soxalarida innovatsiyalar tarkalishining rezonans samarasini qayd etish mumkin.

Iqtisodchilarning oldindan ko‘ra bilish va istikbolli rejalashtirish metodologiyasi asosiy qoidalari va ulardan zamonaviy sharoitlarda foydalanish istiqbollari va dolzarbligi quyidagilardan iborat.

1. Jamiyat va tabiat rivojlanishi qonuniyatlarini yaxlit holda, tizimlar rang barangligida anglash oldindan ko‘ra bilish uchun zarur asos va zamin hisoblanadi. Istalgan bir fanning asosiy funksiyasi shundan iborat. Biroq bu har qanday yirik xo‘jalik, ijtimoiy va ekologik qarorlar qabul qilishda ham amaliy zarurat hisoblanadi.

Boshlanich xolatni baholash va undan foydalanishda ikki narsani inobatga olish zarur. Birinchidan, tabiiy qonunlardan farqli o‘laroq ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari jamiyatning o‘zidagi tub o‘zgarishlar bilan birgalikda o‘zgarishi mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy konun va konuniyatlar tarkibi bir turda emas, ular ierarxik bo‘lib, bilishning turli darajalarini aks ettiradi. **Statika qonunlari** evolyusion rivojlanish davrida nisbatan muvozanatli xolatda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyat ko‘rsatuvchi struktura va shart-sharoitlarni aks ettiradi. **Siklik dinamika konuniyatlari** tizim dinamikasidagi notekislikni, sikllar boskichlarining almashish konuniyatlari va tizimlar rivojlanish sikllarining o‘zini, jamiyatning innovatsion yangilanish jarayonining to‘lqinsimonligini ochib beradi. Bu davriy o‘zgarayotgan voqelikni anglashning ikkinchi boskichidir. Bilishning oliy bosqichi — **sosiogenetika qonuniyatlari** bo‘lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar dinamikasida nasliylik, o‘zgaruvchanlik va tanlov yiindisi (birikuvi) hisoblanadi.

2. Uzoq muddatli rejalattirishning asosi ijtimoiy iqtisodiy tizimlar dinamikasidagi sikllar va inqirozlarni ularni tabiiy tizimlar bilan aloqada oldindan ko‘ra bilish hisoblanadi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni uzoq muddatli bashorat qilish tsivilizatsiyali xarakterga ega bo‘lib, jahon va lokal tsivilizatsiyalar aloqasi va dinamikasi konuniyatlarini hisobga oladi.

4. Oldindan ko‘ra bilishning maksad va natijalari muayyan hodisalarni aytib berish emas, balki davriy o‘zgarishlar va rivojlanish tendentsiyalarini oldindan ko‘ra bilish, kelajakda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni innovatsion asoslarda hal qilish yullarini tadqiq etish hisoblanadi.

5. Uzoq muddatli bashorat qilish va strategik rejalashtirish o‘zaro uzviy va chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyot va yirik xo‘jalik tizimlarining rivojlanishini boshqarishda yaxlit bir butunlikni tashkil qiladi. Bashorat rejadan oldin keladi, kelajakdagi rivojlanish tendentsiyalarini baholash, bazaviy va ahvolni yaxshilovchi innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan strategik uchtuvorliklarni tanlash hamda buning oqibatlarini baholashga yordam beradi.

6. Uzoq muddatli bashorat qilish va strategik rejalashtirish metodologiyasi tor doiradagi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar (indikatorlar), istiqbolli balanslar, istiqbolli balanslarga tayanishi lozim. Chunki ular xalq xo‘jaligidagi proportsiyalarning muvozanatli o‘zgarishini ta’minlash, muayyan ichki va tashqi omillarni e’tiborga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion-texnologik va ekologik siyosatning istiqbolli maqsadlariga erishishga imkon beradi.

7. Bashorat qilish va strategik rejalashtirishni tashkil etish turli darajadagi reja va bashoratlarning uyg‘unlashuvi, ularni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda mahoratning yuqori bo‘lishi, davlat tomonidan tartibga solishning bozor vakillari mustaqilligi va tashabbuslari, ularning innovatsion faolligi bilan uyunlashuvini ta’minlay olishi zarur.

Va nihoyat, innovatsion o‘shish, samarali va ishonchli bashorat asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim omili ushbu sohada davlat orgalari uchun ham, korporatsiyalar uchun ham yuqori malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Kelajakni oldindan ko‘ra bilish, strategiyani ishlab chiqish bu — mustaqil kasb bo‘lib strategik fikrlashni, turli fanlar bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishni va chuqur ilmiy va amaliy bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Bunday mutaxassislar tayyorlash hamda iqtisodchi va muhandis kadrlar uchun maxsus fanlar o‘qitishni qayta tiklash va buni yangi, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi asoslarda bajarish lozim. Bu innovatsion o‘shish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartidir.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik shartnomalarni ahamiyati.

2. Innovatsion texnologiyalarni yaratishda hozirgi davr ilm fanning ahamiyati nimalarda deb bilasiz ?

3. Intellektual mulk yutuqlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi ?

4. Istiqbolli innovatsion texnologiyalarni xalq xo'jaligiga transfera qilish usullari qaysilar ?

5. Intellektual mulkni shakllantirish maqsadida qanday vazifalarni amalga oshirish lozim ?

6. Innovatsion logistika rivojida intellektual mulkning shakllanish ahamiyati nimada ?

7. O'zbekistonda so'ngi uch yil davomida intellektual mulkni shakllantirishga qaratilgan qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi ?

8. Ishlab chiqarish bo'g'ichida innovatsion logistikaning asosiy maqsadlari nimalardan iborat ?

9. Ishlab chiqaruvchidan to iste'molchiga etib borgungacha bo'lgan yo'lda bitta bo'lsa ham vositachi orqali o'tgan moddiy oqim nima deb ataladi ?

10. Qaysi innovatsion logistik tizimlarni bilasiz ?

3-Modul. Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tayyorlash va aniqlash.

5-mavzu. Innovatsiyalarni logistikadagi o'rni

5.1. O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi va uning ahamiyati

5.2. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi

5.3. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollari

5.4. O'zbekiston Respublikasida texnologik innovatsiyalar

5.1. O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi va uning ahamiyati

5.1. O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi va uning ahamiyati

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitidagi ma'ruzasida ... “ Bizning nazarimizda, mamlakatlarimizni innovatsion asosda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bugungi kunda biz axborot kommunikatsiya yutuqlari, ilg'or texnologiyalar hayotga shiddat bilan kirib kelatyogan va barcha sohalarda keng qo'llanilayotganligini ko'rib turibmiz. Har qanday davlatning uzoq istiqbolda ham raqobatbardosh bo'lishi va barqaror taraqqiyoti aynan shu omillarga bog'liq. Shu munosabat bilan biz ushbu yo'nalishdagi dastur-loyihalarni amalga oshirish maqsadida, inovatsion taraqqiyot uchun ma'sul idoralar, ilmiy tadqiqot markazlari va venchur kompaniyalarimiz o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirishni taklif etamiz”, -deb ta'kidlab o'tganliklari e'tiborli bo'ldi.²⁴

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish modeliga o'tish davrida davlat ilmiy-texnika siyosatining mohiyati respublika ichki talabini tez qondiradigan, jahon bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan,

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши саммитидаги маърузасидан. “Халқ сўзи” газетаси, 04.09.2018-йил, № 182. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим йўналишлари”га бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси, Халқ сўзи, 2017 йил 21-январ сони

iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan yangilanishiga imkon beradigan ilmiy va texnologik tadqiqotlarga ko‘maklashishdan iborat.

Shuningdek, 2018 22 sentyabrdagi Prezident Sh.M.Miziyoyevning 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilm olamida ilmiy (ilmiy-tadqiqot), ilmiy-texnik faoliyat va eksperimental (tajriba-konstruktorlik) ishlab chiqarish yo‘nalishlari mavjud. Jumladan, fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari, eksperimental va nazariy faoliyatjamiyat va tabiat rivojlanishining asosiy qonuniyatlari to‘g‘risida yangi bilimlar yaratishga qaratilgan bo‘ladi. Ilmiy-texnik faoliyatda texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish va yangi bilimni yaratish, qo‘llash va keng joriy etishga qaratilgan bo‘lib, ilmni, texnikani, ishlab chiqarishni yagona tizim sifatida faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlashga ko‘proq e‘tibor beriladi.

Mamlakatning milliy innovatsion tizimi ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) jalb qilingan ilmiy xodimlarning faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mamlakatda intellektual shaxsiy mulkni himoya qilish, ishbilarmonlik sharoitini yaratish, innovatsion jarayonni tashkil etish, yangi loyihalarni vujudga kelishi uchun zarur bo‘lgan sharoitni yaratadi

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi “Innovatsiya loyihalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etishni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘risida”gi №916-sonli Qarorini amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasida 2008, 2009, 2010 va 2011 yillarda “Innovatsion g‘oya, ishlama va texnologiyalar” hamda “Sanoat yarmarkasi va korporatsion birja savdosi” yarmarkalari “O‘zekspomarkaz”ning ko‘rgazma pavilonlarida o‘tkazish an‘anaga aylangan. Shu kunlarda ham davom qilmoqda, unda mamlakatimiz Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi qoshidagi oliy o‘quv yurtlari va kollejlari, ularning professor-o‘qituvchilari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ilmiy-tekshirish institutlarining olimlari va tarmoq institutlarining olimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, import o‘rnini bosuvchi lokalizatsiya qilingan (mahalliyashtirilgan), eksportbop

tovarlari bilan hamda respublikamiz va xorijiy tarmoq ishlab chiqaruvchi sanoat, agrosanoat vakillari yarmarkada qatnashuvchi vakillar bilan o‘zaro hamkorlik shartnomalarini tuzish va hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha istiqbolli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘tkazilayotgan yarmarkalarning bosh maqsadi fan sig‘imi yuqori bo‘lgan, yuqori texnologik ishlab chiqarishlarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shujumladan kichik innovatsion tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratish; respublikaning ilmiy, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik tashkilotlari ilmiy-texnik salohiyatidan mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilish yo‘lida samarali foydalanish; korxonalarining innovatsiya faolligini oshirish, innovatsiya faoliyatini kengaytirish uchun investitsiyalarni jalb qilishga ko‘maklashishdan iborat.

Yarmarkada taqdim etilayotgan ishlanmalarning aksariyati mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari uchun bevosita ahamiyat kasb etadi hamda ushbu mahsulotning iste’molchilari va buyurtmachilarini qiziqtiradi, ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning keng doirasi uchun foydali bo‘ladi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish to‘g‘risidagi kelishuvlar va yangi xo‘jalik shartnomalarini tuzish uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

- innovatsiya g‘oyalari va loyihalarini taqdim etish;
- sanoatning raqobatbardoshligini oshirish manfaatlaridan kelib chiqib, fan, ishlab chiqarish va sarmoyalar integratsiyasini ta’minlash;
- ilmiy-texnika sohasidagi korxonalar va ixtisoslashgan firmalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- ilmiy va amaliy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, korxonalarining texnologiyalari va mahsulotlarini vatanimiz va xorij bozorlariga olib chiqish bo‘yicha tarmoqlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga ko‘maklashish;
- budjetdan tashqari moliyaviy mablag‘larni to‘plash va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ularni bozorga chiqarish jarayoniga jalb qilish.

Namoyishga qo‘yilayotgan amaliy, innovatsion va ilmiy-texnik loyihalar hamda ishlanmalarning asosiy qismi eksportga yo‘naltirilgan

va import o'rnini bosuvchi hamda yuqori samarali ma'lumotlar, mashinalar, preparatlar va dunyotajribalariga mos keluvchi boshqa fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga imkon beruvchi mahsulot va texnologiyalarni yaratishga qaratilishi lozim.

Mamlakatimiz oldiga qo'yilgan bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'lida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ishlab chiqarish uchun yangi innovatsion g'oya va texnologiyalarni yaratib berishning nazariy asoslarini o'z ichiga olgan mazkur fan muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida istiqlol yillarida iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimida chuqur va sifatli o'zgarishlar amalga oshirildi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi innovatsiya hisobiga yangilandi. Bugungi kunda mamlakatimizning jahonhamjamiyatidagi o'zni va mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda. Dunyoni bugungi fan-texnika taraqqiyoti, qolaversa jahon bozorida ro'yberayotgan innovatsion o'zgarishlar erishilayotgan yutuqlar bilan chegaralanib qolishga imkon bermayapti. Shu bois, O'zbekistonda jahon bozoridagi innovatsion o'zgarishlarni o'rganish, tadqiqotlarni olib borish, nazariya va uslublarini yaratish, ularni amalga oshirishning yo'llarini ishlab chiqishni amalga oshirildi. Bu esa, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, mamlakatimizni qisqa vaqt ichida yeng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashiga imkoniyatlar eshigini ochadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida innovatsion islohotlar o'tkazish hamda tub yangilanishlarni modernizatsiya qilish hisoblanib, u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, korxonalarni yangi texnologiya va uskunalar bilan jihozlash, iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini oshirishga asoslanadi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining innovatsion hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish va undan unumli foydalanishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "... ushbu siyosat, avvalo, mamlakatning iqtisodiy qudratini yanada mustahkamlash, boy tabiiy, xomashyo va mehnat resurslari, intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatimizdan to'la va samarali foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi darkor". Darhaqiqat, mamlakatning jahon xo'jalik tizimiga faol kirib borishi iqtisodiyotning ochiqligini kengaytirish va erkinlashtirish, innovatsiya asosida modernizatsiya qilish,

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishning barqaror sur‘atlarini ta‘minlash muammolariga alohida ahamiyat berilishini taqozo etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati milliy iqtisodiyotda innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirish sur‘atlarini jadallashtirishni talab etadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, faol, samarali innovatsiya va marketing strategiyalari mamlakat iqtisodiy va tabiiy omillaridan oqilona foydalanish orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotning innovatsion shakllanishi, eng avvalo, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi tarmoqlar hisobiga yuz beradi, bu esa o‘z navbatida mamlakat iqtisodiyotini xomashyo eksport qilishini kamaytirish bilan birga uni qayta ishlashni rivojlantirishga, valyuta mablag‘larining tejalishiga va aholi bandligining oshishiga sabab bo‘ladi. Ushbu omillar o‘z navbatida mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlanishiga olib keladi.

Innovatsiya u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun insonning intellektual mulk yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo) foydalanish natijasida olingan moddiy va nomoddiy mahsuli bo‘lib, u moc ravishda texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiyva boshqa turlarga bo‘linadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rang-barang va turli-tuman ko‘rinishga ega.

Zamonaviy texnologik yangiliklar boshqa mamlakatlarda kiritilgan yangiliklarni takrorlovchi imitatsiya va dunyoda ilkbora amalga oshirilayotgan yangi innovatsiyalar bo‘lishi mumkin.

Hozirgi zamonaviy nuqtai-nazardan, bazis innovatsiyalar yangi texnika (texnologiya) avlodlari va texnologik ukladlarni o‘zlash-tirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi; yaxshilovchi innovatsiyalar esa avlod-larning tarqalishi va ular qo‘llanuvchi turli sohalarning o‘ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda taqsimlanishiga xizmat qiladi; soxta innovatsiyalar eskirgan texnika va texnologiyalarning xizmat qilish muddatini uzaytirishga xizmat qiladi.

Inson intellektual bilimlarining rivojlanishidagi asosiy o‘shishlar uzoq muddatli o‘shishning asosiy manbai bo‘lib, dunyoda keng tarqalgan va davrga xos yangiliklar deb atash mumkin.

Innovatsion o‘zgarishlar amal qilish maydoniga ko‘ra inson faoliyatining barcha sohalari va jamiyatning har bir jabhasini qamrab

oladi. Boshlang‘ich, eng ko‘p o‘rganilgan texnologik innovatsiyalar quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarish yangi texnologik usulining shakllanishi asosida turuvchi innovatsiyalar; texnologik va texnika avlodlarini o‘zgartirishga turtki bo‘luvchi bazis innovatsiyalar; yangi texnika modellari va texnologiya modifikatsiyalari yordamida yangi bozorlarni o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi innovatsiyalar.

5.2. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyoyevning “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi” to‘g‘risida to‘g‘risida”gi farmonidafan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi to‘g‘risida batafsil ko‘rsatib berilgan. “Xalq so‘zi” gazetasi, 04.09.2018-yil, № 182.

Zamonaviy iqtisodiyot, ilm-fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Tizimning joriy etilishi istiqbolga mo‘ljallangan vazifalarni qo‘ya olish va hal etish iqtidorini, yuksak umumiy kasbiy madaniyatni egallash, shaxsiy jihatdan ijodiy faollik ko‘rsata oladigan, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda mo‘ljal ola bilish malakasini egallagan kadrlarning yangi avlodi shakllanishini ta’minlaydi.

Ishlab chiqarishning talab-ehhtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo‘nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta’limning muqobil texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi:

—turli saviya va malakadagi mutaxassislariga bo‘lgan talab-ehhtiyojni shakllantiradi;

—o‘z ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliya, inson resurslari hamda kadrlarni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni berish bilan uzluksiz ta’lim tizimiga ko‘maklashadi;

—muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarini maqsadli tayyorlashni, shuningdek, turli darajadagi o‘quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

—ta’lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, o‘quv ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo‘l bilan ta’minlanadi:

—ta’limni korxonadagi umumli mehnat bilan, shu jumladan, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo‘shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

—kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarimiz ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

—ta’lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma’naviy vajismoniy tarbiyalash);

—ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

—ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

—pedagog kadrlarning ilg‘or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

—ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta’lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

—ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash uchun ta’lim oluvchilarni ish joylari bilan ta’minlash;

—o‘zaro integratsiyalangan ta’lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblarni jihatlash.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning taraqqiyoti tegishli kadrlarga bo‘lgan talabni belgilab beradi, hamda ularni tayyorlash va kvalifikatsiyalashga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmani shakllantiradi.

Ilm-fanning bosh vazifasi kadrlarni oldindan tayyorlash, mamlakatning ilmiy salohiyatini shakllantirishdan iboratdir.

Ilmiy muassasalarda, oliy o‘quv yurtlarida va ilm-fanni boshqarib beruvchi tashkilotlarda iste’dodli yosh mutaxassislar, ilmiy-pedagogik

xodimlar va olimlar orasidan oliy kvalifikatsiyali, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tanlash va tayyorlashning zarur shart-sharoitlari yaratiladi va uning samarali mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish tegishli daraja va ixtisoslikdagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda faol ishtirok etgan holda, buyurmachilik va iste'molchilik vazifasini amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining ijtimoiy buyurtmasini shakllantiradi, professional tayyorgarlikni maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, kvalifikatsion talablarni ilgari suradi, mutanosib texnologiyalar va ta'lim shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish buyurtmasi sifatida kadrlarning , umuman kasbiy ta'lim tizimining sifati, darajasi va raqobatbardoshligini baholaydi.

Yuzaga kelgan innovatsiyalarni boshqarish tizimida innovatsion loyihalarni amalga oshirish biznes markazlar va texnopark kabi strukturalardan foydalangan holda ro'y beradi. Demak, agar ta'lim muassasasi yuqori texnologiyali ixtisosliklar bo'yicha amaliy kurslarni tayyorgarlikka kiritish niyatida bo'lsa, u tasarrufida ma'lum miqdordagi innovatsion loyihalar bajariladigan innovatsion fondlar ega bo'ladi.

Bu turdagi munosabatlarga «klassik» misol tariqasida Stenford universitetining texnologiyalarni litsenziyalash bo'inmasini keltirib o'tish mumkin. Aynan ushbu bo'inma 1996-1998 yillarda yuqori texnologiyali yosh Google kompaniyasini qo'lab-quvvatladi: kompaniyani tashkil etish, vensur fondlar tomonidan moliyalashtirishni jalb qilish, kompaniyaning o'sishini boshqarish uchun professional top-menejerlar izlab topishda yordam ko'satdi.

Google kompaniyasi qidiruv xizmatlari bozorida yetakchiga aylanib, 2004 yil 2 mlrd. dollar miqdorida aksiyalar birlamchi joylash-tirishni amalga oshirgach, kompaniyaning 10%iga egalik qiladigan Stenford universiteti bu loyihadan aksiyalarni sotishdan olingan foyda ko'rinishida samaraga ega bo'ldi.

Tasarrufida innovatsion fondlar tashkil qilish orqali fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyasiga erishish mumkin.

Innovatsion fondlar tashkil qilish uchun quyidagi resurslarga ega bo'lsa maqsadga muvofiqdir:

- fond faoliyatining boshlang'ich bosqichini moliyalashtirish;
- fondda ishlab chiqarish uchun innovatsion korxonalarni joylashtirishga maydonlar;
- korxonalar va firmalar ta'sis qilish va mustaqil tijorat faoliyati yuritish huquqi.

Agar dastlabki ikki resursni izlab topish mamlakatimizdagi deyarli barcha oliy o'quv yurtlari uchun muammo hisoblanadigan boisa, uchinchi resursning yo'qligi budjet hisobiga moliyalashtiriladigan davlat Oo'Yu uchun o'ziga xos muammo bo'lishi mumkin, ammo zamon talabidan kelib chiqib, hozirgi kunda buni yechimini topish hecham qiyin ish emas.

Yangi ilmiy bilimlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish samarali mexanizmlarini shakllantirish zarurati tufayli oxirgi yillarda texnoparklar, biznes-inkubatorlar, innovatsion-texnologik markazlar, maxsus iqtisodiy hududlar, ilmiy-texnik rivojlanish hududlari, innovatsion rivojlanish hududlari va h.k. paydo boia boshladi.

Innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotda bilim vositalari birinchi darajali, eng muhim resurslar hisoblanadi. Oqibatda yetarli darajada bilimlarga ega boiibgina qolmay, ularni amaliyotda qoilyay oladigan, bilimlar eskirib borishi bilan ularni uzluksiz yangilab beradigan malakali mutaxassislar tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda ta'limda yangi o'quv rejalari, dasturlari, darslik va qoilyanmalar yaratishga kirishildi. Taiim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiyalash yoiga qo'yildi. Ayni vaqtda yangi juda ko'plab turdagi taiim muassasalari tashkil etila boshlandi.

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish, kadrlar tayyorlash maqsadi etib belgilandi.

Innovatsion iqtisodiyot bu - bilimlar va innovatsiyalarga asoslangan jamiyat iqtisodiyotidir. Mazkur iqtisodiyotga yangi g'oyalar, yangi mashinalar, tizim va texnologiyalami ochiq qabul qilish, ularni xilma-xil faoliyat sohalarida amalga oshirishga tayyorlik xosdir.

Hozirgi kunda o'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga innovatsion iqtisodiyot doirasida kadrlar tayyorlash tizimiga xos bo'lgan jihatlar belgilab berildi.

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yoʻnalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, taʼlimning muqobil texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

5.3.Oʻzbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollari

Innovatsion rivojlanishning asosida intellektual mulk obektlariga egalik xuquqini xarid qilish va berishda eng katta faollik xorijiy kompaniyalarga tegishli. Shu munosabat bilan mamlakatdagi fan va taʼlim bilan bir tomondan va ishlab chiqarish bilan ikkinchi tomondan oʻrtadagi farq katta tashvishi yotmoqda. Boshqa yana bir tashvishli xolat bu intellektual mulk obektlari boʻyicha shartnomalarning 70% dan koʻpi tovar belgilari va xizmat koʻrsatish belgilariga toʻgʻri keladi. Bunday yondashuvga amal qiladigan boʻlsak, kutilayotgan texnostrukturaga erishishni hali koʻp kutishga toʻgʻri keladi.

Afsuski, koʻplab ilmiy-tadqiqot institutlarida innovatsiyalar birinchi navbatda oʻz tadqiqotlarini moliyalashtirish uchun manbani izlab topish vositasi sifatida koʻrib chiqiladi. Kabinetlar, laboratoriyalar va dissertatsiya zallaridagi ilmiy muhokamalar koʻpincha olingan gʻoyalarning yangilik darajasi bilan bogʻliq boʻladi. 2000 yildan 2004 yilgacha 60ʻlgan davrda Oʻzbekistonda patent olish uchun murojaat qilingan arizalar soni 3476 tani tashkil qilgan bir paytda kashfiyotlar boʻyicha shartnomalar umumiy soni 252 ta ki 7,2% ga teng boʻldi. Ilmiy yangiliklarning kelgusi harakatlanishi, sinov tarikasida tekshirib koʻrilishi, olingan natijalarning bozorda tatbiq etilishi endi ularni yaratuvchilarning vazifasi emas. Bu bilan endi innovatsion vositachi shugʻullanishi lozim! Bu vositachilar hozir Oʻzbekistonda tayyorlanmayapti.

Innovatsion tarkibiy qism davlat iqtisodiy siyosatining har bir (makroiqtisodiy, strukturaviy, tarmoqva mintaqaviy) yoʻnalishida koʻzda tutilishi lozim. Innovatsion siyosat davlatning sanoat siyosatini samarali amalga oshirish hisobiga ham muoffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Masalan, tarmoqlararo ishlab chiqarish zanjirini vertikal

integratsiyalab, nafaqat moliyaviy-iqtisodiy, balki, ilmiy-texnik jihatdan xam innovatsiyalarga erishish, vertikal bo‘ylab kumulyativ yoki sinergik ta‘sir ko‘rsatish mumkin. Innovatsiyalar kapital to‘lanishi yangiliklar ishlab chiqish va kiritish uchun yetarli zamin hozirlagan paytlarda korxonalar gorizontal aloqalari darajasida ham vujudga kelishi va o‘zlashtirilishi mumkin. Bu jihatdan sanoat siyosati iqtisodiyotning o‘shish nuqtalarida resurslar markazlashuviga xizmat qilishdan tashqari ularning innovatsion imkoniyatlarini ham rivojlantiradi.

O‘zbekistonda innovatsiyalar shiddat bilan xususiy sektordagi kompaniyalar rivojlanish strategiyasining bir qismiga aylanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi yoki sanoat korxonalarida yangiliklar kiritish mehnat maxsuldorligini oshirish, moliyaviy, mexnat va moddiy resurslarni tejash hamda chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga ko‘maklashadi. Biroq xususiy sektor kutilayotgan raqobatbardoshlik darajasini ta‘minlovchi to‘laqonli va barqaror innovatsiyalar mexanizmini faqat o‘z kuchlari bilangina yarata olmaydi. Bunda hukumatning maqsadli yo‘naltirilgan va kompleksli innovatsion strategiyasining o‘rni juda xam katta.

Bunday kompleksli strategiyani amalga oshirish — uzoq muddatli xarakterga ega hisoblanadi. Zamonaviy innovatsion muhit holati ayrim obektiv sabablarga ko‘ra kiska muddat ichida mahalliy biznesning innovatsion darajasi yuqori bo‘lishiga imkon bera olmaydi va shu sababdan uning rivojlanishi davlatning ko‘plab yo‘nalishlar bo‘yicha kuch sarflashini talab qiladi. Bunda quyidagi muammolarga e‘tibor karatish zarur:

- biznesning ilmiy-texnik axborotlarga ega bo‘lishi uchun transaksiya xarajatlari juda katta;

- yangi texnologiyalarning qiymat va bozor risklari korxonalar, ayniksa, kichik korxonalar uchun juda katta;

- innovatsion loyihalarni ishlab chikish va amalga oshirish uchun o‘z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng kamrovli va diversifikatsiyalangan bozori mavjud emas;

- xususiy sektordagi ko‘plab korxonalarda innovatsion boshqaruv karorlari tizimi shakllantirilmagan;

- fanni ishlab chiqarish bilan bolab turishi mumkin bo‘lgan innovatsion vositachilar instituti rivojlangan tarmoq yaratilmagan;

– raqobatli muhit mahalliy korxonalarni innovatsiyalarni jalb qilishga yetarli darajada ragʻbatlantirmaydi;

– iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida biznes texnologiyalarining asosiy massasida biznesni tashkil qilishning mablagʻlarni namunaviy tovarlar ishlab chiqarish yoki ular bilan savdo qilishga kiritishni nazarda tutuvchi anʻanaviy yondashuvlar ustunlik qiladi.

Yuqorida sanab oʻtilgan muammolarning barchasi shuni koʻrsatadiki, innovatsion muhit maʼlum maʼnoda iqtisodiy va institusional islohotlarning turli yoʻnalishlaridagi taraqqiyotga bogʻliq boʻladi. Iqtisodiyotda innovatsion mexanizmlarni ishga tushirish strategik ahamiyatga ega vazifa boʻlib, uni kichik biznesdan boshlash maksadga muvofiq.

Barqaror rivojlanish strategiyasi anʻanaviy umum insoniy tasavvur va kadriyatlar, fikrlash stereotiplaridan kelib chiqqan holda belgilanmaydi. U nafaqat zamonaviy voqelikka, balki, kutilayotgan rivojlanish istiqbollari mos keluvchi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Ushbu strategiyaga mos keluvchi dunyokarash odamlarning bir-biriga boʻlgan munosabati va biosfera bilan aloqalarining butkul oʻzgartirilishini talab qiladi. Planetamizning oʻziga xosligi shundaki, unda hali butun kosmosda topilmagan ongli xayot mavjud. Insoniyat buni tan olishi, uni oʻzining kelgusi rivojlanishining asosiy maksadlaridan biriga aylantirishi va biosferaga antropogen taʼsirni susaytirishi lozim. Sayyoramizdagi tirik mavjudotlar oʻz yashash muhitini oʻzi shakllantirib, uning barqarorligini taʼminlaydi va hayot kechirish uchun optimal sharoitlar yaratadi, yaʼni biosferaning barkarorligi undagi tirik organizmlar tabiiy ittifoqlari tomonidan taʼminlanadi. Ularni saqlab qolgan holda inson biosfera faoliyati va evolyutsiya siqonunlariga toʻliq javob bergan holda yashashi mumkin. Sivilizatsiyaning yashovchanligi va barkaror rivojlanishiga oʻtish biosfera qonunlari va cheklovlarini hisobga olishni talab qiladi. Atrof-muhitning biotik muvozanatini saklar ekan, insoniyat barkaror rivojlanish yoʻliga oʻtib, sayyoramiz biosfera yaratgan tur sifatida yashab kolishi mumkin. Sivilizatsiyaning kelgusi evolyutsion rivojlanishi, kishilar hayotining yaxshilanishi sayoramizdagi har qanday (jumladan, ongli) xayotning asosi sifatida biosferani zararlamasdan ekotizimlarni

qo‘llab-quvvatlovchi xo‘jalik sinflari doirasida o‘ringa ega bo‘lishi mumkin.

Barkaror rivojlanish muammosiga nisbatan yanada kengroq va shu bilan bir paytda tizimli metodologiyani qo‘llash ko‘plab yo‘nalishlar bo‘yicha suyqasi chiqkan xulosalarga olib kelishi mumkin. Aytaylik, iqtisodiyot sohasida ijtimoiy-tabiiy yondashuv bozor yoki reja mexanizmlari samaradorligi haqida munozaralardan e‘tiborni har qanday ijtimoiy-iqtisodiy shaklning tabiat bilan chiqishuvchanlik muammosiga qaratadi. Shu tariqa iqtisodiyotning u yoki bu ijtimoiy shakli biosferaga mos kelishi ijtimoiy omillar bilan birgalikda insoniyat hayoti va rivojlanishining yangi asoslarini yaratadi.

Barqaror rivojlanish muammosini tadqiq etish uning strategiyasi ilmiy asoslarni faqat atrof-muhitni barqarorlashtirish va biotikregulyatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan oladi. Biroq bu strategiyani amalga oshirish uchun qiyinroq, chunki, u insoniyatning bundan oldingi qo‘llangan barcha tajribalari va fikrlash qoliplariga eng ko‘p karshilik ko‘rsatadi. Uni amalga oshirish uchun noosfera yondashuvini atrof-muhitni barqarorlashtirish bilan birlashtirish zarur. Bu ikkala metodologik yondashuv mamlakatimizda ilmiy asoslangan barkaror rivojlanish strategiyasini yaratish uchun ilmiy asos bo‘la oladi. Bu esa barkaror rivojlanish konsensiyasini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak innovatsiyalar deganda u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo) foydalanish tushuniladi.

5.4.O‘zbekiston Respublikasida texnologik innovatsiyalar

Texnologik innovatsiyalar tabiat kuchlaridan foydalanish va atrof-muhitga ko‘rsatiluvchi zararli ta’sirni kamaytirishning yanada samaraliroq usuli bo‘lgan iqtisodiy innovatsiyalar hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar muomalasi, narx, moliya-kredit, pul mexanizmlari shakllarini o‘zgartirishga olib keluvchi va takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy innovatsiyalarning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohalardagi innovatsiyalar ijtimoiy

stratifikatsiya hamda ijtimoiy sinf va guruhlar tarkibida o'zgarishlarga olib keladi. Innovatsiyalar peramidasining cho'qqisi ijtimoiy-madaniy innovatsiyalar — fan, madaniyat, ta'lim, etika va mafkuradagi innovatsiyalar hisoblanadi. Ular innovatsion yangilanish uchun manba (ilmiy ixtiro va kashfiyotlar) bo'lib xizmat qiladi va shu bilan bir paytda ularning natijasi bo'lib, yangi ijtimoiy-madaniy tuzumni shakllantiradi yoki uning bir bosqichiga aylanadi. Turli faoliyat soxalarida innovatsiyalar tarkalishining rezonans samarasini qayd etish mumkin.

Sosiogenetika nuqtainazaridan innovatsiyalar dinamikasida naslilik, o'zgaruvchanlik va tanlov qonuniyatlari ta'siri kuzatiladi. Har bir innovatsiya innovatsion rivojlanishning bundan oldingi davrida to'plangan tajribalarga tayanib, o'zgarayotgan tizim gesotipinimeros qilib oladi hamda uni tashki va ichki sharoitlarga moslashtirib, eskirgan elementlardan tozalagan va yangi elementlar bilan boyitgan xolda o'zgartiradi; bunda ko'psonliinnovatsiyalar orasidan eng samarali innovatsiyalar tanlab olinadi.

Etakchi tarmoqlar tarkibi ham o'zgaradi. XX asrda texnologik yetakchilarga harbiy sanoat, elektrotexnika, kimyo, asrning ikkinchi yarmida - elektronika, axborot texnikasi, biotexnologiya va xizmat ko'rsatish sohalari aylangan edi. Takror ishlab chiqarishning gumani-zatsiya va noosferizatsiyasi insonhayoti, faoliyati va salomatligini ta'minlovchi, tabiiy resurslarni saqlovchi va atrof-muxitni muxofaza qiluvchi tarmoqlarning birinchi o'ringa chiqishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllanib bozor munosabatlariga o'tishi bilan tubdan o'zgargan dunyoga yangicha karashdan tashqari kelajakni oldindan ko'ra bilishning yangicha nazariyasi, strategik rejalashtirish metodologiyasi, bazis innovatsiyalar klasterlari xarakteri va okibatlarini baholash zarurati oldiga kelib koldi.

Iqtisodchilarning oldindan ko'ra bilish va istikbolli rejalashtirish metodologiyasi asosiy qoidalari va ulardan zamonaviy sharoitlarda foydalanish istiqbollari qo'shimcha kiritilgan va dolzarblashtirilgan ko'rinishi quyidagilardan iborat.

1. Jamiyat va tabiat rivojlanishi qonuniyatlarini yaxlit holda, tizimlar rangbarangligida anglash oldindan ko'ra bilish uchun zarur asos va zamin hisoblanadi. Istalgan bir fanning asosiy funksiyasi shundan iborat. Biroq bu har qanday yirik xo'jalik, ijtimoiy va ekologik qarorlar qabul qilishda ham amaliy zarurat hisoblanadi.

Boshlang'ich xolatni baholash va undan foydalanishda ikki narsani inobatga olish zarur. Birinchidan, tabiiy qonunlardan farqli o'laroq ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari jamiyatning o'zidagi tub o'zgarishlar bilan birgalikda o'zgarishi mumkin. Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish bulardan keyingisiga xos bo'lgan konuniyatlar tizimini yangidan o'rganib chikish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy konun va konuniyatlar tarkibi bir turda emas, ular ierarxik bo'lib, bilishning turli darajalarini aks ettiradi. *Statika qonunlari* evolyutsion rivojlanish davrida nisbatan muvozanatli xolatda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyat ko'rsatuvchi struktura va shart-sharoitlarni aks ettiradi. *Siklik dinamika konuniyatlari* tizim dinamikasidagi notekislikni, sikllar boskichlarining almashish konuniyatlari va tizimlar rivojlanish sikllarining o'zini, jamiyatning innovatsion yangilanish jarayonining to'lqinsimonligini ochib beradi. Bu davriy o'zgarayotgan voqelikni anglashning ikkinchi boskichidir. Bilishning oliy bosqichi—*sotsiogenetika qonuniyatlari* bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar dinamikasida nasliylilik, o'zgaruvchanlik va tanlov yig'indisi (birikuvi) hisoblanadi.

2. Uzoq muddatli rejalattirishning asosi ijtimoiy iqtisodiy tizimlar dinamikasidagi sikllar va inqirozlarni ularni tabiiy tizimlar bilan aloqada oldindan ko'ra bilish hisoblanadi.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni uzoq muddatli bashorat qilish sivilizatsiyali xarakterga ega bo'lib, jahon va lokal sivilizatsiyalar aloqasi va dinamikasi konuniyatlarini hisobga oladi.

4. Oldindan ko'ra bilishning maksad va natijalari muayyan hodisalarni aytib berish emas, balki, davriy o'zgarishlar va rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko'ra bilish, kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni innovatsion asoslarda hal qilish yollarini tadqiq etish hisoblanadi.

5. Uzoq muddatli bashorat qilish va strategik rejalashtirish o'zaro uzviy va chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiyot va yirik xo'jalik tizimlarining rivojlanishini boshqarishda yaxlit bir butunlikni tashkil qiladi. Bashorat rejadan oldin keladi, kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini baholash, bazaviy va ahvolni yaxshilovchi innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan strategik ustuvorliklarni tanlash hamda buning oqibatlarini baholashga yordam beradi.

6. Uzoq muddatli bashorat qilish va strategik rejalashtirish metodologiyasi tor doiradagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar (indikatorlar) hamda istiqbolli balanslarga tayanishi lozim. Chunki ular xalq xo'jaligidagi proporsiyalarning muvozanatli o'zgarishini ta'minlash, muayyan ichki va tashqi omillarni e'tiborga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion-texnologik va ekologik siyosatning istiqbolli maqsadlariga erishishga imkon beradi.

7. Bashorat qilish va strategik rejalashtirishni tashkil etish turli darajadagi reja va bashoratlarning uyg'unlashuvi, ularni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda mahoratning yuqori bo'lishi, davlat tomonidan tartibga solishning bozor vakillari mustaqilligi va tashabbuslari, ularning innovatsion faolligi bilan uyg'unlashuvini ta'minlay olishi zarur.

Va nihoyat, innovatsion o'sish, samarali va ishonchli bashorat asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim omili ushbu sohada davlat orgalari uchun ham, korporatsiyalar uchun ham yuqori malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Kelajakni oldindan ko'ra bilish, strategiyani ishlab chiqish bu — mustakil kasb bo'lib, strategik fikrlashni, turli fanlar bo'yicha tayyorgarlik ko'rishni va chuqur ilmiy va amaliy bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Bunday mutaxassislar tayyorlash hamda iqtisodchi va muhandis kadrlar uchun maxsus fanlar o'qitishni qayta tiklash va buni yangi, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi asoslarda bajarish lozim. Bu innovatsion o'sish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartidir.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik shartnomalarni ahamiyati.

2. Innovatsion texnologiyalarni yaratishda hozirgi davr ilmfanning ahamiyati.

3. O'zbekistonda intellektual mulk yutuqlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

4. Istiqbolli innovatsion texnologiyalarni xalq xo'jaligiga transfera qilish usullari.

5. O‘zbekistonda innovatsiyalarni jalb etish bo‘yicha qanday islohotlar olib borilmoqda ?
6. Gorizontal integratsiyasi nima ?
7. Fan texnika taraqqiyoti deganda nima tushunasiz ?
8. O‘zbekistonda logistika rivojiga hissa qo‘shgan olimlardan kimlarni bilasiz ?
9. Logistika fani bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan qaysi chet-el olimlarini bilasiz ?
10. O‘zbekistonda texnologik innovatsiyalar rivojlanishiga doir qanday ishlar amalga oshirilmoqda ?

6-mavzu. Innovatsion logistikada klasterlar va “5I” modeli

6.1. Klaster nazariyasining mohiyati va vujudga kelishi. Logistik innovatsion klaster tizimi

6.2. Logistik innovatsion klaster modelining turlari

6.3. Logistik innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar, texnologiyalarni amalga oshirishda klaster usullari

6.4. Klaster turdagi tadbirkorlikni shakllantirishda logistik innovatsiyalarni boshqarish

6.5. Davlat yoki korxonaning klaster siyosati va logistik innovatsion klasterni rivojlantirish vositalari. O‘zaro bog‘liq kichik sanoat zonalari, korxonalar klasteri

6.6. Klaster usulida joriy qilingan innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy samaradorligi.

6.1. Klaster nazariyasining mohiyati va vujudga kelishi. Logistik innovatsion klaster tizimi


O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishariga bag‘ishlangan bandida ”Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, erkin iqtisodiy zonalar, logistik markazlar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, amaldagi zonalarning samaradorligini oshirish, xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini eng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish, yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish kabi vazifalar keltirilgan. Shulardan kelib chiqqan holda, bugun mamlakatimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotimizni

innovatsion rivojlantirish, sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muoffaqiyatli amalga oshirilishi yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liqdir. Shu ma'noda bugungi kunda iqtisodiyotimizni innovatsion rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda yangi texnologiyalar, usullar, nazariya, g'oyalar va klasterlardan foydalanish dolzarb masaladir.

Klaster – frantsuzcha so'z bo'lib o'zbekcha tarjimasida “panja”, “bosh”, “bog'lam”, “guruh”, “to'planish”, “turg'un” ma'nolarini beradi. Klasterlar ma'lum bir sohada ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishda bir-birini o'zaro to'ldiruvchi guruhlar harakatidir. Klaster” nazariyasining asosi bo'lib, Alfred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan “Iqtisodiyot printsiplari” nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq-sohalarning alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Uning ilmiy xulosalari bo'yicha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi subyektlarni hududiy uyg'unlashuvi:

- malakaviy mehnat resurslarining borligi;
- ta'minotchi va qo'shimcha sohalarning o'sishi;
- har-xil firmalarni ishlab chiqarish jarayonining turli bo'g'inlariga ixtisoslashuvining mavjudligiga asoslanganligi.


Umumiy klasterlarning ishlatilish sohalari quyidagilar: iqtisodiy klaster, logistik klasterlar, axborot klaster, pedagogikada klaster, adabiyotda klaster, til o'rganishda klaster, kompyuterda klaster, server klaster va hokozolar.



6.1-rasm. Klasterlarning umumiy tuzilishi

Klaster– hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng faol formasi hisoblanadi. Klasterni ilmiy nazariy mohiyatini va ularni shakllanish masalalari bo‘yicha chet el olimlari M.Todaro, I.Tomnado, Ye.Limera, Ye.Daxmenz, P.Fisher, M.Feldman, D.Yakobsan, A.Yango, Ya.Suminen kabilar shug‘ullangan.Rossiya olimlaridan Ye.D.Rijanov, V.P.Tretyak, A.A.Migranyan, T.B.Kleyner, A.G.Granberg, I.P.Danilov, A.Ye.Yakovlev, M.K.Belyaev, Ya.N.Semerkova, J.A.Mingalyova, Ye.A.Tkachenkolar ayniqsa, oxirgi o‘n yilda faol shug‘ullanib kelmoqdalar.

Iqtisodiyotda klaster tushunchasini birinchi marta 1990 yilda amerikalik olim Maykl Porter fanga olib kirgan.



6.2-rasm. Hududlarni rivojlantirishning iqtisodiy klasterlari tuzilishi

“Klaster” nazariyasi evolyutsiyasidan uning ikkita fundamental tavsifga ega bo‘lib:

Birinchidan, klasterga uyg‘unlashgan korxonalar va firmalar faoliyati aniq bir xil turdagi tovarlar bozori bilan bog‘liq bo‘lishi zarur. Bunday bog‘liqlik vertikal (xarid va sotish zanjiri) va gorizontalar (qo‘shimcha bo‘limlar va xizmatlar, shunga ketadigan maxsus sarflar, texnologiyalar yoki institutlar va boshqa aloqalardan foydalanish).

Ikkinchidan, klasterlar geografik yaqin joylashgan o‘zaro bog‘-liqlikdagi korxonalar guruhi bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashishi natijasida raqobatbardoshlikning rivojlanishi, ko‘proq qo‘shimcha qiymatni yaratishiga va bozorda sotilishiga imkoniyatlar yaratishdir.

Sanoat klasterlari avvalo, shu tarmoq ichidagi raqobatga mahalliy va jahon bozorlarida bardosh beradi. Mamlakat va hududlar raqobatbardoshligini rivojlantirishga klaster nazariyasini tatbiq etish g‘oyasining asoschisi Maykl Porter fikriga ko‘ra, Klaster – jug‘rofiy nuqtai nazardan qo‘shni bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq kompaniyalar (ishlab chiqaruvchilar, mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqalar) hamda ularga aloqador xizmatlarni ko‘rsatib, ma‘lum sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta‘lim muassasalari, davlat boshqaruv idoralari, infratuzilmaviy kompaniyalar) guruhidir. Yoki “Klaster” – ishlab chiqarish korxonalarini raqobatbardoshligining o‘shirishga imkoniyatlar yaratuvchi, o‘zaro chambarchas bog‘langan tarmoqlar yagona texnologik zanjirini tashkil etuvchi hamjamiyatlardir. Klaster nazariyasi ilmiy jarayonga marketing strategiyasi shaklida, davlat, hududlar va mintaqalar korxonalarining bozordagi raqobat muhitida g‘olib bo‘lishlarini ta‘minlovchi g‘oya-usuli sifatida kirib keldi. Klaster strategiyasini amalda qo‘llash asosida milliy va mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish g‘oyasi turli mamlakatlarda va tarmoqlarda uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lsada, ammo M.Porter va M.Enraytlar uning quyidagi umumiy ustuvorligi borligini ochib berdilar:

– korxonalar (firma)lar uchun ta‘minotchilarga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga, xizmat va ta‘lim markazlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi. Klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish xaqi esa 30 foizgacha ko‘pligi o‘z tasdig‘ini topgan;

– ta‘lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yaratishi, ularni qisqa muddatda sinovdan o‘tkazishi, ishlab chiqarishga joriy etishi uchun shart-sharoitlar mavjud bo‘ladi;

– ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini ko‘proq rag‘batlantirishga va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar bo‘ladi.

Shuning uchun hozirgi iqtisodiyotni inqirozdan saqlash jarayonlarida, ayniqsa iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy usullari yetarli darajada foyda bera olmayotgan hozirgi davrda, innovatsion texnologiyalar asosida biznesni tashkil etishda "Klaster" nazariyasini amaliyotga tatbiq etish eng maqbul yo'l hisoblanadi. "Klaster"-lashtirishni korxonalar innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshligini oshirish va ularning global raqobatning kuchli ta'siriga qarshi turishdagi milliy va mintaqaviy rivojlanish talablariga to'la javob beradigan yangi iqtisodiy tizim deb ham qaralmoqda. Klasterlarning shakllanishida davlatning roli muxim o'rin tutadi. Agar dastlab klasterlar faqat "bozorning ko'rinmas qo'li" (raqobat) tufayli, avvalo transmilliy kompaniyalarni zamonaviylashtirishda tashkil etilgan bo'lsa, keyingi vaqtda ko'pgina mamlakatlarning hukumatlari bu jarayonga sezilarli darajada ta'sir etgani xolda ularga yordam bermoqdalar. Klaster strategiyasi jozibadorligi, yo'nalishlarning turli-tumanligi bois ham, innovatsion klasterlarini davlatning o'zi shakllantirishni taqozo etmoqda.

Davlat iqtisodiyoti klasterlarning kuchli jihatlariga tayanadi, chunki ularsiz eng rivojlangan iqtisodiyot ham o'rtamiyona natijalarga erishishi mumkin, degan xulosalar mavjud. Klasterlarning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi, ular ishtirokchilari yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanadi:

- boshqa tarmoqlardan keladigan yangi ishlab chiqaruvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirib va yangi strategiyalarni ta'minlab, rivojlanish jarayonini tezlashtiradi;

- o'zaro erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar iste'molchi va mahsulot yetkazib beruvchilarning kanallari bo'yicha tez tarqaladi;

- klaster ichidagi o'zaro aloqalar raqobatda yangi imkoniyatlar paydo bo'lishiga olib keladi;

- inson kapitali, ilmiy g'oyalari rivojlanishi va ishlab chiqarishga joriy etilishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Yevropa ittifoqi mamlakatlari va AQShda bu strategiya keng qo'llanilmoqda. Klasterlar soni Buyuk Britaniyada 168 ta, Gollandiyada 20 ta, Germaniyada 32 ta, AQShda 380 ta, Daniyada 34 ta, Frantsiyada 96 ta, Italiyada 206 ta, Finlyandiyada 9 ta, Hindistonda

106 tani tashkil etadi. Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya sanoatini klasterlar to‘la egallagan.

Italiyada sanoat klasterlari hissasiga ish bilan band aholining 43 foiz, milliy eksport hajmining 30 foizdan ko‘prog‘i to‘g‘ri kelmoqda. Klaster tuzilmalari Shveytsariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Koreya, Pokiston, Xitoy va Turkiya davlatlari yengil sanoatida, Germaniyada kimyo va mashinasozlik, Frantsiyada oziq-ovqat va kosmetika sanoatlarida muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Klasterlar “Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar” shaklida tashkil etilmoqda. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo‘lib, u yerda ilmiy-ishlab chiqarish va o‘quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o‘rnatiladi. “Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari – texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

Texnoparklar ikkita asosiy komponentlardan: ishlab chiqarish (sanoatning ilg‘or sohasidagi korxonalar) va mutaxassislar (universitet, institut, ilmiy-tekshirish instituti, laboratoriyalarning kuchli guruhlari)-dan tarkib topadi va ularning faoliyati raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltiriladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Birinchi darajali e‘tibor mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha dastur tayyorlashga va uni amalga oshirishga qaratilishi zarur” degan ko‘rsatmalarini yuqori darajada amalga oshirishda bosh yo‘nalishi xalqaro amaliyotda sinalgan “Klaster” nazariyasiga asoslangan tajribadan foydalanish, jumladan, iqtisodiyotimizning to‘qimachilik va yengil sanoat istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday mamlakat, hudud yoki viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, eng avvalo, ishlab chiqarayotgan tovarlarini mahalliy va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligi ya‘ni xaridorgirligi orqali bilan aniqlanadi. Mamlakatning ta‘lim tizimidagi islohotlar va barcha ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishlarning yakuniy ko‘rsatkichi ham tovarlar va xizmatlarimizning zamonaviy bozorlarda raqobatbardoshligining ta‘minlanishi bilan baholanadi. O‘zbekistonda birinchi bo‘lib A.Sh.Bekmurodov va Yang Son Belar “O‘zbekiston tekstil sanoatini rivojlantirish strategiyasiga klaster yondashuvi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borganlar. Ularning

tadqiqotlarida chet mamlaktlarda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha klasterlardan foydalanish loyihalari tavsiflanib, Amerikada axborot-kommunikatsiya, Yaponiyada avtomobil, neft-kimyo va tekstil, Italiyada keramika va gilam ishlab chiqarish, Koreya Respublikasida tekstil sanoatida erishilgan natijalar tahlil qilingan²⁵.

Logistik klaster – bu resurslarni optimal ravishda oxirgi iste'molchiga yetkazib berish uchun logistik operatsiyalarni amalga oshiruvchi subyektlarning mustaqil yagona oqim sifatida geografik makonda mustahkam o'zaro harakatlarini amalga oshirishidir.

Innovatsion logistik klasterlar o'z ichiga quyidagi funktsiyalarni qamrab oladi:

- moddiy oqimlarni shakllantiruvchi, iste'mol qiluvchi, qayta shakllantiruvchi bozor subyektlarini ya'ni ishlab chiqaruvchilarni, iste'molchilarni, tijorat vositachilarini;

- yer usti, suv, havo transport turlarining faoliyati bilan shug'ullanuvchi transport kompaniyalarini;

- ekspeditor-kurerlik, ekspeditor-agentlik, brokerlik, aralash yuk tashish operatorlik faoliyatlari, yo'l karterlari konferentsiyasi bilan shug'ullanuvchi ekspeditorlik kompaniyalari;

- omborxonalar, komplekslari, taqsimlash markazlari va terminallari;

- kichik sanoat zonalari, texnoparklar, innovatsion markazlar;

- institutsional organlar (transport vazirligi, avtomobil va daryo transporti agentligi, moliya vazirligi, Bojxona qo'mitasi, sanitar-epidemiologiya va veterinar nazorat xizmati);

- yordamchi mutaxassislar ya'ni sug'urta kompaniyalari, ilmiy-tekshirish tashkilotlari, xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari, konsalting va analitik tashkilotlar, marketing tashkilotlari;

- transport vositalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik yordam ko'rsatuvchi korxonalar, yo'l-transport kompaniyalari, servis xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

²⁵ Ўзбекистон Республикаси илмий-тадқиқот маркази маълумотларидан, Т.: Халқ сўзи, 2019 й.

- logistik kontseptsiyalar asosida transport, omborxonalar va ekspeditsiya xizmatlarini qamrab olgan kompleks tizimni yaratish istiqbolli sanaladi.

- zamonaviy, xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori darajada modernizatsiyalashgan, va keng xizmat ko'rsatishlar kompleksiga ega bo'lgan yuklarni to'plovchi va qaytaishlovchi terminal komplekslari bo'lishi kerakligini talab qiladi;

- erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish, amaldagi zonalarining samaradorligini oshirish, xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish uchun klasterlar faoliyatini samarali tashkil etishni yo'lga qo'yish;

-sohada malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning malakalarini oshirishda xorijiy hamkorlikni tashkil qilish masalalariga e'tiborni qaratish va h.k. Klasterlardagi raqobatga urg'u ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatiga ham ta'sir qiladi. Logistika tizimlaridagi aloqalar klasterlarga qaraganda ko'proq konservativdir. Ular tizim ishtirokchilari tomonidan bajariladigan funktsiyalar bilan qat'iy belgilanadi - logistika zanjiri aloqalari. Raqobat klaster a'zolarining ma'lum "tanqidiy massasini" talab qiladi. Logistika tizimida bunday tartibga solish mavjud emas. Innovatsion faoliyat raqobatni kuchaytiradi. Shu sababli, innovatsion faoliyat klaster tuzilmalarining majburiy xususiyatiga aylanmoqda. Barqaror rivojlanish uchun logistika tizimlari ham innovatsiyalarni yoqlaydi. Ammo tanqidiy tashqi bosim bo'lmasa, logistika tizimi innovatsiyalarga murojaat qilmaydi. Shu bilan birga, agar logistika tizimi innovatsiyalarni o'z vaqtida joriy qilmasa, tizim qulashi mumkin.

Ikkinchi muhim xulosa: klaster a'zolarining hamkorligi, asosan, ularning logistik integratsiyasi. Klaster, logistika tizimi sifatida, xomashyo etkazib beruvchilardan tortib, tayyor mahsulotni yakuniy xaridorlarga sotishdan tortib, qiymat yaratish yo'lidagi logistika zanjirining barcha ishtirokchilarini birlashtiradi. Shu bilan birga, o'z faoliyatida klaster yagona ishtirokchining emas, balki butun tizimning sinergiyasi tufayli jarayonlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish muammolarini hal qiladi. Shunday qilib, logistika raqobat bilan bir qatorda klaster tuzilmalarining iqtisodiy o'sishi uchun imkoniyatdir.

Mintaqani guruhlashtirish, aslida, uning logistika degan ma'nosini ham anglatadi. Logistika yoki transport-logistika klasteri masalasi alohida e'tiborga loyiqdir. Bu mintaqaviy logistika infratuzilmasining klasteridir. Iqtisodiyotdagi moddiy, axborot, moliyaviy, mehnat va institutsional oqimlarning harakatlanishiga yordam beradigan barcha narsalar mintaqaning logistika infratuzilmasiga tegishli. Logistika klasteriga quyidagilar kiradi: transport korxonalari, transport markazlari, yo'l transporti vositalari, transport va saqlash komplekslari, ulgurji sotuvchilar, axborot-kompyuter markazlari, tovar va fond birjalari, banklar, sug'urta kompaniyalari, bojxona postlari, yuk terminallari, aloqa korxonalari, telekommunikatsiya tizimlari. va hokazo

6.2. Logistik innovatsion klaster modelining turlari

Shuni ta'kidlash kerakki, aynan logistik klasterlar masalalari bilan S.I.Gritsenko, Ya.A.Myasnikov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Logistik klasterlar tuzilmasi yagona moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari bilan bog'liq bo'lgan korxonalar va tashkilotlardan tashkil topadi.

6.1-jadval

Logistik klasterlar turlari.

Klassifikatsion belgilari	Logistik klaster tizimlari
Quvvati bo'yicha	Kuchli klasterlar, mustahkam klasterlar, salohiyatli klasterlar
Rivojlanish bosqichlari bo'yicha	Istiqbolli klasterlar, rivojlanayotgan klasterlar, quvvatli klasterlar
Faoliyati bo'yicha	Transport-logistik, Bojxona-logistik, industrial-logistik, innovatsion-logistik klasterlar
Iqtisodiy klasterlarga xizmat ko'rsatish soni bo'yicha	Monologistik klaster. Dedologistik klaster
Klaster (o'lchami) sig'imi bo'yicha	Kichik, o'rta, katta
Geografik belgisi bo'yicha	Lokal (mahalliy), hududiy, milliy, xalqaro
Innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha	Yuqori innovatsion klaster, past innovatsion klaster

Shuningdek, bugungi kunda iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish maqsadida innovatsion logistik klasterlar faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

6.3. Klaster strategiyalari

Oxirgi o'n yilliklar davrida yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lgan davlatlarda klaster strategiyalari rivojlanib bormoqda. Bu esa dunyo ilm-faniga yangi g'oyalarni va ishlanmalarni yaratish bo'yicha katta saboq bo'lmoqda. Shuning uchun bugungi kunda ishlab chiqariladigan tovarlarni sifat ko'rsatkichlari darajasini oshirishda zamonaviy yangi nanotexnologiyalar, asbob uskunalar, laboratoriyalar uchun aniqlikni va tezlikni oshirish uchun yangi usullar va priborlar ishlab chiqilgan. Klasterlar asosan yuqori bilim darajasi, talablariga raqobatbardoshlik mezonlariga javob beradigan bo'g'inlarda tashkil topmoqda. Hozirgi vaqtda klaster talablari bo'yicha juda katta ishlar olib borilmoqda. Klaster asosan yangi g'oyali ilm-fan yutuqlarini har tomonlamali mutaxassislar ishtirokida tashkil etilishi mumkin bo'lgan texnologiyalar va texnikalar orqali olingan yangi assortimentdagi tovarlarni yoki xizmatlarni zudlik bilan ishlab chiqarishga tadbiq etilishini ta'minlaydigan va bozorni yangi talab uchun zarur bo'lgan raqobatbardosh tovarlar bilan ta'minlab maqsadga yo'naltirilgan foydani olishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday zamonaviy talablarga javob beradigan ilmiy-tadqiqot ko'rsatkichlari bilan isbotlangan va amaliyotda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bunday ishlarni kichik biznes va tadbirkorlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Klaster talablari siyosatini markazida esa xar tomonlama o'zaro faoliyatlar bo'yicha bog'lanish orqali qatnashuvchilarni bir-biriga xizmat yuzasidan bo'lgan e'tibori va sadoqati birgalikda bajarilayotgan ishlarni tez va muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Klaster sistemacini tashkil etishda kichik va katta ishlab chiqarish korxonalar orasidagi gorizontaal bog'lanish esa bozorda bir guruhga oid tovarlarni zamonaviy talablariga mosligini ta'minlaydi. Zamonaviy klasterlar, odatda bir yo'nalishga yo'naltirilgan bir qancha ishlab chiqarish bo'laklaridagi shu soxaga tegishli bo'lgan firmalarni maqsadga yo'naltirilgan zanjirni hisoblanib doimiy ular ma'lum bir mahsulotlar

yaratishga ixtisoslashgan bo‘ladi. Klaster sistemasi boshqa xo‘jalik orqali kichik biznesdan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

- barcha sistemadagi ishlarni bir-biriga bog‘laydigan va qisqa va uzoq muddatga mo‘ljallangan reja asosida boshqaruv ishini muqobillashtiradigan bosh bo‘g‘in bo‘lishi;

- klaster sistemasida qatnashayotgan xo‘jalik subektlarini asosiy qismini ma’lum bir joyda joylashganligi;

- klaster sistemasida qatnashayotgan xo‘jalik subektlarini uzoq va mustahkam aloqalarini o‘rnatib bu bog‘liqni ahamiyati boshqa qatnashuvchilarga doimiylikni tag‘rib etishini;

- bir maqsadga birlashgan qatnashuvchilarni uzoq davrga mo‘ljallangan innovatsion ishlab chiqarish rejalarini koordinatsiyalash;

- boshqaruv sistemasini barcha rejalashtirilgan ishlarini sifatini va uni o‘z vaqtida bajarishni ta’minlash.

Klaster usullarini boshqa asosiy farqi umumiy kooperatsiyali ishlab chiqarishda asosiy yo‘nalish istiqbolli klaster mo‘ljallari hozirgi davrdagi raqobatbardoshlik ustunligini amaliy jihatdan ishlab chiqarishdagi innovatsion texnologiyalar tashkiliy, boshqaruv ishlari va ishlab chiqarilgan tovarlarni iste’molchilarga yo‘llash hisoblanadi.

Klaster modelini tashkil etishda tovarlar raqobat mezonini o‘rganib va uni istiqbollab raqobatdagi birinchilikka xarakatqilinadi. Bu esa klaster usulidagi eng kerakli o‘zaro bolanishni, texnologiyalarni, axborotlar ta’minotini, ishlash uslubi orqali maqsadga yo‘naltirilgan kompleks ishlarini bosh firma rejalashtiradi va uni ijrosini ta’min etishda barcha ishtirokchilar bilan o‘zaro kelishilgan holda maqsadni amalga oshiradi. Bunday o‘zaro bog‘lanish maqsadga yo‘naltirilgan innovatsion mavzularni amalga oshirishda hamda raqobatbardosh mahsulotlarni oxirgi namunalarini yaratishda imkon beradi.

Zamonaviy fan va texnologiya tobora rakobatli bozor kurashiga jalb qilib borilmoqda. Fundamental bilimlar va ularning yakuniy mahsuli – ilmiy texnik mahsulot — iqtisodiyotning globallashuvi sharoitlarida davlatlarning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Aholining turmush farovonligi o‘sishi, mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur‘ati, ta’lim, fan va madaniyatning rivojlanishi, mudofaa kobiliyati bevosita yuqori texnologiyali kompleksni tarkibiy-texnologik qayta tuzishga bog‘liq bo‘lmoqda. Bu sohada yuqori

malakali ilmiy, tadqiqotchi va muxandis kadrlar salohiyati katta rol o'ynaydi.

Rivojlangan davlatlarning texnologik yutuqlaridan foydalanish, bu sohada avvalo, mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari bilan hamkorlik o'rnatish, xalqaro mehnat taksimoti va kooperatsiyadan imkon kadar keng foydalanishga intilish zarur. Bunday jarayonlar butun dunyoda ro'y bermoqda. Yuqorida qayd etib o'tildiki, texnologik jihatdan ilg'or mamlakatlar yagona texnologik makon tuzgan bo'lib, mamlakatimiz unga teng huquqli xamkor bo'lib kirishi, ayrim yo'nalishlarda esa yetakchilik uchun kurashishi lozim, buning uchun esa milliy texnologik darajada yetarlicha yuqori bo'lishi zarur.

Hozirgi paytda amaldagi iqtisodiy tarakkiyot va muvaffakiyatlar faqat yangi (fundamental va amaliy) bilimlar, yangi texnologiyalar va ularni ishlab chiqarishda jadal o'zlashtirish usullari asoslanishi mumkin; bunda bilim va texnologiyalarning aksariyati ikkiyoklama (harbiy va fuqarolik) yo'nalishga ega bo'ladi:

– Yangi bilim olish va yangi texnologiyalar ishlab chikish haqida g'amxo'rlik davlat va barcha mulkchilik shaklidagi korxonalarining umumiy ishi bo'lishi lozim; bunda davlat ilmiy texnik, texnologikva konstruktorlik ishlamalari (ITTKI)ni umumiy muvofiklashtirish, fundamental tadqiqotlar va riskli, lekin katta foyda keltirishi mumkin bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishni o'z zimmasiga oladi.

– Yuqori texnologiyali mahsulotlar bilan xalqaro bozorga chikish tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa barcha turlariga nisbatan ancha samarali bo'ladi; demak, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar hamjamiyatiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishiga imkon beruvchi xalqaro hamkorlikning har xil turlarishga tushirilishi lozim.


– Aksariyat yuqori texnologiyalarning muhimligi va tijorat nuktai nazaridan jozibadorligi yuqori texnologiyali faoliyat soxalariga xorijiy davlatlar maxsus xizmatlari va jinoyatchi guruxlari e'tiborini jalb qiladi. Shuning uchun mamlakatning yuqori texnologiyali tarmoqlarini ayrim hodimlar, korxonalar va tashkilotlar hamda davlatimizga tajovuzlaridan saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning ichki bozori xorijiy tovarlar uchun ochiqligi sharoitlarida mamlakat iqtisodiyotining muvaffakiyatlarini raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish holati belgilab beradi. Mamlakatimiz boy bo'lgan neft va boshqa tabiiy resurslarga xali uzoq vaqt davomida

talab katta bo‘ladi. Xalqaro mehnat taqsimotida mamlakat homashyo subekti o‘rnini egallab, tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish maxsulini jahon bozoridagi istemol va investitsion tovarlarga almashtirish mumkin edi. Birok bunday xolat bir qator sabablarga ko‘ra mamlakatni koniqtirmaydi. Avvalo, shuni e‘tiborga olish kerakki, mamlakat mehnatga layoqatli aholisining katta qismi qayta ishlash sanoatida mehnat qiladi. Homashyo va qayta ishlash sanoati markazlari geografiyasi esa, shunday joylashganki, bu axoli bandligini ko‘ngildagi darajada ta‘minlashga imkon bermaydi. Shu sababdan asosan iqtisodiyotning homashyo sektorini rivojlantirishga yo‘nalish mamlakatni nafaqat siyosiy-iqtisodiy jihatdan, balki, ijtimoiy va psixologik jihatdan ham qoniktirmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotning ko‘rsatishicha, mudofaa yo‘nalishidagi ilmiy loyiha va texnologiyalarning 50-60%i potensial samaradorligi yuqori bo‘lib, ular fukaro sektori uchun maxsulotlar va ikkiyoqlama yo‘nalishda qo‘llanuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanilishi mumkin. Ikkiyoqlama yo‘nalishda qo‘llanuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirib olish yuqori texnologiyali kompleksning barqaror bo‘lmagan budjet ajratmalariga moslashuvchanligini oshirishga, ulardan fukaro sektorida foydalanish esa, jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi. Aynan shu sababli xalqaro texnik qo‘mitalar va uning mahsulotlarini jahon savdo tizimlari orqali sotish mamlakatning ilm talab qiluvchi fuqaro sanoatining jahon bozoriga chiqishiga ko‘maklashadi.

Klasterlarni strategik boshqarishda asosan korxonaning faoliyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. O‘z ichiga bir nechta tarmoqlarni birlashtiradigan klaster loyixasini amalga oshirishni strategik boshqarishda asosan bir nechta funktsional birlashtirmalar hisobga olinib ular avvalo strategik boshqaruvni ta‘minlaydi va shu tariqa klaster loyihani amalga oshirishda qo‘llaniladi. Ular quyidagicha:



6.3-rasm. Klasterlarni strategik boshqaruv funktsiyalari.

6.4. Davlat yoki korxonaning klaster siyosati va logistik innovatsion klasterlarni rivojlantirish vositalari

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri innovatsion faoliyat, iqtisodiy rivojlanishning mazkur yo‘nalishida faollikni ta‘minlovchi omillarni, shuningdek, innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar xususiyatlari o‘rganish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va rag‘batlantirish haqida yuqorida shakllantrilgan tezis jahon tajribalaridan kelib chikkan xolda mamlakatimizdagi vaziyatda innovatsion o‘rinish strategiyasini amalga oshirish ustuvor hisoblanadi.

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, hozirgi paytda mamlakatda investitsion faoliyat amalga oshirilayotgan sharoitlarquyidagicha tavsiflanadi:

- qonunchilik tomonidan yaqin, o'rta va uzok istikbollarga belgilangan milliy maksadlar va ularga erishish bo'yicha aniq ifodalangan mexanizmlarning yaratilganligi;

- Makroiqtisodiy barkarorlik vazifalariga qaratilgan davlat strukturalari faoliyatini natijalari doim ham texnologik rivojlanish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash ;

- Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi, iqtisodiy barkarorligi va rivojlanishi manfaatlarini ta'minlash vositasi sifatida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish.

Mamlakatning milliy maksadlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi innovatsion siyosat o'tkazishni quyidagicha ifodalash mumkin:

- davlat va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash;

- iqtisodiy barqarorlikka erishish, iqtisodiyotning imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy quvvatini oshirish;

- sanoatni texnologik qayta jixozlash, jahon bozorida mamlakamimiz tovar va xizmatlari rakobatbardoshligini oshirish;

- tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muammolarini xal qilish;

- aholining ijtimoiy muammolarini xal qilish, munosib turmush tarzini ta'minlash, sog'liqni saqlashva ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratish;

- oziq-ovqat, homashyo, material va energiyaga bo'lgan milliy ehtiyojlarni kafolatli ta'minlash.

Boshqa mamlakatlar tajribalaridan kelib chikkan holda innovatsion jarayonning tarkibiy qismlarini quyidagicha aks ettirish mumkin:

- akademik va tarmoq institutlar, universitetlar va firma kompaniyalarning ilmiy-tadqiqot bo'linmalari ular davlat tomonidan moliyalashtiriluvchi yoki boshqa turda qo'llab quvvatlanuvchi fundamental ilmiy-tadqiqotlar va izlanish loyihalari uchun mas'ul bo'ladi. Sanab o'tilgan tashkilotlar hisobotlar, turli hujjatlar, ixtirolar, ilmiy maqolalar shaklida intellektual maxsulot ishlab chikaradi xamda ilmiy kadrlar tayyorlash bilan shuullanadi;

– texnik va sanoat-texnik tashkilotlar – ular innovatsion nou-xauga ega bo‘lib, boshlanich loyihalar ustida ishlaydilar, sinov namunalari yaratish va ularni sinab ko‘rish bilan shug‘ullanadilar, texnik tavsiflar, patentlar, standartlar va reglament tayyorlaydilar. Mazkur tuzilmalar namunalarni tayyorlash uchun kuchli ishlab chiqarish quvvatlari, professional va texnologik markazlarga ega bo‘lishi kerak;

– ilmiy va muhandis texnik hodimlar, shuningdek, innovatsion faoliyatning joriy muammolarini yechishda talab qilinuvchi malakali kadrlar uchun ta‘lim va o‘qitish tuzilmalari;

– tadqiqot va loyihalarning bajarilishini nazorat qiluvchi hamda ularni sanoat sektori bilan o‘zaro aloqalarini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar;

– maxsulot va xizmatlarga talabni va ularning tarkalishini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi konsalting tashkilotlari;

– ilmiy-texnik axborot xizmatlari — ular istiqbolli loyihalar xakida ma‘lumot to‘plash, tayyorlash va tarqatish bilan shug‘ullanadi;

– iste‘molchilar va maxsulotni sotish masalalari bilan shug‘ullanuvchi professionallarni birlashtiruvchi bozor strukturalari.

Yuqorida sanab o‘tilgan struktura birliklari o‘rtasidagi aloqalar sxemasi murakkab bo‘lib, bevosita aloqalarni ham, vositachilar va taksimot tarmoqlari hamkorlikni xam kamrab oladi.

Xorijiy mamlakatlarda texnologiyalarni yaratish va ularning transferi sohasidagi davlat siyosati sanoat va ilmiy-texnik siyosatning ustuvorliklaridan biri bo‘lib, ularni mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion qayta qurishni ta‘minlashda qo‘llash maksadga muvofiq.

Bunda asosiy maksadlar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– innovatsion faoliyat jarayonida, milliy, xarbiy, sanoat va jamoatchilik manfaatlariga javob beruvchi texnologiyalar yaratishda xavfsizlikni ta‘minlash;

– ilmiy-texnik faoliyat natijalari va yangi ig‘lor texnologiyalarni faol joriy qilish, ilmiy tadqiqotlar va istiqbolli loyihalar natijalariga taalluqli ilmiy-texnik axborotlarni keng tarqatish, mamlakatning ilmiy-texnik, texnologik va ular asosida iqtisodiy va mudofaa salohiyatini oshirish;

– ichki va tashqi bozorlarda ilm talab qiluvchi mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish.

6.5. Klaster usuliga joriy qilingan innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy samaradorligi

Innovatsion texnologiyani klaster amaliyotida tadbiq qilishda iqtisodiy samaradorlikni quyidagi usullarda baholash mumkin:

Yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini aniqlash kerak. Shu sababli yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish asosida ishlab chiqarishida yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun texnik chora-tadbirlarning qaysi biri foydali ekanligini aniqlash zarur.

Fan-texnika taraqqiyoti tadbirlari iqtisodiy samarasini hisoblash tartibi o'quv ko'llanmalarda izohlab berilgan.

Ularga quyidagilar kiradi:

– kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha namunali metodika;

– amaliyotda yangi texnika, ixtirochilik va ratsionalizatorlik tavsiflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;

– korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalari boshqaruvining On line tizimining iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodikasi;

– boshqaruvning On line tizimi samaradorligini;

– mehnatni ilmiy tashkil etish tadbir choralarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;

– atrof-muhitni muhofaza etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlarning iqtisodiy samarasini aniqlash uchun metodika.

Undan tashqari, tarmoq vazifalari, ilmiy-tekshirish institutlari, loyiha tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari ham metodik materiallar tayyorlashlari mumkin.

Yangi innovatsion texnikani yaratish orqali amalga oshiriladigan, yaratilgan va joriy etilayotgan ishlanma samarali yoki samarasizligini bilish kerak, demak, samarani o'lchash va baholash kerak. Uqanday qilib aniqlanadi ?

Yangi ishlamalarni iqtisodiy samaradorligi barcha ishlab chiqarish tarmoqlarida, ilmiy-tekshirish institutlarida, loyihalash tashkilotlarida

tegishli tadbirlarni avvalgi yillardagi o'zlashtirish natijalarini ifodalovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.

Ilmiy-texnikaviy tadbirlarning ko'p yillik tajribalariga asoslangan turli ko'rsatkichlar, jumladan, mashina va texnikaviy vositalarni ishlab chiqish xamda ulardan foydalanish natijasida erishiladigan yillik iqtisodiy samaradorlik quyidagicha aniqlanadi:

$$E = [3_1 \cdot a - 3_2 \cdot P] \cdot A_2 - S$$

Bu srda: 3_1 va 3_2 — mavjud va yangi texnika yordamida mahsulot birligini ishlab chiqarish xarajatlari;

a — yangi texnikaviy vositalarning sifatini, nisbiy afzalligini ifodalovchi koeffitsient bo'lib:

$$a = \frac{Q_2 P_1 + E_H}{Q_1 P_2 + E_H} \text{ hisoblanadi.}$$

Bu srda: Q_1 va Q_2 — mavjud va yangi texnikaviy vositalar birligi yordamida yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

P_1 va R_2 — mavjud va yangi texnikaviy vositalar qiymatida ularni tiklash uchun ajratmalar salmog'i;

R — yangi texnikadan foydalanish davrida erishiladigan samaradorlik. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P = \frac{[U_1^1 - U_2^1] - E_H [K_2^1 - K_1^1]}{P_2 + E_H}$$

Bu srda: U_1^1 va U_2^1 - mavjud va yangi texnikadan foydalanish davridagi joriy xarajatlar;

K_1^1 va K_2^1 — mavjud va yangi texnikadan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kapital qo'yilmalar;

E — kapital qo'yilmalarining norma darajasidagi samaradorlik koeffitsienti;

A_2 — yangi texnika joriy etilgandan keyin uning yordami bilan ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi;

S — yangi texnikani loyihalashtirish xarajatlari.

Yangi texnika samaradorligini hisoblash qiyosiy samara-dorlikni aniqlash tamoyillariga asoslanadi. yangi texnikadan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi asosida amalga oshiriladi.

Bu metodikaga binoan iqtisodiy samara quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$S = (X_1 - X_2) \times A_2$$

Bu srda: S — yillik iqtisodiy samara, soʻm; X_1 va X_2 — yangi texnika yordami bilan tayyorlangan mahsulot birligiga sarflangan xarajatlar ($T + E_n \times K$);

A_2 — hisobot yilida yangi texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik hajmi.

Yangi texnika va texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini rejalashtirish va bashorat qilishda uning bir qator asosiy texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlarga, jumladan foydaning koʻpayishi, mehnat unumdorligining oshishi, mehnat, moddiy va kapital sigʻimining pasayishi, mahsulot tannarxining kamayishiga taʼsir etishi hisobga olinadi. Masalan, yangi mahsulotni ishlab chiqarish hisobiga olinadigan rejali foydaning koʻpayishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta F_t [(B_t - T_t) * A_t - (B_l - T_l) * A_l]$$

Bunda: ΔF_t — kelgusi davrda foydaning oshishi (soʻm hisobida);

B_t va T_t — korxonaga ulgurji bahosi va yangi mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxi;

B_l va T_l — korxonaga ulgurji bahosi va almashtiriladigan mahsulotning yangi texnikaning joriy etilgungacha boʻlgan yildagi tannarxi (soʻm hisobida);

A_t va A_l — kelgusi davrda ishlab chiqariladigan yangi mahsulot va yangi texnikami joriy etishgacha boʻlgan yildagi almashtiriladigan mahsulot hajmi (soʻm hisobida). [23]

Yangi innovatsion texnikaning samaradorligini hisoblash va tagʻil etishda uning ijtimoiy natijalari va oqibatlarini ham hisobga olish

kerak. Ular jumlasiga, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xavfsizlik va qulaylikni ta'minlash, xodimlarning bilimi va ilmi hamda malakasini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson faoliyati uchun eng yaxshi sharoitlar yaratilishi kiradi.

Tayanch so'zlar:

Yangi, assortiment, tovar, fundamental, yutuq, foydalanilgan, rivojlanish, yaratish, ichki, tashqi, bozor, talab, taklif, obektiv, raqobat, jarayon, murakkab, strategiya, modernizatsiya, iste'mol, istiqbolli, standart, ishchanlik, ilmiy-texnik, klaster, transfera, mexon, maqsad, model, kurash, yuqori, tarmoq, ayrim, sanoat, yo'nalish.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Klaster nima ?
2. Klaster tushunchasi birinchi marta kim tomonidan qo'llanilgan ?
3. Qanday klaster turlarini bilasiz ?
4. Logistik innovatsion klasterlar deganda nimani tushunasiz ?
5. Innovatsion texnologiyalarni xalq xo'jaligiga transfera qilishda qanday usullardan foydalaniladi?
6. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faolyatni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha olib borilayotgan chora tadbirlarni sharxlab bering.
7. Innovatsion texnologiyalarni xalq xo'jaligiga tadbiq etishda iqtisodiy samaradorlik qanday aniqlanadi?
8. Iqtisodiyotda klasterlar asosan qaerlarda qo'llaniladi ?
9. Logistik innovatsion klasterlarga misollar keltiring.
10. Klaster usulida joriy qilingan iqtisodiy chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi farqi nimada ?

7-mavzu. Logistik tizimda korxonalar faoliyati

7.1. Korxonalar faoliyatida logistik- innovatsiyalarni roli

7.2. Korxonada logistikani strategik boshqarish

7.3. Tarmoqlarda logistik innovatsion-texnologik ustuvorliklar

7.4. Globallashuv sharoitida logistikani rivojlantirish

7.1. Korxonalar faoliyatida logistik innovatsiyalarni roli

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyev tomonidan mamlakatimizdagi barcha korxonalar faoliyatida innovatsiyalarni, logistikani, klaster texnologiyalarin qo‘llash masalasi ko‘ndalang qilib qo‘yilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish, mamlakat hududida va xalqaro yo‘nalishlarda yuk oqimlari, turizm logistika, servis, moliyaviy oqimlar va axborot oqimlarining oshishi hamda mamlakatimizda bir qancha erkin iqtisodiy industrial zonalarni, logistik markazlarni, kichik sanoat zonalarni tashkil etilishi munosabati bilan ularda terminal va intermodal tashuvlarni innovatsiyalar asosida optimal tashkil etishning zarurligi munosabati bilan logistikaning shular bilan bog‘liq bo‘lgan aniq masalalarini qo‘yish, ularni yechish algoritmlari va uslublarini o‘rganish va tahlil qilish dolzarflik kasb etadi.

Korxonalar mikrologistik tizimining asosiy tushunchalari va mohiyati, transport tizimi faoliyatini logistik tamoyillar asosida tashkil etishning ilmiy – uslubiy asoslari, logistikaning evolyutsiyasi va kontseptsiyalari, logistik vositachilarni tanlash va qaror qabul qilishning nazariy asoslari, ekspert baholash uslublarini qo‘llash asosida logistik vositachilarni tanlash, ko‘p me‘zonli baholash uslubini qo‘llash asosida logistik vositachilarni tanlash, AVS uslubi, XYZ uslubi, “aniq muddatga” tahliliy modelini shakllantirish, “aniq muddatga” imitatsion modeli, xalqaro aloqalarda yuklarni “aniq muddatga” yetkazib berish modeli, yuklarning optimal miqdorini aniqlashning asosiy modeli, buyurtmaning optimal o‘lchamini hisoblashda chegirmalarni hisobga olish, EOQ modelining rivojlanish imkoniyatlari, aralash aloqada, tarmoqli grafik asosida yuklarni yetkazib berish yo‘nalishlarini rejalashtirish, taqsimot markazi orqali xalqaro yuklarni yetkazib berishni rejalashtirish, avtomobillarda yuklarni tashishni rejalashtirishning umumiy algoritmi, avtomobillarda tashishni tezlashtirilgan

holda amalga oshirishni rejalashtirish algoritmi, yuklarni yetkazib berish tizimini loyihalashtirish masalalari kiradi.


Logistikani qo'llash o'zbekiston korxonalari faoliyati samaradorligini, ularning raqobatdoshligini oshirishi, muvoffaqiyat poydevorini yaratishga asos solishi mumkin. Buning uchun korporativ strategiyani qo'llab-quvvatlab turish uchun mo'ljallangan, korxonaning logistik strategiyasini ishlab chiqish lozim. Logistik strategiyaning asosida logistik missiya, yoki logistikaning yettita qoidasi bo'lishi kerak. Aynan ushbu yettita qoida korxonalar logistikasi sohasidagi keyinchalik hatti-harakatlar va yechimlarni belgilab beradi: *muayyan* sifatdagi *talab qilingan* mahsulotni, *zarur* bo'lgan hajmda, *aniq* iste'molchiga, *minimal* xarajatlar bilan, *belgilangan* vaqtda, *lozim bo'lgan* joyga yetkazib berishni ta'minlash.

O'zbekiston iqtisodiyoti va korxonalar iqtisodiyoti uchun logistikaning dolzarbligi belgilari 7.1-jadvalda keltirilgan.

Logistikani keng qo'llash mamlakat xo'jalik subyektlari faoliyati raqobatdoshligi hamda samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Shuning uchun, korxonalarining rivojlanish strategiyasini shakllantirish jarayonida logistik tamoyillar asos qilib olinishi lozim bo'ladi.

Logistik strategiyaning asosida logistik vazifa, yoki boshqacha qilib aytganda logistikaning yettita qoidasi (7 R (right)) asos qilib olinishi kerak. Aynan shu yettita qoida korxonaning istiqboldagi hatti-harakatlar va ularning yechimlarni belgilab beradi, ya'ni: 1) muayyan sifatdagi, 2) talab qilingan mahsulotni, 3) zarur bo'lgan hajmda, 4) aniq iste'molchiga, 5) minimal xarajatlar bilan, 6) belgilangan vaqtda, 7) lozim bo'lgan joyga yetkazib berishni ta'minlashdir.

Logistik menedjment
Muvofiqlashtirish, integratsiya



Moddiy oqimlar
Axborot oqimlari

LTB –Logistik tizim bo'g'ini
GP – Tayyor mahsulot
VMP – qaytuvchi moddiy oqimlar

- Та'минот**
- Xaridlarni boshqarish
 - Tashish
 - Zaxiralarni boshqarish
 - Omborga qo'yish
 - Moddiy resurslar sarfini pronoz qilish
 - qaytgan qadoq va chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish

- Ишлаб чиқариш**
- Ishlab chiqarish operatsiyalarini boshqarish
 - Xo'jalik ichidagi tashish
 - Zaxiralarni boshqarish
 - Mahsulot ishlab chiqarishning sifat standartlarini ta'minlash
 - qadoqlash
 - Yuklarni qayta ishlash
 - Omborga qo'yish

- Тақсимот**
- Buyurtma operatsiyalarini boshqarish
 - Tashish
 - Qadoqlash
 - Zaxiralarni boshqarish
 - Yuklarni qayta ishlash
 - Omborga qo'yish
 - Tayyor mahsulotga bo'lgan talabni prognoz qilish
 - Tayyor mahsulot qaytarilishini qo'llash
 - qaytgan qadoq va chiqindilarni yig'ish va yo'qqilish
 - Servis bilan ta'minlash
 - Iste'morlchilarga xizmat ko'rsatish standartlarini ta'minlash

Logistik funktsiya

Axborot-kompyuter ta'minoti

**O‘zbekiston Respublikasida korxonalar uchun logistikaning
dolzarblik belgilari**

Dolzarblik belgisi	Belgi tavsifi
Mahalliy mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining yuqoriligi	Turli xil baholashlarga ko‘ra, ular jahon darajasidan 2-8 marotaba yuqori
Xizmatlar sohasining ishlab chiqarish sohasidan davriy orqada qolishi	<ul style="list-style-type: none"> • savdo sohasida qo‘l mehnati 70% ga teng; • ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalashtirish darajasi 20-30% ni tashkil etadi
Mahsulot taqsimoti tizimini rivojlantirishning o‘ylab chiqilgan strategiyasi mavjud emasligi, ko‘plab vositachilik tuzilmalarining mavjudligi	<ul style="list-style-type: none"> • vositachilar, mahsulotning boshlang‘ich narxidan 2-2,5 barobar yuqori transaksion xarajatlarni keltirib chiqaradi; • 2008 yilda O‘zbekistonda 2 mingta korxonada eksport mahsulotini ishlab chiqargan, eksport bo‘yicha tashqi iqtisodiy faoliyatda esa 670 mingta firmalar band bo‘lgan, natijada har bir ishlab chiqaruvchiga o‘rtacha 335 savdo vositachisi to‘g‘ri kelmoqda
Tashkil etilgan yirik va o‘rta ulgurji savdo bozorlarining yetishmasligi	O‘zbekistondagi ulgurji vositachilar soni 1 ming kishiga 0,05ta korxonani tashkil etadi, taqqoslash uchun AQShda bu ko‘rsatkich 1,9ga, Yaponiyada esa 3,4ga teng
Zamonaviy elektron kommunikatsiya vositalarining past darajada rivojlanishi	Ayrim holatlar bo‘yicha elektron kommunikatsiya vositalari importi 100 foizga teng, misol uchun uyali aloqa telefonlari
Transport infratuzilmasining qoloqligi	<ul style="list-style-type: none"> • O‘zbekistonda mahsulot yetkazishning o‘rtacha sutkalik tezligi 5-6 marta past, terminallar orqali yetkaziladigan mahsulot ulushi esa 5-10 marta kamdir; • magistral avtopoezdning o‘rtacha yuk ko‘tarish qobiliyati O‘zbekistonda 15 t.ga teng, AQSh, Frantsiya, Shvetsiyada bu ko‘rsatkich 25-30t.ni tashkil etadi
Transport harakat vositalari va infratuzilma obyektlarining yuqori darajada eskirishi	<ul style="list-style-type: none"> • avtomobil yo‘llarining 1/3dan ko‘prog‘i zamonaviy talablarga javob bermaydi; • xalqaro yuk tashishda band bo‘lgan avtotransport vositalarining 90 foizdan ortig‘i yevropa ekologik standartlariga javob bermaydi
Omborxonalar xo‘jaligi ishlab chiqarish – texnik bazasi rivojlanish	• omborxonalar ¼ qismining maydoni 500 m ² dan kam;

darajasining pastligi	<ul style="list-style-type: none"> • 12 foiz omborxonalariga umumiy omborxonalar maydonining 2/3 qismi to'g'ri keladi; • omborxonalar xo'jaligi asosiy fondlarining 30 foizga yaqini jismoniy va ma'naviy eskirgan
Zamonaviy qadoqlar turlarini ishlab chiqarish sanoatining yaxshi rivojlanmaganligi	Qadoqlash materiallari bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi va uning yomon sifati tufayli, har yili meva va sabzavotlarning 40 foizigacha yo'qotiladi

Avtomobil transporti logistikasining strategiyasini shakllantirish uchun, logistik vazifalardan tashqari logistik kontseptsiyani ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Logistikaning ilm sohasi sifatida rivojlanishi va qo'llanilish evolyutsiyasi fan va texnologiyalarning hamda kishilik jamiyatining rivojlanishi sari takomillashib va rivojlanib bermoqda.

Logistika rivojlanishining dastlabki bosqichida uning faoliyati xaridlarni amalga oshirish, omborxonalar va distributsiya sohasidagi mustaqil va ayrim hatti-harakatlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, keyinchalik shu asosda logistikaning kontseptsiyasi yaratilgan.

Keyinga bosqich esa korxonada logistik faoliyatning integratsiyasi davri bo'lgan.

Hozirgi kunda logistika korxonalar chegarasidan tashqariga chiqib, uning an'anaviy qo'llash sohalari bir butunga jamlanib "mujassamlashgan" logistikani vujudga keltirdi.

Yuqorida bayon etilganlar asosida, logistikaning funktsiyalari va rivojlanish evolyutsiyasi qadamlarini tizimlashtirgan holda logistikaning tizimlashtirilgan dasturiy-maqсадli kontseptsiyasi ishlab chiqildi (1.12-rasm).

Mujassamlashgan logistika barcha faoliyat turlarini qamrab oladi vabuton bir jarayon sifatida axborot almashinuvi, yuklar va yo'lovchilarni tashishni tashkil etish, zahiralarini boshqarish, ombor xo'jaligi, yuklarni qayta ishlash, qadoqlash va boshqa funktsiyalarni birlashtiradi.

Bularning barchasi korxonada yoki korxonadan tashqarida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish jarayonlarini tizimli tarzda qamrab oladi.

Bunda, yuk jo‘natuvchilar, yuklarni qabul qilib oluvchilar, transport operatorlari, servis xizmatlarining iste‘molchilari va boshqa ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlari logistikaning umumiy resursini shakllantirish, hamda undan samarali foydalanish nuqtai-nazaridan amalga oshiriladi. Shulardan kelib chiqib, ushbu gipotezani dissertatsiya ishida “logistik ta‘minot” iborasi bilan atash maqsadga muvofiq deb topildi.

7.2.Korxonada logistikani strategik boshqarish

«Strategiya» so‘zi grekcha «strategos» atamasidan kelib chiqqan bo‘lib, «generallik san’ati» ma’nosini bildiradi. Menejmentda esa, strategiya – bu rahbarlik san’ati yoki korxonada istiqbolini aniqlash va mahorat bilan belgilangan maqsad sari intilishni boshqarishdan iboratdir.

Strategik qaror (yechim) korxonada va tashkilot faoliyatining umumiy yo‘nalishini belgilovchi o‘ta muhim qaror hisoblanib, uzoq muddatli ta’sir kuchiga ega hamda ko‘p resur talab qiladi va yuqori darajadagi tavakkalchilik xususiyatiga ega.


korxonada (tashkilot) strategiyasi, avvalombor, uning missiyasidan, ya’ni umumiy maqsadlaridan kelib chiqadi va «korporativ – biznes – funktsional» strategiyalar ketma-ketligi tarzida shakllanadi.

Korporativ strategiya asosida diversifikatsiya faoliyatini yurituvchi korporatsiya o‘z missiyasini qay tarzda amalga oshirishni rejalashtiradi.


Biznes-strategiya biznesning har bir turi diversifikatsiya faoliyati doirasida korporativ strategiyaga qay darajada hissa qo‘shishini anglatadi.

Funktsional strategiya korxonada yoki tashkilotda amalga oshiriladigan har qanday funktsiya (xususan, logistika funktsiyalari) bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni ifodalaydi.

KORXONADA LOGISTIKANI BOSHQARISH




7.1-rasm Korxonani logistik boshqarish



7.2-rasm logistik strategik ko'rsatkichlarni hisoblash usuli

Shunday vaziyatlar bo'ladiki, aniq bir korxonada logistikaning rivojlanish darajasi ushbu korxonaning umumiy strategiyasi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.



7.3-rasm Logistik tizim strategiyasini yaratishdagi omillar.

Misol (1-vaziyat): AQShning global ekspress-yuk tashish UPS (United Parcel Service Inc.) kompaniyasi samarali logistik faoliyat yuritishiga ishonch qilgan holda shunday biznes-strategiyasi ishlab chiqdiki, uning maqsadi mijozlariga o'ta yuqori darajadagi tovar, ma'lumot va sarmoya yetkazib berish xizmatini ko'rsatishdan iborat bo'ldi. Natijada esa mazkur strategiya orqali yer sharining istalgan nuqtasiga tashiladigan yukni juda tezlik bilan yetkazib berish imkoniyati yaratildi. Shunga ko'ra, UPS kompaniyasining boj xizmati bo'limlari yuklarni iste'molchi-mamlakat hududiga kelib tushirishidan ancha oldin vaqtinchalik boj-deklaratsiyasini rasmiylashtirib, ertasigayoq uni yukni qabul qiluvchiga yetkazishadi. Keyingi bir necha kun mobaynida esa yuk UPS kompaniyasining kafolati bilan to'liq boj-rasmiylashtirilishidan o'tkaziladi. Bundan tashqari, kompaniya mijozlari o'z yuklari marshrutini va yetkazilgani haqidagi tasdiqni Internet orqali kuzatish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Har bir yukka maxsus shtix kodi qo'yilib, uning butun harakati mobaynida skanerlanib boriladi. Shu bois ham uni kompaniya web-sayti orqali kuzati turish juda oson. Hozirda kompaniyaning ushbu xizmatidan har kuni dunyoning 4 millionga yaqin aholisi foydalanmoqda...

Logistik strategiyalar:

- differentsiatsiya strategiyasi;
 - vaqt o'Ichamlari asosidagi strategiya;
- atrof muhit muhofazasi strategiyasi;
- yuqori unumdorlik strategiyasi;
- ko'shimcha qiymat strategiyasi;
- diversifikatsiya yoki ixtisoslashuv strategiyasi;
- fokuslash strategiyasi;
- shish strategiyasi va h.k.

Logistik strategiyani ishlab chiqish omillari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. *Ichki omillar guruhi*: mahsulot, xodimlar; moliya; quvvat; iste'molchilar bilan munosabat; tashkil etish; qurilmalar; taxnologiya; jarayonlar; marketing; yetkazib beruvchilar; nomoddiy aktivlar; boshqa omillar;

2. *Tashqi – biznes muhiti omillari*: talab turi; iste'molchi tavsifi; bozor shart-sharoitlari; ilmiy-texnik jarayon; iqtisodiy muhit; huquqiy cheklovlar; raqobatchilar; aktsiyadorlar; manfaatdor shaxslar guruhlar; ijtimoiy shart-sharoitlar; siyosiy sharoit; boshqa omillar.

Misol (2-vaziyat). *Biznes faoliyatini yuritish muhiti va o'ta muhim imkoniyatlar to'g'risidagi axborotlarni olish uchun SWOT-tahlil singari "logistik audit" usuli qo'llaniladi...*

Muhokama uchun savol: "SWOT-tahlil" nima va u qanday o'tkaziladi? (misollar keltirib, "kichik guruh"larda muhokama qilinadi).

Logistik strategiyaga oid quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

1. Logistik faoliyatda korxonaning uzoq muddatli raqobat pozitsiyasini yaxshilashga yo'naltirilgan sohaga ustuvorlik beriladi;

2. Kisqa muddatli bozor imkoniyatlariga yo'naltirilgan tez-tez o'zgaruvchan strategiyalar katta naf keltirmaydi;

3. Korxonaning imkoniyatlarini chuklab qo'yuvchi, tez eskiruvchi, o'ta keskin va nomutanosib strategiyalarni qo'llashdani ehtiyot bo'lish lozim;

4. Eng optimal (maqbul) istiqbol sharoitidagina samara keltiruvchi strategiyani tanlashdan ogoh bo'lmoq darkor;

5. Raqobatchining kuchli jihatlarini emas, balki kuchsiz jihatlariga "hujum" qilish zarur.


Logistik strategiya tahlili quyi boshqaruv bug‘inlarida quyidagi muhim masalalarni hal etishga imkon yaratadi:

- ombor va transport amallarini o‘zgartirish zarurmi
- ish grafigini rejalashtirish va tuzishga yondashuv o‘zgaradimi
- zaruriy resurslar mavjudmi, agarda yo‘q bo‘lsa – ularga qanday erishish mumkin bo‘ladi
- tayyor mutaxassis-xodim bormi va zaruriyat bo‘lganida uni qanday tayyorlash mumkin
- tanlangan strategiya mavjud va bulg‘usi iste’molchilarga qanday ta’sir ko‘rsatadi
- mazkur strategiya xodimlarga, faoliyatni tashkil etishga, texnologiyaga va boshqa omillarga qanday ta’sir etadi

Moddiy oqimlarni samarali boshqarishning muhim sharti bo‘lib, ehtiyojlarni oldindan ko‘ra bilish hisoblanadi. Ularni aniqlash uchun quyidagi uslublar qo‘llaniladi:

- ishlab chiqarish rejasi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot o‘ziga xos xususiyatlari bilan mos holda olib boriladigan hisobning determinant uslublari;
- hisobning statistik uslublari;
- mutaxassislarning xulosalariga tayangan holda subyektiv baholash.

Yuqorida aytib o‘tilgan uslublarning tasniflanishi 6-chizmada ko‘rsatilgan.



7.2–chizma. Ehtiyojlarni aniqlash uslublarining tasniflanishi

Hisobning determinant uslublari materiallarga bo‘lgan ikkilamchi ehtiyojlarni hisobi uchun xizmat qiladi, bunda birlamchi ehtiyojlar aniq bo‘lishi kerak. Analitik uslubda hisob mahsulotdan (uning xususiyatlaridan) ierarxik pog‘ona bo‘yicha tepadan pastga olib boriladi. Sintetik uslubda detallarning har bir guruhi bo‘yicha hisoblar olib boriladi, bunda ularni ierarxiyaning alohida pog‘onalarida qo‘llanilishi kelib chiqadi.

Hisobning statistik uslublari kutilayotgan ehtiyojni sonlar asosida aniqlash imkonini beradi, bunda ma‘lum vaqt oralig‘i davomida ehtiyojning o‘zgarishi xarakterlanadi. Buning uchun o‘rtacha miqdorlarni approksimatsiyalashtirish, eksponentsial tekislash va regression tahlillardan foydalaniladi.

O‘rtacha miqdorlarni approksimatsiyalashtirishda materiallarga ehtiyojning bitta o‘rtacha miqdori oylar bo‘yicha o‘zgarib to‘rgan sharoitlarda qo‘llaniladi. Bu uslub bashorat qilish, materiallarga bo‘lgan ehtiyojning ma‘lum miqdorini o‘rtacha ko‘rsatkich ko‘rinishiga keltirish jarayonidan iborat. Qosimova²⁶

Eksponentsial tekislash uslubi, moddiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojning o‘zgarish jarayonini bashorat qilish dinamikasining bar qator darajalari asosida amalga oshirilganda qo‘llaniladi, bunda moddiy resurslarning hajmi bashorat vaqtiga berilgan darajadan uzoqlashishi davomida kamayib boradi. Buning uchun hisobotlarga o‘zgarmas tekislovchi koeffitsient kiritiladi, u bashorat xatosi minimumga yetadigan qilib tanlanadi.

Eksponentsial tekislashni hisobga oladigan bashorat tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Y_{t+1} = ay_t + a(1-a)y_{t-1} + a(1-a)^2y_{t-2} + \dots + a(1-a)^ky_{t-k} + \dots + (1-a)^ty_0 .$$

Bu yerda, y_0 - bazi shartlarni ta'riflovchi kattalik.

Regression tahlil moddiy resurslarni ishlatilish tendentsiyalarini matematik funktsiyalar yordamida yaqinlashtirishni ko‘zda tutadi, bunda ular keyingi davrga ekstrapolirlashtiriladi. Bog‘liqlik xarakteridan kelib chiqqan holda chiziqli va chiziqli bo‘lmagan regression tahlillar ajratiladi. Chiziqli regressiya usulubini ehtiyoj taxmini proporsional bo‘lganda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

²⁶ Қосимова М.С. Логистикани бошқариш. УМК. Иқтисодиёт, Тошкент. 2015 й.

7.3. Tarmoqlarda logistik innovatsion-texnologik ustuvorliklar

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha HAKKATLAR STRATYEGIYASIning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishariga bag‘ishlangan bandida ”Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish, amaldagi zonalarning samaradorligini oshirish, xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini eng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish, yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish”kabi vazifalar keltirilgan. Shulardan kelib chiqqan holda, bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo‘yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo‘l-transport va kommunikatsiya infratuzilma tarmoqlarini yuksaksur‘atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog‘liqdir. Transport-yuk terminalkomplekslarini rivojlanayotgan tizimlar qatoriga kiritish lozim. Bunda nafaqat tasarruf etilayotgan transport-yuk terminal komplekslari faoliyatining rivoji, balki rivojlanish jarayonining optimallasuvi ham ko‘zda tutiladi. Ushbu muammoning hal etilishi ko‘pdan-ko‘p shart-sharoitlar va cheklashlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p variantli xarakterga ega. Ana shuning uchun ham transport-yuk terminal komplekslari faoliyatlarini loyihalashtirish, rejalashtirish va boshqarishda o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan optimallashtiruvchi masalalar kompleksini ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Logistik tizimlar rivojlanishining jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, odatda ular o‘zlarining rivojlanishida ko‘rib chiqilayotgan jarayonlarning integratsiyalashuvi bir-biridan farq qiluvchi qator bosqich-

lardan o‘tadi. Bu holda logistik tizimning samaradorligi bosqichlar rivojlangan sari ortadi. Birinchi, eng oddiy bo‘lgan bosqichda odatda tayyor mahsulot sotilishi sohasida saqlash va transportirovka qilish jarayonlarini o‘zaro bog‘lashga erishiladi. Logistik tizim o‘z ichiga sotish tashkilotlarida tayyor mahsulotni saqlash va ularni iste‘molchilarga yetkazib berish vazifasini oladi. Bu bosqichda tizimga ishlab chiqarish sohasi ham jalb etiladi. Logistika mahsulot ishlab chiqaruvchidagi zahiralar va ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlarini ham qamrab oladi. Yanada rivojlangan logistik tizimlar esa o‘z ichiga ta‘minot sohasini ham qo‘shib oladi. Mazkur tizim erishiladigan texnologik va boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirishga asoslanadi.

Tijorat logistikasi esa mazmunan moddiy oqimlar harakati xom ashyoni olishdan boshlab, to tayyor mahsulotni iste‘mol qilishgacha bo‘lgan bosqich-larni boshqarishni muvofiqlashtirishdan iborat. Bu bog‘lanishga hamkor-lik qiluvchilarning bir-birlariga ma‘lum ma‘noda yon berishlari orqali erishiladi, natijaga esa zarur bo‘lgan tashkiliy shart-sharoitlarni yaratmay turib erishish mumkin emas. Transport logistikasi tizimining rivojlanishida transport hal qiluvchi o‘rin tutib, bir tomondan, transport tashkilotlariga o‘z faoliyatlari doirasini kengaytirish va transport xizmatlari bozorida mustahkam o‘rnashish, ikkinchi tomondan, sanoat korxonalarini ularga kerak bo‘lmagan faoliyatlardan ozod bo‘lishlariga imkoniyat yaratadi. Bunda korxonalar xarajatlari kamayib, butun kuchlarni ularning asosiy bozorlariga qaratiladi.

Iqtisodiy boshqaruv mexanizmi asosiga quyidagi tamoyillar jalb etilishi maqsadga muvofiq:

- hududdagi aholi va xo‘jalik majmualarining yuklarni tashishga bo‘lgan obyektiv talabini to‘liq qondirish;

- transport egalari va xizmat ko‘rsatiladigan mijozlar iqtisodiy manfaatlarining tengligi;

- tovarlar harakatining pirovard natijasi uchun o‘zaro moddiy javobgarlik;

- moddiy oqimlar harakatlanish jarayoni qatnashchilari iqtisodiy ahvolining so‘nggi natijaga bevosita bog‘liqligi;

- shartnoma munosabatlarida transport vositalari egalari bilan xizmat ko‘rsatiladigan mijozlar hamkorligining teng huquqliligi;

- transportdan foydalanishning maksimal darajada qulayligi, keng doirada xizmatlar ko'rsatish, mijozlarni ularga kerak bo'lmagan funktsiyalardan ozod qilish.

Ko'rib chiqilgan logistik tamoyillar ichida tarkib transport, omborxonona va ekspeditsiya xizmatlarini qamrab olgan kompleks tizimni yaratish zarur. Bunday tizimning asosi zamonaviy, xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori darajada modernizatsiyalashgan, ko'p turdagi maqsadlarga xizmat qiluvchi va keng xizmat ko'rsatishlar kompleksiga ega bo'lgan yuklarni to'plovchi va qayta ishlovchi terminal komplekslaridan iborat.

Tizim rivoji bevosita hududlarda, ayniqsa maxsus industrial-iqtisodiy hududlardagi transport logistika rivojini ta'minlab, yuk aylanmasi sur'atlari o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- logistik kontseptsiyalar asosida transport, omborxonona va ekspeditsiya xizmatlarini qamrab olgan kompleks tizimni yaratish istiqbolli sanaladi.

- zamonaviy, xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori darajada modernizatsiyalashgan, ko'p turdagi maqsadlarga xizmat qiluvchi va keng xizmat ko'rsatishlar kompleksiga ega bo'lgan yuklarni to'plovchi va qayta ishlovchi terminal komplekslari bo'lishi kerakligini talab qiladi.

7.4. Logistik tizimda xalqaro yuklarni tashishdagi me'zonlar

Yuklarni xalqaro yo'nalishlarda tashish tannarxini tushirish, ularning butunligini saqlash, ushbu maqolada taklif etilayotgan transport logistik tizimini qo'llash natijasida yuklarni tashishga sarflanuvchi vaqtni qisqartirish, xalqaro dengiz portlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun hal etilishi o'ta muhim hisoblangan muammolar qatoriga kiradi. So'ngi yillarda respublika ilm ahli, xalqaro tashkilotlar va xorijlik yetuk mutaxassislarining sa'y-harakatlari natijasida O'zbekistonni xalqaro dengiz portlariga (Yaqin sharq, Fors ko'rfazi, Qora dengiz va Boltiq dengizi, sohillari) chiqishini ta'minlovchi bir necha yo'nalishlar bo'yicha yuk tashish imkoniyatlari tahlil etilib, ahamiyatli xulosalar va tavsiyalar

berilgan. Bu tavsiyalar va tadqiqotlarda asosiy urgʻu Oʻzbekistonning xalqaro dengiz portlariga chiqish yoʻnalishlarining uzunligi, hamda bu koridorlar oʻtuvchi mamlakatlardagi asosiy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiquvchi sarf-xarajatlarni solishtirish asosiy meʼzon sifatida qabul qilingan. Hisob-kitoblar tahliliy maʼlumotlarni solishtirish imkoniyatini beruvchi jadvallarga kiritilib xulosalar chiqarilgan. Bu esa oʻz navbatida mavjud yoʻnalishlar ichidan eng maqbulini tanlash imkonini bergan.

Ushbu maqola orqali esa xalqaro yuk tashish yoʻnalishlarlarini taqqoslashda vujudga kelgan bu anʼanaviy usullarni kamsitmagan holda, muammoning ilmiy asoslangan andozalar yordamida yechimini taklif etish mumkin.

Bu andozaning asosini quyidagi mulohazalar tashkil etadi:

Birinchidan, iqtisodiy jarayonlarni tashkil etuvchi har qanday oʻxshash elementlarni oʻzaro taqqoslashda eng avvalo bu elementlarning jamiyat uchun keltirilgan qiymati hisoblanadi. Yaʼni tahlilmisolida ikki yunalishda tashish tannarxi hisoblanishi shart;

ikkinchidan, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiyotga tadbiq etish samarasining muhimligi nuqtai nazaridan har qanday jarayon uchun sarflanuvchi vaqtni minimallashuviga erishish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, xalqaro yuk tashish yoʻnalishlarida vaqt kategoriyasining ikki alternativ variantni taqqoslashda muhim meʼzon sifatida aniqlanishi ayni muddaodir;

uchinchidan, jamiyat resurslarining taqchilligi (iqtisodiy nuqtai nazardan) sharoitida iqtisodiyotga jalb etiluvchi moddiy resurslarni tashish xavfsizligini taʼminlash muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun xalqaro yuk tashish yoʻnalishlaridan qay biri eksportga (yoki import) moʻljallangan jamiyat boyligini eng kam yoʻqotishlar evaziga isteʼmolchilarga yetkazish imkoniyatiga egaligini taqqoslash meʼzoni sifatida hisobga olinishi lozim;

toʻrtinchidan, oʻz dengiz portlariga ega boʻlmagan mamlakatlar uchun qoʻshni davlatlar portlaridan qaysi biri xalqaro savdo munosabatlarida muhim oʻringa egaligini aniqlash, va bu portlardan isteʼmolchi (importer yoki eksporter) sheriklarga yukni yetkazish imkoniyatlari darajasini bilish oʻta muhimdir. Shu sababli xalkaro yuk

tashish yoʻnalishlarining qaysi hudud portlariga yoʻnalganini inobatga olish muhimdir.

Yuqorida keltirilgan toʻrtta meʼzonlar asosida xalkaro yuk tashish yoʻnalishlarini oʻzaro taqqoslash imkoniyatini beruvchi iqtisodiy andozani yaratishda koʻrsatkichlarni guruhlash nazariyasidan foydalanish mumkin. Bunda mantiqan oʻxshash va bir-biriga bogʻliq boʻlgan koʻrsatkichlar toʻplami mazmunan yaqin boʻlgan yakuniy bir koʻrsatkichga keltiriladi. Karrieva²⁷

Xalqaro yoʻnalishlarda yuk tashish tannarxini aniqlashda eng avvalo uni ikki yirik guruhga ajratish lozim: doimiy va oʻzgaruvchi xarajatlar. Doimiy xarajatlarga: vaqt birligiga toʻgʻri keluvchi ustama xarajatlar, har bir avtomobilga toʻgʻri keluvchi tranzit toʻlovlari, ekologik toʻlovlar va h.k.); oʻzgaruvchi xarajatlarga: har bir tonnaga toʻgʻri keluvchi yoqilgʻi va moylash materiallari xarajatlari, texnik xizmat va taʼmirlash koʻrsatish xarajatlari, amortizatsiya xarajatlari, haydovchilarning ish haqi va h.k.

Demak, xalqaro yuk tashish yoʻnalishida mahsulotni ishlab chiqaruvchidan isteʼmolchiga yetkazish umumiy xarajatlari quyidagiga teng boʻlar ekan.

$$УХ_{ХЮТЙ} = \sum DX' \cdot M_{ХТЮЙ} \cdot A + \sum DX'' \cdot N_{Трд} + \check{Y}_{z_{1tkm}} \cdot P_{ХТЮЙ} \quad (1)$$

bunda -vaqtga bogʻliq boʻlgan doimiy xarajatlar yigʻindisi, soʻm / 1 avtokun

\check{Y} -transport vositasining xalqaro yuk tashish yoʻnalishini bosib oʻtishga ketadigan vaqti, kun

A -XYuTYda band avtomobillar soni;

DX'' -xalqaro yuk tashish yoʻnalishi oʻtuvchi mamlakatlar soniga bogʻliq doimiy xarajatlar yigʻindisi, soʻm;

-xalqaro yuk tashish yoʻnalishi oʻtuvchi tranzit davlatlar soni;

$O'z_{1tkm}$ -oʻzgaruvchi xarajatlarning bir tonnaga toʻgʻri keluvchi miqdori, soʻm tkm;

-xalqaro yuk tashish yoʻnalishidagi yuk oboroti, tkm.

²⁷ Карриева Я.К. Глобализация жараетнида халкаро транспорт логистик тизими фаолиятининг самарадорлиги. Монография. ТДИУ.Иктисодиёт,Т.: 2013 й., 144 бет.

Bu formulani qo‘llab, xalkaro yuk tashish yo‘nalishida tashilgan har bir tonna yukning tannarxini aniqlash mumkin.

$$T_{1ткм} = \frac{УХ_{ХЮТЙ}}{P_{ХЮТЙ}} \quad (2)$$

Har kandy resursning (tashiladigan yuk xoh xom ashyo, yoki xoh tayyor mahsulot bo‘lsin u baribir iqtisodiy resurs hisoblanadi) tashish jarayonida ma‘lum bir vaqt ichida band bo‘lishi, ushbu resursning ishlab chiqarishda, iste‘molda qo‘llanilishi imkoniyatini cheklaydi. Bu esa o‘z navbatida iste‘molchining xalkaro savdoda tutgan o‘rni, tashilayotgan resursning xalkaro bozordagi bahosi va iste‘molchi uchun muhimligiga qarab tashish vaqtining ma‘lum bir moddiy qiymat bilan o‘lchanishini taqozo etadi. Ushbu holatda eksportdan keluvchi valyuta mablag‘larining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi zaruriyatidan kelib chiqish *lozimdir*. Agarda eksportdan tushuvchi valyuta mablag‘larini ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiyaviy mablag‘larning qiymati vaqtga bog‘liqligi inobatga olinsa, unda xalkaro yuk tashish yo‘nalishida resurslarni tashish vakti bilan bog‘liq xarajatlar quyidagicha aniqlanadi. Xalkaro yuk tashish yo‘nalishida yo‘lda band bo‘lgan yuk miqdori

$$ИБЮМ = Q_{1квнлик} \cdot M_{ХТЮЙ} \cdot ТОНН(3)$$

bunda,

$Q_{1квнлик}$ - bir kunda jo‘natiladigan yuk hajmi, t;

$M_{ХТЮЙ}$ - xalkaro yuk tashish yo‘nalishida yukni yetkazish vaqti, kun;

Xalkaro yuk tashish yo‘nalishida band bo‘lgan yuk olib kelishi mumkin bo‘lgan valyuta mablag‘ining - investitsiyaning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$FV_{ЙБ} = ЙБЮМ \cdot \left(\frac{1}{1 + j \cdot M_{ХТЮЙ}} \right), сўм \quad (4)$$

j -inflyatsiya foizining 1 kunga to‘g‘ri keluvchi absolyut ulushi:

$$j = \frac{1}{365 \cdot 100} ;$$

Xalqaro yuk tashish yoʻnalishlarining qaysi mamlakat hududidan oʻtishi yuk tashish xavfsizligini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. Yuk tashish xavfsizligini qiymatli koʻrsatkichlarda baholash imkoniyati ushbu maqola chegarasida cheklanganligi tufayli ushbu qiymatni aniqlashda yukni sugʻurtalash xarajatlari nuqtai-nazaridan yondashuv usulini qoʻllash maʼquldir. Bunda eng avvalo mamlakatimiz va xalkaro sugʻurta kompaniyalari tomonidan xalqaro munosabatlarni sugʻurtalashning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Xalqaro sugʻurta kompaniyalari yuk tashish jarayonlarini sugʻurtalashda eng avvalo tashish yoʻnalishlarining qaysi davlatlar hududidan oʻtishi, tabiiy shart- sharoitlar, yuk turi, transport vositalarining xili va h.k. sharoitlarga eʼtibor berishadi. Xalkaro yuk tashishda deyarli barcha yuklar majburiy ravishda sugʻurtalanishi inobatga olinsa, unda xalqaro yuk tashish yoʻnalishining xavfsizligini taʼminlash xarajatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$X_{\text{хавф}} = \sum Q_{1\text{кунлик}} \cdot C_{1\text{ткун, сўм}}$$

bunda,

$C_{1\text{ ТКУН}}$ -1 tonna yukni ushbu yunalishda sugʻurtalash qiymati, soʻm/1t.kun.

Bir necha xalqaro yuk tashish yoʻnalishlaridan maʼlum bir turdagi yuklarni tashish uchun eng optimalini tanlashda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

Umumiy xarajatlar va yuk tashish tannarxi minimal boʻlishi:

$$UX_{\text{ХЮТЙ}}, T_{1\text{ТКМ}} \rightarrow \min$$

Xalqaro yuk tashish yoʻnalishida band boʻlgan yuk olib kelishi mumkin boʻlgan valyuta mablagʻlarining investitsiyaviy qiymati

Maksimal boʻlishi:

$$FV_{\text{БЙ}} \rightarrow \max$$

Xalqaro yuk tashish yoʻnalishi xavfsizligi xarajatlari minimal boʻlishi:

Xullas quyidagi shartga javob beradigan xalqaro yuk tashish yoʻnalishi eng optimal variant hisoblanadi:

$$ЯХ = (УХ_{ХЮТЙ} - FV_{ЙБ} + X_{ХавФ}) \rightarrow \min$$

7.5. Globallashuv sharoitida logistikani rivojlantirish

Jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida globallashuvning amalga oshirilishi sharoitida transport tizimi ishini eng maqbul tarzda tashkil etish, uning faoliyati samaradorligini tahlil etish, baholash va rivojlanish istiqbollari belgilashni logistik tizimli yondashuv asosida amalga oshirish zarur.

Xalqaro mehnat taqsimoti, kooperatsiyasi va integratsiyasi jahonda bir qancha transmilliy korporatsiyalarni vujudga kelishiga turtki bo'lgan. Ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishda global logistik zanjirlar va kanallardan foydalanadilar. Ushbu sharoitlarda, davlatlar orasidagi logistik kanallarni yaratilishiga xalqaro transport ekspeditorlik firmalari, infratuzilmalar va global telekommunikatsiya tarmoqlari yordam beradi.

Shulardan kelib chiqib Mustaqil O'zbekistan uchun xalqaro yo'nalishlarda transport tizimi faoliyatini tashkil etish, transportning tegishli infratuzilmalar bilan munosabatlarini o'zaro muvofiqlashtirish masalalarida logistik tizimli yondashuvni amalga oshirish ustuvor strategik ahamiyat kasb etadi. Bunga asosiy sabablardan biri, O'zbekistan mintaqada qulay geografik o'rinni egallab turgan bo'lsada, uning dengizlar, yirik bandargohlar va yirik transport tarmoqlariga bevosita chiqishiga biroz imkoniyatlar chegaralangan. Mamlakat transportchilari xalqaro yuklarni tashishni tashkil etish uchun dunyoning barcha qit'alarini o'zaro bog'lovchi eng yaqin dengiz bandargohiga chiqish uchun kamida ikki mamlakatdan o'tib borishi lozim. Bu hol xalqaro tranzit yuk tashishni optimallashtirish masalalariga e'tibor qaratish zarurligini taqozo etadi.

Bugungi kunda xalqaro aloqalari, tashqi iqtisodiy faoliyati, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatlari shiddat bilan rivojlanib borayotgan O'zbekistan uchun, transport tizimini rivojlantirish ustuvor va dolzarb hisoblanadi. Shu ma'noda ushbu maqola orqali transport iqtisodiyoti sohasidagi muammolarni yechishda globallashuvni transport logistik tizimlarining raqobatbardoshligini oshirishga tasiriga ham e'tibor qaratish lozim deb topdik.

Globallasuv hayotimizning barcha sohalariga kirib kelgan holda, jahondagi deyarli har bir mamlakatning nafaqat biznesiga, balki madaniy, ijtimoiy va siyosiy jihatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Xalqaro integratsiya va mehnat taqsimoti natijasida, hozirgi kunda iste'mol mollarini sotib olib, ularni qaysi davlatnikina emas, balki qaysi kompaniya mahsuloti ekanligini ham ayta olamiz. Logistika bu jarayonda katta ahamiyat kasb etadi.

«Global logistika» atamasi deganda, odatda barqaror makrologistik tizimlar tuzishning taktika va strategiyasi tushuniladi. Bu tizimlar, hukumatlararo darajada qo'llab-quvvatlanadigan, bitim, shartnoma, umumiy rejalar shaklidagi kooperatsiya va sherikchilik hamda mehnat taqsimoti asosida jahondagi har xil mamlakatlarni biznes-tuzilmalarini bog'lab turadi. Global logistika xalqaro iqtisodiyotdagi rivojlanayotgan tendentsiyalarni o'zida aks ettiradi. Bu tendentsiya ishbilarmonlik, tadbirkorlik faoliyatini, ayrim mamlakatlar va hududlar ixtisoslashuvidan, jahon bozori tomon harakati bilan xarakterlanadi.[6]

Ma'lumki, logistik tizimlar optimal qarorlarni qabul qilishga imkon yaratadi. Masalan, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishning berilgan darajasi uchun tovarlar aylanuvdagi va ishlab chiqarilishidagi xarajatlarni minimallashtirish global logistik tizimlar tanqis milliy resurslarni (moddiy, xomashyo, energetiq moliyaviy, mehnat) tejashning kuchli vositasi bo'lib kelmoqda. Ularning o'ziga xos xususiyati, bu nafaqat Respublika, balki hududiy darajada xam iste'molchilarning talablarini to'laroq qondirish maqsadida yo'naltirilganligidir. Shu bilan birga ular kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning zaruriy elementi hamdir. Aynan global logistik tizimlar zamonaviy sharoitlarda uyushgan tovar bozorlarining eng mahsulli variantlari va shakllarini topishga imkon beradi.

Globallashtirish tendentsiyasi jahon integratsiya jarayonlarini o'zida aks ettiradi. Bu jarayonlar global, hududiy, tashqi savdo, transport, distribyutiv, telekommunikatsiya va boshqa makrologistik tizimlarni tuzilishi va rivojlanishida namoyon bo'ladi. G'arb davlatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, logistika integral kontseptsiyasining kirib kelishi bilan bir qatorda savdo, kommunal xo'jalik transport va boshqalarda korporativ darajadagi turli global logistik tizimlar (shahar, hudud, hududlararo) jadal shakllanadi. Masalan, Yevropa hamjamiyati mamlakatlarida UNCTAD, TACIS va shu kabilar boshqaruvi ostidagi

ishlab chiqilayotgan har xil dastur va loyihalar, global savdo, transport va telekommunikatsion logistik tizimlarining shakllanish tajribasi iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ayniqsa muhimdir. Tovarlar harakatini boshqarishda xizmat ko'rsatish sifatini hamda samaradorligini oshirish, ekologiyani yaxshilash, bojxona, tarif, soliq va boshqa to'siqlarni kamaytirish hisobidan logistik (shu jumladan tashish va zahiralarni boshqarish) xarajatlarini kamaytirish, yuk oqimlarini optimallashtirish, taqsimlovchi logistik markazlar tarmog'ini tuzish hamda savdo, transport va telekommunikatsion infratuzilmalarni shakllantirishning ko'pchiligi bu loyihalarni tub maqsadidir.[5]

Globalashtirish jahondagi makrologistik tizimlarning rivojlanishini asosiy tendentsiyalaridan biridir. Bu tendentsiya, bir tomondan yirik transmilliy korporatsiyalar va moliya-sanoat guruhlarini uchun xos bo'lgan, kapital, ish kuchi, moddiy resurslar bilan ta'minlash, ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlarni sotish bozorlarining globalashtirilishini aks ettirsa, ikkinchi bir tomondan global mamlakatlararo transport-logistik telekommunikatsion, distribyutiv va boshqa makrologistik tizimlarning yaratilishi va rivojlanishini aks ettiradi. Keyingi yillarda ko'pgina yirik kompaniyalarning vakillari, global bozor yaratayotgan imkoniyatlarni o'rganish zarurligini tushunib yetmoqdalar.

Masalan, ko'pgina firmalar, logistikani samarali qo'llash va moddiy resurslarni boshqarishni tashkil etish uchun, chet el xomashyo manbalari potentsialini baholashni amalga oshirish zarurligini angladilar. Tayyor mahsulot eksporti va uni jahon bozorlariga kirib borishi jarayonida, dunyo bo'ylab yoyilgan global logistik tizimlar va tarmoqlarni tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj yaqqol sezilib qoldi.[1]

O'z navbatida yirik kompaniyalar ham, xomashyo manbalari va o'z tovarlarini sotish uchun potentsial bozorlarda marketing tekshirishlari olib borish hududini geografik jihatdan kengaytirdilar. Ular ishlab chiqarish, samaradorlik va differentsiatsiyani oshirish vositasi sifatida, raqobatdagi ustuvorlikni ta'minlash maqsadida, global logistik kontsepsiyalarni joriy etishga intiladilar. Bu masalani amaliy jihatdan ko'rib chiqqanda logistik menejerlar, global miqyosda samarali bo'lgan, asosiy kontsepsiyani ishlab chiqish, logistik tashabbuslarni rejalashtirish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi ishlarni bajarishlari zarur bo'ladi. Bundan tashqari, muayyan kompaniya misolida global logistik yondashuvni qo'llash,

xaridlar, marketing va logistika boʻlimlaridan yuqori darajadagi muvofiqlashtirishni taʼminlashni talab etadi.

Globalashtirish fenomenini tushuntirib beruvchi sabablarni tizimli tahlili, oltita majmuaviy omillarni ajratishga imkon berdi. Ularning qisqacha tavsifini quyidagicha ifodalash mumkin (7.3-jadval).

7.3 - jadval

Globalashuvning majmuaviy omillari tavsifi

Globalashuvning majmuaviy omillari.	Omillarning qisqacha tavsifi.
Iqtisodiy	Kapitalning yirik konsentratsiyasi va markazlashuvi transmilliy korporatsiyalar va moliya-sanoat guruhlarining oʻsishi, xalqaro kooperatsiya va mehnat taqsimoti, xalqaro marketing, yalektron savdo, xalqaro logistika.
Siyosiy	Davlat chegaralari yaqinlashib, kapital, tovarlar va odamlarning erkin harakat qilishiga imkoniyat yaratilmoqda.
Xalqaro	Globalashuv dinamikasi, globalashuv jarayonini ragʻbatlantiruvchi yirik xalqaro voqealar qattiq bogʻlik xolla amalga oshadi.
Texnik	Zamonaviy transport axborot tizimlari va texnologiyalari, aloqa va telekommunikatsiya, moslashuvchan avtomatlashirilgan ishlab chiqarish vositalarini rivojlanishi, axborot, texnologiya, tovarlar va moliyaviy resurslarning tez tarqalishiga ilgari mavjud boʻlmagan imkoniyatlar yaratildi.
Ijtimoiy	Anʼanalar, ijtimoiy aloqalar va urf-odatlarini roliodamlarning geografik maʼnaviy va ruhiy maʼnoda harakatchanligining oshishiga sababchi boʻldi.
Qatʼiy tartiblashtirishlardanvozkuchish	Koʻp mamlakatlarning bojxona, savdo, soliq qonunchiliklarini erkinlashtirish, transport sohasida tartib qoidalardan chekinish, iqtisodiy faoliyatini baynalminallashish tendentsiyasini kuchayishiga olib keldi.

Globalashtirish jarayoni geografik tarqalish nuqtai nazaridan ham va muayyan mamlakat iqtisodiyoti sohasida ham oʻziga xos xususiyatlarga egadir. Yangi ishlab chiqarish va axborot tizimlari va texnologiyalarini jadallik bilan kirib kelishi bilan birga, globalashtirish halqaro raqobatni kuchayishiga ham olib keladi. Koʻp mamlakatlarda iqtisodiyotni u yoki bu sohasida raqobatbardoshlikni

oshirish maqsadida kompaniyalarda bo‘linish yoki aksincha qo‘shilish jarayonlari yuz bermoqda Umuman olganda globallashtirish iqtisodiyotning samaradorligiga ijobiy ta’sir etadi. Shu bilan bir qatorda ba’zi tarmoqlarga chet el raqobatdosh korxonalari ham katta ta’sir o‘tkazmoqda. [6]

Globallashuv puxta o‘ylangan tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni talab qiladi, bu ayniqsa kapitalni kiritish-chiqarishga tegishlidir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, globallashuv raqobatni kuchaytirar ekan, buning natijasida ancha qisqa muddatlarda tarmoqdagi texnik va texnologii jihatdan oqsayotgan firmaning negativ ta’siri tezroq bilinadi.[1]

Logistikada globallashtirishni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlar quyidagilar:

- iqtisodiy o‘shish;
- global bozorlar rivojlanishining istiqbollari;
- hududlashtirish;
- global raqobat;
- texnologiyalarni kirib kelishi(ekspansiyasi);
- logistik infratuzilmalarni rivojlanishi va takomillashtirish, transport tizimini tartibga solish zarurati.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy o‘shish logistik unumdorlik va samaradorlikni o‘shishiga olib keladi. Bu hol ayniqsa tovarlar eksportiga tegishli. Xalqaro savdo va logistika sohasidagi xarajatlar muntazam ravishda o‘shib bormoqda. Xalqaro savdo hajmi xalqaro ishlab chiqarishning o‘shishidan ikki barobar tez sur’atlar bilan o‘smoqda.Karrieva²⁸

Oxirgi yillarda qator mamlakatlarning, birinchi navbatda AQSh va Yevropa hamjamiyati mamlakatlarining, transport qonunchiligida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, buning natijasida, logistikada transport xizmatini rivojlantirishga qaratilgan siyosiy sharoitlar yaratildi. Ko‘pgina mamlakatlarda transportda davlat sektorini kamaytirishga, transportning faoliyatiga bo‘lgan to‘siqlarni olib tashlashga, turli xil transportlar ishini muvofiqlashtirishga, transport xizmatini yaxshilashga, narxlar va tariflarni kamaytirishga qaratilgan kator qonunlar, ma’muriy va yuridik hujjatlar qabul qilindi.

²⁸ Карриева Я.К. Глобализация в сфере международного транспорта и логистики: теория и практика. Монография. ТДИУ.Иқтисодиёт,Т.: 2013 й., 144 бет.

Bozorni tartibga solish borasidagi o'zgarishlar natijasida transport va ekspeditorlik xizmati ko'rsatish haqida bitimlar tuzish, tarif va xizmatlarga nisbatan magistral yuk tashuvchilarga mustaqil qaror qabul qilish huquqini berish, yagona tarif (fraxtning stavkasi bo'yicha) va yagona transport hujjatlari asosida (intermodal yuk tashish konosamenti bo'yicha) intermodal yuk tashish tizimni taklif etish imkoniyati yaratildi. Global logistika sohasida intermodal yuk tashish eng rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi. Ikki va undan ortiq transport turining ustuvorligini o'zida mujassamlashtirib, intermodal logistik markazning operatori yuk jo'natish bo'yicha ko'p operatsiyalar bajarilishiga qaramasdan yuk tashish bilan bog'liq bo'lgan logistik xizmatlarni ko'rsatishi mumkindir.[2]

Global logistik tizimning faoliyat ko'rsatishini tegishli infratuzilmalar tasavvur etib bo'lmaydi. Bu infratuzilmaga birinchi navbatda, transport tizimi va telekommunikatsiyalar bilan bog'liq. Mamlakat transport tizimlarining jahon transport tizimiga integratsiyasi va biznesning globallasishi, asosiy tranzit yuk oqimlari amalga oshiriladigan xalqaro transport yo'laklarini (XTY) jadal rivojlanishini talab etadi. Hozirgi vaqtda XTY nafaqat moliya-sanoat guruhlarini va transmilliy korporatsiyalarning global logistik strategiyalarini amalga oshirish vositasi bo'libgina qolmay, balki eng zamonaviy logistik kontseptsiyalar va yuklarni tashishning (intermultimodal, terminal, JIT, «eshikdan - eshikgacha» va b.sh) texnologiyalarini joriy etish maydoni ham bo'lib qolmoqda.[5]

XTY deganda, ayrim geografik hududlar orasidagi xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni ta'minlovchi, milliy yoki xalqaro transport tizimlarining bir qismi tushuniladi. Shuningdek mazkur yo'nalishda ishlayotgan, barcha transport turlarining harakatdagi tarkibini va statsionar uskunalarni hamda tashishni amalga oshirishning texnologiyasi tashkiliy va huquqiy shartlarini ham o'z ichiga oladi. XTYni tashkil etish, milliy qonunchiliklarni moslashtirishni, Garb va Sharq transport tizimlarini uyg'unlashtirishni, xalqaro transport infratuzilmasini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu infratuzilma yagona texnik parametrlarga ega bo'lib, milliy transport tizimlarini xalqaro transport tizimiga integratsiyasini, hamda global logistik tizimlarni tuzishning asosi sifatida, tashish jarayonining yagona texnologiyasini qo'llashni ta'minlaydi.

Hozirgi kunda XTYlarni yaratish, muhokama darajasidan amalga oshirish darajasiga o'tdi. Ko'pgina Yevropa va Osiyo mamlakatlari XTYlarni o'z hududi orqali o'tishiga intilmoqdalar. Zamonaviy logistik texnologiyalar asosida, O'zbekistan transport tizimi potensialidan foydalangan holda, O'zbekistan orqali o'tadigan zamonaviy va samarali transport yo'laklarini tashkil etish masalasi dolzarbdir

Majmuaviy logistik intermodal texnologiyalar, yangi talablarga javob beradigan, yuk tashishni tashkil etishning takomillashgan shakli sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular har bir transport turining ustuvorligidan integratsiyalashgan holda foydalanish va mijozga ma'qul narxlarda, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish imkonini beradi.[6]

Yuk tashishning multimodal tizimini amalga oshirishda ham transport bog'lamalari (yuk transportining tashish markazlari, logistik markazlar, transportning qo'shilgan terminallari va b.) muhim ahamiyatlidir.

Yuk tashish siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bu intermodal kesishish joylarida, yuk transporti uchun, yuk tashishni tutash nuqtalarining umumhududiy ittifoqini tashkil etishdir.

MDH, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari tashki savdosi liberallasuvi natijasida G'arb tovarlari uchun yangi bozorlar ochildi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari oldida Yevropa iqtisodiyotini Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va Markaziy Osiyoning bebaho resurslaridan foydalanishini ta'minlash muammosi paydo bo'ldi. Boltiq dengizi hududida esa ushbu ulkan yuk oqimini tranzit qilish uchun qattiq raqobat kurashi avj oldi

XX asrning oxirgi choragida Osiyo -Tinch okeani hududining xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi, shu jumladan xalkaro tovar almashinuvi sohasidagi roli oshib borganini ta'kidlash mumkin. Xalqaro bankning ma'lumotiga ko'ra 2015 yilga kelib, jahon savdosi hajmining 40%dan ortiqrog'i aynan Tinch okeani havzasida to'plangan [1].

Xalqaro savdoda kechayotgan jarayonlarni tahlil etganda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, liberallashtirish uning asosiy tendentsiyasi bo'lib kelmoqda. Bojlar darajasining ancha pasayishi yuz berdi, ko'pgina cheklanishlar va kvotalar bekor qilindi va hokazo. Ammo bir qator muammolar hali ham mavjud. Muammolarning asosiylaridan biri bu — mamlakatlar savdo-iqtisodiy bloklari va iqtisodiy guruhлари

darajasida proteksionistik tendentsiyalarni o‘tib borishidir. Ular ko‘pchilik hollarda bir-biriga qarama-qarshilik ko‘rsatadilar.

Xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi ko‘p sonli transmilliy korporatsiyalarni paydo bo‘lishiga olib keldi. Ular esa biznesda, ayniqsa tovarlar distribyutsiyasida, global logistik zanjirlar va kanallardan foydalanadilar. Global logistik kanallarning rivojlanish istiqbollari qo‘yilgan kapitalni qaytarilish darajasini oshishiga, boshqa mamlakatlardagi logistik vositachilarning pastroq xizmat tariflariga, yaxshiroq moliyaviy va boshqa sharoitlar yaratilishiga bog‘liq Mamlakatlararo logistik kanallarni yaratilishiga yirik xalqaro transport-ekspeditorlik firmalari, sug‘urta kompaniyalari va global telekommunikatsiya taqmoqlari yordam beradi.

Xalqaro savdoni tartiblashtirish sohasida, oxirgi o‘n yillik ichida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ko‘pgina savdo to‘siqlari bekor qilindi yoki sezilarli darajada kamaytirildi. Bu birinchi navbatda YeH, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari hamda AQSh, Kanada va boshqa jahon mintaqalariga tegishli. Umuman olganda, jahon miqyosida ishbilarmonlik faoliyatining faolligi oshishi kuzatilmoqda. Dengiz, temir yo‘l va havo transportida konteynerlarda yuk tashish industriyasining rivojlanishi tufayli, aniq chegaralangan milliy va ayrim hududiy bozorlar vaqt o‘tishi bilan asta-sekin global bozor shakliga o‘tib bormoqda. Global bozorni paydo bo‘lishiga, qaysi mamlakat va hududligidan qat’iy nazar, barcha iste’molchilar uchun umumiy bo‘lgan ehtiyojlarning shakllanishi ham sabab bo‘ladi. Kommuni-katsiya vositalarining rivojlanishi natijasida insonlarda o‘xshash iste’mol talablarining shakllanishi sodir bo‘ladi. Bu yangi global tovarlarni afzal ko‘rish, madaniy va iqtisodiy omillar ta’sirining natijasidir.

Ishlab chiqaruvchi, o‘z tovarini dunyoning turli mamlakatlarida taklif etish qarorini qabul qilishda, odatda, tovarning harakat siyosatidagi va tovarning o‘zidagi farqlarni nazarda tutadi. Bu farqlanish tanlangan sotish bozoriga qarab amalga oshiriladi, va oxir oqibatda global logistik tizimlarning shakllanishiga olib keladi. Ma’lum kompaniya, global logistik zanjirlarini, kanallari va tizimlarini rivojlantirishdan oldin, u xalqaro bozorda global kompaniya sifatida o‘rnashishi lozim. Oxirgi yillarda bunday o‘rnashish misollarini, Sosa-Sola, Gilrtte, DigitalEquipment, Nestle, Procter&Gamble, AcerComputerInternational, Volvova boshqa transmilliy korporatsiyalar

namoyon etdilar. Bu nafaqat ularning ishlab chiqarish va marketing strategiyalariga, balki birinchi navbatda tayyor mahsulot sotishni tashkil etish va personalni boshqarishga ham bog'liq.

Global logistikada hududiy lashtirish omili muhim rol o'ynaydi. Global logistikaning hududiy xususiyatlari, bir-biriga yaqin joylashgan va odatda ma'lum geografik hududda umumiy chegaralarga ega bo'lgan davlatlar uchun, namoyon bo'ladi. Hududiy omil, global lashtirish tendentsiyasini, quyidagi jihatlar hisobiga kuchaytiradi:

-hududdagi mamlakatlar siyosiy tizimlarining va iqtisodiy darajasining o'xshashligi;

-ijtimoiy hayot tarzi, an'analar va tarixiy ildizlarning yaqinligi;

-aholi migratsiyasi;

-yagona energetik manbalar va xomashyo resurslari;

-yagona transport tizimi va yo'l infratuzilmasi;

-yagona telekommunikatsiyalar;

-bojxona va savdo to'siqlarining yo'qligi va boshkalar.

Mamlakatlar orasidagi yuk harakati jarayonini osonlashtirish, qit'alar, hududlar va mamlakatlarning ishlab chiqarish va taqsimlash logistik tarmoqlarini yagona, ixcham global tarmoq ko'rinishida shakllantirishga imkon beradi. Bu tarmoq kamroq miqdorda texnologik uskunalarni talab qiladi. Bundan tashqari, savdo munosabatlarining o'zgarishi va yagona yevrovalyutaning kiritilishi YeH mamlakatlarida erkin raqobatni teng sharoitlarini ta'minlaydi, bu ish bozorda yangi raqobatdosh firmalar paydo bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi.

Eng yirik kompaniyalar, mamlakatlar orasidagi savdo jarayonini soddalashtirish uchun, axborot bilan elektron almashinishni tashkil etish borasida, bojxona tashkilotlari bilan hamkorlik o'rnatadilar. Elektron axborot almashinuvi YeDIFACT standarti asosida amalga oshirilishi mumkin.(5) Ammo hududlashtirish ma'lum tovarlar, kapital, axborot va xizmatlarni, ularga talabgor mamlakatlarga kirib borishini to'smasligi kerak, ayniqsa global telekommunikatsion, savdo va transport logistik tizimlarini yaratish jarayonlarida. Umumiy bozor, uzoq muddatli ishbilarmonlikka va strategik hamkorlikka ega bo'lgan mamlakatlar va sohalarning yangi global logistik strategiyalarini rivojlantirishi lozim. Bu holda global logistik tizimni barpo etishdagi muvaffaqiyat ko'p jihatlari bilan ishlab chiqarish quvvatlari,

texnologiyalari, axboroti sohasida, shuningdeq korporativ madaniyatda, personalda va menejmentda ham tanqis resurslardan samarali foydalanishga bog‘liq bo‘ladi.[5]

Global logistikaning potentsiali firmaning strategik maqsadlarini amalga oshirishga va raqobatda ustunliklarni yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda raqobat ustunligining asosiy tamoyillari quyidagilar:

- mahsulot va xizmat ko‘rsatish sifatida yetakchilik;
- xarajatlardagi yetakchilik;
- differentsiatsiya;
- strategik yo‘nalish.

Ko‘rsatilgan asosiy omillar boshqa raqobatdosh firma tomonidan qo‘llanilishi mumkin, shuning uchun muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun global kompaniya sifat, xarajat, differentsiatsiya va strategik yo‘nalishlarida hamisha yangi yondashish va innovatsion g‘oyalarni joriy etib borishi kerak.

Bunday imkoniyatlarni, to‘g‘ri loyihalashtirilgan global logistik tizim taqdim etadi. Masalan, samarali logistik menejment umumiy xarajatlarni kamaytirishi mumkin, bu esa global kompaniyaga, muayyan bozorlarda xarajatlar bo‘yicha doimiy yetakchilikni beradi. Xizmat yoki mahsulotning yuqori sifat darajasiga (jahon sifat standartlarini qo‘llab-quvvatlash) hamda minimal narxlarga birgalikda urg‘u berish, aniq bir bozorda firmani yetakchi o‘rnini belgilashi mumkin.[4]

Ta’kidlash lozimki, zamonaviy sharoitlarda strategik aniq yo‘nalishga erishish jarayonida global logistik tizimning roli oshib, muhimlashib bormoqda. Global kompaniyaning logistik vositachilarini kattaroq daromad olishga intilishi (masalan, distribyutsiya tizimlarida, sotishni tashkil etishda, sotishdan oldin va sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishda) oxirgi iste’molchi uchun tovarning umumiy qiymati va bahosini sezilarli oshirib yuborishi mumkin. Shuning uchun umumiy qiymatning global zanjiridagi xarajatlarning logistik monitoringgi bo‘lishi zarur. Strategik vazifalarni bajarish va bozordagi holatni nazorat qilish uchun, kompaniya qo‘llab-quvvatlaydigan logistik funksiyalarga birinchi navbatda e’tibor qaratish lozim.

Global raqobatda muvaffaqiyatga erishishning shartlaridan biri bu ishlab chiqarishni yetarli, global miqyosda taqqoslay oladigandarajaga ko‘tarishdir. Bu nafaqat yangi bozorga chiqish yoki tovar harakati

uchun zarurdir, balki ishlab chiqarishning katta hajmlarini bir birlik mahsulotga bo'lgan xarajatlarni kamayishini ta'minlaydi.[3]

Global kompaniyalar strategiyalarining maqsadlari to'rtta tarkibiy qismlarni e'tiborga olgan holda shakllanadi. Bular texnologiya, marketing, ishlab chiqarish va logistikadir. Barcha tarkibiy qismlarning ishtiroki zarur, unda global logistik tizim, biznesning boshqa sohalarining faoliyatiga asoslangan global ustuni bo'lib xizmat qiladi. Bunda, zamonaviy sharoitlarda logistik tizimning o'zi raqobatdagi ustunlik omili bo'lishini ham hisobga olish lozim.

Global raqobat haqida gap yuritar ekanmiz «global», «xalqaro», «millatlararo» degan tushunchalar farqini tahliliga to'xtab o'tishimiz zarur. Global marketing xalqaro va millatlararo marketingdan ancha farq qiladi. Xalqaro marketingda ixtisoslashgan tovarlar va mavjud mahalliy ehtiyojlarni qondirishga urg'u beriladi.


Birinchidan, global miqyosda raqobatlashayotgan kompaniyalar standart marketing kontseptsiyalarini yaratishga intiladilar. Ikkinchidan, tovarning hayot tsikli doimiy ravishda kamayib borib ayrim hollerda bir yildan osh-maydi. Bu ayrim yuqori texnologiyali mahsulotlarga tegishli, ularga kompyuterlar va kompyuter qismlari, foto uskunalar hamda audio-videotexnikalarni kiritish mumkin. Uchinchidan, ko'p kompaniyalar o'z ishlab chiqarishida chet el xomashyo resurslaridan foydalanadilar yoki ishlab chiqarishni bevosita chet mamlakatlar hududiga o'tkazadilar. To'rtinchidan, global darajada ish yurituvchi firmalarda, marketing va ishlab chiqarish faoliyatlarini yaqinlashtirishga intiladilar va yanada muvofiqlashtiradilar.

Qayd etish joizki, xalqaro logistikaning rivojlanish yo'lidagi barcha to'siqlar hali bekor qilingani yo'q.[4]

Quyidagi rasmda global logistikani rivojlantirishdagi to'siqlarning uch guruhi ko'rsatilgan:

Bozor to'siqlari arzon xomashyo resurslari, energiya, ish kuchi hamda mahsulot sotish bozorlari uchun bo'lgan raqobat kurashini o'zida aks ettiradi.

Bu to'siqlar yirik kompaniyalar tomonidan narx siyosati, axborot to'siqlari va boshqalar hisobiga, shu bilan birga davlat siyosati va qonunchiligi hisobiga ham o'rnatiladi.



7.4-rasm. Global logistik menejmentdagi to'siqlar.

Moliyaviy to'siqlar davlatning soliq, bojxona, savdo siyosati, kapital kiritishning cheklanishlari, bank foizi me'yorlari va boshqalar bilan bog'liq Ayrim mamlakatlarning raqobatdosh firmalari tovarlarini distribyutsiyasidagi to'siqlar moliyaviy to'siqlarga yaqin sanaladi. Ularning ichida eng muhimlari bu transport, bojxona va savdo to'siqlaridir.

Raqobatbardoshlikni oshirish uchun harakatchanlik va moslashuvchanlik bo'lishi zarur, ya'ni, firmalar o'z mahsulotiga bo'lgan talabni xalqaro miqyosda ham bozor shartlarini o'zgarishiga tez moslasha olishi kerak.

Bunda tayyor mahsulotning hayotiy tsikli (logistik tsikli) ning vaqt fazalari ilmiy-tekshirish va tajriba konstruktorlik ishlari vaqti, material va xomashyo bilan ta'minlash vaqti, tayyor mahsulot distribyutsiyasi va boshqalar hisobiga kamayib borishi kerak. Asosiy

vaqtni qisqartirishga erishish uchun kompaniyalar tor ixtisoslashuvga intiladilar. Ammo bunda distribyutsiyaning global tizimlarida xalqaro logistik vositachilar bilan integratsiyalashish ehtiyoji tugʻiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu maqola doirasida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- biznesning strategik maqsadlariga erishishda ularning barqarorligi va ishonchliligini oshirish uchun global logistik tizimda ham, tez oʻzgaruvchan tashqi muhitda ham integratsiya jarayoni boʻlishi lozim;

- yangi omillarni va raqobat kurashida ustuvorliklarni izlash lozim, bular esa integratsiyalashgan global logistikaning rivojlanishi harakatga keltiruvchi kuchdir;

- tovarlar, kapital va axborotni chegaralardan yanada erkinroq oʻtishi uchun mamlakatlararo va transmilliy makrologistik tizimlarini yaratish va rivojlantirish lozim. Bunday yondashishdan pirovard maqsad bu bojxona, tarif, soliq va boshqa toʻsiqlarni olib tashlash, ratsional yuk oqimlarini shakllantirish, mintaqaviy taqsimlovchi logistik markazlarning integratsiyalashgan tarmogʻini yaratish, transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish hisobiga xizmat koʻrsatish va ekologiyani yaxshilash hamda logistik (shu jumladan, tashish va zahiralarni boshqarishga boʻlgan xarajatlar) xarajatlarni kamaytirish;

- transmilliy korporatsiyalarning global logistik kanallarida menejmentni rivojlantirish lozim. Bunda arzon ish kuchiga va xomashyoga ega davlatlarda ishlab chiqarish qismlarini ratsional joylashtirish hisobiga korporatsiyalarning logistik harakatlarini kamaytirish, ombor xoʻjaligining joylashishi va tizimini optimallashtirish, xomashyo, tarkibiy qismlar va tayyor mahsulot tashishning optimal usullari, ehtiyot qismlar bilan taʼminlashni tashkil etish va logistik xizmat koʻrsatish muammolarini yechimini topish lozim.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Korxonalar logistikasi deganda nima tushuniladi ?
2. Korxonalarda olib boriladigan logistik faoliyat qanday tashkil etiladi ?
3. Logistik korxonalar taraqqiyoti nimalarda bogʻliq ?

4. Korxonalarda logistikani rivojlantirishga qaratilgan qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim ?
5. Logistik korxonalarda yuk tashish jarayonida yo‘l ko‘rsatuvchi shaxs kim?
6. Inkotermos nima ?
7. Innovatsion logistikaning asosiy maqsadi nima ?
8. Xalqaro yuklarni tashish me'zonlari qaysilar ?
9. Bugungi kunda logistik markazlar soni nechta va ular qaysilar ?
10. Xalqaro yuklarni tashishda umumiy qo‘llaniladigan vosita nima deb ataladi ?

8-mavzu. Logistik xizmatlarni raqamli amalga oshirish

8.1 Innovatsion logistik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishda raqamlashtirishning ahamiyati

8.2. Innovatsion logistikani rivojlantirishda Global kosmik Navigatsiya tizimidan foydalanish.

8.3 Logistik transport tizimda Global kosmik Navigatsiya tizimini ishlatish mexanizmi.

Innovatsion logistikani rivojlantirishda Global kosmik Navigatsiya tizimidan foydalanishning ahamiyati.

8.1 Innovatsion logistik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishda raqamlashtirishning ahamiyati

Logistika maqsadlariga erishish uchun innovatsion logistik jarayonlarni boshqaruv orqali doimiy tarzda kuzatish va ta'sir ko'rsatish zarur. Bu holatda boshqaruv ishlab chiqarishda va mahsulot sotishda band bo'lgan hamma bo'linmalarining faoliyatini bir – biriga moslashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday birlashuvning kuroli bo'lib axborot ta'minoti xizmat qiladi.

Axborot oqimlari logistik tizimning hamma elementlarini birlashtiruvchilari sifatida namoyon bo'ladi. Axborot turli xil logistik operatsiyalarni bajarish davomida yuzaga keladi va moddiy oqim harakatining hamma bosqichlarida uni kuzatib boradi. Logistik tizimda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda va qabul qilishda axborot qo'llaniladi.

Axborot logistikasi moddiy oqimlarni kuzatib boruvchi berilganlar oqimini tashkil etish va korxonada ta'minot ishlab chiqarish, sotuv bo'limlarini bog'lovchi muhim bo'g'in hisoblanadi.

Logistikada axborot jarayonining asosiy funksiyalari. Axborot logistikasi logistik tizimda o'tadigan axborot oqimlarini tashkil etadi va axborot jarayonlarini amalga oshiradi.

Axborot oqimi – bu ma'lum ketma - ketlikda, belgilangan yo'nalishda harakatlanayotgan, hamda boshlang'ich, oraliq va oxirgi nuqtalari belgilab qo'yilgan axborotdir.

Axborot jarayoni – bunda axborot o'zgarishlarning aniq ketma - ketligiga ega bo'lgan asosiy obyekt sifatida ko'rib chiqiladi. Bu

holatda axborotni yig'ish, tahlil qilish, qayta shakllantirish, saqlash, qidirish va tarqatish muhim o'rin tutadi.

Logistik tizimda o'tadigan axborot jarayoni davomida quyidagi funktsiyalar amalga oshiriladi:

- axborotni vujudga kelish joylaridan yig'ish;
- axborotni tahlil qilish va qayta shakllantirish;
- xborotni yig'ish va saqlash;
- axborotni tashish;
- axborot oqimini filtrlash, ya'ni boshqaruvning u yoki bu darajalariga zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni tanlab olish;
- axborot oqimlarini birlashtirish va ajratish;
- elementar – axborot qayta shakllantirishlarni amalga oshirish;
- axborot oqimini boshqarish.

Logistik tizimda axborot oqimlarining o'ri. Alohida korxonada darajasida axborot logistik tizimlari uch guruhga ajratiladi.

Rejali axborot tizimlari logistik tizimlarni boshqarishning yuqori darajasida tashkil etiladi hamda strategik xarakterga ega bo'lgan qarorlarni tayyorlash va qabul qilish uchun xizmat qiladi: logistik zanjir bo'g'inlarini tashkil etish va optimallashtirish; ishlab chiqarishni rejalashtirish; zahiralar va zahiralarining umumiy boshqaruvi va boshqalar.

Dispozitiv yoki dispatcher tizimlar ombor yoki tsexni boshqarish maqsadida tashkil etiladi va bu logistik tizimlarning samarali ishlashini ta'minlaydi. Bu yerda quyidagi masalalar hal qilinadi: ombor va tsexlarda zahiralarini boshqarish; transportni boshqarish; yuklarni tanlash va komplektlash; jo'natilgan tovarlar hisobi va boshqalar. Bajaruvchi yoki operativ tizimlar boshqaruvning u yoki bu organlari asosida tashkil etiladi va moddiy oqimlarni operativ boshqarish, ular harakatining grafik va rejalari bajarilishi ustidan nazorat, yuklar harakatini boshqarish va boshqalar bilan bog'liq masalalarni yechadi.


Axborot logistik tizimlari korxonani boshqarish tizimining ierarxik tuzilmasiga mos keladi va uchta darajadan iborat bo'ladi:

Birinchi daraja – logistik operatsiya amalga oshirilayotgan ish joyi.


Ikkinchi daraja – ish joylari joylashgan va yuklarni tashishi amalga oshirilayotgan uchastka, tsex, omborlar.

Uchinchi daraja – xom ashyoni tushirib olishdan tayyor mahsulotni yetkazib borishgacha bo‘lgan voqealar zanjirini qamrab oluvchi transport va yuklarni tashish tizimi.

Bu uchta darajalardan keladigan axborot bitta axborot tizimiga integratsiyalashadi. Vertikal va gorizontal integratsiyalar ajratiladi. Vertikal integratsiya rejali, dispozitiv va bajaruvchi tizimlar orasida aloqani vertikal axborot oqimlari orqali ta’minlaydi. Gorizontal integratsiya deb dispozitiv va bajaruvchi tizimlarning alohida komplekslari orasida aloqaning gorizontal axborot oqimlari orqali ta’minlashga aytiladi.



8.1-rasm. Itegratsiyalashtirilgan axborot tizimlari



8.2-rasm. Logistikada qo‘llaniladigan tizimlar turi

Axborot logistik tizimlarning qurilish tamoyillari.

Tizimlarning faoliyat ko‘rsatishi.

Axborot logistik tizimlarning kurilish tamoyillari. Axborot logistik tizimlarning shakllanishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- tizim shunday tuzilishi kerakki, axborotni uzatish, uni qayta ishlash, saqlash va qo'llashda korxonaning hamma bo'linmalari ehtiyojlari hisobga olinsin;

- axborot tizimi korxonaning yetkazib beruvchilar, xaridorlar hamda jo'natuv, oraliq omborxonalari va iste'molning hamma nuqtalari bilan zarur o'zaro aloqalarni ta'minlab berishi kerak;

- logistik tizimlarning darajalari o'rtasida axborot almashinuvi minimal lekin boshqaruv ehtiyojlarini ta'minlaydigan bo'lishi kerak;

- axborot xarakteri boshqaruv tizimidagi aniq bir iste'molchiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

- tizimni kurishda apparat va dastur modellar tamoyili hisobga olinishi zarur;²⁹

- muhim talab bo'lib tizimda qo'llanilayotgan hujjatlarni soddalashtirish va standartlash hisoblanadi.

Axborot resurslarini shakllantirish va undan foydalanish tadbirkorlik faoliyati yagona iqtisodiy axborot makoni yaratilishidagi eng muhim yechilishi kerak bo'lgan muammolardan biridir. Zamonaviy biznes axborot texnologiyalari tadbirkorlik axboroti ma'lumotlar bazasi va bankidan tashkil topib, bular jamiyatning barcha axborot resurslari bilan uzluksiz tarzda bog'langan bo'lishi kerak.

Ushbu ish doirasida, tadbirkorlar axborot muhitida O'zbekiston Respublikasi tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi a'zolari o'rtasida olib borilgan tadqiqotlar, muvaffaqiyatli biznes uchun nisbatan muhim bo'lgan tadbirkorlik axboroti sektorlarini aniqlash imkonini berdi. 9-jadvalda tadbirkorlik axboroti to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan bo'lib, u yoki bu axborotni afzal ko'rishlariga ko'ra, so'ralganlar (% da) joylashtirilgan.


Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, hisobga olingan ma'lumot bazalarining (MB) 84%i davlat sektoriga tegishlidir. Hozirgi paytda ishbilarmonlik va tijorat axborotlari MB ning shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyotining nodavlat sektorida ro'y bermoqda. Bugungi kunda yuzlab axborot mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar va axborot xizmati ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlar ishlab turibdi.

Tizimning faoliyat ko'rsatishi. Moddiy oqimlarni boshqarishda tizimga berilganlarni kiritish moddiy oqim paydo bo'lishi bilan

²⁹ Қосимова М.С.Логистикани стратегик бошқариш.УМК,Иқтисодиёт,2015.

boshlanadi. Shu daqiqadan boshlab yuklar harakatining barcha jarayonlari (qayta yuklash, omborda joylashtirish, ushlab qolish va hokazo) qamrab olingan holda EHMning operativ xotirasiga joylashtiriladi. Belgilangan muddatlarda yoki talabnomalar bo'yicha axborotlar foydalunuvchiga kelib tushadi va qarorlarni qabul qilishda qo'llaniladi.

Axborot logistik tizimlar korxonada tashkil etilishi, regionni qamrashi va ratsional masshtabda faoliyat ko'rsatishi mumkin.



8.3-rasm. Logistik axborot tizimlarini turlari

Axborot oqimi – bu logistika ichida va tashqi muhit orasida aylanayotgan hamda logistik jarayonlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'indisidir.

Axborot oqimi moddiylikka mos keladi. Amaldagi logistik tizimlarda moddiy va axborot oqimlari, ba'zi hollarda bir - biridan o'zib ketishi mumkin. Axborot oqimi moddiy oqim bilan bir xil (to'g'ri) yo'nalishda va unga qarama - qarshi (teskari) yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. To'g'ri yo'nalishda o'zib ketayotgan axborot oqimi yuklarni kutilayotgan kelib tushishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi, teskari yo'nalishda esa – buyurtma haqida ma'lumotlarga. Moddiy oqim bilan bir vaqtda unga parallel ravishda ko'chirilayotgan resurslarning sifat va ko'rsatkichlari haqida ma'lumot ham boradi. Moddiy ketidan teskari yo'nalishda yukni qabul qilish natijalari haqida ma'lumot hamda noroziliklar va tasdiqlar kelishi mumkin.

Axborot oqimining ichki va tashqi, kiruvchi va chiquvchi turlari ajratiladi, ularning tasnifi moddiy oqim tasniflari bilan bir xildir.

Axborot oqimi vujudga kelish manbai, yoʻnalishlari, davriyligi, hajmi, oʻtish tezligi va hokazolar bilan ajralib turadi. Axborot oqimini boshqarish oʻzining tarkibiga oqim yunilishini oʻzgartirish va uning parametrlarini cheklashni oladi.

8.2. Innovatsion logistikani rivojlantirishda Global kosmik Navigatsiya tizimidan foydalanish

Ushbu mavzuda savdo operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida transport vositalari harakatini Global kosmik navigatsiya tizimi asosida boshqarishga bagʻishlangan masalalar yoritib berilgan.

Oʻzbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar Strategiya-sining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishariga bagʻishlangan bandida "... yoʻl-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni koʻrsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish" kabi vazifalar keltirilgan.[1,107] Shulardan kelib chiqqan holda, bugun mamlakatimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotimizning sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish boʻyicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yoʻl-transport va kommunikatsiya infratuzilma tarmoqlarini yuksak surʼatlar bilan rivojlantirishga uzviy bogʻliqdir. Shu maʼnoda bugungi kunda iqtisodiyotimizni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda yangi informatsion texnologiyalar, usullar, innovatsiyalar va klasterlardan foydalanish dolzarb masaladir.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning asosi hisoblangan tashqi savdoni amalga oshirishda, yaʼni eksport-import operatsiyalarni bajarishda transport vositalaridan foydalaniladi. Shu jarayonni amalga oshirishda tashqi savdo yuklarini oʻz vaqtida, beshikast, kam xarajatlar bilan yetkazib berishda transport vositalarining harakatini boshqarish oʻta muhimdir. Shu maʼnoda, eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda transport vositalarini harakatini Global kosmik navigatsiya tizimi asosida boshqarish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada

transport vositalarini harakatini boshqarish va nazorat qilishda navigatsiya tizimini ishlash printsiplari va rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilishi, shuningdek undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari to'g'risidagi tadqiqotlarimiz natijalari keltiriladi.

Bir qancha rivojlangan mamlakatlar jumladan, AQSh, Yaponiya, Yevropa, Rossiya transport harakati oqimlarini boshqarishning tamoman yangi tamoyillarga asoslangan yangi usullarini qo'llamokdalar. Shu jumladan, O'zbekistonda ham istiqbolli bo'lgan global kosmik navigatsiya tizimini qo'llash yo'lga qo'yilmoqda.

Global kosmik navigatsiya tizimi (GPS – Global Positioning System, GLONASS – Globalnaya Navigatsionnaya Sputnikovaya Sistema) – bu kunning xohlangan paytida, xohlangan nuqtasida harakatlanayotgan obyektlarning geografik o'rnini, yo'nalishini va harakat tezligini aniqlashga imkon beradigan tizimdir. Bulardan tashqari ushbu tizim orqali aniq vaqtni 1 nanosekund [0,000000001 sek] aniqligida aniqlash mumkin.

Tizimni vujudga kelishi shuki, XX-asrning 70 yillarida AQSh mudofaa vazirligining topshirig'i bo'yicha harbiy maqsadlarda ishlab chiqilgan edi, ammo 1983 yilda boshqa sohalarda ham ishlatilishiga ruxsat etildi. 1991 yilda GPS – texnologiyalarini sobiq MDH davlatlari tomonidan sotib olinishiga ruxsat etildi. 90-yillarning o'rtalarida tizim to'liq ishga tushirildi, umumiy xarajatlar 15 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. [2,73]

GPS navigatsiya tizimining asosiy elementi 24 ta sun'iy yo'ldosh bo'lib, ular 6 ta turli orbitalarga, bir-biriga nisbatan 60° burchakda joylashtirilgan. Har bir yo'ldoshning yer sharini bir aylanib chiqishi 12-soatni tashkil etadi. Har bir yo'ldoshning og'irligi 800 kg.ni, uzunligi 5 m.dan ko'proqni tashkil etadi (quyosh batareyalarini qo'shib hisoblaganda).

Har bir yo'ldoshning bortida yuqori stabillikga ega bo'lgan atom soatlari, kodlashtiruvchi hisoblash uskunasi va quvvati 50 Vt lik radiosignallarni o'rganadigan va maxsus axborotlarni saqlaydigan uzatgich mavjud.

Yo'ldoshlarning faoliyati yer sharining turli nuqtalarida joylashgan va yagona tizimga birlashgan stantsiyalar orqali nazorat etiladi.

Tizimning soʻnggi elementi yoʻldoshlardan GPS - qabul qiluvchi uskunanadan iborat boʻlib, axborotlarni tegishli tarzda qayta ishlab, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos yaratadi.

AQShning Navstar (Navigation system with time and ranging – vaqt va masofani aniqlovchi navigatsion tizim) tizimi bilan parallel ravishda Rossiyaning harbiy-kosmik sanoati tomonidan GLONASS alternativ navigatsiya tizimi yaratildi. GLONASS tizimining birinchi yoʻldoshi (Kosmos 1413) 1982 yilning 12 oktyabrida uchirildi. 1993 yilning 24 sentyabrida GLONASS tizimi rasmiy ravishda foydalanishga qabul qilindi.[4,58]

GLONASS tizimi yer usti obyektlarini operativ ravishda global navigatsiya qilishga moʻljallangan.


Tarmoq radionavigatsiya yoʻldosh GLONASS - tizimi Rossiyaning mudofaa vazirligi topshirigʻicha muvofiq ishlab chiqilgan. Xuddi GPS tizimi kabi GLONASS tizimi ham ikki yoʻnalishga foydalaniladi yaʼni harbiy va grajdanlik maqsadlarida.

Tizim oʻzida 3 funktsional qismlarni mujassamlashtirgan:

- kosmik segment. Bunga sunʼiy yer yoʻldoshlarining orbital guruhi (navigatsiyaviy kosmik apparatlar);
- boshqarish segmenti. Bunga kosmik apparatlarni yerdan boshqarish kompleksi kiradi;
- tizimdan foydalanuvchilar vositalari.

GLONASS tizimida asosiy radionavigatsiya stantsiyasi sifatida geostatsionar orbitada 19100 km masafada aylanadigan navigatsiyaviy kosmik apparatlari (NKA) foydalaniladi (1-rasm).

Yoʻldoshning yer shari atrofida aylanishi oʻrtacha 11 soat 45 minutni tashkil etadi. Yoʻldoshni ekspluatatsiya qilish vaqti – 5 yil. Yoʻldoshning oʻzi germetik konteyner shaklida ishlashgan boʻlib, uning diametri 1,35 m, uzunligi 7,84 m. Uning ichiga turli xil uskunarlar oʻrnatiladi. Yoʻldoshning umumiy massasi 1415 kg. Butun tizim quyosh batareyalaridan quvvat oladi. Yoʻldoshning bortida: bort navigatsiya uzatuvchi, xronizator (soatlar). bort boshqaruv kompleksi, orientatsiya tizimi, stabillashtirish tizimi va boshqalar.[5,97]



8.4-Rasm. GLONASS tizimining kosmik segmenti

GLONASS tizimining yerdan boshqarish kompleksi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- efemeridli va vaqtli-chastotali ta'minot;
- radionavigatsiyaviy maydonning monitoringi;
- NKAning radiotelemetrik monitoringi;
- NKAni komanda beriladigan radioboshqaruvi va dasturiy radioboshqaruvi.

GPS/GLONASS tizimi to'g'risida yuqorida qayd etilganlarga muvofiq ushbu tizimning ustunliklaridan transport oqimlarini boshqarishda va avtomobil transportining faoliyat bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni hal etishda foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

8.3. Logistik transport tizimda Global kosmik Navigatsiya tizimini ishlash mexanizmi

Transport vositalarining monitoringini amalga oshirishda ikki xil uslubdan foydalanish mumkin: avtomobillarga o'z koordinatlarini aniqlaydigan maxsus uskunalar (avtomobillar koordinatasini aniqlashning yo'ldosh tizimi); avtomobillar koordinatasini aniqlashni chetdan amalga oshirish (radiolokatsiya uslublarini qo'llagan holda navigatsiya

tizimini qo‘llash). Hozirgi kunda va kelajakda keng qo‘llanishi maqbul bo‘lgan uslub GPS va GLONASS tizimi hisoblanadi.

Ushbu tizim quyidagicha ishlaydi: axborotlarni qabul qiluvchi qurilma 3 va undan ko‘p yo‘ldoshlardan signallarni qabul qilib, har bir yo‘ldoshdan keladigan signallarning yo‘ldoshlardan o‘tishi kechikishini o‘lchaydi va avtomatik tarzda o‘zining koordinatalarini hisoblaydi.[3,8]

Ushbu ma’lumotlarni protsessor qurilmaning xotirasiga kiritilgan elektron xarita bilan solishtiradi (unga kiritadi). Foydalanuvchi (avtomobil) o‘z displeyida karta va unda GPS-priemniqi yordamida harakatlanayotgan nuqtani ko‘radi.

Tizim transport vositalari harakatini avtomatik tarzda dispetcherlik markazi (DM) orqali boshqarishni amalga oshirishga imkon beradi.

Tizim tarkibiga dispetcherlik markazining (DM) va transport vositalariga (TV) o‘rnatilgan uskunalari kiradi.

Dimning dasturiy ta’minot kompleksi tarmoq interfeysi bilan ta’minlangan mustaqil dasturiy modullardan tashkil topgan bo‘lib, axborotlarni qayta ishlashni taqsimlash tomoni asosida ishlaydi. Bu, tizimni tuzishni sharoitga moslashtirilishini, kuchaytirishni oddiyligini, buyurta beruvchining talabiga mos ravishda tez adaptatsiya qilinishini ta’minlaydi.

Tizim tarkibida quyidagi tipdagi dasturiy modullar mavjud bo‘ladi:

- radiokanallar va uyali GSM/GPRS kanallari orqali axborot almashish moduli;
- DM moduli;
- tizim serverining moduli;
- MicrosoftSQLServer 2000 axborotlar bazasi bilan.

Modullar soni chegaralanmaydi. Modullar EHMga joylashtirilishi va tarmoq orqali birlashtirilishi mumkin. Ularning o‘zaro faoliyati TCP/IP protokoli orqali amalga oshiriladi.[5,83]


Minimal konfiguratsiyada barcha dasturiy modullar birta kompyuterga o‘rnatiladi (2-rasm). Kompyuterga GSM uyali aloqa standartiga ega bo‘lgan navigatsiya – aloqa vositalari ulanadi.

Kengaytirilgan konfiguratsiyada dasturiy modul har xil kompyuterlarga o‘rnatilishi mumkin (3-rasm).

Dispetcher mobil obyektlar harakatini kuzatadi va lozim bo‘lganda TV o‘rnini aniqlash tashabbusi bilan chiqadi. TV o‘rnini aniqlash talabi tarmoqdagi radiokanal orqali MDning axborot almashish

moduliga, GSM/GPRS beriladi. Ular tizimga ulangan barcha MD modullari orqali barcha talablarni umumlashtiradi va TVga yo‘llaydi.

TVda ushbu talab navigatsiya – aloqa terminali yordamida qabul qilinadi.



8.5-Rasm. Minimal konfiguratsiyali dasturiy modul

GPS/GLONASS yo‘ldosh radionavigatsiya tizimidan olinadigan axborotlar asosida navigatsiya-alloqa terminali TVning turgan joyini aniqlaydi va qabul qilingan barcha ma’lumotlar qaytadan TVlariga o‘rnatilgan datchiklar orqali o‘zining turgan joyi haqidagi ma’lumotlar teskari tomonga qaytariladi.


qabul qilingan axborot Dinning tegishli moduliga uzatiladi va ekranda yangi belgi sifatida o‘z aksini topadi.

Dispatcher quyidagi voqealar to‘g‘risida ham xabardor qilinadi: TVning tegishli joyga kelishi, kechikishi va boshq.

Dispatcher ushbu axborotlar va boshqa axborotlar asosida qaror qabul qiladi va tovushli aloqa tizimi orqali TVning haydovchisini xabardor qiladi.

Barcha qabul qilinadigan axborotlar axborotlar bazasida saqlanadi. Axborotlar bazasida TVga yuboriladigan topshiriqlar va TV

bilan sodir bo‘ladigan voqealar ham saqlanadi. Mutasadi xodimlarning axborotlar bazasi bilan ishlashi maxsus ishlab chiqilgan interfeys orqali amalga oshiriladi. Lozim bo‘lganda dispetcher TVning harakat yo‘nalishi, TV va haydovchi to‘g‘risidagi axborotlarni arxiv yozuvlarini tezlashtirilgan rejimda qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Tizimning server moduli DM va axborot almashish modullari faoliyatini radiokanallar orqali, GSM/GPRS standartidagi uyali kanallar orqali o‘zaro muvofiqlashtiradi (moslashtiradi). Albatta dispetcherning ushbu ishga huquqi bor-yo‘qligiga qaraladi.



8.6-Rasm. Kengaytirilgan konfiguratsiyali dasturiy modul

Bundan tashqari dispetcher quyidagi ishlarni bajara oladi [4,103]
 - TV bilan tovushli aloqa orqali bog‘lanish;

- magistralning kerakli uchastkasini ekranda aks ettirish;
- masofani o'lchash.

Tizimni administrativ hududlarga bo'lish server modulining das-turi yordamida amalga oshiriladi. Bundan tashqari serverning moduli:

- tizimga yangi resurslarni kiritish: TV, DM moduli, GSM standartidagi uyali kanali orqali axborot almashish moduli;
- trafikning avtomatik hisobini olib borish, aloqa xizmatlari haqining hisob-kitobini qilish va boshq.

GLONASS tizimi 2008 yilda to'liq ishga tushirilgan edi. Uning funksiyasi AQShning GPS tizimidan hecham farq qilmaydi GLONASS/GPS qabul qiluvchi apparaturalar AQSh yo'ldoshlari faoliyatiga bog'liq bo'lmaydi. Shuning uchun ham Yevropa davlatlari global pozitsiyalanish – Galileo tizimini ishlab chiqmoqdalar.

Yevropa davlatlarida, AQSh, Yaponiya va boshqa ko'p davlat-larda GPS tizimi avtomobilning standart uskunasiga aylangan va bir necha yildan beri muvaffaqiyat bilan ishlatilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, GLONASS/GPS tizimi yuqori samaradorli ekan, xususan, AQShda 60% dan ortiq logistik kompa-niyalar ushbu tizimdan foydalanmoqdalar, yaqin yillarda yana 30% kompaniyalarning ulanishi ko'zda tutilgan. Polshada esa 70% logistik kompaniyalari ushbu tizimdan foydalanmoqdalar. Yaqin 2-3 yil ichida Xitoyda 700 mingga yaqin avtomobilni tizimga ulash rejalashtiril-moqda. (6) Hozirgi kunda Rossiyada 30% ga yaqin yirik kompaniyalar GPS tizimidan foydalanmoqdalar, 20-25 ta kompaniya mijozlarni yo'ldosh tizimiga ulash bilan shug'ullanishmoqda.

Uch xil yo'ldosh tizimini birgalikda qo'llash (GPS – GLONASS - Galileo) hamma transport turlarida «qora yashik»lardan foydalanishni real qilib qo'yimoqda, chunki aniqlik 1 sm.gacha oshi-riladi. Bunda faqat avtomobilning harakat traektoriyasi (avariyadan 10 minut oldingi) va transport vositasining tezligi yozuvi bilan to'ldirilsa bo'ladi. Aybdorni topish protsessual xarakterga ega bo'ladi. Yo'l harakati nazoratchilarini chaqirishga o'rin qolmaydi, chunki hamma narsa avtomatik protokolga qayd etilgan bo'ladi.

Demak, transport vositalari harakatining monitoringi tizimi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- telemetrik va navigatsiyaviy axborotlarni DM uzatish (talabga muvofiq; berilgan interval bo'yicha avtomatik tarzda, voqea sodir bo'lganda);

- GPS va/yoki GLONASS (keyinchalik Yevropaning Galileo) navigatsiya tizimi yordamida berilgan vaqt makonida TVning harakatlanish (turish) joyi koordinatlarini aniqlash, tezligi va harakat yo'nalishini belgilash;

- navigatsiya va telemetrik axborotlarni energiyaga bog'liq bo'lmagan xotirada saqlash;

- uyali aloqa kanali yoki radiokanal orqali energiyaga bog'liq bo'lmagan xotirada MDga uzatish;

- Disptcherning elektron kartasida TVning harakatlanish (turish) nuqtasini ko'rsatish;

- Disptcherning ish o'rnida navigatsion va telemetrik axborotlarni qabul qilish, saqlash va aks ettirish;

- TVning haqidagi axborotlarni kiritish (model, davlat registratsiya raqami, xo'jalik va b.);

- TVning harakatlanish marshrutini ishlab chiqish;

- TVning bosib o'tgan masofasi va o'rtacha harakat tezligini hisobini olib borish;

- TVning to'xtab turish vaqtini hisobini olib borish;

- qog'ozda va elektron variantda hisobotlar olish;

- DM va TV orasida tovushli aloqani amalga oshirish va boshqalar.

Ushbu tizim yordamida esa quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- avtomobilning qaerda ekanligini, harakat yo'nalishini va tezligini aniqlash;

- avtomobilning barcha harakati va holati to'g'risida aniq ma'lumotlarni olish;

- trevoga signali berish orqali avtomobil haydovchisining xavfsizligini oshirish;

- shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda harakatlanayotgan avtomobillarning ruxsat berilmagan to'xtashlari va ko'zda tutilmagan harakatini cheklash;

- avtomobillarni o'g'irlanishini, egallab olinishi riskini kamaytirish, sug'urta to'lovlarini kamaytirish;

- aniq ma'lumotlar asosida avtomobillarning harakat oqimi va moddiy oqimlar harakatini prognozlashtirish va boshqarish;
- o'rnatilgan marshrutlardan cheklanishlarni nazorat qilish;
- yoqilg'i va moylash materiallarining 20-40% iqtisod qilish;
- transport oqimlarini optimallashtirish hisobiga harakat vositalari sonini ko'paytirmasdan moddiy oqimlar miqdorini 5-25% kamaytirish va boshqalar.[6,49] Demak,transport faoliyatida Global kosmik navigatsiya tizimidan foydalanish bugungi kunda mamlakati-miz tadbirkorlari faoliyatlarini innovatsion rivojlantirishda,eksport-import operatsiyalarni amalga oshirishda, transport-logistika markazlari ishlarini, klasterlarni samarali tashkil qilishda,umuman iqtisodiyotimizni innovatsion rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Logistik axborot oqimi nima ?
2. Logistika axborot texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi nimada ?
3. Innovatsion logistikani rivojlantirishda navigatsiya tizimidan foydalanishning afzallik tomonlari nimalardan iborat ?
4. Logistika rivoji necha bosqichda amalga oshgan ?
5. Moddiy oqim deb nimaga aytiladi ?
6. Logistik transportda navigatsiyaning ahamiyati nima ?
7. Innovatsion logistika rivojida Global kosmik tizim afzalliklari nimada deb bilasiz ?
8. Axborot oqimi deb nimaga aytiladi ?
9. Ekspeditor kim ?
10. navigatsiya tizimi nima ?

9-mavzu. Logistikani innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari

INNOVATSIYA VA LOGISTIKA SOHASIDA KADRLARNI BOSHQARISH MEXANIZMI.

9.1. Kadrlarni boshqarish strategiyasining mohiyati va turlari

9.2. Ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarish

9.3. O‘zbekistonni innovatsion rivojlantirish va intellektual resurslar

9.5. Malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi

9.6. Kadrlarni tanlash va ishga tayinlashda innovatsion texnologiyalar

9.1. Kadrlarni boshqarish strategiyasining mohiyati va turlari

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda malakali kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish va ularni boshqarish strategiyasi belgilab berilib, uni asosida misli ko‘rilmagan darajada juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu mavzuda kadrlarni ishga tanlash jarayonida jahon mamlakatlari amaliyotida keng qo‘llanilayotgan texnologiyalar, ularni qo‘llashning maqsad va usullari o‘rganilgan. Ulardan milliy korxonalarining kadrlar xizmati faoliyatini takomillashtirishda foydalanish masalalari ko‘rib chiqildi. Iqtidorli bolalar va o‘quvchi yoshlarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. ”El yurt umidi” jamg‘armasi tashkil qilindi. Iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko‘maklashish, ularning qobiliyati va bilimlarini o‘stirish bo‘yicha maxsus jamg‘armalar tashkil qilinmoqda. Yoshlarimizni chet ellarda o‘qitish va malakalarini oshirish masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, chet eldagi vatandoshlarimiz mamlakatimizning ta’lim tizimiga, ishlab chiqarish va boshqa bir qancha sohalarga jalb qilinmoqda. Iqtidorli bolalar va o‘quvchi yoshlarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. ”El yurt umidi” jamg‘armasi tashkil qilindi. Iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko‘maklashish, ularning qobiliyati va bilimlarini o‘stirish bo‘yicha maxsus jamg‘armalar tashkil qilinmoqda. Davlat innovatsion siyosati haqida gapirganda doimo innovatsion iqtisodiyot uchun

kadrlar tayyorlash diqqat markazda bo‘ladi. Agar iqtisodiyotning an’anaviy sektorlarida “kadrlar hamma narsani hal qiladi” qoidasi aksariyat holatlarda to‘g‘ri bo‘lib chiqsa, iqtisodiyotning ko‘p ilm talab qiladigan sektorlarida ushbu fikrning ahamiyati yana bir necha marotaba ortadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda Prezidentimiz tomondan logistika sohasini rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, bir qancha logistik markazlar, klasterlar, texnoparklar, erkin iqtisodiy zonalar ochilgan bo‘lib, bugungi kunda bular muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, ushbu sohaga kadrlar tayyorlash masalasi ham ko‘ndalang turgan muammolardan biridir. Bu borada mamlakatimizda bir qator Oliy o‘quv yurtlarida Logistika yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlar hamda magistratura mutaxassisliklari ochilgan bo‘lib, bugungi zamon talablari asosida malakali kadrlar tayyorlanmoqda. Jumladan, Toshkentdagi INHA universitetida, TDIUda, TAYEQLda logistika bo‘yicha kadrlar tayyorlanib kelmoqda.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda bilim vositalari birinchi darajali hisoblanadi. Oqibatda yetarli darajada bilimlarga ega bo‘libgina qolmay, ularni amaliyotda qo‘llay oladigan, innovatsion hojalarga boy malakali mutaxassislar tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar tayyorlash masalalari bilan an’anaviy ravishda oliy o‘quv yurtlarishug‘ullanib keladi. Biroq, so‘nggi yillarda xorij tajribasining ko‘rsatishicha, OO‘Yu bu masalani mintaqaviy va federal hukumatlar, shuningdek, yirik biznes vakillari ko‘magida ancha samaraliroq hal etishlari mumkin ekan.

Hozirda davlatlarning iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan ishlab chiqarishning barcha sohalarini intellektuallashtirish va ilmiy-innovatsion taraqqiyot bilan ta’minlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda YaIM o‘sishining 80-85%igacha yangi texnologiyalar, asbob-uskunalar, yangi bilim yoki yechimlarga ega bo‘lgan mahsulotlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tobora keng va chuqur kirib bormoqda. Innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasidan erishiladigan sinergetik samara vositasida mintaqalar va butun davlat jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tayanch elementiga aylanadi.

1997 yilda “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning qabul qilinishi ushbu yo’nalishdagi birinchi va juda muhim qadam bo’lgan edi. Ushbu qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab qo’yildi:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

- umumiy o’rta, shuningdek, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiylik;

- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo’nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o’qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

- ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqlik;

- ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashgan yondashuv;

- bilimli bo’lishni va iste’dodni rag’batlantirish;

- ta’lim tizimida davlat va jamoa boshqaruvini uyg’unlashtirish¹.

„Ta’lim to’g’risida”gi qonun qabul qilingandan so’ng yangi o’quv rejalari, dasturlari, darslik va qo’llanmalar yaratishga kirishildi. Ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o’tkazish va akkreditatsiyalash yo’lga qo’yildi. Oliy o’quv yurtlarida kadrlar tayyorlashni markazlashtirishdan hududiy yo’nalishga o’tkazish chora-tadbirlari ko’rildi. O’quv yurtlari tarmog’i kengaydi, universitet ta’limi rivojlanishi ta’minlandi. Yangi ixtisosliklar, bilimlarning yangi tarmoqlari bo’yicha mutaxassislar tayyorlashga kirishildi. Umuman, maktab ko’p tarmoqli tizimga o’tkazildi. Abiturientlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting usulida baholashga o’tildi. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar sifatiga qo’yilayotgan talablar hisobga olingan holda aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash tubdan qayta ko’rib chiqildi. Jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etildi.³⁰

Iqtidorli bolalar va o’quvchi yoshlarni har taraflama qo’llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.”El yurt umidi” jamg’armasi tashkil qilindi. Iqtidorliyoshlarni izlab topish, ularga ko’maklashish, ularning qobiliyati va bilimlarini o’stirish bo’yicha

maxsus jamg'armalar tashkil qilinmoqda. Iqtidorli talaba yoshlarni Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Xitoy, Koreya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa taraqqiy etgan davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida va ilmiy markazlarida o'qitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

9.2. Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarish

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 6-iyundagi Farmoni asosida Oliy ta'lim tizimida ham beqiyos o'zgarishlar yuz berdi. Ya'ni juda ko'plab universitet va institutlarni yangidan tashkil qilinishi, yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklarni, yangi fanlarni kiritilishi, kechki va sirtki yo'nalishlarni ochilishi, chet el oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikdagi taelim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochilishi, professor o'qituvchilarni oylik maoshlarin oshib borishi, ularni malaka oshirish bo'yicha chet ellarga stajirovkalaga jo'natilishlari, xorijiy mamlakatlarning olimlarini ta'lim jaryonlarimizga jalb qilish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Bugungi keskin raqobatchilik va iqtisodiy globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning tayyorgarlik sifati, ularning salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalar o'tkir muammoga aylanmoqda. Buning ustiga, mamlakatimiz ta'lim tizimida, xususan oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasi xalqaro maydonda e'tirof etildi degan fikr-mulohazalar bilan chegaralanib qolmasdan, uning sifat jihatlarini yanada oshirish yo'lida to'xtab qolmasligimiz, bu boradagi ishlarimizni yanada yangi bosqichga ko'tarishimiz lozimdir. Mazkur masalalar bugungi kunda oliy ma'lumotli kadrlarga nisbatan mehnat bozorida yuzaga kelgan vaziyat, xalqaro globallashuv jarayonlari kuchayishi natijasida innovatsion iqtisodiyotni barpo etish yo'lida bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar natijasida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bu tizimning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Mazkur vazifaning nechog'lik samarali hal etilishi mamlakatimizda amalga oshirib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va

jamiyatimiz hayotini tubdan qayta qurish borasidagi maqsadlarga erishishni ta'minlashga katta ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Chunki, amaliyotdan ma'lumki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning samaradorligi bu borada belgilangan vazifalarni bajarishga safarbar qilinadigan mutaxassislarning kasbiy yetukligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Mustaqil, demokratik O'zbekiston Respublikasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida ustuvor soha deb e'lon qilingan ta'limning takomillashtirilishi, eng avvalo, uning sifat jihatdan yangi holatiga erishishga yo'naltirilgan. Bu ko'plab yo'nalishlar bo'yicha hal etilayotgan favqulodda murakkab, majmuaviy muammodir. Ulardan biri ijtimoiy hayotni boshqarishning o'ziga xos shakli bo'lgan ta'lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish va qayta qurishni o'z ichiga oladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 20 apreldagi PQ-2909 - sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatini oshirish va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-3775-sonli qarori alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz iqtisodiyotini takomillashtirish va jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashtirish uchun mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining ilmiy potentsialidan o'rinli foydalanish zarur. O'z navbatida, bu masala regional miqyoslarda amalga oshiriladigan innovatsion va ilmiy-texnik siyosatni yuritish borasida qilinishi lozim bo'lgan ishlar tizimida oliy o'quv yurtlarining innovatsion potentsiali tutgan o'rnini belgilab beradi. Boshqaruv faoliyatining mohiyati to'g'risida g'oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullari haqida tizim mavjuddir. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi muvaffaqiyatlar toborayotganligidan kelib chiqqan holda, boshqaruv faoliyatining ilmga bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bir tomondan, fan boshqaruv faoliyatini kontseptual boyitishdan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan amaliyotchi boshqaruvchilar o'z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladilar. Iqtisodiy rivojlanishni innovatsion

yoʻnaltirilganligi, texnologik yangilanishning oʻsib borayotgan zaruriyatini innovatsion faoliyatda tashkil qilish tamoyillari va tarkibiy-tashkiliy oʻzaro aloqalarga aniq va mos kelishning mumkinligini taʼkidlaydi. Innovatsiyalarni tashkil qilish oʻz ichiga uchta asosiy jihatlarni oladi:

-innovatsion faoliyatning yangiliklarini ishlab chiqish, tatbiq etish va taʼlim-tarbiya sohasini birgalikda amalga oshiruvchi odamlarning birlashmasi boʻlgan subyektni;


- oliy taʼlim muassasasi innovatsion faoliyatidagi zaruriy vazifalarni bajarishga qaratilgan jarayonlari xarakterlarining majmuasini;

- tizimni ichki tartibga solinganligi va uning elementlari (kafedralar, boʻlimlar) oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni takomillashuvini taʼminlovchi tuzilmalarini. Ushbu nuqtai nazardan innovatsiyalarni tashkil qilish innovatsion faoliyatni tartibga solish jarayoni sifatida, subyekt, firma, institut, innovatsion korxonalar sifatida, boʻlinmalarining tarkibi va oʻrnini belgilab beruvchi, hamda innovatsion faoliyatda amalga oshiriladigan shakllar, usullar, jarayonlar tadbirlarini tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar sifatida tushunish kerak. Shunga koʻra, innovatsion boshqaruv gʻoyatda murakkab jarayondir. Innovatsiyalarni joriy etishda oliy taʼlim muassasasining obroʻsi shakllanishining asosiy omili oʻqitish sifati va taʼlim xizmatlari sifatiga bogʻliq. Isteʼmolchiga (taʼlim oluvchiga) koʻrsatilgan sifatli taʼlim xizmatigina uning ijobiy oʻrnini shakllantiradi. Oliy taʼlim muassasasini samarali boshqarish va ijobiy imijini shakllantirish taʼlim xizmati bozorida raqobatbardosh mavqeni egallash innovatsion yondashuvni talab etmoqda (**9.1-chizma**).

Innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtish miqyosida eng muhim ahamiyatga ega boʻlgan omil faqat texnik gʻoyalarni ishlab chiqish emas, balki ichki va tashqi bozorlarga xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, uni amalga oshirish uchun ilmiy va texnik soha va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yuqori malakali mutaxassislarini ilgʻor taʼlim muassasalarida oʻqitishning lozimligidir. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar rivojlantirilishi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishni ragʻbatlantirish boʻyicha amaliy mexanizmlar, fan va ishlab chiqarishni yanada mustahkam aloqasini taʼminlash, ilmiy

tadqiqot tashkilotlari hamda real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida uzviy hamkorlik aloqalarini o'rnatish, innovatsion g'oyalar va loyihalar ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

O'quv tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarning butunlay yangi usullarini joriy etish



9.1-chizma. Ta'lim tizimini tashkil etishda innovatsion yondashuv

Fikrimizcha, ta'lim va amaliyotning o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlash, kadrlarni amaliyotda ishlashga tayyorlash, ilm-fan yutuqlarini ta'limga keng joriy qilib borish, ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, mustaqil ta'lim OTMda innovatsion ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Shu bilan birga, ta'lim va tarbiyani qo'shib olib borish, yuksak ma'naviy fazilatlarga ega intelligentsiyani tarbiyalash, jamiyatda oliy ma'lumotli mutaxassislarning yuqori nufuzini ta'minlash ham innovatsion ta'limni rivojlantirishdagi maqsadimizdir.³¹

Masalan, TDIUda boshqaruv tizimining rivojlanib borishi, korporativ boshqaruv metodlaridan keng foydalanish, moddiy-texnika

³¹ Б.Ю. Ходиев Таълим тизими сифатини оширишда инновацион фаолиятни самарали бошқариш хусусиятлари. Ўзбекистонда инновацион менежмент стратегияларини амалга ошириш тажрибаси илмий мақола ва тезислар тўплами 2018 йил

bazasini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, masofaviy ta'limni joriy etish, universitetimizning mintaqaviy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlantirilishi, moliyalashtirish manbalarining ko'payib borishi hamda ta'lim sifatini boshqarishga xalqaro standartlar talablarini joriy etish innovatsion faoliyatni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs — fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

9.3. O'zbekistonni innovatsion rivojlantirish va intellektual resurslar

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan mamlakatimizda malakali kadrlarni tayyorlash va malakalarini oshirish tubdan yangicha yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimida ham juda katta yangiliklar qilindi. Jumladan, maktablarni 11 yillik ta'limga o'tkazilishi, moddiy texnik bazasini tubdan yangilanishi, o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirilishi kabi bir qancha ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, 2018 6 iyundagi Prezident Farmoni asosida Oliy ta'lim tizimida ham beqiyos o'zgarishlar yuz berdi. Ya'ni juda ko'plab universitet va institutlarni yangidan tashkil qilinishi, yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklarni, yangi fanlarni kiritilishi, kechki va sirtki yo'nalishlarni ochilishi, chet el oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikdagi taelim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochilishi, professor o'qituvchilarni oylik maoshlarin oshib borishi, ularni malaka oshirish bo'yicha chet ellarga stajirovkalarga jo'natilishlari, xorijiy mamlakatlarning olimlarini ta'lim jaryonlarimizga jalb qilish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu albatta innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivoshlantirishda yaqin kelajakda o'z natijalarini beradi. O'zbekiston Respublikasini 2017-

2021 yillarda yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasida fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishning innovatsion modeliga oʻtish va buning uchun zamonaviy taʼlim sifatini, shuningdek, texnologik va axborot tizimida tub oʻzgarishlarni amalga oshirish yoʻllari belgilangan. Ushbu qoʻyilgan maqsadlarga erishishni taʼminlash uchun Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va shu yoʻnalishda boshqa bir qator tuzilmalar tashkil etish yuzasidan maxsus qarorlar qabul qilindi. Qarorlarda Oʻzbekistonning innovatsion rivojlanishi asosiy yoʻnalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini ustuvor rivojlantirishning innovatsion modelini shakllantirish imkonini beruvchi strategik rejalashtirish tizimini yaratish;

- davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirishni taʼminlashning innovatsion shakllarini joriy qilish;

- fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;


- innovatsion gʻoya va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga investitsiyalarni keng jalb etish;

- ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish, eng avvalo, yosh avlodning gʻoya va ishlanmalarini qoʻllab-quvvatlash.

Shu bilan bir qatorda strategiya yoʻnalishlarida taʼlim tizimini takomillashtirish, sogʻliqni saqlash, AKTni rivojlantirish, sanoat va agrar sohada yangi innovatsion texnologiyalarni yaratish va joriy etish koʻzda tutilgan. Oʻzbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtishning eng birinchi masalasi mamlakatda munosib innovatsion muhitni yaratish, u bunday muhitda fan va texnika yutuqlari unib-oʻsish imkoni yaratilishi lozim hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda ragʻbatlantiruvchi innovatsion muhitni shakllantirish boʻyicha tashkiliy institutlar hamda huquqiy-institutsional meʼyorlar yaratildi. Oʻzbekiston Respublikasining “Fan toʻgʻrisida”gi qonun loyihasining ishlab chiqilishi bu sohada muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda taʼkidlash lozimki, munosib innovatsion muhitga koʻplab omillar taʼsir koʻrsatadi. Ular qatoriga tadqiqotchilarning nazariy bilimlari, iqtisodiy erkinligi, byurokratik toʻsiqlar yoʻqligi, raqobatbardoshlik, venchur kapitalining mavjudligi, shartno-

ma shartlarini bajarish mexanizmi va hokazolarni kiritish mumkin. O‘zbekistonda ilmiy-innovatsion tadqiqotlar davlatning Fundamental; Amaliy tadqiqotlar; Innovatsion hamda Yosh olimlar tadqiqotlari dasturlariga kirgan ilmiy loyihalar va xo‘jalik shartnomalari asosida olib boriladi.

Hozirgi kunda ushbu davlat dasturlari bo‘yicha ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni bajarish bo‘yicha ilmiy tadqiqot institutlari, universitet, yirik korxonalar va tashkilotlar qoshidagi ilmiy markazlarning keng tarmog‘i faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular fundamental izlanishlarni bajarish hamda amaliy ishlanmalarni yaratish ishlarini bajarishga javobgar hisoblanadi va ilmiy hisobot, ixtiro, ilmiy maqola shaklidagi intellektual mahsulotlar ishlab chiqaradi, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanadi (1-rasm).³²



9.1-rasm. Ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni amalga oshiruvchi tuzilmalar

Innovatsion tadqiqotlarni bajarish, tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini yaratish bo‘yicha O‘zbekiston FA hamda vazirlik va idoralar

³² Б.Б. Беркинов Ўзбекистонни инновацион ривожлантириш омиллари ва интеллектуал ресурслари. Ўзбекистонда инновацион менежмент стратегияларини амалга ошириш тажрибаси илмий мақола ва тезислар тўплами 2019 йил

qoshidagi 440 taga yaqin ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti O‘zbekistonda innovatsiyalarning intellektual resurslar bazasini tashkil etadi. Mamlakatimizda faqat 2017 yilda ITTKIga 440,3 mlrd. so‘m mablag‘ sarflangan. Bu 2010 yilga nisbatan 3,6 martaga ko‘pdir. O‘zbekistonda innovatsion intellektual mahsulot yaratish bilan qariyb 37 ming kishi band, ulardan 32 mingtasi tadqiqotchilar hisoblanadi (1-jadval). Tadqiqotchilarning ilmiy salohiyati hozirgi kunda qariyb 40 foizga teng keladi. Bu ko‘rsatkich o‘shib borish tendentsiyasiga ega bo‘lib, u davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda hukumat qarorlarida ko‘zda tutilganidek, ilmiy kadrlarni tayyorlash, puxta bilimga ega bo‘lgan yetuk yoshlarni tarbiyalashda oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda vazirlik va idoralar, yirik korxonalar ish yuritishlari Vazirlik va idoralar qoshidagi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlar talab etiladi. O‘zaro hamkorlikning ushbu talablar asosida tashkil etish tizimi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan (1-jadval).

9.1-jadval

O‘zbekistonda innovatsiyalarning intellektual resurslar bazasi

Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2017
Oliy ta’lim muassasalari soni	65	68	70
Ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari	301	306	437
Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti	67	120	128
Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida o‘qiydiganlar soni	217	217	1370
ITTKIga qilingan xarajatlar, mlrd. so‘m	121,8	286,5	440,3
ITTKI ishlari bilan bandlar	35550	35836	36984
Sh.j. Tadqiqotchilar Ulardan:	30043	30785	31966
Fan doktorlari	2526	2055	2242
Fan nomzodlari	9218	8737	8200

Manba: O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi vaqtda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy-innovatsion – korporativ hamkorlik asosida ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish va ularning natijalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha amaliy tajribalar to‘plangan. Ushbu sohada hamkorlikni amalda ijrosini ta‘minlash uchun universitet 70 dan ortiq vazirlik, idoralar, ishlab chiqarish birlashmalari, assotsiatsiyalar, kompaniyalar, yirik korxonalar bilan innovatsion-korporativ hamkorlik bo‘yicha shartnomalar imzolangan. O‘zaro innovatsion hamkorlik shartnomasida ko‘zda tutilgan ustuvor yangi g‘oya negizida ilmiy-innovatsion intellektual mahsulot yaratiladi va hamkorlik harakatlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

[Universitet] - [korxonalar, kompaniyalar, vazirliklar] - [innovatsion guruhlar (talabalar, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar)] - [ilmiy-innovatsion natijalar]. Ilmiy-innovatsion natijalar birgalikda amaliyotga joriy etiladi. Shu tariqa fan – o‘quv jarayoni – ishlab chiqarishning o‘zaro bog‘liqligi ta‘minlanadi. Ushbu hamkorlikning samarasi talaba yoshlarning amaliyotda mavjud bo‘lgan muammolar va dolzarb masalalarni yechish uchun ilmiy tadqiqot ishlariga kengroq jalb qilish, shuningdek, ularning amaliyot ko‘nikmalarini oshirish, ilmiy maktablar yaratilishini ta‘minlash, fan va ta‘limning iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasining oshib borishi bilan baholanadi. Shunday qilib, yuqoridagi tahlil hamda fikr-mulohazalar O‘zbekistonda samarali va qulay innovatsion muhit yaratilishi lozimligiga e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Yangi g‘oyalar, ixtirolar, fundamental bilimlar va ishlanmalar faqat yaxshi muhitga tushsa, hayotda foydalaniladi. Buning uchun quyidagilar juda muhim hisoblanadi: iqtisodiy erkinlik va rag‘bat; byurokratik to‘siqlarning bo‘lmasligi; raqobat; yetarli kapitalga hamda shartnomalar ijrosini ta‘minlashning samarali mexanizmiga va boshqa vositalarga ega bo‘lish.

9.4.Malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi

Bugungi kunda Prezident Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida mamlakatimizda malakali kadrlarni tayyorlash va malakalarini oshirish tubdan yangicha yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Avvalom bor bu ishlarni bolalar bog‘chasidan boshlash zarurligini hisobga olib, Maktabgacha tarbiya vazirligi tashkil qilindi. Keyin Xalq

ta'limi tizimida ham juda katta yangiliklar qilindi. Jumladan, maktablarni 11 yillik ta'limga o'tkazilishi, moddiy texnik bazasini tubdan yangilanishi, o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirilishi kabi bir qancha yengilliklar qilindi.

Shuningdek, Oliy ta'lim tizimida ham beqiyos o'zgarishlar yuz berdi. Ya'ni juda ko'plab universitet va institutlarni yangidan tashkil qilinishi, yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklarni, yangi fanlarni kiritilishi, kechki va sirtki yo'nalishlarni ochilishi, chet el oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikdagi taelim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochilishi, professor o'qituvchilarni oylik maoshlarin oshib borishi, ularni malaka oshirish bo'yicha chet ellarga stajirovkalaga jo'natilishlari, xorijiy mamlakatlarning olimlarini ta'lim jaryonlarimizga jalb qilish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu albatta innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivoshlantirishda yaqin kelajakda o'z natijalarini beradi.

Innovatsion iqtisodiyot bu - bilimlar va innovatsiyalarga asoslangan jamiyat iqtisodiyotidir. Mazkur iqtisodiyotda yangi g'oyalar, nanotexnologiyalar, yangi tizim va texnologiyalarni ochiq qabul qilish, ularni xilma-xil faoliyat sohaslarida amalga oshirishga fan-texnika taraqqiyoti sur'atining uzluksiz o'sib borishi, dinamiklik hisoblanishi tufayli malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshirish uchun o'ziga xos ta'lim tizimi amal qilishi lozim bo'ladi..

Bunday ta'lim tizimi bitiruvchilari ishlab chiqarish va hududlarni qayta tiklash va rivojlantirish kompleksli loyihalarini samarali amalga oshirish, logistika, innovatsion faoliyat sohasida ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Ba'zan ta'lim jarayonining amaliy qismi innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash jihatidan ko'rib chiqiladi. Jarayonning ushbu tomoni ta'lim oluvchilarning nazariy mashg'ulotlar davomida olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda mustahkamlashi uchun ko'zda tutilgan

Bilimlar iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lmagan past texnologiyali ixtisosliklar bo'yicha o'qitishda amaliy qism ko'p hollarda amaldagi ishlab chiqarishda biron-bir loyihalarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Agar innovatsion loyihalarni boshqarish bilan bog'liq yuqori texnologiyali ixtisosliklar bo'yicha o'qitish bilan o'xshashlik o'tkazadigan

bo'lsak, o'qitishning amaliy qismi innovatsion loyihalarni amalga oshirishga bog'lab qo'yilishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga innovatsion iqtisodiyot doirasida kadrlar tayyorlash tizimiga xos bo'lgan jihatlar xarakterlidir. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislar tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy qatnashchilari o'quv muassasasi va talabalar hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarining mintaqaviy va mahalliy ijroiya hokimiyati bilan innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorligini muhokama qilish 2000-yillarning boshidan boshlangan edi. Bunday model doirasidagi vazifalar qatoriga quyidagilar kiradi: OO'Yuga talab yuqori bo'lgan ixtisosliklar doirasida mutaxassislar tayyorlash uchun buyurtmalar shakllantirish va mehnat bozorida mos keluvchi ixtisosliklar bitiruvchilariga talabni ta'minlash uchun ish beruvchilarni, birinchi navbatda kichik biznes va tadbirkorlikni yuqori texnologiya yo'nalishlarida faoliyat yuritishga rag'batlantirish.

9.5. Kadrlarni ishga tayinlash va baholashda innovatsion texnologiyalar

Innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning barcha sohalariga keng tatbiq qilinayotgan hozirgi sharoitda har bir rahbar – ish beruvchi yuqori malakali kadrlar bilan ishlashni ko'proq xohlaydi. Yuqori malakali kadrlar belgilangan vazifalarni tez va sifatli hal qilishning kafolati hisoblanadi. Hozirgi o'ta globalashgan zamonda kadrlarning noto'g'ri tanlanishi korxonalar (firmalar) uchun ko'p yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Korxonalar (firma) rahbari yoki bevosita kadrlar (personal) bilan ishlovchi mutaxassisning kadrlarni tanlashda e'tiborga olishi muhim bo'lgan jihat – insonning avval nima qilganini emas, balki endi nima qila olishi mumkinligini bila olishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mam-lakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, "... lavozimlarga samarali ishni ta'minlaydigan, munosib kadrlarni tanlash bo'yicha oldimizda muhim vazifa turibdi"[1]. Shu ma'noda, kadrlarni tanlash va

ishga qabul qilish, boshqarish va salohiyatidan unumli foydalanish jarayonida jahonning turli kompaniyalarida qo‘llab kelinayotgan texnologiyalarni tadqiq etib, ulardan milliy iqtisodiyotimizda foydalanish yo‘nalishlarini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Tadqiq qilingan mavzu yuzasidan o‘zbek tilidagi adabiyotlarda yetarlicha ma’lumotlar uchramaydi. Rekruting, skrining kabi xizmatlar nodavlat (xususiy) agentliklar tomonidan amalga oshirilishini inobatga olsak, tadqiqot ishlarida keng ma’lumotlar uchramasligi tabiiy. Milliy mehnat bozorimizda davlat siyosatining ustuvorligi va aholini ish bilan band qilish chora-tadbirlarining asosan davlat tomonidan ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini asosiy sabab sifatida baholash mumkin. Shunday bo‘lsa-da, ba’zi manbalarda umumiy ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, “Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmada “mehnat bozori infratuzilmasida ish bilan bandlik xizmatining nodavlat tuzilmalariga xodimlarni tanlash bo‘yicha agentliklar (rekrut agentliklari), tijorat mehnat birjalari, internet tarmog‘idagi birjalar kiradi”[6] deyilgan. Akademik Q.X. Abdurahmonovning “Personalni boshqarish” darsligida personalni tanlash bo‘yicha fikr yuritilgan, lekin tanlash usullari, uni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yoritilmagan. “Mehnat bozorida ishchi kuchiga, ayniqsa malakali ishchi kuchiga talab taklifdan yuqori bo‘lsa, ishga yollashning faol usullari qo‘llaniladi.³³ Bu holda tashkilot ishchi kuchi vazifasini o‘tashi mumkinlarni hamkorlik qilishga qiziqtirish maqsadida ular bilan aloqa o‘rnatadilar. Odatda, bu asosan ta’lim muassasalari, bandlikka ko‘maklashish markazi va bandlik xizmatlari bilan hamkorlikda ish olib borishni taqozo etadi”[5].

Kadrlarni tanlash va bu jarayonda qo‘llanuvchi metodlar xorij adabiyotlarida, jumladan rossiyalik mutaxassislar S.A. Kartashov, Yu.G. Odegov va I.A. Kokorevlar hammuallifligidagi “Rekruting: naym personala” o‘quv qo‘llanmasi va bir qator tadqiqotlarida keng yoritilib, jumladan, “...jahon mamlakatlari tajribasida asosan keng tarqalgan nodavlat bandlik tashkilotining shakli rekrut agentliklar bo‘lib, ularning asosiy vazifasi buyurtmachi tashkilotga mutaxassislarni buyurtma asosida topish va eng maqbul nomzodni tanlab

³³ Қ.Х.Абдурахмонов ва бошқалар. Персонални бошқариш. Дарслик. Тошкент, 2011, 93-б. (электрон дарслик)

berishdan iboratdir. Rekruting agentliklar ko‘magida personalni qidirish va tanlash jarayonini bir-biri bilan ham ichki, ham tashqi tomondan chambarchas bog‘langan elementlar tizimi sifatida baholash lozim. Lekin ushbu tizim davlat ish bilan bandlik xizmati strukturasidagi kabi statik xarakterni o‘zida namoyon qilmasligi, bandlikka ko‘maklashish jarayonida egiluvchan usullarni qo‘llashi bilan o‘ziga xosligiga ega” ekanligi ta’kidlangan.³⁴ Bundan tashqari, T.V. Baskina muallifligidagi “Texniki uspehnogo rekrutmenta” qo‘llanmasida nodavlat agentliklar personalni tanlash va ishga yollashda asosiy qidiruv vositalari sifatida o‘z ma’lumotlar bazasi, Internet resurslari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qidiruv, tavsiyalar bo‘yicha qidiruv, eng yaxshi talabalar va bitiruvchilarni jalb qilish uchun oliy ta’lim muassasalari bilan ishlash kabi texnologiyalardan faol foydalanishi va ularning afzalliklari ochib berilgan[4].

Biz tadqiqot davomida ko‘rib chiqadigan masalalar O‘zbekiston mehnat bozorida nisbatan yangi tushuncha ekanligini, ular asosan xorijiy mamlakatlar amaliyotida keng qo‘llanilishi va mutaxassislarimiz tadqiqotlarida bu masalalar chuqur o‘rganilmaganligini qayd etib o‘tish lozim. Shundan kelib chiqib, ushbu materialni tayyorlashda umummetodologik usullardan, jumladan, kuzatish, umumlashtirish va tizimli yondashuv kabilardan foydalanildi.

Quyida jahon korxonalarida amaliyotida kadrlarni ishga tanlab olishda keng qo‘llanayotgan metodlardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz.

1. Intervyu. Ishga tanlash va qabul qilish jarayonida nomzod bilan suhbat tashkil etish yangilik emas. Lekin mutaxassislar tomonidan bugungi kunda intervyu turlarga ajratilmoqda.

1.1.Intellektual intervyu – ishga qabul qilish jarayonida o‘tkaziladigan suhbatning yangi standarti. Boshqotirma, jumboq va muammoli savollardan ushbu intervyuda ko‘p foydalaniladi. Mutaxassislar fikricha, bunday yondashuv asosida yuqori darajadagi motivatsiyali, innovator, aniq va mantiqiy fikrlaydigan, shuningdek, loyihani qisqa muddat ichida tugatish talab etilsa, sutkada “25 soat” ishlashga qodir bo‘lgan xodimlarni tanlab olish mumkin. Intellektual intervyuda nomzodga beriladigan savollar nostandart hisoblanib, ularni kadroviklar (xodimlar bilan ishlovchi mutaxassislar) “mumkin

³⁴ Рекрутинг: найм персонала. Учебное пособие / под ред. Ю.Г. Одегова. – М.: Издательство «Экзамен», 2002, С.5, С. 9

bo‘lmagan savollar” deb ham hisoblaydilar. Ularga javobni hech kim bilmaydi, lekin buning ahamiyati yo‘q. Asosiy maqsad – nomzodning intellektual salohiyati, o‘ziga xos va ijodiy fikrlashi, shuningdek “megaraqobat” muhitida bardoshlilikini baholashdan iboratdir. “Mumkin bo‘lmagan savollar” jarayonning bir qismi bo‘lib, ish beruvchi va potentsial xodimning ilk tanishuvi bir tomonlama hujumga asoslangandek tasavvur hosil qiladi. Aslini olganda ham shunday. Nomzodlardan intervyu paytida o‘zini ko‘rsatishi, o‘z dunyoqarashi va fikrini himoya qilishi talab etiladi. Ular muvaffaqiyatga erishish uchun qiyin sharoit va stressli vaziyat bo‘lishiga qaramay, berilgan savollarga aql bilan javob berishi va qo‘yilgan jumboqni hal qilish yo‘llarini taklif etishi kerak[3].

1.2. Stressli intervyu. U “shok intervyu” deb ham ataladi. Bu yondashuvdan maqsad – nomzodning stressga chidamliligini aniqlashdan iborat. Ushbu texnologiyadan ommaviy foydalanish tavsiya qilinmaydi. Faqatgina ba’zi bir kasb egalarini, masalan, kassirlar, banklardagi operatsionistlar, o‘t o‘chiruvchilar, ichki ishlar xodimlari, o‘qituvchilar, xodimlar bilan ishlovchi mutaxassislar kabilarni ishga qabul qilish jarayonida qo‘llash mumkinligi mutaxassislar tomonidan ma’qullangan. Bu jarayonda nomzodning stressbardoshligini aniqlash-tirish uchun vaziyatlar ataylab yaratiladi va uning holati mutaxassislar tomonidan kuzatiladi. Stressli intervyularning standart ketma-ketligi (stsensariysi) quyidagicha bo‘lishi mumkin: - nomzodni kuttirish, ish beruvchining vakili intervyu joyiga kelishilgan vaqtdan yarim soat, hatto undan ham ko‘p kechikib keladi; - e’tiborsizlik, nomzodning unvoni, darajasi va ma’lumotiga e’tiborsiz muomala qiladi, masalan: “A” universitetidan kelgan bo‘lsangiz nima bo‘pti, bizning farroshimiz ham o‘sha yerdan kelgan”; - o‘zini nomzodning rezyumesini yo‘qotib qo‘yganday tutish; - intervyu jarayonida noqulay muhit yaratish, masalan, judayam baland yoki past stul, yorug‘likning ko‘zga haddan ortiq tik tushib turishi;

- qo‘pol ko‘rinishdagi savollarni so‘rash, masalan: “Nima uchun shu paytgacha uylanmagansiz (turmushga chiqmagansiz)? Ayollardan (erkaklardan) qo‘rqasizmi?”;

- ish beruvchining vakili tomonidan kutilmagan harakatlar sodir etilishi, masalan, ruchkani lunjiga qistirib olish yoki uni nomzodga uloqtirish.

Qanchalik gʻalati tuyulsa-da, bunday suhbatdan keyin kimdir ushbu korxonada (firmada) ishlashga rozilik beradi. Suhbatni oʻtkazgan mutaxassislar nomzodga oldindan uyushtirilgan “qiynoqlar”ning sababini tushuntirib, uning muvaffaqiyatini eʼtirof etishlari zarur.

1.3. Brainteaser-intervyu (“miyani qiynaydigan” suhbat). Ushbu metoddan gʻarb kompaniyalarining Rossiyadagi ish beruvchi vakillari juda unumli foydalanishadi. Uning mohiyati nomzodning qoʻyilgan aniq mantiqiy muammoni hal etishi bilan izohlanadi. Bunday nostandart metodning maqsadi – nomzodning ijodiy qobiliyati va tahliliy fikrlashini tekshirib koʻrish hisoblanadi. Intervyuning bu usuli maqsadli auditoriyalarga (guruhlarga) moʻljallangan boʻlib, aksariyat hollarda veb-dasturchilar, reklama menejerlari, auditorlar, maslahatchi konsultantlarni ishga olishda qoʻllanadi.

Brainteaser-intervyu topshiriqlari quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

1) Kuchli mantiqqa asoslanmagan, aniq javob berish talab qilinadigan savollar.

2) Aniq javob berib boʻlmaydigan savollar (masalan, dunyoda nechta sartarosh bor). Bunday turdagi savolga javob berishda nomzodning mantiqiy fikrlashi va ijodkorligi baholanadi. Sartarosh haqidagi savolga nomzodning yondashuvi quyidagicha boshlanishi lozim: dunyoda 7,6 milliarddan ziyod odam bor, ulardan 2/3 qismi har oyda sartarosh xizmatidan foydalanadi deylik, 1 sartarosh bir oyda 100 odamga xizmat koʻrsatadi, u holda butun Yer yuzidagi sartaroshlar soni... 3) Original fikr va yondashuvni talab qiluvchi topshiriqlar (masalan, menga mana bu ruchkani sotib bering)[4].

2. Headhunting (hedhanting) va executive search. Zamonaviy amaliyotda kadrlarni toʻgʻridan-toʻgʻri qidirishning ikkita asosiy yoʻnalishidan keng foydalanilmoqda. Ular headhunting va executive search. Headhunting – muayyan mutaxassisni bir kompaniyadan boshqa kompaniyaga oʻtkazish imkoniyatlari boʻyicha vazifalar ketma-ketligidan iborat faoliyat. Personalni tanlashning bu texnologiyasi mutaxassisni donor-kompaniyadan buyurtmachi kompaniyaga ishga oʻtkazishga asoslangan. Mutaxassislar toifasi buyurtmachi kompaniya – mijoz tomonidan aniqlashtirilishi talab etiladi. Ushbu xizmat asosan yetakchi (boshqaruv) boʻgʻin personalini tanlash va yollashni amalga oshiradi. Executive search – muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan top-menejerlar va noyob mutaxassislarni qidirish va ishga yollash xizmati.

Mazkur texnologiya mehnat bozorining faol ish qidirmaydigan segmentidagi yuqori malakali kadrlarni aniqlashning o'ziga xos usullarini o'z ichiga oladi. Ushbu xizmatning "o'ljalari" ayni vaqtda o'z ishiga ega, boshqa ish qidirishni o'ylab ko'rmagan, lekin yaxshiroq ish sharoiti va yuqori maosh taklif qilinsa, boshqa ishga o'tishi mumkin bo'lgan yuqori pog'ona menejerlari (ijrochi direktorlar), direktorlar kengashining mustaqil a'zolari, startaplar menejerlari, yetakchi mutaxassislardan iborat.

Hedhanting paydo bo'lishiga sabab zamonaviy biznes dunyosida malakali boshqaruv bo'g'ini rahbarlari taqchilligi yuzaga kelishidir. Rossiyalik mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugungi kunda G'arb mamlakatlarida bo'lgani kabi, Rossiya kompaniyalarida ham yuqori malakaga ega top-menejerlar, startaperlar, ishlab chiqarish rahbarlari, bosh texnologlar, IT va moliyaviy soha bo'yicha direktorlar, bosh buxgalterlar yetishmovchiligi mavjud. Kompaniyalarning o'zida bunday mutaxassislarni tayyorlashga uzoq muddat talab qilinadi. Lekin bugungi globallashuv jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun ularni tashqaridan (boshqa kompaniyalardan) topish hamda ularga qulay va mos shartlar asosida kompaniyada ishlash taklifini berish lozim. Bu vazifani hedhanterlar ("bosh ovlovchilar") o'ziga xos metod, qoida va yozilmagan "qonun"lari asosida amalga oshiradi. Hedhanting xizmatida hech kim tasodifiy faoliyat yuritmaydi. Ularning barchasi o'ta tajribali mutaxassislar (g'arb hedhanterlarining o'rtacha yoshi 40 – 45, Rossiyada esa 35 – 40 yosh) bo'lib, turli manbalardan kerakli axborotlarni chiqarib olish (yig'ish), har bir soha va butun mehnat bozori konyunkturasini tahlil qila bilish qobiliyatiga ega. Bundan tashqari, ular kuchli psixolog, tez kirishuvchanlik va diplomatik fazilatlariga yuqori darajada namoyon bo'luvchi shaxslardir. Hedhanterlar xizmati juda yuqori baholanadi. Ularning gonorari topib berilishi talab qilingan xodim yillik ish haqi miqdorining 25-30 % ini tashkil qiladi. Bu ham buyurtmachi firma (ish beruvchi), ham hedhanting agentligi uchun "ogohlantirib turuvchi signal" vazifasini bajaradi, ya'ni ish beruvchi qilayotgan xarajati evaziga, haqiqatda ishonchini oqlaydigan mutaxassisga ega bo'lishga, hedhanter esa ko'proq daromad olish uchun talablarga javob bera oladigan kadrlarni butun bozordan "chertib-chertib" tanlab olishga bor e'tiborini qaratadi. Hedhanting agentliklari "arzon" mutaxassislarni qidirishni istamaydilar. Nomzod qidirish ko'p

vaqt sarf qilinadigan jarayon sanaladi. Shu sababli ular kamida 7-10 yillik amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlarni taklif qilingan ish haqi miqdori yiliga 60000 AQSh dollaridan kam bo'lmagan pozitsiyalar uchun qidirishni amalga oshiradi. Bu xizmatdan foydalanuvchi kompaniyalar agarda tanlab olinuvchi mutaxassis keltiradigan daromadga ishonmasa, xizmat uchun pul to'lashmaydi.

Bozordagi o'rni va obro'sini, mijozlarining ishonchini qadrlovchi hedhanting agentliklari quyidagi qoidalarga har doim amal qiladi:

- ishni o'z muddatida bajarish;
- rejalashtirilgan budjetga muvofiq pul mablag'larini sarflash;
- nomzod haqida obyektiv ma'lumotlar berish;
- mijoz tomonidan shartlar o'zgartiriladigan taqdirda (shartnomadan tashqari) unga xizmat ko'rsatishni to'xtatish;
- agarda nomzod ish beruvchida olti oy davomida ishdan ketadigan bo'lsa, uning o'rniga boshqa nomzodni qo'shimcha to'lovlarsiz kafolatlash;
- bir vaqtning o'zida nomzodni faqat bitta mijozga taqdim etish;
- vakantsiyani to'ldirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning barcha bosqichlari haqida mijozni doimiy xabardor qilib turish. Ish beruvchi kompaniya quyidagi sabablar tufayli o'zi hedhanting faoliyatini olib bora olmaydi:

1) Kompaniyaning HR-mutaxassislari kadrlarni to'g'ridan-to'g'ri qidirish texnikasini bilishmaydi.

2) Ko'p holatda tanlov imkoniyati kamligi sababli raqobatchi kompaniyadagi mutaxassislarga murojaat qilinadi. Muvaffaqiyatli ish olib borayotgan xodim o'z kompaniyasiga sadoqatli bo'ladi va "begona" kishining qo'ng'irog'iga rad javobini beradi.

3) Tashqaridan (raqobatchi kompaniyalar tomonidan) nomzod provokatsiyaga uchrashi xavfi mavjud. Ular nomzod haqida uning aslida ishga olinmasligi, olinsa ham kam maosh to'lanishi yoki va'da qilinganidan past lavozimga olinishi haqida gap tarqatishadi. Bu holat nomzodning fikri o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

4) Potensial nomzodlar bilan muzokara olib borish bo'yicha aniq tayyorgarlik va dasturning yo'qligi tufayli ulardan rad javobi olinishi va kutilgan natijaga erishilmasligi mumkin[5].

3. Rekruting. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi frantsuzcha "recruit" – tanlash demakdir. Yollash, tarkibni to'ldirish, pul evaziga xizmatga

chaqirish (yollash) kabi ma'nolarni ham anglatadi. Hozirgi kunda bu atama tor ma'noda, ma'lum haq evaziga malakali kadrlarni qidirish va tanlash jarayoniga nisbatan foydalanilmoqda. Uning ishga joylashtirish agentliklaridan farqi shundaki, ishga joylashtirish agentligi xizmat uchun ish qidirayotgan shaxsdan to'lov olsa, rekruting agentligi buyurtmachi kompaniya bilan shartnoma imzolaydi va shunga asosan ulardan gonorar oladi. Rekruting bilan shug'ullanadigan konsultantlarning faoliyati yuborilgan rezyumelar orasidan talabga javob beradigan nomzodlarni saralab ish beruvchiga 3- 5 kishilik qisqa ro'yxat (short-list) taqdim qilish hamda intervyuni tashkil qilishdan iborat. Odatda, bugungi kunda rekruting xizmatining narxi talab qilinayotgan mutaxassis yillik ish haqi miqdorining 15 – 25 % ini tashkil etadi[6].

4. Skrining, inglizcha "screen" – "elakdan o'tkazmoq" ma'nosini anglatib, juda ko'p miqdordagi rezyumelar orasidan nomzodlarni jinsi, yoshi, ma'lumoti, ish tajribasi kabi atributlar bo'yicha saralash jarayonini ifodalaydi. Ushbu usul ko'p hollarda savdo xodimlari, kotib(a)lar, ofis xodimlari, ombor xodimlari singari lavozimlarni to'ldirish uchun nomzodlar qidirilganda qo'l keladi. Bunda ommaviy axborot vositalarida e'lon berilishi kifoya. Natijada ko'p miqdorda rezyumelar to'planadi. Mutaxassisning vazifasi barcha rezyumelarni "elakdan o'tkazib", ma'qul bo'lgan bir nechtasini ish beruvchiga taqdim etishdan iborat. Kerakli nomzodni ish beruvchining o'zi tanlab oladi. Skrining xizmatining rekruting faoliyatidan farqi ham shu bilan bog'liq, ya'ni agentlik nomzodlarni batafsil o'rganib baholamaydi, oldin ishlagan joyidan berilgan tavsiyalarni tekshirmaydi, ularning professional jihatlarini kafolatlamaydi. Skrining xizmatidan kimlar foydalanadi?

- HR-menejeri mavjud bo'lmagan kompaniyalar;
- xodimlar bilan ishlovchi mutaxassisi kadrlarni boshlang'ich tanlov uchun vaqt yo'qotishini xohlamaydigan kompaniyalar;
- kadrlarni boshlang'ich tanlash juda muhim, lekin muddati qisqa bo'lgan kompaniyalar.

O'rganishlarimiz natijasiga ko'ra, kompaniyalar quyidagi sabablar tufayli kadrlarni tanlab berish xizmatini ko'rsatuvchi firmaga (agentlikka, kompaniyaga) murojaat qilishadi:

- ular "bosh ovlovchilar"ning (hedhanterlarning) ko'p yillik tajriba va salohiyatiga ishonishadi;

- ularning mehnat bozori borasidagi amaliy ekspert bilimlariga tayanishadi;

- bu xizmatdan foydalanish natijasida vaqt va boshqa resurslarni tejashga erishadilar va yuqori malakali kadrlarga ega bo'lishadi.

Personalni tanlash xizmatining buyurtmachi kompaniyalar bilan ishlash mexanizmi ushbu bosqichlardan iborat:

1) Kompaniyaga (ish beruvchiga) mehnat bozori holati va nomzodlarga bozor tomonidan berilayotgan baho (ish haqi) to'g'risida ma'lumot berish.

2) Ma'lumotlar bazasi, internet, reklama vositalari, sohalararo aloqalar tarmog'i kabi qidiruv resurslaridan samarali foydalanish.

3) Nomzodlarning rezyume va boshqa hujjatlari tahlilini amalga oshirish.

4) Nomzod bilan telefon orqali yoki yuzma-yuz suhbat o'tkazib, uning mas'uliyatligini baholash.

5) Psixologik tekshiruvdan o'tkazish (psixologik testlash).

6) Tavsiyanomalarni tekshirish va nomzodga xulosa tayyorlash.

7) Eng yaxshi nomzodlarni buyurtmachilarga taqdim etish, uchrashuv va suhbatni (intervyuni) tashkillashtirishga yordam berish.

8) Qilingan ishlarning doimiy monitoringini olib borish. Xulosa va takliflar Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida innovatsiyalarni keng joriy etish va rivojlantirish bilan bog'ladi. Shundan kelib chiqib, "ilg'or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta'minlash" [2] bugun jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifa sanaladi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarida bevosita kadrlar bilan ishlash, kadrlar xizmatida ish yuritish ixtisosligi bo'yicha aniq yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish zarur. Hozirgi kunda O'zbekistondagi to'rtta oliy ta'lim muassasasida: O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand davlat universiteti va Termiz davlat universitetlarida "Kadrlar menejmenti" yo'nalishida bakalavr kadrlar va faqatgina Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida magistrilar tayyorlanmoqda. Lekin kuzatishlarimiz natijalariga ko'ra, ko'pchilik ish beruvchilar mazkur mutaxassislarning tayyorlanayotganidan bexabar va shu kunga

qadar universitetlarni bitirgan kadrlarning aksariyati umuman boshqa sohalarda faoliyat yuritib kelishmoqda. Bundan ko‘rinadiki, oliy ta‘lim va real sektor integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, bu borada olib borilayotgan odatdagi ishlardan voz kechib, innovatsiyalarni keng joriy etish lozim. Shuningdek, kadrlar bilan bevosita ishlovchi mutaxassislarni tayyorlashda amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e‘tibor qaratilishi, o‘quv jarayoniga ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish korxonalaridan mutaxassislarni jalb qilish kerak. Bundan tashqari, ta‘lim muassasalarida rekruting, skrining faoliyati va ularning ishlash mexanizmlari bo‘yicha yetarlicha ma‘lumot bera oluvchi o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratishni kechiktirmaslik zarur. Insonlar bilan ishlash, ularni boshqarish orqali iqtisodiyotga ta‘sir etish, korxonalarni rivojlantirish yoki inqirozga olib kelish mumkin. Bunda har bir korxonaning kadrlar siyosati, ular bilan ishlash mexanizmining qanchalik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rganishlarimiz natijasida xulosa qilishimiz mumkinki, kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonida xorijiy tajribalarni qo‘llash mamlakatimiz korxonalarini hayotiga, milliy mehnat bozoriga, umuman mamlakatimiz iqtisodiyotiga ijobiy samara keltiradi.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Kadrlarni boshqarish deganda nimani tushunasiz ?
2. Logistikada kadrlarni boshqarish tizimini tashkil etishning qanday yo‘nalishlari mavjud ?
3. O‘zbekiston Respublikasi kadrlar siyosati qanday shaklga ega ?
4. Kadrlarni samarali boshqarish turlariga misol keltiring ?
5. Kadrlarni qayta tayyorlash deganda nima tushiniladi ?
6. Kadrlarni qayta tayyorlashdan ko‘zlangan maqsad nima ?
7. Kadrlarni personal boshqarish deganda nimani tushunasiz ?
8. O‘zbekistonda kadrlarni strategik boshqarishning qanday shakli mavjud ?
9. Innovatsion logistika faoliyatida kadrlarni strategik boshqarishning qanday muhim jihatlarini bilasiz ?
10. Innovatsion logistikani tashkil etish va boshqarishda hodimlar menejmenti samaradorligi nimada ?

10-mavzu. Logistik xizmatlarni innovatsion boshqarish

LOGISTIK INNOVATSION STRATEGIYALAR VA INNOVATSIYALAR MARKETINGI

10.1. O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy innovatsion marketing strategiyalari

10.2. Innovatsion marketingni shakllantirishning kontseptual asoslari

10.3. Ilmiy tadqiqot, ishlanma va texnologiyalarni natijalarini tijoratlashuvi

10.4. Yangi texnologiyalarni bozorga kirish strategiyasi

10.1. O‘zbekiston Respublikasida innovatsion marketing strategiyalari

O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilgan Respublika “Innovatsion g‘oyalar, ishlamalar va texnologiyalar”, “Logistika va transport”, “InnoWeek”, “Sanoat yarmarkasi”da taqdim etilgan ilmiy-tekshirish ishlamalari va texnologiyalari, qo‘shma korxonalarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sifat ko‘rsatkichlari xalqaro ISO standart talablariga mosligi va O‘zbekistonda lokalizatsiya qilingan import o‘rni bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan ko‘plab tovarlar ishlab chiqarilmoqda. Hozirgi davrda respublikamiz kundalik hayot va uning dinamikasi o‘zgarib bormoqda, bu esa iqtisodni yangilashda marketing tadqiqotlarini natijalarini tahlil qilib, yaqin kelajakka va uzoq davrga nisbatan innovatsion strategiyani tanlash, rejalash va amalga oshirishni bu esa O‘zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatida mavqegini oshirishda va iqtisodiyotimizni yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko‘p sonli ma’lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, iqtisodiy o‘rningning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ilmiy-texnik innovatsiyalar hisoblanadi. Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik yo‘nalishi innovatsion jarayonda asosiy rol o‘ynaydi, innovatsiyalar esa texnik taraqqiyot sur‘ati yuqori bo‘lgan tarmoqlarda asosiy raqobat dastagi hisoblanadi. Innovatsiyalar tashkilot, mahsulot yoki ishlab chiqarish jarayonini zamon talablariga

nisbatan doimiy takomillashtirish yo'li bilan olinuvchi strategik afzallik va yutuqlari hisoblanadi. Zamonaviy marketing strategiyasi quyidagi besh holatni ko'rsatib beradi:

- yangi ne'mat tayyorlash;
- ishlab chiqarishning yangi usulini joriy qilish;
- yangi sotuv bozorini o'zlashtirish;
- xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar yangi manbasiga ega bo'lish;
- sohabo'yicha doimo yangilikni izlash.

Bizningcha, tanlab olingan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha samarali tizimni shakllantiruvchi omillar quyidagilarga asosan tasniflanishi lozim:

- jahon texnologik makoni bo'yicha bo'lgani kabi, O'zbekiston Respublikasi va MDH, xorijiy mamlakatlar uchun ham olimlar jamoasi tomonidan muqobil konkursli asosda ishlab chiqiluvchi yaqin va uzoq muddatli ilmiy-texnik va innovatsion-investitsion bashoratlar;

- eng muhim bazaviy texnologiyalar bo'yicha ilmiy-texnik va innovatsion xarakterga ega maqsadli dasturlar;

- sanoat tarmoqlarida bazaviy texnologiyalarning ayrim bo'g'inlarini amalga oshiruvchi davlat ahamiyatiga molik eng muhim innovatsion loyihalar. Shuni qayd etish kerakki, iqtisodiy o'sishning tanlab olingan ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishni resurslar bilan to'liq ta'minlash ko'p kanalli asosda bajariladi:

- noishlab chiqarish sohasida innovatsion loyiha va dasturlarni, shuningdek, eng muhim innovatsion loyihalar, maqsadli dasturlar, strategik rejalar va bashoratlarni ishlab chiqishni budjetdan moliyalashtirish, budjet mablag'larini dastur va loyihalar amalga oshiriluvchi butun muddat bo'yicha taqsimlash;

- tanlab olingan ustuvor sanoat tarmoqlariga yo'naltirilgan innovatsion dastur va loyihalar uchun soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etish;

- bunday dastur va loyihalarga xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun sharoitlar yaratish;

- investitsiyalarga innovatsion mazmun bag'ishlash uchun sanoat tarmoqlarida investitsion dastur va loyihalarning innovatsion-texnologik ekspertizasini tashkil qilish. Bundan tashqari, innovatsion

infratuzilmani shakllantirish tanlab olingan ustuvor yoʻnalishlarni amalga oshirishga yoʻnaltirilishi lozim:

- innovatsion loyihalarni faolroq qoʻllab-quvvatlash uchun banklar faoliyatini rivojlantirish va kengaytirishning budjet taʼminoti;

- innovatsion xarakterga ega maqsadli ustuvor dastur va loyihalarni qoʻllab-quvvatlash uchun Respublika innovatsiya vazirligi, Intellektual mulk agentligi va joylarda hududiy jamgʻarmalar, shuningdek, ustuvor innovatsion loyihalarni sugʻurtalash uchun kompaniyalar ishlarini faollashtirish;

- texnologiyalar transferi markazi, innovatsion biznes texnoparklar, innovatsion markaz va hokazolar yaratish yoʻli bilan ilmiy-texnik va innovatsion infratuzilmani kengaytirish;

- Oʻzbekiston yetakchilik qilishi va jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyat koʻrsatishi mumkin boʻlgan bazaviy texnologiyalar va ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha mamlakatlararo asosda transmilliy kompaniyalar va strategik ittifoqlar barpo etish;

- nohukumat tashkilotlari, fanlar akademiyasi, olimlar, muhandislar, konstruktorlar, logisilar, marketolog va menejerlar jamoatchilik tashkilotlarini sanoat tarmoqlarida innovatsion dastur va loyihalarni amalga oshirish va targʻib qilishda aktiv ishtirok etishini taʼminlash;

- iqtisodiy oʻsishga erishish uchun innovatsion-texnologik oʻsishga yoʻnaltirilgan milliy, mintaqaviy va xalqaro innovatsion tizimlar yaratish va uni bilan amalga oshirish.

Ishlab chiqilgan sanoat tarmoqlari uchun iqtisodiy oʻsishga erishishning innovatsion oʻsish mexanizmi va strukturasi tasnifi hozirgi davrda quyidagi koʻrinishga ega boʻlishi kerak:

Sanoat tarmoqlarining iqtisodiy oʻsishga erishishida marketing va innovatsion oʻsishning samarali mexanizmini shakllantirish amalda davlatning bozor iqtisodiyotida strategik-innovatsion funksiyasini amalga oshirishga imkon beradi.

Iqtisodiy oʻsishning intensiv turi oʻziga xosligi shundaki, ishlab chiqarishni kengaytirishga oʻsish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, xususan, ilgʻor texnologiyalarni qoʻllash, yuqori malakali va mehnat mahsuldorligi baland boʻlgan ishchi injener texnik kuchidan foydalaniish hisobiga erishiladi. Bu holatda ishlab chiqarish real hajmining oʻsish surʼatlari uni ishlab chiqarishning jami xarajatlari oʻzgarish surʼatidan yuqori boʻladi. Resurslar muammosining uzil-kesil hal

etilishi uni innovatsion o'sishga o'tish sifatida tavsiflash mumkin. Bunday o'sishning o'ziga xos jihatlari bu — texnologiyalarning tubdan o'zgarishi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish iste'molining keskin o'zgarishi, an'anaviy materiallar va energiya manbalarining boshqa material va manbalarga almashuvi, barcha sohalarning o'sib borishi va hakozolardir.

10.2. Innovatsion marketingni rivojlantirishni kontseptual asoslari

Innovatsion marketingni asosiy vazifalaridan biri maqsadga yo'naltirilgan qidiruv, tanlov, ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalash, bajarish va olingan raqobatbardosh ishlamalarni amalga oshirish va olingan yangi ishlamalarni xalq xo'jaligida ishlab chiqarishga yunaltirish hamda bozorlarni raqobatbardosh tovarlar bilan ta'minlashni amalga oshiradi.

Innovatsion marketing ilmiy-texnik va yangi oya, ishlama va texnologiyalarni hamda yaratilgan intellektual mulkni chuqur va hartomonlama o'rganib uning natijalarini zudlik bilan ishlab chiqarishga transfera qilish. Innovatsion marketing resurslari zamonaviy ilmiy-texnik axborotlar hisoblanib, ular iqtisodiy qimmat turadigan iste'mol bozori hisoblanadi. Ularni qidirish, tanish, maqsadga yo'naltirilgan ishlarni rejalashtirish, amalga oshirish va bular orqali o'z biznesini tashkil etish lozim bo'ladi.

Innovatsion marketingni asosiy o'rganadigan yo'nalishlari iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv, sosial, psixologik, huquqiy faktorlari innovatsion jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

– ishlab chiqarish korxonalaridagi innovatsion guruhlarini ishlari tezlik bilan tarqalishi innovatsion texnologik bilimlarni yuksalishiga raqobatbardosh bosimlarni boshqa klaster bo'limlarga o'tib korxonalar faoliyatini yuksalishiga olib keladi;

– yangi bilimlarni va texnologiyalarni tezlik bilan rag'batlantirishi ishlab chiqarishda bo'limlarni shakillantirishga sababchi bo'ladi.

10.3. Ilmiy tadqiqot, ishlanma va texnologiyalarni natijalarini tijoratlashuvi

Hozirgi kunda butun dunyo rivojlanishining barcha sohalarida - iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy jarayonlar, demografiya, geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlar yangi sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Shu narsa tobora yaqqol ko'zga tashlanib bormoqdaki, geostrategik holat, fan va texnika yutuqlari, kadrlar va ilmiy salohiyat, tabiiy resurslar kabi mavjud obyektiv omillardan samarali foydalangan mamlakatlar rivojlanish borasida ancha ilgarib bormoqda. Bu mamlakatlar ichki iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlar yangicha tizimini shakllantirib, odamlar hayot tarzini yanada yuqori darajaga yetkazib oldi. Ushbu ijtimoiy tizimga AQSh va G'arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlari, sharqda esa Yaponiya misol bo'la oladi.

Fan - texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan foydalana olmagan mamlakatlar vujudga kelgan sharoitlarga moslasha olmay, rivojlanish yo'lida ancha ortda qolib ketmoqda.

Zamonaviy fan va texnologiya tobora raqobatli bozorga jalb qilib borilmoqda. Fundamental bilimlar va ularning yakuniy mahsuli -ilmiy-texnik innovatsion mahsulot - iqtisodiyotning globallashuvi sharoitlarida davlatlarning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Aholining turmush farovonligi o'sishi, mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati, ta'lim, fan va madaniyatning rivojlanishi, mudofaa qobiliyati bevosita yuqori texnologiyali kompleksni tarkibiy-texnologik qayta tuzishga bog'liq. Bu sohada salohiyatli, yuqori malakali ilmiy, tadqiqotchi va muhandis kadrlar zarurdir.

10.4. Yangi texnologiyalarni bozorga kirish strategiyasi

Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi yoki texnologik jihatdan sezilarli darajada takomillashtirilgan ishlab chiqarish, shuningdek mahsulotlarini yetkazib berishni innovatsion usullarini ishlab chiqish yoki joriy etishni o'z ichiga oladi. Bu turdagi innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yangi usullaridan foydalanishga yoki ularni birgalikda qo'llashga, shuningdek tadqiqot va ishlanmalar

natijalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin. Bunday innovatsiyalar, odatda, tashkilotda ilgari mavjud bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki yetkazib berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi, shuningdek odatdagi usullar yordamida amalga oshirish imkoni bo'lmaydigan texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Texnologik innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi:

- mahsulotdagi estetik (rangida, bezatilishida) o'zgartirishlar;
- mahsulotning konstruktiv vazifalarini o'zgartirmaydigan, uning yoki tarkibiy qismi hisoblangan materiallar va komponentlarning ko'rsatkichlariga, xususiyatlariga, narxiga yetarlicha sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan texnik va tashqi ko'rinishda sezilarsiz darajadagi o'zgartirishlar;
- vaqtinchalik talabni va tashkilotning daromadlarini ta'minlash maqsadida tashkilot tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, ammo mahsulotlar, ishlar, xizmatlar bozorida yetarlicha ma'lum bo'lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish (boshqa ixtisoslik bo'yicha bo'lishi ham mumkin) evaziga ularning turlarini ko'paytirish. Masalan, mashinasozlik zavodida mavsumiy talabdan foydalangan holda yozgi davrda boshqa ixtisoslik bo'yicha mahsulot, ya'ni mix ishlab chiqarilishi;
- ma'lum modeldagi qo'shimcha dastgohlarni o'rnatish, hatto ularni shu modelning oxirgi modifikatsiyaga almashtirish evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;
- to'laligicha boshqa tashkilot tomonidan ishlab chiqarilgan va tayyorlangan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish;
- tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar.

Xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun xususiyatlari, foydalanish usullari printsiptial jihatdan yangi yoki texnologik jihatdan takomillashtirilgan (sifatli) xizmatlar texnologik innovatsiyalar hisoblanadi. Xizmatlar ishlab chiqarish va **logistik yetkazib berishning** sezilarli darajada takomillashtirilgan usullaridan foydalanish ham **texnologik innovatsiyalar** sanaladi. Bu mavjud ishlab chiqarish usullaridan foydalangan holda yoki mavjud xizmatlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berishning samaradorligini oshirgan holda, ishlab chiqarilmaydigan yoki yetkazib berila olinmaydigan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab

chiqarish yoki yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan asbob-uskunalaridagi yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishidagi o‘zgarishlarni qamrab olishi mumkin.

Yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, uni ishlab chiqarish (etkazib berish) usullarini printsiptial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalarning yangi kombinatsiyalariga, shuningdek yangi bilimlarga asosan joriy etish mumkin.

Logistik xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar o‘z ichiga quyidagilarni oladi: printsiptial jihatdan yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish; mavjud xizmatlarga yangi funktsiyalar va xususiyatlar qo‘shish orqali uni takomillashtirish; logistik xizmatlar bilan ta‘minlashda (masalan, ularning samaradorligi va tezligi nuqtai-nazaridan) sezilarli darajada yaxshilanishlar.

Logistik xizmatlar sohasidagi jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar logistik xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishning yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish va joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Quyidagi o‘zgartirishlar, agar ular yangi yoki sezilarli yaxshilangan xizmatlarni, ularni ishlab chiqarish va yetkazib berish usullarini joriy etishga bevosita bog‘liq bo‘lmasa, texnologik innovatsiyalar hisoblanmaydi:

- tashkiliy va boshqarish bo‘yicha o‘zgartirishlar (jumladan: boshqarishning ilg‘or usullariga o‘tish, jiddiy o‘zgartirilgan tashkiliy tuzilishni joriy etish, tashkilotning iqtisodiy strategiyasida yangi yoki sezilarli o‘zgartirilgan yo‘nalishlarni amalga oshirish);

- sifat standartlarini joriy etish.

Hozirgi sharoitlarda iqtisodiyotning eng muhim tavsifnomasi fan, ilg‘or texnologiyalar, texnologik bazalarning qanday holatda ekanligi bo‘lib, bu o‘z navbatida mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshlik darajasini belgilab beradi.

Rivojlangan davlatlarning texnologik yutuqlaridan foydalanish, bu sohada avvalo, MDH mamlakatlari bilan hamkorlik o‘rnatish, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyadan imkon qadar keng foydalanishga intilish zarur. Bunday jarayonlar butun dunyoda ro‘y bermoqda. Yuqorida qayd etib o‘tildiki, texnologik jihatdan ilg‘or mamlakatlar yagona texnologik makon tuzgan bo‘lib, mamlakatimiz unga teng huquqli hamkor bo‘lib kirishi, ayrim yo‘nalishlarda esa yetakchilik

uchun kurashishi lozim, buning uchun esa milliy texnologik darajada yetarlicha yuqori boiishi zarur.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida mamlakatimizda milliy innovatsion tizimni izchil rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq masalalarni hal qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash sarf-harajatlar hamda vaqtni tejash imkonini beradi.

Shu kunda iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Dasturlarga kiritilayotgan loyihalar avvalambor yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlariga, yengil va to'qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga ko'proq tegishlidir. Mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish, zarur mablag' va manbalarni topish - bu har bir korxonada rahbari va logist, muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi vama'juriyatidir.

Bob yuzasidan nazorat savollar

1. Marketing strategiyasi deganda nima tushunasiz ?
2. Qanday marketing strategiyalarini bilasiz ?
3. Innovatsin marketingning qanday afzalliklari mavjud ?
4. Qanday marketing strategiyalar mavjud ?
5. Bozor segmenti nima ?
6. Logistikada innovatsion marketingning qanday bogliqlik tomonlari mavjud ?
7. Innovatsion logistikani rivojlantirishda marketingning o'rni.
8. Logistik xizmatlar deganda nimalar nazarda tutiladi?
9. Ishlab chiqarish korxonasida logistika va marketingning qanday bog'liqlik tomoni bor ?
10. Logistikada yetkazib berish jarayoni nechta qoidaga asoslangan holda amalga oshiriladi va ular qaysilar?

TESTLAR

1. Innovatsion logistika nima-?
 - A. Logistik tizimda moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarishni innovatsiyalar asosida rivojlantirishdir.
 - V. axborot oqimlarini boshqarish
 - S. Moddiy oqimlarini rivojlantirish.
 - D. moliyaviy oqimlarini boshqarish
2. Uzoq muddatli maqsadlar nima uchun kerak?
 - A. Belgilangan strategiyalarni amalgam oshirish uchun
 - B. Bankrot bo'lmalik uchun
 - C. Tavakkalchilikdan qochish uchun
 - D. Raqobatbardoshlik darajasiga chiqish uchun
3. Maqsadlarni belgilash jarayoni qanday tashkil qilinadi?
 - A. Balanddan pastga
 - B. Maqsadlarning daraxt shakli bo'yicha
 - C. Klaster shaklida
 - D. Pastdan balandga
4. Biznes strategiyasini ishlab chiqishda asosiy masala nima hisoblanadi?
 - A. Uzoq muddatli raqobatbardosh pozitsiya
 - B. Bozor nishini egallash
 - C. Moliyaviy siyosatni ishlab chiqish
 - D. Bozorni himoyalash
5. Operativ strategiya nima beradi?
 - A. Maqsadli strategik ko'rsatkichlarga erishishni
 - B. Operativ rejani bajarilishini
 - C. Sarf-xarajatlar darajasini pasayishini
 - D. Rakobatni oshirishni
6. Ishlab chiqarish va raqobatni tahlil qilish nimadan boshlanadi?
 - A. Tarmoqning asosiy iqtisodiy xususiyatlarini aniqlashdan
 - B. Bozor hajmini tahlil qilishdan
 - C. Raqobatchilarni tahlil qilishdan
 - D. Mutaxassislarni tayyorligini tahlil qilishdan
7. Raqobatning qaysi kuch-qudrati eng kuchli hisoblanadi?
 - A. O'zaro raqobatlashayotgan firmalarning raqobati
 - B. Sotuvchilar orasidagi raqobat

- C. Vositachilar o'rtasidagi raqobat
 - D. Yetkazib beruvchilarning orasidagi raqobat
8. Raqobatbardosh ustunlikka erishishning asosiy usulini ayting
- A. Iste'molchini tovarga e'tiborini jalb qilish
 - B. Narxni pasaytirish
 - C. Dizaynni yaxshilash
 - D. Reklama qilish
9. Firmaning ishlab chiqarish harajatlarini eng past darajada qilishining stimulyativ sababi nimada?
- A. Narx-navoga ta'sirchan iste'molchilarning mavjudligi
 - B. Distribyutorlar faoliyati sustligi
 - C. Ta'minotchilarning kamligi
 - D. Iste'molchilarning kamligi
10. Firma tovarlarini differentsiyalashtirish borasidagi muvaffaqiyatli strategiyani amalga oshirishi nimaga olib keladi?
- A. Firma savdo tamg'asini yanada ommaviylashuviga
 - B. Xodimlar sonini qisqarishiga
 - C. Bozor hukmronligini egallashga
 - D. Ishlab chiqarish sardf-xarajatini kamaytirishga
11. Differentsiyalash strategiyasi qachon eng yaxshi natija beradi?
- A. Iste'molchilar tovarlardagi farqlarni qadrlaganida
 - B. Iste'molchi dizaynni qadrlaganida
 - C. Iste'molchilar tovarlar sifatini baholaganlarida
 - D. Iste'molchiga eng past narx ma'qul bo'lganida
12. Tovarlarni differentsiyalash nima bilan bog'liq?
- A. Qo'shimcha xarajatlar bilan
 - B. Sarflangan vaqt bilan
 - C. Malakali mutaxxasislarni jalb etish bilan
 - D. Sarmoya jalb etish bilan
13. Qachon xarajatlarni kamaytirish strategiyasi differentsiyalash strategiyasidan afzal bo'ladi?
- A. Iste'molchi tovarning o'zgachaligini qadrlamasa
 - B. Iste'molchi juda arzon tovarlarni olishga "xijolat cheksa".
 - C. Milliy valyuta qadri oshsa.
 - D. Inflyasiya yuz berganda
14. Bozorga chiqish strategiyasining asosini nima tashkil qiladi?

A. Iste'molchilar tomonidan Tovar va xizmatlarga bo'lgan talabning asoslanganligi

B. Sotuvning o'ziga xosligi

C. Talab va taklifning muvozanati ozgarganligi

D. Bozorga chiqish vaqtining puxta uylab qilinganligi

15. Tovarning tashqi bozorga olib chiqish bo'yicha tuzilgan biznes-rejada eng muhim narsa nima?

A. Mazkur tovarning ichki bozorda yaxshi sotilganligini ko'rsatuvchi qismi

B. Tovar haqida targ'ibot qilish

C. Iste'molchilarning Tovar haqidagi iliq fikrlari

D. Tovarning yaxshi dizayni

16. Diversifikalashgan firmaning asosiy daromadi nimadan keladi?

A. Mahsulotlarni sotishdan tushgan tushumdan

B. Kredit berishdan

C. Patent sotishdan

D. Litsenziyalashdan

17. Bozorni o'sishiga juda katta ta'sir qiluvchi faktorni ko'rsating

A. Tarmoqning rivojlanishi

B. Raqobatchi-sotuvchilar sonining kamayishi

C. Yangi progressiv texnologiyalarning paydo bo'lishi

D. Innovasiyalarni rivojlanishi

18. Raqobat muhitini tahlil qilishning eng muhim omilini aniqlang

A. Muayyan tovarni eng yirik yetqazib beruvchisi

B. Provyayderlarning faolligii

C. Raqobatchilarda reklama qilish darajasi

D. Raqobatchilarning tovarlariga bo'lgan talab

19. Biznes rejada nima uchun raqobatchilarning zaif va kuchli tomonlarini ko'rsatish zarur?

A. O'zining ishlab chiqarish va sotish strategiyasini tuzish uchun

B. Ularning kuchli tomoniga zarba berish uchun

C. Ularning zaif nuqtasiga zarba berish uchun

D. Raqobatchilardan ustunlik qilish uchun

20. Agar asosiy raqobatchingizning mahsulot tannarxi sizga ma'lum bo'lsa strategik rejalashtirishda nima qilishingiz mumkin?

A. O'z ishlab chiqarish tannarximiz bilan asosiy raqobatchimizning tannarxi dinamikasini solishtirishimiz mumkin

B. Narx-navo jangini boshlash

C. Dempingni amalga oshirish

D. Himoya pozitsiyasini qo'llash

21. Agar asosiy raqobatchingizning mahsulot tannarxi sizga ma'lum bo'lsa taktik rejada nima qilishingiz mumkin?

A. Zudlik bilan ishlab chiqarish xarajatlarimizni pasaytirishimiz mumkin

B. Narxga ta'sir qiluvchi omillarni aniklash

C. Xaridorlar bilan teskari aloqani o'rnatishimiz mumkin

D. Narx agressiyasini boshlashimiz mumkin

22. Quyida keltirilgan omillardan qaysi biri mahsulotning tez sotilishiga kuchliroq ta'sir qiladi?

A. Mahsulotning sifati

B. Sotuvning eksklyuzivligi

C. Savdo agentining keng funktsionalligi

D. Narxning pastligi

23. Solishtirma afzallikning qaysi darajasida siz bozor hukmronligiga ega bo'lasiz?

A. >70%

B. <20%

C. 20-30%

D. 30-50%

24. Qaysi omil evaziga ishlab chiqarish daromadlilikini saqlab qolish mumkin gar sizning ishlab chiqarish tannarxingiz raqobatchilarnikidan past bo'lsa?

A. Reklamani kuchaytirish orqali

B. Faoliyat turini ko'paytirish orqali

C. Sotish hajmini oshirish orqali

D. Taklifni oshirish orqali

25. Quyida keltirilgan qaysi usul maxsulot sotishning taktik usuli hisoblanadi?

A. Savdo agenti xizmatidan foydalanish

B. Chakana savdoga tayanish

C. Ulgurji savdoga tayanish

D. Kreditga savdo qilishga tayanish

26. Sotuvdan keyingi qaysi xizmat turi nisbatan samarali hisoblanadi?

- A. Joyida xizmat ko'rsatish
- B. Servis xizmat ko'rsatish
- C. Remont qilish maskanida xizmat ko'rsatish
- D. Zavodga qaytarish

27. Hozirgi kunda reklamaning qaysi turi eng samarali hisoblanadi?

- A. Televideniada reklama
- B. Savdo yarmarkada ishtirok etish
- C. Salonlarda ishtirok etish
- D. Jurnalda reklama

28. Innovatsion loyihalar nimasi bilan xarakterlanadi?

- A. Yangilangan ekspluatatsiya xarakteristikalarini bilan
- B. Pasaytirilgan narx-navosi bilan
- C. Buyimni remont qilishning soddaligi bilan
- D. Yangilangan dizayni bilan

29. Innovatsion loyiha doirasida bozor muhitini kompleks tadqiq qilishda quyidagi qaysi omillardan biri kiradi?

- A. Bozorni segmentlash
- B. Bulg'usi iste'molchilarni tahlil qilish
- C. Xarid qilishda motivatsiya
- D. Xaridorlarning daromad ko'rish darajasi

30. Innovatsion biznes-loyihani ishlab chiqishda bulg'usi iste'molchini tahlil qilishga nima kiradi?

- A. Mahsulotga qo'yilgan talab darajasi
- B. Standartga mosligi
- C. Raqobat
- D. Bozor sig'imi

31. Quyidagilardan qaysi biri biznes-g'oyaning manbasi bo'lishi mumkin?

- A. Xaridorlarning fikri
- B. Tadbirkorlar uyushmasi direktivasining fikri
- C. Antimonopol qo'mitasining fikri
- D. Raqobatchining fikri

32. Quyidagilarning qaysi biri "rasmiy mahsulot"ni xarakterlaydi?

- A. Mahsulot markasi

- B. Razmer
 - C. Dizayin
 - D. Qadoqlanishi
33. “Yordamchi mahsulot” degani nima?
- A. Mahsulotdan yanada samaraliroq foydalanishga xizmat qiluvchi qo‘shimcha ashyo
 - B. Zahiradagi mahsulot
 - C. Tayyor mahsulot
 - D. Xomashyo
34. Loyiyaning maqsadi aniqlangach keyin nima qilinadi?
- A. Uni amalga oshirish choralari izlab topiladi
 - B. Ishtirokchilar tanlab olinadi
 - C. Sarmoyadorlar tanlab olinadi
 - D. Loyiha sig‘ii aniqlanadi
35. Biznes-loyiha ishtirokchilarining tarkibi nimaga bog‘liq bo‘ladi?
- A. Loyiha turiga
 - B. Vaqt jihatidan chegaralanganlikka
 - C. Resurslarning chegaralanganligiga
 - D. Loyiha hajmiga
36. Biznes-loyiyaning tashabbuskori nima bilan xarakterlanadi?
- A. Asosiy g‘oyalar bo‘yicha mualliflikka ega bo‘lishi
 - B. Modellarni tuzish bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi
 - C. Ixtirochiligi bilan
 - D. Namunalarni tuzish bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi
37. Biznes-loyihalarni amalgam oshishiga kimlar ko‘proq qiziqishadi?
- A. Sarmoyadorlar
 - B. Loyiyaning uslubchisi
 - C. Loyiyaning bosh hisobchisi
 - D. Loyiyaning bosh muhandisi
38. Tavakkalchilik muvozanati nima?
- A. Eng kichik tavakkalchilikni tanlash
 - B. Tavakkalchiliklarni tahlil qilish
 - C. Tavakkalchilikni baholash
 - D. Tavakkalchilikni pasaytirish
39. Biznes-loyiha rahbari tassarufida nima bo‘lishi kerak?

- A. Kalendar rejalar
 - B. Moliyaviy ko‘mak
 - C. Zahira ko‘mak
 - D. Zahiralar
40. Moliyaviy bozorning birinchi tamoyili nima?
- A. Kichkina narsani deb katta narsa bilan tavakkalchilik qilmaslik
 - B. Kreditorlarni xolis baholash
 - C. Tavakkalchilikdan qochish
 - D. Raqobatchilarni holis baholash
41. Bozor konyunkturasi deganda nima tushuniladi?
- A. Talabning o‘zgarishi
 - B. Bozorning o‘zgarishi
 - C. Taklifning o‘zgarishi
 - D. Ishlab chiqarish xarajatlarining o‘zgarishi
42. Ishlab chiqarish va raqobatni tahlil etish nimadan boshlanadi?
- A. Bozor hajmini tahlilidan
 - B. Raqobatchilarni tahlilidan
 - C. Bozorni segmentlashdan
 - D. Xodimlarning tayyorligini tahlilidan
43. Raqobatning qaysi ko‘rinishi nisbatan kuchliroq?
- A. O‘zaro kurashayotgan firmalarning raqobati
 - B. Sotuvchilar o‘rtasidagi raqobat
 - C. Boshqa tarmoqlardan yangi raqobatchilarni aniqlash
 - D. Vositachilar raqobati
44. Qachon firmalar o‘zlarining eng kam ishlab chiqarish harajatlari bilan o‘ta yuqori daromad oladilar?
- A. Neft narxining pasayganidan keyin
 - B. Narx-navo raqobati davrida
 - C. Milliy valyutaning qadrlanishi davrida
 - D. Eksport poshlinalarining pasayganidan keyin
45. Sotish shartlarini boshqarish strategiyasining asosini nima tashkil qiladi?
- A. Internet-shoppingni ta’minlash
 - B. Internet-marketingni faollashtirish
 - C. Sport tadbirlari jarayonida sotuvni tashkil qilish
 - D. To‘g‘ridan-to‘g‘ri pochta orqali sotuvni amalgam oshirish

46. Xaridorning turiga ko‘ra tovar aylanmasi ko‘rinishi.....bo‘lishi mumkin.

- A. Ulgurji va chakana
- B. Faqat chakana
- C. Mahalliy
- D. Yakka tartibda

47. Logistika funksiyalari

- A. Koordinasion va operativ
- B. Boshqaruv
- C. Zanjirsimon
- D. Diskret

48. Vektor transport massasi quyidagicha ifodalanadi

- A. Tonna-kilometr
- B. kilometr
- C. Tonna
- D. Dona

49. Transportdagi mahsulot?

- A. Mahsultoni tashish (Tkm)
- B. Netto
- C. Yuk massasi(T)
- D. Brutto

50. Transportning asosiy ko‘rsatkichlari?

- A. Yuk tashish hajmi(T), Tovar aylanmasi(Tkm)
- B. Yuk tashish yo‘l masofasi(S)
- C. Tran(TkmV-2)
- D. Yuk hajmi (m³)

51. Moddiy-texnika bazasi o‘z ichiga nimani oladi?

- A. Hamma javob to‘g‘ri
- B. Transport vositalarini
- C. Yo‘l va yo‘l xo‘jaligi
- D. Texnik tuzilma va qo‘rilishlar

52. Umumiy(yalpi) xarajatlar – bu...

- A. Doimiy va uzgaruvchan xarajatlar summasi
- B. Yoqilg‘iga sarflangan summa
- C. Amortizasion xarajatlar
- D. Texnik xarajatlar

53. Jismoniy taqsimlash degani nima?

- A. Mahsulotlarni sotuvchidan xaridorgacha yetqazish
 - B. Turli ko‘rinishdagi mahsulotlarni taqsimlash
 - C. Xaridorlarga xizmat ko‘rsatish
 - D. Provayderlar xizmatidan foydalanish
54. Logistik sohasida strategik -ho‘jalik muammolarni hal qishining birinchi bosqichida qaysi jabhaga asosiy e‘tibor qaratiladi?
- A. Bozor o‘zgarishiga va logistikaga bo‘lgan talabning oshishiga
 - B. Axborot oqimlarining optimallashtirishga
 - C. Zahiralarining hajmi va daromadlarni rejalashtirishga
 - D. logistik tizimning elastikligiga
55. Ishlab chiqarish logistikasi ...ni boshqaradi.
- A. ishlab chiqaruvchi korxonaning ichida ishlab chiqarish jara- yonida bosqichlardagi moddiy oqimlar;
 - B. zahira ta‘minotchilari, ishlab chiqaruvchi korxonalar va iste‘molchilar o‘rtasidagi moddiy oqimlar;
 - C. ishlab chiqaruvchi korxonaning tashqi muhitidagi moddiy oqimlar;
 - D. Distryubutorlar, provayderlar va ishlab chiqaruvchi korxonalar zanjirdagi moddiy oqimlar
56. Ishlab chiqarish logistikasisohasida moddiy oqimlarning harakatlanish jarayonini ko‘rib chiqadi.
- A. moddiy ishlab chiqarish;
 - B. zahirani saqlash;
 - C. nomoddiy ishlab chiqarish;
 - D. xomashyo ishlab chiqarish
57. ishlab chiqarishni boshqarishning an‘anaviy koncepciyasi quyidagi qaysi variantga asoslangan?
- A. “sotuvchi bozor”ga;
 - B. “oluvchi bozor”ga;
 - C. Istemolchi segmentiga;
 - D. Raqobatchilarga.
58. ”Sotuvchi bozori” to‘g‘ri agar...
- A. mahsulotga bo‘lgan talab unga bo‘lgan taklifdan oshsa;
 - B. mahsulotga bo‘lgan talab yok bo‘lsa;
 - C. mahsulotga bo‘lgan talab unga bo‘lgan taklifdan kam bo‘lsa;
 - D. Taklif yok bo‘lsa
59. ”Kanban” usuli nima sababdan qo‘llaniladi?

- A. ishlab chiqarish zahiralarini kamaytirish maqsadida;
 - B. ishlab chiqarish zahiralarini to'ldirish maqsadida;
 - C. mahsulot tannarhini kamaytirish maqsadida;
 - D. Omborxonada zahiralarini kopaytirish maqsadida;
60. Logistika tizimda zahiralar nima uchun hizmat qiladi?
- A. Logistic tizim samarali ishlashi uchun
 - B. Yetqazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi orasidagi bog'liqlikni kamaytirish uchun
 - C. Logistic zanjir uzilib kolmasligi uchun
 - D. Transport ishi bir maromda borishi uchun
61. Qaysi omillar logistic tizimga o'z ta'sirini o'tqazadi?
- A. Logistika tizim infratuzilmasi, ilmiy-texnik rivojlanish, transportdagi tuzilmaviy o'zgarishlar
 - B. Transportdagi islohotlar
 - C. Texnik rivojlanish,
 - D. Logistika infratuzilmasi
62. Logistika qaysi tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi?
- A. Transport, ishlab chiqarish, ombor xo'jaligi, marketing, menejment
 - B. Marketing
 - C. Ishlab chiqarish
 - D. Menejment
 - E. Omborxonasi
63. Logistika tuzilmaga qanday funksional sohalar kiradi?
- A. Zahiralar, tashish, axborot, ishlab chiqarish, omborda saqlash va qayta ishlash
 - B. Ishlab chiqarish
 - C. Tashish
 - D. Omborda saqlash
 - E. Axborot
64. Logistikaning asosiy maqsadi nimada ifodalanadi?
- A. Mahsulotni "aniq muddatda" yetqazib berishda
 - B. Xarajatlarni kamaytirishda
 - C. Mahsulotlarni tashishda
 - D. Zahiralarini saqlashda
65. Logistika boshqarish vazifasi nimada ifodalanadi?

A. Mahsulot harakati sohasida strategiya ishlab chiquvchi mexanizmni ta'minlashda

B. Vaqtdan yutishda

C. Zahiralarini boshqarishda

D. Buyurtmaning optimal ulchamini aniqlashda

66. Tayyor mahsulot zahiralarini yana qanday ataladi?

A. Moddiy zahiralar

B. Joriy zahiralar

C. Xomashyo zahiralar

D. Ehtiyot zahiralarini

67. Keyingi yetqazishgacha ishlab chiqarish yoki savdo jarayoni uzluksizligini ta'minlovchi zahiralarini aniqlang

A. Joriy zahiralar, ishlab chiqarish zahiralarini

B. Savdo zahiralarini

C. Joriy zahiralar

D. Ishlab chiqarish zahiralarini

68. Kutilmagan hollarda ishlab chiqarish yoki savdo jarayonini ta'minlash uchun mo'ljallangan zahiralar turini aniqlang

A. Ehtiyot zahiralarini

B. Joriy zahiralar

C. Savdo zahiralarini

D. Ishlab chiqarish zahiralarini

69. Hisob davridan keyingi yetkazishgacha bo'lgan vaqt ichida uzluksizlikni ta'minlash uchun xizmat qiladigan zahiralar – bu...

A. Joriy zahiralar

B. Mavsumiy zahiralar

C. Tijoriy zahiralar

D. Tovar zahiralar

70. Uzoq vaqt davomida ishlatilmaydigan zahiralar turini aniqlang

A. Nolikvid zahiralar

B. Noishlab chiqarish zahiralarini

C. Nomoddiy zahiralar

D. Moddiy zahiralar

71. Korxonani xomashyo va moddiy resurslar bilan ta'minlash jarayonida logistikaning qaysi funksional sohasi o'z faoliyatini amalga oshiradi?

A. Ta'minot

B. Ishlab chiqarish

C. Taqsimot

D. Xarid

72. Moddiy ne'matlar yaratuvchi yoki xizmatlar ko'rsatuvchi korxonada ichidagi moddiy oqimni boshqarish qaysi logistic funksional sohaga tegishli?

A. Boshqaruv

B. Xarid

C. Ta'minot

D. Ishlab chiqarish

73. Tayyor masulotni realizatsiya qilishda moddiy oqimlarni boshqarish logistikaning qaysi funksional sohasiga doir?

A. Savdo

B. Xarid

C. Ta'minot

D. Boshqaruv

74. Moddiy oqimni birlamchi ishlab chiqaruvchidan oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakati logistikaning qaysi sohasida o'rganiladi?

A. Transport

B. Yetkazib berish

C. Xarid

D. Ta'minot

75. Logistikaning maqsadi

A. Mahsulotni belgilangan vaqtda yetarli miqdorda belgilangan xarajatlar bilan yetqazish

B. Moddiy zahira yaratish

C. Ombor xo'jaligini tashkil qilish

D. Mahsulotni taqsimlash

76. Ishlab chiqarish logistikasi qaysi sohadagi jarayonlarni ko'rib chiqadi?

A. Moddiy ishlab chiqarish

B. Tashish

C. Nomoddiy ishlab chiqarish

D. Transport

77. Logistik konsepsiya qaysi bozorga to'g'ri keladi?

A. "Xaridor bozori"

B. "Jahon bozori"

- C. “Sotuvchi bozori”
- D. “Iste’molchi bozori”

78. Quyidagilarning qaysi biri an’anaviy ishlab chiqarish konsepsiyasiga to‘g‘ri keladi?

- A. Yirik partiyada mahsulot ishlab chiqarish
- B. Kichik partiyada mahsulot ishlab chiqarish
- C. Sifatsiz mahsulotlarni yuqotish
- D. Uskunalar tuxtab turishini yuqotish

79. Boshqaruvni barcha funktsiyalarida qanday umumiylik mavjud?

- A. Baholash va qarorlar qabul qilish
- B. Modellashtirish
- C. Tahlil qilish
- D. Matematik tahlil qilish

80. Mol yetqazib beruvchilar qachon iste’molchilarga bosim o‘tqazadilar?

- A. Qachonki mol yetqazib beruvchilar tovar sifatini bir maromda ushlab tura olmasalar
- B. Eksport poshlinalari kamayganda
- C. Milliy valyuta qadri oshganda
- D. Inflyasiya davrida

81. Mahsulotingizni sotishda aholining qaysi xarakteristikasi sizni qiziqtiradi?

- A. Daromad darajasi
- B. Kasb-kori
- C. Ilmiy darajasi
- D. Jinsi

82. Quyida keltirilgan omillardan qaysi biri bozor konyunkturasiga kuchliroq ta’sir qiladi?

- A. Davlatning sanoat ishlab chiqarish sektori dinamikasi
- B. Yevroning dollarga nisbatan qadrsizlanishi
- C. Milliy valyuta qadri pasayganda
- D. Xususiy ishlab chiqarish dinamikasi

83. Xaridorlar xarid qilinadigan mahsulotda nimani ko‘rishni hohlaydilar?

- A. Foydani
- B. Narxni

- C. Sifatni
 - D. Qulaylikni
84. Biznes daromadli bo‘lishi uchun nimaga ehtiyoj sezadi?
- A. Rejalashtirishga
 - B. Pulga
 - C. G‘oyalarga
 - D. Reklamaga
85. Logistikaning asosiy maksadi
- A. Maxsulotni “aniq muddatda” yetqazish
 - B. Xarajatlarni qisqartirish
 - C. Mahsulotlarni tashsish
 - D. Vaqtni qisqartirish
86. Logistik sohasida strategik -ho‘jalik muammolarni hal qilishning ikkinchi bosqichida nima ishlab chiqiladi?
- A. logistika tizimi faoliyatini optimallashtirish bo‘yicha umumiy reja;
 - B. tovar harakatining kompleks tizimi;
 - C. ta’minotchilar va iste’molchilar bilan o‘zaro aloqalar shemasi;
 - D. Vositachilar faoliyati bo‘yich reja;
87. Logistik tizim modeli samaradorligini qaysi omil bilan baholash mumkin?
- A. Ta’minot
 - B. Moddiy oqim hajmi bilan
 - C. Taqsimot
 - D. Sotish
88. Logistik maqsadlarini amalgam oshirishga qaratilgan logistik operatsiyalrning yiriklashtirilgan guruhi – bu...
- A. Logistik zanjir
 - B. Logistik bo‘gin
 - C. Logitik funksia
 - D. Logistik kanal
89. Xalqaro biznes sohasida tashkilotning missiyasi nimani anglatadi?
- A. Firmaning hozirgi va kelgusidagi holatini
 - B. Firmaning hozirgi holatini
 - C. Firmaning kelgusidagi holatini
 - D. Firmaning strategiyasini

90. Strategiya muvaffaqiyatli chiqishi uchun nima zarur?
- A. Erishilgan raqobatbardosh afzallikka (ustunlikka) tayanilsa
 - B. Ishlab chiqarishning eng kam xarajatiga tayanilsa
 - C. Resurs zahiralarni tejashning eng yuqori darajasiga tayanilsa
 - D. Bozor hokimiyatiga tayanilsa
91. Mahsulotingizni sotishda yuridik shaxslarning qaysi xarakteristikasi sizni qiziqtiradi?
- A. Oluvchi faoliyatining geografiyasi
 - B. Sotuvchi faoliyatining geografiyasi
 - C. Oluvchining tijoriy sheriklari
 - D. Firmani boshqarish modeli
92. Narx-navo siyosati birinchi navbatda nimaga erishishga yordam beradi?
- A. Bozorga kirib borishga
 - B. Firmaning xususiy bozor nishini yaratishga
 - C. Bozorda ornini topishga
 - D. Bozordan chiqib ketmaslik uchun to‘siqlar yaratishga
93. Mahsulotning “yuragini”? yani markaziy xususiyatini nima tashkil qiladi?
- A. Xaridorlarning fikriga ko‘ra mahsulotning afzalliklari
 - B. Mahsulotning texnik yutuqlari
 - C. Mahsulotni mukammalligi
 - D. Mahsulotni dizayni
94. Xaridorlarni nima jalb qiladi?
- A. Mahsulotning foydaliligi
 - B. Yaxshi reklama
 - C. Xaridorlar bilan teskari aloqaning mavjudligi
 - D. Past narx-navo
95. Moddiy oqimlarning asosiy mezonlari
- A. Transport vaqti, massasi, yo‘li va masofasi
 - B. Darajalar soni
 - C. Samaradorlik
 - D. Transport yo‘li
96. Sotib olish logistikasining asosiy maqsadi....
- A. ishlab chiqarishning moddiy materiallarga bo‘lgan ehtiyojini imkon darajada arzon narhlarda qondirish;

B. xomashyo va butlovchi qismlarni asoslangan muddatlarda sotib olish;

C. ishlab chiqarishning moddiy materiallari ehtiyojini qondirish;

D. ishlab chiqarishning xomashyo va materiallarga bo'lgan talabini qondirish;

97. Moddiy oqimlar harakatining natijalari qaysi funksional sohada aks ettiriladi?

A. Axborot

B. Boshqaruv

C. Taqsimot

D. Ta'minot

98. Import tovarlarini ichki bozordagi narxining o'zgarishi bo'yicha import tarifi bilan eksport subsidiyasi o'rtasidagi farq nimada?

A. Eksport subsidiyasi eksport tovarlarining ichki bozordagi narxini oshiradi import tarifi esa tovarning ichki bozordagi narxini pasaytiradi

B. Import tarifi tovarning ichki bozordagi narxini pasaytiradi

C. Eksport subsidiyasi tovarlarining ichki bozordagi narxini kamaytiradi

D. Import tarifi tovarning ichki bozordagi narxiga ta'sir qilmaydi

99. Logistik tizimlarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan kapital qo'yilmalarini baholash usullari

A. kichik kvadratlar usuli

B. O'zini oqlash usuli

C. qaytimni o'rta darajasi usuli

D. mablag'ni diskontlash usuli

100. "Tizimni shakllantirish va rivojlantirish" funktsiyasiga ko'ra korxonadagi logistik tizim muntazam qayta ko'rib chiqiladi. Bunga sabab:

A. boshqa korxonalaridagi ilmiy texnik taraqqiyot bilan bog'liq

B. logistik texnologiyalar, boshqaruv siyosati va bozor shart sharoilari o'zgarishi

C. korxonaning ishlab chiqarish talablariga binoanligi

D. boshqa korxonalaridagi texnologiyalar darajasi bilan bog'liq

IZOHLI LUG‘AT

Innovatsiya - bu qandaydir yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi uslubini ish amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy uslubni iste'molga kiritishdir.

Innovatsiyaning minimal alomati mahsulot, jarayon, marketing yoki tashkiliy uslub, u mazkur firmada yaratilgan yoki o'zlashtirilganligidan qat'iy-nazar, mazkur tashkilotning amaliyoti uchun yangi (yoki sezilarli darajada yaxshilangan) bo'lishi zarurligidir.

Innovatsion faoliyat haqiqatdan innovatsiyani amalga oshirishga olib keladigan yoki shu maqsad bilan ko'zlab qilingan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat, marketing harakatlardir. Innovatsion faoliyat shuningdek qandaydir aniq innovatsiyani tayyorlash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan tadqiqotlar va ishlanmalarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion logistika-bu logistik tizimda moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini boshqarishni innovatsiyalar asosida rivojlantirishdir.

Logistik innovatsion faoliyat – bu logistik operatsiyalarni amalga oshirishda ya'ni ishlab chiqarishni, tashish, axborot ta'minoti, moddiy-texnika bazani yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasidir.

Logistik innovatsion faoliyat infratuzilmasi- innovatsion faoliyat subyektlariga logistik operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xizmatlar ko'rsatuvchi obyektlar jamlanmasidir.

Texnologik innovatsiyalar - bu yangi mahsulot va jarayonlarni ishlab chiqarish va joriy etish, shuningdek mahsulot va jarayonlarni sezilarli takomillashtirish; texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlar, yangi yoki sezilarli takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqarish (ko'rsatish) usullarini ishlab chiqarish va joriy etish.

Texnologik innovatsiyalarga mahsulot innovatsiyalari va jarayon innovatsiyalari kiradi.

Mahsulot innovatsiyasi - bu yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan tovar va xizmatlarni joriy etishdir. Masalan, texnika

xususiyatlari, komponent va materiallari, ichiga oʻrnatilgan dasturiy taʼminoti, foydalanuvchi uchun qulayligi yoki boshqa funktsional xususiyatlari.

Mahsulot innovatsiyasiga quyidagilar kirmaydi: kichik oʻzgarish yoki yaxshilashlar; sezilarsiz modernizatsiyalar; muntazam mavsumiy oʻzgarishlar (kiyim assortimenti kabi); boshqa mijozlar uchun ishlab chiqarilgan mahsulotdan katta farq qilmaydigan alohida mijoz talabiga moslashtirish; tovar yoki xizmatning ishlashi yoki texnik xususiyatlarini oʻzgartirmaydigan dizayndagi oʻzgarishlar; boshqa korxonalaridan sotib olingan yangi tovar va xizmatlarni qayta sotish.

Jarayon innovatsiyasi - yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan ishlab chiqarish yoki yetkazib berish uslubini, texnik jarayonlar, uskunarlar va/yoki dasturiy taʼminotdagi sezilarli oʻzgarishlarni joriy etishdir.

Jarayon innovatsiyalariga quyidagilar kirmaydi: kichik oʻzgarish yoki yaxshilashlar; ishlab chiqarish yoki logistika tizimiga, foydalanib kelinayotgan juda oʻxshash biror narsani qoʻshish hisobiga ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatishning imkoniyatlarini ozgina oshirish.

Logistik-marketing innovatsiyalari-yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish ham tushuniladi. Bular oʻz ichiga: mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy oʻzgartirishlar; mahsulotlarni sotish, logistik yetkazib berish va taqdimoti boʻyicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olgʻa siljitish boʻyicha yangi uslublardan foydalanish; yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi. Bu oʻzgartirishlar mahsulot isteʼmolchilarining ehtiyojlarini toʻlaroq qondirishga, sotish hajmini koʻpaytirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlar isteʼmolchilarining tarkibini kengaytirishga yoʻnaltirilgan boʻladi. Mahsulot dizaynidagi oʻzgartirishlar yangi logistik-marketing kontseptsiyasining bir qismi boʻlib, ular mahsulotning shakli va tashqi koʻrinishidagi oʻzgartirishlarni oʻz ichiga oladi. Bular mahsulotning funktsional va foydalanish xususiyalariga taʼsir koʻrsatmaydi. Shuningdek, bunday oʻzgartirishlarga qadoqlanishi tashqi koʻrinishini taʼriflab beruvchi isteʼmol mahsulotlari, ichimliklar, yuvish vositalari kabi mahsulotlarning qadogʻidagi oʻzgartirishlar ham kiradi.

Marketing innovatsiyasi - bu firma tomonidan marketingning yangi uslubini joriy etish (mahsulotning dizayni va qadoqlash, uni

joylashtirish, narx belgilash, bozorga chiqarish) agarda u firma tomonidan birinchi marta ishlatilayotgan bo'lsa.

Marketing innovatsiyalariga quyidagilar kirmaydi: mazkur korxonada avval foydalanilgan usullarga asoslangan mahsulot dizaynida, qadoqlashda, joylashtirishda, narxini belgilashdagi o'zgarishlar; marketing vositalarining mavsumiy, doimiy va boshqa o'zgarishlari; geografik jihatdan yangi bozorni yoki bozorning yangi segmentini (masalan, mijozlarning yangi ijtimoiy-demografik guruhini) o'zlashtirish uchun marketingning avval foydalanilgan uslublaridan foydalanish.

Tashkiliy innovatsiya - bu firmaning ish amaliyotiga yangi tashkiliy uslubni joriy etish. Tashkiliy innovatsiyalarga firma birinchi marta foydalanayotgan ish amaliyotini tashkil qilish, ish joylari yoki tashqi aloqalarni tashkil qilish kirishi mumkin.

Tashkiliy innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi: firmada avval foydalanilgan tashkiliy uslublarga asoslangan ish amaliyotidagi, ish joylarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalardagi o'zgarishlar; yangi tashkiliy uslubni joriy etish bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruv strategiyasidagi o'zgarishlar; boshqa firmalar bilan qo'shilish va boshqa firmani sotib olish.

Nou-xau - bu ishlab chiqarish siri hisoblangan, egasi bu ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ishlatilishidan himoya qilish huquqiga ega bo'lgan, himoyalovchi hujjatlar (masalan, patentlar) bilan muhofazalanmagan va to'liq yoki qisman nashr qilinmagan texnik, tashkiliy yoki tijorat ma'lumotlaridir. Bular xo'jalik faoliyati jarayonida foyda keltiradigan yangi texnologiya, texnik yoki boshqa yechimlar, bilim, tajriba bo'lishi mumkin.

Tovar belgisi - bu biror ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlarini boshqa ishlab chiqaruvchining o'xshash tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo'ljallangan original grafik tasvir, raqam, harf yoki so'zlarning birikmasidir.

Ixtiro - bu turli sohalardagi mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtamlari, o'simlik va hayvonlar hujayralariga) yoki usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy obyektlar ustidan harakatni amalga oshirish jarayoniga) tegishli texnik yechim. Agar ixtiro yangi bo'lib, ixtiro darajasiga ega va sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, unga huquqiy muhofaza (patent) beriladi.

Foydali model - bu moslamaga taalluqli texnik yechim. Ishlab chiqarish vositalarining konstruktiv bajarilishi va iste'mol qilish predmetlari hamda ularning tarkibiy qismi foydali modellarga kiradi. Agarda foydali model yangi va sanoatda qo'llaniladigan bo'lsa, unga huquqiy muhofaza (patent) beriladi.

Sanoat namunalari - bu sanoat yoki hunarmandlik buyumlarining tashqi ko'rinishini belgilovchi badiiy-konstruktorlik yechimidir. Agar sanoat namunasi yangi yoki original bo'lsa, unga huquqiy muhofaza (patent) beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni “Xalq so‘zi” gazetasi, 04.09.2018-yil, № 182.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi // Ishonch, 2017 yil 17 yanvar, № 7-8 (3825).

3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6- son. 70- modda).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabr-dagi “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264 sonli Farmoni.

5. Адлер Ю.П., Маркова Е.П., Грановский Ю.В. Планирование эксперимента при поиске оптимальных условий. - М.:Наука, 2011 г.

6. Бережной Р.И., Заметал ин И.И., Лукинский В.С. Международные автомобильные перевозки. Анализ и перспективы развития. -Ставропол: Интеллект-сервис, 2010, 112 с.

7. Болонентов Г.В., Багдасаров А.М., Умаров У. Моделирование развития функционирования систем городского пассажирского транспорта. - Ташкент: изд.Узбекистан, 2012г.98с.

8. Рекрутинг: найм персонала. Учебное пособие / под ред. Ю.Г. Одегова. – М.: Издательство «Экзамен», 2002, С.5, С. 9

9. Т.В. Баскина. “Техники успешного рекрутмента”. 2-е изд., перераб. и доп.: Альпина Паблишер, Москва.

10.Q.X.Abdurahmonov va boshqalar. Personalni boshqarish. Darslik. Toshkent, 2011, 93-b. (elektron darslik)

11.Z.Ya. Xudoyberdiev va boshqalar. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Ilm-Ziyo”, 2016, 325-b.

12. Гордон М.П., Тишкин Е.М., Усков И.Г.С. Как осуществить экономична доставку товара отечественному и зарубежному покупателю. Справочное пособие для предпринимателя. - М.Транспорт, 2013г. 64 с.

13. G.a. Samatov B.I. Kamildjanov F.r. Galimova Logistik Boshqaruv Kontseptsiyalari va modellari toshkent 2015

14. Дошина СВ. и др. Опыт работы транспортно-экспедиционных фирм за рубежом, их роль в организации логистических систем. -М.;АСМАП,2014.44 с.

15. Qosimova M.S. Logistika boshqarish. UMK. Iqtisodiyot, Toshkent. 2015y.

16. Карриева Я.К. Камалова Э.А. Логистическая система информационного обеспечения международных транспортных коридоров. “Социально-экономического развития общества: управленческие, правовые, хозяйственные.” 6-международный научно-практическая конференция. ЮЗГУ. Г.Курск, Россия. 2016 г., 23-24 ноября.

17. Karrieva Ya.K. Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. Monografiya. TDIU. Iqtisodiyot, T.: 2013 y., 144 bet.

18. Karrieva Ya.K. Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. Monografiya. TDIU. Iqtisodiyot, T.: 2013 y., 144 bet.

19. Карриева Я.К. Транспортная составляющая логистических систем при внешнеторговых операциях. Иқтисодиёт ва таълим. Журнал №6, 2013г, ТГЭУ, Ташкент.

20. Karrieva Ya.K. Xalqaro marketing – T. : Iqtisodiyot, 2011.

21. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva Sh.J. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2010

22. Kucharov.A.S, Karrieva.Ya.K. Innovatsion logistika. O‘UM., 2018y., ”Iqtisodiyot”, Toshkent.

23. Основы брендинга: 100 приемов повышения ценности товарной марки / Айен Эллауди. – Пер. С англ. Т. Новиковой. – М.: ФАИР –ПРЕСС, 2003.

24. Секерин В.Д. Инновационный маркетинг: Учебник-М.: ИНФРА-М. 2012 .

25. Сток Дж. Р., Ламберт Д.М. Стратегическое управление логистикой: Пер. с 4-го англ. изд. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 797 с. 51.

26. Soliev A. Buzrukxonov S. Marketing. Bozorshunoslik. Darslik – Ye.: Iqtisod-Moliya, 2010.

27. Ergashxodjaeva Sh.D. Innovatsion marketing O‘quv qo‘llanma.-T.. TDIU. Iqtisodiyot. 2013-y

28. Salixov S.A., Xotamov I.S. Innovatsion faoliyatni boshqarish. ”Iqtisodiyot”, 2012 y.

29. Saidov M.H. Oliy ta’lim iqtisodiyoti, investitsiyalari va marketingi: O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya, 2003 B. 74.

30. Джонсонс Дж., Вуд Д., Вордлоу Ф. Современная логистика. М.: Вильямс, 2012. — 624 с.

31. Бауэрсокс Доналд Дж., Клосс Дейвид Дж. Логистика: интегрированная цепь поставок - 2-е изд. М.: ЗАО Олимп-Бизнес , 2018 г. - 640 с.

32. Воронков А. Инновацион логистика. Монография. ISBN-33.Россия.2019.с.224.

34. Букан Д. Ж. Научное управление запасами. М.: Наука. 2016.

35. Kadiev T.K. Jarayonlarni sintez qilish va ularni tashkillashtirish / Timur Kadiev. - M., 2014. ООО «VTK LOGISTIK»

36. Гордон М.П., Тишкин Е.М., Усков И ГС. Как осуществить экономична доставку товара отечественному и зарубежному покупателю. Справочное пособие для предпринимателя. - М. Транспорт, 2013г. 64 с.

37. Дошина СВ. и др. Опыт работы транспортно-экспедиционных фирм за рубежом, их роль в организации логистических систем. -М.;АСМАП,2014.44 с.

38. Захаров В.Я., Воронков В.Фролова О. Инновационная логистика. Вестник Самарского государственного университета путей сообщения 2017. №2(16)с.61.

Axborot manbalari

39. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

40. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

41. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
42. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
43. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
44. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
45. www/logistic/ru
46. <https://naukovedenie.ru/sbornik>
47. <http://www.b-seminar.ru/article/show/188/htm>
48. www.e-xecutive.ru/wiki/index.php
49. www.navigator.lg.ua/arts.php
50. <https://cyberleninka.ru/art>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-Modul.Logistik nazariya	
1-mavzu. Innovatsion logistika faniga kirish	
1.1. Logistikaning asosiy tushunchalari va kontseptsiyasi...	6
1.2. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida innovatsion logistik faoliyatning mohiyati, turlari va uning kontseptsiyalari.....	22
1.3. Innovatsion faoliyat infratuzilmasi va uni innovatsion logistika rivojlanishiga ta'siri.....	28
1.4. Innovatsion logistika fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.....	39
2-mavzu. Logistik innovatsion tizim	
2.1. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida innovatsion logistika faoliyatni boshqarish uslubiyoti.....	52
2.2. Innovatsion logistik jarayonning chiziqli modeli va uni amaliyotga joriy qilish shartlari.....	56
2.3. Innovatsion logistik faoliyatni boshqarishning iqtisodiy qonuniyatlari	65
2-Modul. Logistik obyektleri tadqiqoti	
3-mavzu. Logistik infratuzilmalari	
3.1. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning mohiyati va uning maqsadi	75
3.2. Ilmiy texnika taraqqiyotini va innovatsion faoliyatni boshqarishning huquqiy asoslari	79
3.3. Innovatsion logistikada ilmiy-tadqiqotlarni olib borishning boshqarish	86
3.4. Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlari va ularning huquqiy muhofazasi tavsifi	98
4-mavzu. Innovatsion logistikada intellekt	
4.1. Intellektual mulk tizimi tushunchasi va uning mohiyati ...	103
4.2. Innovatsion faoliyatda intellektual mulk tizimini shakllantirish va uning huquqiy muhofazasini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari	107
4.3. Innovatsion logistikada intellektual mulkni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	114

3-Modul. Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tayyorlash va aniqlash.

5-mavzu. Innovatsiyalarni logistikadagi o'rni

5.1.	O'zbekistonning milliy innovatsion tizimi va uning ahamiyati.....	118
5.2.	Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.....	123
5.3.	O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollari.....	127
5.4.	O'zbekiston Respublikasida texnologik innovatsiyalar.....	130

6-mavzu. Innovatsion logistikada klasterlar va "5I" modeli

6.1.	Klaster nazariyasining mohiyati va vujudga kelishi. Logistik innovatsion klaster tizimi.....	135
6.2.	Logistik innovatsion klaster modelining turlari	143
6.3.	Klaster strategiyalari.....	144
6.4.	Davlat yoki korxonaning klaster siyosati va logistik innovatsion klasterni rivojlantirish vositalari.....	148
6.5.	Klaster usulida joriy qilingan innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy samaradorligi.....	151

7-mavzu. Logistik tizimda korxonalar faoliyati

7.1.	Korxonalar faoliyatida logistik innovatsiyalarni roli.....	155
7.2.	Korxonada logistikani strategik boshqarish.....	160
7.3.	Logistik tizimda xalqaro yuklarni tashishdagi me'zonlar...	166
7.4.	Globalashuv jarayonida logistikani rivojlantirish.....	168
7.5.	Globalashuv sharoitida logistikani rivojlantirish.....	173

4-Modul. Axborotlar va hisobotlarni tahlil qilish va xulosalash.

8-mavzu. Logistik xizmatlarni raqamli amalga oshirish

8.1.	Innovatsion logistikani tashkil etish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	187
8.2.	Innovatsion logistikani rivojlantirishda Global kosmik Navigatsiya tizimidan foydalanish.....	192
8.3.	Logistik transport tizimda navigatsiya tizimini ishlash mexanizmi.....	195

9-mavzu. Logistikani innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari

9.1.	Mehnat resurslarni boshqarish strategiyasining mohiyati va turlari.....	202
------	---	-----

9.2.	Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarish	205
9.3.	O'zbekistonni innovatsion rivojlantirishda intellektual resurslar.....	209
9.4.	Kadrlarni tanlash, baholash va vazifalarga tayinlash tizimi	213
9.5.	Malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi...	215
10-mavzu. Logistik xizmatlarni innovatsion boshqarish		
10.1.	O'zbekiston Respublikasida zamonaviy innovatsion marketing strategiyalari.....	225
10.2.	Innovatsion marketingni shakllantirishning kontseptual asoslari.....	229
10.3.	Ilmiy tadqiqot, ishlanma va texnologiyalarni natijalarini tijoratlashuvi strategiyasini ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlili.....	229
10.4.	Yangi mahsulot va texnologiyalarni bozorga kirish strategiyasi.....	22
	TESTLAR.....	233
	IZOHLI LUG'AT.....	249
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	252

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	3
1-Модул. Логистик назария	
1-тема. Введение на предмет Инновационную логистику	
1.1. Основные понятия и концепции логистики.....	6
1.2. Сущность, виды и концепция инновационной логистики в условиях инновационного развития экономики..	22
1.3. Инфраструктура инновационной деятельности и ее влияние на развитие инновационной логистики	28
1.4. Цели и задачи обучения инновационной логистики.....	39
2-тема. Логистическая инновационная система	
2.1. Методы управления инновационной логистической деятельностью в условиях инновационного развития экономики.....	51
2.2. Линейная модель инновационного логистического процесса и условия его реализации.....	55
2.3. Экономические законы управления инновационной логистической деятельностью.....	64
2-Модул. Изучение объекты логистики	
3-тема. Инфраструктуры логистики	
3.1. Сущность и цель управления научно-техническим прогрессом.....	74
3.2. Правовые основы управления научно-техническим прогрессом и инновационной деятельностью.....	78
3.3. Управление исследованиями в инновационной логистике.....	85
3.4. Описание международных научно-исследовательских работ и их правовая охрана.....	97
4-тема. Интеллект на инновационной логистики	
4.1. Понятие системы интеллектуальной собственности и ее сущность.....	102
4.2. Особенности формирования и обеспечения правовой	

	защиты системы интеллектуальной собственности в инновационной деятельности.....	106
4.3.	Особенности формирования интеллектуальной собственности в инновационной логистике.....	113

3-Модул.Обработка информационных материалов.

5-тема. Место инновации в логистике

5.1.	Национальная инновационная система Узбекистана и ее значение.....	117
5.2.	Интеграция науки, образования и производства.....	122
5.3.	Перспективы развития инновационной деятельности в Республике Узбекистан.....	126
5.4.	Технологические инновации в Республике Узбекистан	129

6-тема. Кластеров и “5И”модел в инновационной логистике

6.1.	Сущность кластерной теории и ее происхождение. Инновационная кластерная система логистики.....	134
6.2.	Типы логистических инновационных кластерных моделей.....	142
6.3.	Кластерные стратегии.....	143
6.4.	Кластерная политика государства или предприятия и инструменты для развития логистического инновационного кластера.....	147
6.5.	Экономическая эффективность инновационных технологий, реализованных кластерным методом.....	150

7-тема.Коммуникации в логистической системе

7.1.	Роль логистических инноваций в деятельности предприятий.....	154
7.2.	Стратегическое управление логистикой предприятия...	159
7.3.	Критерии международных грузоперевозок в логистической системе.....	165
7.4.	Развитие логистики в процессе глобализации.....	167

4-Модул. Анализ и заключение информации и отчётов.

8-тема.Осуществление логистические услуги на

основе цифровизации

8.1.	Роль информационных и коммуникационных технологий в создании и развитии инновационной логистики.....	172
8.2.	Использование Глобальной космической навигационной системы в развитии инновационной логистики.....	186
8.3.	Механизм работы навигационной системы в логистической транспортной системе.....	191

9-тема. Направление инновационное развитие логистики

9.1.	Суть стратегии управления персоналом.....	194
9.2.	Управление инновационной деятельностью в системе образования.....	201
9.3.	Интеллектуальные ресурсы для инновационного развития Узбекистана.....	204
9.4.	Система подбора, оценки и расстановки кадров.....	208
9.5.	Система подготовки и переподготовки квалифицированных кадров.....	212

10-тема. Инновационное управление логистические услуги

10.1.	Современные инновационные маркетинговые стратегии в Республике Узбекистан.....	214
10.2.	Концептуальные основы инновационного маркетинга..	224
10.3.	Анализ целевого рынка при разработке стратегий коммерциализации результатов исследований, разработок и технологий.....	227
10.4.	Стратегия выхода новых продуктов и технологий на рынок.....	227
	ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ	228
	ЛИТЕРАТУРЫ	252

CONTENT

1-Module Logistics theory

1-Theme. Inovational logistics go to topic

- 1.1. Key ideas and concepts of logistics..... 6
- 1.2. The essence, types and concept of innovative logistics in the conditions of innovative development of the economy 22
- 1.3. Infrastructure of innovative activity and its impact on the development of innovative logistics..... 28
- 1.4. Goals and objectives of teaching/studying innovative logistics..... 39

2-Theme. Inovation lojistics system

- 2.1. Managing methods of innovative logistic activities in the conditions of innovative development of the economy..... 51
- 2.2. Linear model of the innovative logistics process and the conditions for its implementation..... 55
- 2.3. Economic laws of innovative logistics management..... 64

2-Module. Logistics object of study

3-Theme. Logistics infrastructure

- 3.1. The essence and purpose of scientific and technological progress management..... 74
- 3.2. Legal basis of the management of scientific and technological progress and innovation..... 78
- 3.3. Research Management in Innovative Logistics..... 85
- 3.4. Description of international research and legal protection..... 97

4-Theme. Innovation logistics intelligence

- 4.1. The concept of intellectual property system and its essence..... 102
- 4.2. Peculiarities of the formation and provision of legal

protection of the intellectual property system in innovation activity.....	106
4.3. Features of the formation of intellectual property in innovative logistics.....	113

3-Module. Collect the information, treatment, prepare and refine

5-Theme. Plase innovation logistics

5.1. National innovation system of Uzbekistan and its significance.....	117
5.2. Integration of science, education and production.....	122
5.3. Prospects of development of innovation activity in the Republic of Uzbekistan	126
5.4. Technological innovations in the Republic of Uzbekistan.....	129

6-Theme. Innovation logistics clusters and “5I” model

6.1. The essence of cluster theory and its origin. Innovative Cluster Logistics System.....	134
6.2. Types of logistic innovative cluster models	142
6.3. Cluster Strategies.....	143
6.4. Cluster policy of a state or enterprise and tools for the development of a logistics innovation cluster.....	147
6.5. The economic efficiency of innovative technologies implemented by the cluster method.....	150

7-Theme. Logistics communication in the system

7.1. The role of logistics innovation in the activities of enterprises.....	154
7.2. Strategic management of enterprise logistics.....	159
7.3. Criterias for international freight in the logistics system...	165
7.4. Logistics development in the globalization process.....	167

4-Module. Analysis and synthesis of information and reports.

8-Theme. Increase in digital services	
8.1.	The role of information and communication technologies in the creation and development of innovative logistics..... 172
8.2.	The use of the Global Space Navigation System in the development of innovative logistics..... 186
8.3.	The mechanism of operation of the navigation system in the logistics transport system..... 191
9-Theme. Logistics innovation development direction	
9.1.	The essence of the HR strategy..... 194
9.2.	Management of innovation in the education system..... 201
9.3.	Intellectual resources for the innovative development of Uzbekistan..... 204
9.4.	The system of selection, assessment and placement of personnel..... 208
9.5.	The system of training and retraining of qualified personnel..... 212
10-Theme. Logistics services innovation control	
10.1.	Modern innovative marketing strategies in the Republic of Uzbekistan 214
10.2.	Conceptual foundations of innovative marketing 224
10.3.	Analysis of the target market during the development of strategies for the commercialization of the results of research, development and technology..... 227
10.4.	Market entry strategy for new products and technologies 227
GLOSSARY..... 228	
LITERATURE 252	

KARRIEVA Y.K.

INNOVATSION LOGISTIKA

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	N. Abdullayeva
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M. Zoyirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

Bosishga ruxsat etildi 06.06.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 17,0. Nashriyot bosma tabog'i 16,75.

Tiraji: 50. Buyurtma № 239

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**